

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA TA‘LIM FAKULTETI

MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI

RO‘YXATGA OLINDI

№ _____
2019y “ ____ ” _____

«TASDIQLAYMAN» Samarqand
davlat universiteti o‘quv ishlari
bo‘yicha prorektori:
_____ prof. A.Soleev
_____ 2019 y

BILIM SOHASI: 100000 – GUMANITAR SOHA
TA‘LIM SOHASI: 110000 – PEDAGOGIKA
TA‘LIM YO‘NALISHI: 5112100 – MEHNAT TA‘LIMI

“Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi” fanidan

O‘QUV-USLUBIYMAJMUA
(Moodle tizimi rejasi asosida)

Tuzuvchi: SamDU Maktabgacha ta‘lim fakulteti,
Mehnat ta‘limi kafedrası assistenti,
S.S. Igamov

Kafedra mudiri: t.f.n., A. Urunov

**Fakultet o‘quv –uslubiy
kengashi raisi:** dots. T. Ostonov

Fakultet dekani: prof. B. Xaydarov

**O‘quv-uslubiy boshqarma
boshlig‘i** dots.B. Aliqulov

SAMARQAND – 2019

MUNDARIJA

| N | | Betlar |
|---|--|--------|
| 1 | Sillabus (yo‘nalishning namunaviy va ishchi o‘quv rejasi, fanning namunaviy va ishchi o‘quv | |
| 2 | Texnologiya ta‘limini o‘qitish metodikasi fanining nazariy materiallari (ma‘ruzalar matni) | |
| 3 | Glossariy | |
| 4 | Foydalanilgan adabiyotlarning elektron shakli (disk shaklida ham qo‘yishmumkin)... | |
| 5 | Mavzular bo‘yicha taqdimotlar, mustaqil ta‘lim uchun materiallar (ilmiy maqolalarva boshqa manbalar)..... | |
| 6 | Laboratoriya (amaliy yoki seminar) mashg‘ulotlari materiallari | |
| 7 | Qo‘shimcha materiallar (videolar, keys-stadilar va boshqalar).... | |

‘Texnologiya ta’lim o’qitish metodikasi’fanining 2019-2020 o’quv yili uchun mo’ljallangan

SILLABUSI

| | | | | | |
|---|---|--|--|-------------------|-----------------------------|
| OTMning nomi va joylashgan manzili: | Samarqand Davlat Universiteti | Spitamrnshoh ko’chasi 166 | | | |
| Kafedra: | Mehnat ta’limi | Maktabgacha ta’lim fakulteti tarkibida | | | |
| Ta’lim sohasi va yo’nalishi: | 110000 –Pedagogika | 5112100 - mehnat ta’limi | | | |
| Fanni (kursni) olib boradigan o’qituvchi to’g’risida ma’lumot: | O’qit. S.S.Igamov | e-mail: | So.bir@mail.ru | | |
| | O’qit. Z.I.Markayev | e-mail: | Zafar_Markayev@mail.ru | | |
| Dars vaqti va joyi: | Fakultet binosi | Kursning davomiyliigi: | Ta’lim yo’nalishi o’quv rejasiga muvofiq 4 kurs VII/VIII semestr | | |
| Individual grafik asosida ishlash vaqti: | Chorshanba va juma kunlari 15.00 dan 17.00 gacha 2 m xonada | | | | |
| Fanga ajratilgan Soatlar | Auditoriyasoatlari | | | Seminar 30 | Mustaqiln ta’lim: 84 |
| | Ma’ruza | 30 | Amaliyot | 36 | |
| Fanning boshqa fanlar bilan bog’liqligi (prerekvizitlari): | ‘‘Mehnat ta’lim metodikasi’’, ‘‘Pedagogika nazariyasi va tarixi’’, ‘‘Pedagogik mahorat’’, ‘‘Ijodkorlik faoliyati’’, va boshqa fanlar | | | | |
| Talabalar uchun talablar | <p>- Professor-o’qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo’lish;Universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;uyali telefoni dars davomida o’chirish;</p> <p>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o’z vaqtida va sifatli bajarish; ko’chirmachilik (plagiat) qat’iyan man etiladi;</p> <p>qoldirilgan darslar qayta o’zlashtirilishi shart; talaba reyting ballidan norozi bo’lsa e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyasiya komissiyasiga murojat qilishi mumkin</p> | | | | |
| Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi | Professor-o’qituvchi va talaba o’rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. | | | | |

1-Mavzu: Pedagogik amaliyotga qo`yiladigan metodik talablar

Reja:

1. Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari
2. Pedagogik amaliyotni tashkil etish.
3. Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanidigan xudjatlar.

Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari

Texnologiya ta`limi o`qituvchilarini tayyorlash Davlat ta`lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;

- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo'llash;

- bo'lajak o`qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo'llash malakalari bilan ta'minlash;

- talabalarga sinf rahbari vazifalarini bajarishni, "Yoshlar ittifoqi" bilan ishlashni o'rgatish;

- talabalarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilinishi va o'tkazilishi bilan tanishtirish;

- talabalarga maktab o'quvchilarini fan olimpiadalariga tayyorlash rejalari bilan tanishtirish;

- talabalarni maktab, o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish

Pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish

Malakaviy pedagogik amaliyot ta`lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etadigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan, bu borada etarli ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-

moddiy ta`minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta`limning umumiy o`rta ta`lim muassasalari bilan tuzilgan shartnoma asosida tuziladi. Malakaviy pedagogik amaliyotni o`tkaziladigan ta`lim muassasalari oliy o`quv yurti joylashgan hududga iloji boricha yaqin joylashgan bo`lishi maqsadga muvofiqdir

Pedagogik amaliyot jarayonida tayorlanadigan xudjatlar.

Pedagogik amaliyot tugaganidan so`ng talabalar quyidagi hujjatlarni tegishli tartibda rasmiylashtirgan holda taqdim etadilar:

Amaliyotchining shaxsiy ish rejasi.

Pedagogik amaliyot kundaligi.

Amaliyotchi talabaning mehnat fani boyicha kamida 40 ta darsning tahlili (yo`nalishlar boyicha).

Tanlangan yo`nalish boyicha mehnat ta`limidan kalendar mavzuli reja.

Tarbiyaviy ish rejasi.

Tarbiyaviy soatlar tahlili.

Texnologiya fanidan tashkil qilingan to`garak ishlar rejasi.

Yosh fiziologiya va gigiena fanidan mustaqil ish topshiriqlariga javoblar.

Tarbiyaviy tadbir stsenariysi.

Psixologik-pedagogik tavsifnoma:

a) 1 ta guruh uchun; b) 2 ta o`quvchi uchun.

Amaliyotchi talaba dars o`tgan fanidan 6-8 ta dars ishlanmasi.

Sinov dars rejasi va ishlanmasi.

Sinov dars uchun talaba tomonidan tayyorlangan o`quv-ko`rgazmali qurol, tarqatma materiallar.

Sinov darsning tahlili va maktab metod birlashmasi (Maktab pedagogik kengashi) bayonnomasidan ko`chirma.

Amaliyotchi talaba uchun pedagogik amaliyot o`tgan o`quv muassasasining tavsifnomasi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar umumlashtirilgan hisobot.

Pedagogik amaliyot o'qituvchi tayyorlashning shunday bosqichidirki, bunda har bir o'quvchiga bilim yurtida o'qish vaqtida to'plagan bilim hamda o'quvlarining hammasidan kompleks tarzda foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun pedagogik amaliyot davrida o'qish jarayonidagi barcha kamchiliklar yaqqol ochilib qoladi. Shunday qilib, pedagogik amaliyot, o'ziga xos imtihon hisoblanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, amaliyotning yoshi u rahbarlik qilishga to'g'ri keladigan o'quvchilarning yoshidan juda kam farqlanadi. Bunday vaziyatda birinchi kundanoq to'g'ri yo'l tanlash, ya'ni birinchidan, o'z qo'li ostidagi o'quvchilarga nisbatan takallufsizlikka yo'l qo'ymaslik, ikkinchidan, takabburona munosabatda bo'lmaslik juda muhimdir. Tajribalarning ko'rsatishicha, amaliyotchi o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lsa, ya'ni ularga xayrixohligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda bolalar bilan inoqlashib ketadi. Bolalar amaliyotchi xam o'quvchi ekanligini yaxshi bilishadi va unga har tomonlama yordam berishga harakat qilishadi. Ular darsga tayyorlanib kelmagan amaliyotchi o'rtoqlarini qoralashadi. Dars vaqtida o'quvchilar o'zlarining intizomsiz o'rtoqlariga tanbeh berishadi.

Amaliyotchining guruhda bo'ladigan barcha tadbirlarda qatnashishi uning o'quvchilar bilan yaxshi munosabat o'rnatishiga garovidir.

Amaliyotchining tashqi qiyofasi ham muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarga namuna bo'lishi kerak. Amaliyotchi oddiy, ozoda kiyinib yurishi lozim, bu shartni bajarmagan amaliyotchi o'quvchilardan shu narsani talab qila olmaydi.

Amaliyotchilarning pedagogik amaliyot vaqtidagi vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Nazariy bilimlarini cho'qurlashtirish va mustahkamlash, bu bilimlardan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish vaqtida amalda foydalanishni o'rganib olish.
2. Bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini kuzatish va tahlil qilishni o'rganib olish.
3. Bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, ya'ni bolalar hamda o'smirlar

psixologiyasi, pedagogikasi va fiziologiyasiga doir bilimlarga tayangan holda olib borishni o'rganib olish.

4. Turli tipdagi darslar va guruhdan tashqari ishni bolalarning bilish faoliyatini aktivlashtiruvchi turli-tuman metodlardan foydalangan holda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish.

5. Guruh rahbari vazifalarini bajarishni, o'quvchilar kollektivlari, yoshlar ittifoqi bilan ishlashni, shuningdek, o'quvchilar bilan individual tarbiya ishini olib borishni o'rganib olish.

6. Tarbiyalash va ta'lim berish vazifalarini ijodiy hal etishga tayyorlanish maqsadida maxsus va pedagogik fanlarni o'rganishga hamda o'zining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirishga intilish.

7. O'quvchilar sog'lig'ini muhofaza qilish masalasiga diqqat bilan qarash ko'nikmalarini hosil qilish.

Amaliyotchilarning hisobot xujjatlari

Har bir amaliyotchi amaliyotni o'tish vaqtida ma'lum guruhga biriktirib qo'yiladi, u shu guruh o'quvchilariga texnologiya fanidan dars beradi, ixtisosga tegishli guruhdan tashqari ish olib boradi, shuningdek guruh rahbarining yordamchisi bo'lib hisoblanadi.

Amaliyot maktab rahbarlari, guruh rahbarlari, texnologiya va chizmachilik o'qituvchilari bilan uchrashuvdan boshlanadi, unda amaliyotchilar oldida turgan vazifalar doirasi oydinlashtiriladi.

Amaliyotning birinchi haftasi maktab, texnologiya ta'limining moddiy bazasi, o'quvchilar bilan tanishishga bag'ishlanadi.


Bu davrda amaliyotchilar o'zlari birkirilgan guruhdagi turli darslarda qatnashadilar, guruh rahbari o'tkazadigan barcha tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etadilar.

Amaliyotchi haftaning oxiriga borib, har bir o'quvchi haqida uning o'zlashtirishi, intizomi, o'qishga, jamoat ishiga munosabati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Amaliyotning qolgan butun vaqti davomida amaliyotchilar o'z ixtisosidan dars beradilar, guruhdan tashqari ishlar olib boradilar, guruh rahbarligi funksiyalarini bajaradilar.

Amaliyot maktabda pedagoglar kengashining majlisi bilan yakunlanadi. Majlisda texnologiya o'qituvchisi, guruh rahbarlari, tarbiya va guruhdan tashqari ishning tashkilotchilari, maktab direktori, amaliyotchilarning o'zlari so'zga chiqishadi. Amaliyot qanday o'tganligi, uning samaradorligini oshirish uchun kelgusida nimalar kilish kerakligi haqida fikr almashinadi.

Maktabda bo'lgan davrning birinchi kundan to oxirgi kunigacha har bir amaliyotchi individual kundalik daftar tutib, unga kerakli ma'lumotlarni yozib boradi.



Amaliyot tugagach, kundalik daftar rahbarga topshiriladi. U bilan birga quyidagilar topshiriladi:

- guruhning (yoki aloxida o'quvchining) psixologik-pedagogik xarakteristikasi;
- bitta dars konspekti va unga atab amaliyotchining o'zi tayyorlagan ko'rsatma qo'llanmalar hamda o'quvchilarning texnologiya obekti;

v) o'tkazilgan birorta tarbiyaviy tadbirning konspekti. Yakunlovchi konferensiyada amaliyotga uzil-kesil xulosalar chiqariladi. Doklad qilishni xohlagan amaliyotchilar o'z temalarini rahbarlar bilan kelishib oladilar va o'z vaqtida programma tuzish mumkin bo'lishi uchun konferensiyadan bir necha kun oldin talabnomalar berishadi. Dokladlar amaliyotchilar faoliyatining asosiy yo'nalishlarini (darslarni o'tkazish, o'z ixtisosidan guruhdan tashqari ish o'tkazish, guruh rahbari sifatida ishlash) aks ettirishi lozim. Ular konkret bo'lishi va u yoki bu tadbirni o'tkazish vaqtida amaliyotchi qanday qiyinchiliklarga duch kelgani va ularni qanday bartaraf etgani, qanday masalalarni hal etishda o'zini dadil tutgani va bunda unga nima yordam bergani, bilim yurtida olingan qaysi bilim xamda o'quvlar ayniqsa foydali bo'lib chiqqani, qanday bilim va o'quvlar etishmagani, amaliyot davomida uning muvaffaqiyatli o'tishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan yoki yo'qligi, amaliyot bundan ham muvaffaqiyatliroq o'tishi uchun nimalar qilish kerakligi xaqida tinglovchilarda aniq tasavvur hosil qilishi darkor.

Yakunlovchi konferensiya vaqtida xonada amaliyotchilarning faoliyatini aks ettiruvchi ko'rgazma tashkil etiladi. Ekspozitsiyalar orasidan o'quvchilarning texnologiya ob'ektlari, to'garaklarda yasalgan turli xil modellar va buyumlar, amaliyotchilarning rahbarligi ostida o'quvchilar chiqargan devoriy gazetalar, ekskursiyalar, yakshanbaliklar to'g'risida hikoya qilib beruvchi stendlar va hokazolar o'rin olishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

Pedagogik amaliyotning vazifalari va mazmuni tushuntiring

Amaliyotchilarning hisobot xujjatlari nimadan iborat?

2-Mavzu:Dars rejasining namunaviy shakli.

Reja:


1. Dars rejasining namunaviy shakli

2.Dars mashg'uloti mazmuni

3.Dars reja-konspektini tuzish metodikasi

Darsning maqsadini ifodalab, o'rganish va mustahkamlash rejalashtiriladigan bilim va amaliy malakalarni ko'rsatish kerak. Dars jihozlanishida dars davomida qanday asboblari, moslamalar, jihozlar, ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar zarurligini nazarda tutish lozim.

Ko'pincha topshiriqqa kombinatsiyalangan dars kiradi, chunki uni o'tkazishda har xil didaktik vazifalar hal qilinadi. Bunday dars tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:



Reja-konspektda dars borishini yoritishda ana shunday mulohazalarga asoslanish zarur.

Bilimlarni tekshirish imkoni boricha yangi materialni idrok etishga va mehnat topshirig'ni bajarishga tayyorgarlik bosqichi sifatida tashkil qilinishi kerak. Shuning uchun dars konkret mazmuniga, shuningdek, oldingi o'quv materialiga bog'liq xolda bilimlarni tekshirish har xil yo'sinda o'tkazilishi mumkin.

Agar o'quvchilarning mazkur darsga bevosita daxli yo'q material bo'yicha bilimlarini tekshirish lozim bo'lsa, 10—15 minut vaqt ajratib nazrat ish o'tkazish mumkin, Bunda o'quvchilarga 2—3 ta savol (yoki bir necha variantli topshiriq) beriladi, o'quvchilar yozma ravishda javob qaytaradilar. Bu borada ayrim o'qituvchilar programmalashtirilgan frontal so'rashdan foydalanmoqdalar.

Agar o'tgan mashg'ulotlarda olingan bilimlarni yangi materialni idrok etish uchun tekshirish zarur bo'lsa, so'rash tushuntirishni boshlashdan oldin o'tkaziladi. Bordi-yu bu bilimlardan amaliy ishda foydalanish zarurati tug'ilsa, material kirish instruktaji prosessida takrorlanadi. Bunda takrorlash uchun beriladigan savollarnitexnologiya topshiriqlariga qo'shish ma'qul.



Takrorlash uchun beriladigan savollarni oldindan puxta o'ylash va dars reja-konspektida ko'rsatish lozim.

Yangi materialning hajmi va murakkabligiga qarab dars konspektida tushuntirishning rejasi yoki qisqacha mazmuni beriladi.

Agar yangi material murakkab va hajmi katta bo'lsa, tushuntirish oxirida uni o'quvchilar qanday o'zlashtirganligini tekshirish mumkin. Bunday hollarda dars reja-konspektida bilimlarni tekshirish uchun savollar keltiriladi.

O'quvchilarning mustaqil ishi dars reja-konspektida alohida o'rin olishi kerak. Umuman, dars samaradorligi uning ana shu bosqichi qanchalik cho'qur o'ylab tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishidagi vazifalarni belgilash o'qituvchining vazifalarini belgilashdan ancha oson ekanligini nazarda tutish lozim. Buning ajablanarli joyi yo'q. Zotan, o'quvchining vazifalari aniq ifodalash mumkin bo'lgan texnologiya topshirig'i bilan belgilanadi. O'qituvchining vazifasi topshiriqning murakkabligiga, o'quvchilar faoliyati qanday o'tishiga, ya'ni ular topshiriqni bajarishda qanaqa xatolarga yo'l qo'yishiga, qanday qiyinchiliklarga duch kelishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil faoliyatida, bo'ladigan ishni rejalashtirishda ular yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni analiz qilishi kerak. O'quvchilar programmaga muvofiq yil sayin tipovoy ishlarni bajara boradilar, shuning uchun taxminan bir xil qiyinchiliklarga duch keladilar va bir xil xatolarni takrorlaydilar. Tajribali o'qituvchilar ana shu qiyinchilik va xatolarni yaxshi biladilar, endigina ishlayotgan o'qituvchilar esa bularni metodik adabiyotlardan bilib olishlari mumkin. Ana shu maqsadda o'quvchilarga beriladigan texnologiya topshirig'ini avval o'qituvchining o'zi bajarib ko'rishi zarur. Shuning uchun dars reja-konspekti bilan birga o'quvchilarning texnologiya ob'ekti sifatidagi buyumni tanlash ham kerak.

Frontal, guruh va individual instruktaj bo'la oladigan joriy instruktajni rejalashtiriladi. Yakunlovchi instruktaj mazmunini yoritib, o'quvchilarning diqqati xususan nimaga qaratilishini; ularga keyingi mashg'ulotga tayyorlanish bo'yicha qanday topshiriq berilishini ko'rsatiladi.

Dars borishi

1. Tashkiliy qism. O'quvchilarning davomatini, maxsus formalarining ahvolini tekshirish

2. Yangi materialni bayon qilish.

Xalq xo'jaligida va turmushda yupqa list metallning qo'llanishi haqida suhbat.

3. Kirish instruktaji.

O'quvchilarga texnologiya topshirig'i berish (keskich uchun taglik yasash). Chizma bo'yicha taglikning konstruksiyasini o'rganish, taglikning vazifasiga ko'ra uning gabarit o'lchamlarini belgilash.

4. O'quvchilarning mustaqil ishi.

Daftarga keskich tagligining texnik rasmini chizish.

5. Joriy instruktaj.

Keskich tagligini tayyorlashning umumiy rejasini tuzish. O'quvchilarga taglikni tayyorlashning birinchi bosqichini — chizmani o'rganish, zagotovka o'lchamlarini tekshirish, zagotovkani xavfsizlik texnikasi no'qtai nazaridan tekshirishni tushuntirish, zagotovkani ifloslikdan, zangdan tozalash; uni to'g'rilash va rejalash.

6. O'quvchilarning mustaqil ishi. Taglikni tayyorlashning birinchi bosqichini bajarish. Ish umumiy tarzda olib boriladi.

7. Yakunlovchi instruktaj. Ish natijalarini yakunlash. Rejalovchi kasbining xarakteristikasi.

8. Ish o'rinlarini yig'ishtirish.

Dars taxlili

Dars mavzusi.

Dars maqsadi.

Tashkiliy qism. Asbob va zagotovkalarni tarqatish qanday o'tkazildi, u yetarli darajada tashkiliy saviyada o'tdimi?

1. O'tilgan materialni tekshirish. O'qituvchi qo'ygan savollar o'tilgan materialni to'la qamraydimi? Ular aniq, bir xil ma'nolimi? O'quvchilar o'tilgan materialni o'zlashtirdi, deyishga asos bormi?

2. Yangi materialni tushuntirish. Materialni bayon qilishda qanday metodlar qo'llanildi? O'quvchilarning texnologiya talimi va fan asoslariga doir fanlar bo'yicha olgan bilimlariga tayanish ta'minlandimi, yetarlicha ko'rsatmalilik

ta'minlandimi, o'qituvchi o'quvchilarni qiziqitira oldimi, ta'limda problemalilik qo'llanildimi, yangi bilimlarning o'zlashtirilishi tekshirildimi, bu o'zini oqladimi?

3. Kirish instruktaji. texnologiya topshirig'iga xarakteristika berish: u o'quvchilarning qo'lidan keladimi, ularda qiziqish uyg'otadimi? Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning texnologiya ta'limi va fan asoslariga doir bilimlaridan foydalanish nazarda tutiladimi? Topshiriqni bajarish bilan bog'liq ishning mazmuni maktab o'quv programmasining o'rganilayotgan temasiga muvofiqmi? Buyumga qo'yiladigan talablar, o'zini-o'zi nazorat qilish kriteriyalari ko'rsatilganmi? Kirish instruktaji qanday o'tdi: texnologiya usullari qo'llanildimi, texnologiya usullarini namoyish qilishga yetarlicha ko'rsatmalilik ta'minladimi? O'quvchilar topshiriqni qanchalik tushungani tekshirildimi va bu tekshirish yetarli mi? Xavfsizlik texnikasi qoidalariga qanday e'tibor berildi? Kirish instruktajida o'quvchilar qanday ishtirok etdilar: ular passiv tinglovchi va kuzatuvchi bo'ldilarmi yoki o'qituvchi ularni ayrim masalalarni hal qilishga jalb etdimi?

4. O'quvchilarning mustaqil ishi. O'quvchilar ishini tashkil qilishning qanday formalari qo'llanildi? O'quvchilar qanday xatolarga yo'l qo'ydilar, bular tipik xatolarmi? O'qituvchi o'quvchilarning xatolariga qanday munosabatda bo'ldi? qanday joriy instruktajlar o'tkazildi? Ular oldindan rejalashtirilganmi? Joriy instruktajlarni o'z vaqtida o'tkazildi, deyish mumkinmi? O'quvchilar jismoniy dam olishlari uchun tanaffuslar rejalashtirilganmi, bu tanaffuslardan o'qituvchi qanday foydalandi? O'quvchilarning texnologiya topshirig'ini bajarish bilan bog'liq ba'zi masalalarni mustaqil hal qilishlariga to'g'ri keldimi, ular bu ishni bajara oldilarmi? O'qituvchi, umuman, gruppaning va alohida har bir o'quvchining faoliyati ustidan nazorat qilishni ta'minladimi? O'qituvchi kuchli o'quvchilar uchun qo'shimcha topshiriqlarni nazarda tutdimi? O'quvchilarda o'zini-o'zi nazorat qilish malakalarini shakllantirishga yetarlicha e'tibor berildimi?

5.Yakunlovchi instruktaj. Bu instruktajga qancha vaqt ketdi, u nima haqida bo'ldi? Mashg'ulot qanchalik cho'qur va to'liq yakunlandi? Turli xatolar, yaxshi va ko'ngildagidek chiqmagan buyumlar ko'rsatildimi?

6.Ish o'rinlarini yig'ishtirish. Ish o'rinlarini yig'ishtirish qancha vaqtni oldi? O'quvchilar yig'ishtirish uchun barcha zarur narsalar bilan ta'minlandimi? Ish o'rinlarini yig'ishtirishning sifati kim tomonidan va qanday tekshirildi? Ish o'rnining ozodaligi uchun musobaqa o'tkazildimi? Bu musobaqada guruh aktivi qanday rol o'ynaydi?

7.Umumiy xulosa. Dars qanday elementlardan tashkil topdi? Dars tipi. O'qituvchi ko'zlagan maqsadga erishdimi?

Nazorat savollari:

Dars rejasining namunaviy shaklini ko'rsating.

Dars taxlilini yoriting.

Tayanch iboralar:

Dars rejasi, hisobot xujjatlari,

Amaliyotchi vazifasi, kundalik daftar,
psixologik-pedagogik xarakteristika.

Test savollari.

1. Maktabda o'qitish asosan qaysi shaklda olib boriladi.

A. To'garak mashg'ulotlari

B. Savol- javob

S. Munozara

D.Dars

2. Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talabni aniqlang.

A) dars tuzilmasini ijodiy yondashgan holda shakllantirish;

B) murakkablashib boruvchi mashqlar yig'indisini ishlab chiqish;

*C) tahsil oluvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

D) darsni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etish:

3. Tarbiyaviy faoliyat to'g'ri ta'riflangan variantni aniqlang.

A) pedagogik jarayonda o'z hissiyotlarini boshqarish

*B) darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhii ishlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

C) xohish va istaklarni boshqarish

D) o'zliklarini anglash

3-Mavzu Dars rejasini tuzish metodikasi.

Reja:

1. Dars strukturasi tushinchasi
2. Frontal, gruppavoy va idividual instruktaj xaqida ma'lumot
3. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil rtish metodikasi

Darsnng maqsadini ifodalab, o'rganish va mustahkamlash planlashtiriladigan bilim va amaliy malakalarni ko'rsatish kerak. Dars jihozlanishida dars bavomida qanday asboblar, moslamalar, jihozlar, ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar zarurligini nazarda tutish lozim.

Ko'pincha topshiriqqa kombinasiyalangan dars kiradi, chunki uni o'tkazishda har xil didaktik vazifalar hal qilinadi. Bunday dars strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Tashkiliy qism.

Utilgan materialni (savolni) tekshirish.

Yangi materialni bayon qilish (qisqa konspekt).

Kirish instruktaji.

O'quvchilarning mustaqil ishi.

Joriy instruktaj.

O'quvchilarning mustaqil ishi.

Yakunlovchi instruktaj.

Ish o'rinlarini yig'ishtirish.

Plan-konspektda Darsshshg borishni yoritishda ana shunday mulohazalarga asoslanish zarur.

Bilimlarni tekshirish imkoni boricha yangi materialni idrok etishga va monat topshirig'iggi bajarishga tayyorgarlik bosqichi sifatida tashkil qilipishi kerak.

Shuning uchun dars konkret mazmuniga, shuningdsk, oldingi o'quv materialiga bog'liq xolda bilimlarni tekshirish har xil yo'sinda o'tkazilishi mumkin.

Agar o'quvchilarning mazkur darsga bevosita daxli yo'q material bo'yicha bilimlarini tekshirish lozim bo'lsa, 10—15 minut vaqt ajratib kontrol ish o'tkazish mumkin, Bunda o'quvchilarga 2—3 ta savol (yoki bir necha variantli topshiriq) beriladi, o'quvchilar yozma ravishda javob qaytaradilar. Bu borada ayrim o'qituvchilar programmalashtirilgan frontal so'rashdan foydalanmoqdalar.

Agar o'tgan mashg'ulotlarda olingan bilimlarni yangi materialni idrok etish uchun tekshirish zarur bo'lsa, so'rash tushuntirishni boshlashdan oldin o'tkazilabi. Bordiyu bu bilimlardan amaliy ishda foydalanish zarurati tug'ilsa, material kirish instruktaji proressida takrorlanadi. Bunda takror- lash uchun beriladig'an savollarnitexnologiya topshiriqlariga qo'shish ma'qul.

Takrorlash uchun beriladigan savollarni oldindan puxta o'ylash va Dars plan-konspektiba ko'rsatish lozim.

Yangi naterialning hajmi va murakkabligiga qarab Dars konspektida tushuntirishning plani yoki qisqacha mazmuni beriladi.

Agar yangi material murakkab va hajmi katta bo'lsa, tushuntirish oxirida uni o'quvchilar qanday o'zlashtirgankni tekshirish mumkin. Bunday hollarda Dars plan-konspektida bilimlarni tekshirish uchun savollar keltiriladi.

O'quvchilarning mustaqil ishi Dars plan-konspektida alohida o'rin olishi kerak. Umuman Dars samaradorligi uning ana shu bosqichi qanchalik cho'qur o'ylab tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishidagi vazifalarni belgilash o'qituvchining vazifalarini belgilashdan ancha oson ekanligini nazarda tutish lozim. Buning ajablanarli joyi yo'q. Zotan o'quvchining vazifalari aniq ifobalash mumkin bo'lgantexnologiya topshirig'i bilan belgilanadi. O'qituvchining vazifasi topshiriqning murakkabligiga, o'quvchilar faoliyati qanbay o'tishiga, ya'ni ular topshiriqni bajarishba qanaqa xatolarga yo'l qo'yishiga, qanday qiyinchiliklarga duch kelishiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil faoliyatida, bo'ladigan ishni planlashtirshda ular yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni analiz qilishi kerak. O'quvchilar programmaga

muvoqif yil sayin tipovoy ishlarni bajara boradilar, shuning uchun taxminan bir xil qiyinchiliklarga buch keladilar va bir xil xatolarni takrorlaydilar. Tajribali o'qituvchilar ana shu qiyinchilik va xatolarni yaxshi biladilar, erinibgina ishlayotgan o'qituvchilar esa bularni metodik adabiyotlardan bilib olishlari mumkin. Ana shu maqsadda o'quvchilarga beriladigan texnologiya topshirig'ini avval o'qituvchining o'zi bajarib ko'rishi zarur. Shuning uchun Darsniig plan-konspekti bilan birga o'quvchilarning texnologiya ob'ekti sifatibagi buyumni tanlash ham kerak.

Frontal, gruppavoy va idividual instruktaj bo'la oladigan joriy instruktajni planlashtiring. Yakunlovchi instruktaj mazmunini yoritib, o'quvchilarning diqqati xususan nimaga qaratilishini; ularga keyingi mashg'ulotga tayyorlanish bo'yicha qanday topshiriq berilishini ko'rsating.

Dars p l a n - k o n s p e k t i n i n g namunasi

Dars mavzusi. Yupqa list metallar haqiba umumiy ma'lumotlar; yupqa list metallban buyum yasash, zagotovkani rejalash (IV sinf).

Dars maqsadi. Yupqa list metallar haqida tushuncha berish, rejalash operatsiyasi bilan tanishtirish va rejalashning ayrim usullari. ni bajarish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'llash maqsadida ularga hozirgi zamon ishlab chiqarishibagi rejalash ishlarining ahamiyati haqida umumiy tushunchalar berish, ularni texnik masalalarni hal qilishga jalb etish.

Texnik ma'lujotlar. 3—4 turbagi list, metallar (qalinligi 0,5 mm po'lat, latun, mis, alyuminiy)ning tashqi ko'rinishibagi farqlari. List po'latni to'g'rilash haqiba tushuncha. Tekislikda rejalash haqiba tushuncha. Yog'och to'qmoq, chizg'ich, burchaklikning tuzilishi va vazifalari. Detallarni rejalash usullari, rejalashbagi ishlar tartibi. Ish o'rnining holati va rejalashba xavfsnzlik texnikasi.

Texnologiya usullari va operatsiyalari. Zagotovkani tayyorlash (tozalash, g'uddalarni egovlash, tekislash, tekislik rejalash).

Texnik masalalar. Buyumning vazifasiga ko'ra gabarit o'lchamlarini belgilash, zagotovka tanlash, buyumning zagotovkada eng rasional joylashuvini aniqlash.

Texnologiya ob'ekti - Keskich uchun taglik.

Jihoz va materiallar- List metall namunalari, chizmalar, keskich uchun tagliklar, to'qmoqlar, chizg'ichlar, burchakliklar, egovlar, tekislash plitalari, yupqa list metallban yasalgan buyumlarning namunalari.

Dars borishi

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilarning davomatini, maxsus formalarining ahvolini tekshirish

2. Yangi materialni bayon qilish.

Halq xo'jaligiba va turmushda yupqa list metallning qo'llanishi haqida suhbat.

3. Kirish instruktaji.

O'quvchilarga texnologiya topshirig'i berish (keskich uchun taglik yasash).

Chizma bo'yicha taglikning konstruksiyasini o'rganish, taglikning vazifasiga ko'ra uning gabarit o'lchamlarini belgilash.

4. O'quvchilarning mustaqil ishi.

Daftarga keskich tagligining texnik rasmini chizish.

5. Joriy instruktaj.

Keskich tagligini tayyorlashning umumiy planini tuzish. O'quvchilarga taglikni tayyorlashning birinchi bosqichini — chizmani o'rganish, zagotovka o'lchamlarini tekshirish, zagotovkani xavfsizlik texnikasi no'qtai nazaridan tekshirishni tushuntirish, zagotovkani ifloslikdan, zangdan tozalash; uni to'g'rilash va rejalash.

6. O'quvchilarning mustaqil ishi. Taglikni tayyorlashning birinchi bosqichini bajarish. Ish umumiy tarzda olib borilabi.

Yakunlovchi instruktaj. Ish natijalarini yakunlash. Rejalovchi kasbining xarakteristikasi.

Ish o'rinlarini yig'ishtirish.

4-mavzu. TEXNOLOGIYA TA'LIMININ O'QITISH METODLARI

Reja:

Texnologiya ta'limida dars o'tishning usullari va uslublari.

Texnologiya ta'limi darslarida an'anaviy dars o'tish metodlari.

Texnologiya ta'limi darslarida noan'anaviy ta'lim metodlari.


Texnologiya ta'limi darslarida innovatsion usullar.

Texnologiya ta'limida dars o'tishning usullari va uslublari. Dars jarayoni faqat **pedagogik usul (metod) va uslub (metodika)lar** orqali amalga oshirilib, ular dars ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchisiz va o'quvchisiz hamda o'quv dasturi va rejasiz dars o'tib bo'lmaganidek, pedagogik usul va uslublarsiz dars samarali tashkil etilishini amalga oshirib bo'lmaydi.

Usul(metod) deganda ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan chora va tadbirlar tushuniladi.

Uslub(metodika) deganda esa, ta'lim-tarbiya usullarining qo'llanish tartibi tushuniladi.

Darsda *an'anaviy, zamonaviy, interfaol kabi* turli xil **metodlardan** foydalanilishi mumkin. Ulardan eng yaxshisi bu o'tilayotgan mavzuning o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladiganidir.



An'anaviy ta'lim metodlari ma'ruza, suhbat, hikoya, amaliy-tajriba mashg'ulotlari kabilardir.

Interfaol ta'lim metodlariga “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Sinkveyn”, “O‘zaro bir-birini baholash”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Munozara darslari”, “Ishbilarmonlik o‘yinlari” kabi usullar kiradi.

Zamonaviy darslar o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali tashkil etiladi.

Metod-lotincha so‘z bo‘lib, o‘qitishning yangi yo‘lini izlash, tushuntirishning oson usulini topish, qidirish degan ma‘nolarni anglatadi.

Pedagogik o‘quv qo‘llanmalarda o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish va ular tomonidan o‘zlashtirish usullari o‘qitish metodi deb ataladi.

Maktablarda shu vaqtgacha qullanilgan o‘qitish metodlari xilma-xil bo‘lib, ulardan mavzuga mos metodni tanlash o‘qituvchining fantaziyasiga bog‘liq.

Quyida an‘anaviy, noan‘anaviy va innovatsion metodlar tavsiya etilgan. Ushbu keltirilgan metodlardan ixtiyoriy birini ya‘ni bayon etilishi lozim bo‘lgan mavzuga mos metodni tanlab olishi mumkin.

Texnologiya ta‘limi darslarida an‘anaviy dars o‘tish metodlari. texnologiya ta‘limi darslarida an‘anaviy dars o‘tish metodlari quyidagilardan iborat:

- 1) O‘quv mavzusini og‘zaki bayon qilish;
- 2) suhbat;
- 3) darslik va kitob bilan mustaqil ishlash;
- 4) demonstratsiya, illyustratsiya (tasvirlash, rasmlar bilan kursatish) va ekskursiya;
- 5) og‘zaki, yozma mashqhamda grafik ishlar, maktab ma‘ruzas;
- 6) amaliy mashg‘ulotlar (laboratoriya ishi, masala ishlash).

O‘quv materiallarini og‘zaki bayon qilish metodi. Mazkur metod bayon qilinayotgan bilimlarni tug‘ridan-tug‘ri O‘qituvchining jonli nutqi orqali bayon qilinishi bilan tavsiflanadi: Bu metod: a) hikoya qilish; b) tushuntirish; v) maktab ma‘ruzasidan iborat bo‘lishi mumkin.

Hikoya qilish-o‘qituvchi tomonidan yangi utilayotgan mavzuga oid faktlar, fizik hodisa va voqealarning mazmunini ifodalaydigan tushuncha, qonun va qoidalarning bayon qilinishidir.

Ma'ruza metodi kasb-hunar kollejlari da o'qitiladi. Odatda ma'ruzaning mavzusi mazmuniga ko'ra, bir - ikki mavzuning asosiy g'oyaviy yunalishini ifodalovchi, tugallangan (yaxlit) tushunchalar tavsifidir.

Og'zaki bayon qilish metodidan samarali foydalanmoq uchun yuqorida kursatib utilganlardan tashqari quyidagi bir qancha didaktik qoida va tajribalarga amal qilinishi lozim:

- bayon qilina yotgan mavzular maktab ta'limi oldida turgan umumiy talablarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Binobarin, mavzular g'oyaviy jihatdan puxta, nazariya bilan amaliyotni bog'lashni nazarda to'tishi kerak;

- mavzuda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir kursatish usullari hisobga olinishi kerak;

- o'quvchilarni dars jarayonida mavzuga oid fan yangiliklari, yangi kashfiyotlar bilan tanishtirish, ular yuzasidan mustaqil ishlashlari uchun vazifalar berib borilishi lozim.

- og'zaki bayon qilish metodida O'qituvchining nutqi birdan-bir bilim manbai hisoblanadi. U ravon, tushunarli va emotsional (ta'sirchan) bo'lishi lozim.

- dars davomida ishlatilgan tushuncha va yangi suzlarga (terminlarga) izoh berish, qoida va qonunlar ta'rifini sodda, ixcham va tushunarli qilib aytilishiga erishish kerak.

- bayon qilish jarayonida ishlatilgan ta'riflar, qoida va qonunlar O'qituvchi tomonidan yozdirilishi kerak.

Suhbat metodi tajribada eng kup qullaniladigan va samarali metodlardan biridir. Bu kupincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metod dars jarayonida savol-javob vositasida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga savol berib yoki ilgari o'zlashtirgan bilimlarini eslariga tushirish, yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosa va natijalar chiqarish, umumlashtirish, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlariga tayanib, yangi xulosalar chiqarishni taklif etish yuli bilan bilim, ko'nikma va malakalar berishi nazarda tutiladi.

Suhbat quyidagi maqsadlarda olib borilishi mumkin:

utilgan mavzuning mazmuniga bog‘liq holda o‘quvchilarning hayotda kuzatgan va tajribada ishlatgan fakt (dalil), narsa va hodisalardan nimalarni bilganliklarini aniqlash;

utilgan mavzu va, hatto ilgari utilgan materiallarni (ma’lumotlarni) qayta esga tushirish;

o‘quvchilarning bayon qilinayotgan ma’lumotni qanchalik idrok qilayotganliklarini aniqlash;

utilayotgan mavzuga oid ma’lumotlar haqida suhbat olib borish;

bayon qilinayotgan ma’lumotni takrorlash va mustahkamlash;

qtilayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, umumlashtirish, qoida va ta’riflar ustida ishlash;

o‘zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni hisobga olish;

uyga berilgan topshiriq va mustaqil urganilgan ma’lumotlar haqida suhbat utkazish.

Suhbat metodi o‘qituvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini tug‘diradi.

Darslik bilan ishlash metodi. Ta’lim tizimida darslik bilan ishlash metodi asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Binobarin, darslikdan foydalanmay biror fan, texnika yoki san’at sohasini egallab bulmaydi.

Darslik bilan ishlash ta’lim jarayonida o‘qish-o‘qitish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yordam bersa. ikkinchi tomondan, o‘quvchilarning kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mustaqil o‘qib-o‘rganish madaniyatini tarkib topdirish bilan birga u bolalarni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda katta ahamiyatga ega.

O‘quv adabiyoti bilan ishlash murakkab psixik jarayonni uz ichiga oladi. O‘qish jarayoni o‘qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan bilimlarni o‘quvchilarning eshitib, o‘qishlarinigina emas, balki o‘quv materiallarini (ma’lumotlarni) kitob matnidan kurib, ongli idrok qilish faoliyatini ham taraqqiy ettirishni nazarda tutadi.

Darslik bilan ishlash metodi ikki shaklda olib boriladi:

dars jarayonida darslik va o‘quv adabiyoti bilan ishlash;

darslik va o'quv adabiyotlari bilan sinfdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlash.

Kitob bilan ishlashning har ikkala shakli o'quv fanlari buyicha deyarli hamma sinflarda qullanishi mumkin.

O'quvchilarni darslik va boshqa o'quv ma'lumotlari bilan birga qushimcha adabiyot, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, shuningdek gazeta, jurnallardan foydalanishga ham urgatish kerak.

Demonstratsiya, illyustratsiya va ekskursiya (sayohat) metodi.

Demonstratsiya va illyustratsiya o'quv ma'lumotlarini aniq usullar orqali bevosita idrok qilish jihatidan muhim ahamiyatga ega. O'rganilayotgan buyum va hadisalarni tuliq va aniq tasavvur etgan taqdiridagina o'quvchilarning olgan bilimlari cho'qur va puxta buladi.

O'quvchilar turmush va texnikadagi narsa, hodisa va voqealarni demonstratsiya metodi orqali bevosita kurib, idrok qilishlari natijasida ular haqida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarishga muvaffaq bula oladilar. Bu metod dars davomida yoki dars ayrim qismlarida qullaniladi.

Illyustrativ-tasvirlash. Rasmlar kursatish. Maktabda qullaniladigan kursatma ma'lumotlar ikki turda bo'lishi mumkin.

1. Tabiiy kursatma materiallar: usimliklar, hayvonlar, foydali qazilmalar, ularning tuplamlari, fizik asbob va boshqalar.

2. Tasviriy kursatma materiallar. Bu materiallar mazmuni, tuzilishi va shakliga qarab ikki turga bulinadi:

a) buyum, fizik asbob, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar (rasm, surat, fotosurat, diafilm, kinofilm, videofilm va hokazolar);

b) fizik asbob, narsa va voqealarning biror shartli, belgilari orqali tasvirlash yoki qisqartirilgan tasviriy ma'lumotlar-chizmalar, jadvallar, diagrammalar va shular singari.

O'quvchilar tomonidan urganilayotgan fizik asbob va hodisalar jonli hamda kuzatib idrok etish yuli bilan bilim asoslarini egallanishiga sayohat (ekskursiya) metodi deyiladi.

Texnologiya ta'limi fanidan sayohat utkazishda bir qancha talablarga amal qilinishi lozim.

Mazmuniga ko'ra sayohat turt yunalishda bulmog'i lozim:

- tabiatni kuzatish va o'rganish maqsadida olib boriladigan;
- sanoat va qishloq xujaligi ishlab chiqarishiga oid;
- ijtimoiy va maishiy mazmundagi materiallar bilan tanishishga oid;
- san'at va adabiyot ma'lumotlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi;

O'qituvchi sayohat oxirida o'quvchilar bilan o'zlashtirilgan materiallarga asoslangan holda kuzatish yuzasidan o'quvchilar bilan suhbat utkazadi.

O'quvchilar sayohat yuzasidan hisobot yozadilar.

Amaliy mashg'ulotlar (og'zaki, yozma va grafik masalalar echish, laboratoriya ishlarini bajarish). Og'zaki, yozma va grafik masalalar ishlash metodi muhim didaktik ahamiyatga ega bo'lib, deyarli u hamma sinflarda va hamma o'quv fanlari buyicha keng qo'llaniladi.

Masala ishlash metodi o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, tekshirib ko'rish, takrorlash, shuningdek, ularni turmushda qullay olish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish maqsadida olib boriladi.

Mashg'ulotdan kuzatiladigan maqsad o'quvchilarning mustaqil bajaradigan ishlarining hususiyatlariga qarab uch turda olib boriladi:

og'zaki mashq;

yoza mashq;

grafik ishlar mashqi.

O'quvchilarga mashq uchun beriladigan topshiriqlar albatta, ilgari o'zlashtirilgan qoida va qonunlarni uz ichiga olishi lozim. Ba'zan o'quvchilar fizik qoida va formulalarni, matematik yoki geometrik teoremlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsalarda, ularni uz ichiga olgan mashqlarni ishlay olmasliklari mumkin. Ayni chog'da tegishli qoida va formulalarni uz ichiga olgan bunday mashqlarni tartibli ravishda takrorlab borilmog'i lozim. Agar topshirilgan mashqlar bir necha yullarni uz ichiga olgan bo'lsa, bunday hollarda mashq rejasini tuzish va shu asosda ishlash talab etilishi kerak. Masalan, mashq uchun berilgan masalaning mazmuni, nima

qilish zarurligi, nima berilgani, nimani topish talab qilinishi, ishni nimadan boshlash kerakligi, qanday metoddan foydalanish mumkinligi belgilanmog‘i lozim. Bu o‘rinda o‘quvchilarga o‘zlarini o‘zlashtirgan qoida va qonunlar asosida misol va masalalar tuzdirish muhimdir.

Grafik ishlar ham yozma ishlar jumlasiga kirib, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirayotgan bilimlarini ongli va mustahkam esda saqlab qolishlari hamda shu sohada tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishlariga yordam beradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini utkazish metodi. Bu metod ta‘lim jarayonida o‘quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, uzgarishi va taraqqiy etish qonunlari haqida yangidan-yangi bilimlar berish va mustahkamlash hamda ularning tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishlarida muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar tomonidan texnologiya ta‘limi xonasida narsa va hodisalarni mahsus jihozlarda vositasida (ulchov asboblari, tajriba jihozlari va tajriba uchun kerak bo‘lgan asbob va anjomlar kabilar yordamida) bevosita o‘rganishga laboratoriya ishlari deb aytiladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari mahsus jihozlangan laboratoriya xonasi hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar, mikroskop, lupa, kolba, menzurka, ulchov asboblari bilan ta‘minlangan oddiy sinf xonalarda, maktabning tajriba uchastkalarida olib boriladi.

Odatda laboratoriya mashg‘ulotlari o‘qituvchi tomonidan ilgari og‘zaki bayon qilish-tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma‘ruzasi va suhbat metodi bilan utilgan ma‘lumotlarni aniqlash, isbot qilish va mustahkamlash maqsadida olib boriladi. Ba‘zan bunday mashg‘ulotlar yuqori sinflarda ham yangi bilim berish maqsadida qo‘llaniladi.

Ko‘pincha laboratoriya darsi mashg‘ulotning tavsifiga qarab uch turda:

- kuzatish;
- tajriba yoki eksperiment utkazish;
- tegishli asbob uskunalar vositasida muayyan biror narsani ulchab yoki tekshirib ko‘rishda qo‘llaniladi. Bitta laboratoriya mashg‘ulotida ikki yoki uch xil metod qullanilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil ish boshlashlaridan

oldin tajribaning muvaffaqiyatli chiqishiga erishish uchun ularga tegishli yul yuriq berishi mumkin.

Bundan ayniqsa: a) belgilangan tajribadan kuzatilgan maqsad; b) kuzatilgan yoki tajriba qilinadigan hodisaning hususiyati; v) tajribada qo'llaniladigan asboblarning tuzilishi, hususiyati va ishlatilish yullari; g) tajriba ishini boshqarish tartibi; d) tajriba yuzasidan nimalarni yozib olish zarurligi; e) tajribaning xavfsiz bo'lish choralari hamda kursatma berilishi zarur. O'qituvchi o'quvchilar uchun uzi yoki boshqa kishining biror tajribani ishlab berishiga yul quymasligi kerak.

O'quvchilardan laboratoriya mashg'uloti jarayonida tajriba natijalari haqida hisobot yozib berish talab qilinadi. Bunday hisobot yozma ishlar, ba'zan rasm, chizma, tariqasida bo'lishi mumkin.

Ba'zan ajoyib ijodkar o'quvchilar uchrab turadika tekshirilgan laboratoriya ishini boshqacha yulda yoki usulda bajarishi mumkin. Bunday hollarda O'qituvchi bu talabani bajargan ishi tug'ri bo'lsa uni rag'barlantirish zarurdir.

Har xil ko'rgazmali qurollarni vatexnologiya priyomlarni ko'rsatish metoditexnologiya ta'limida muhim o'rin tutadi. Bu masalada o'ylar ekanmiz, unga tayyorgarlik ko'rish bosqichlariga va namoyishga nnsbatan talablarga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Tajribaning ko'rsattshicha ko'rgazmalillik xaddan oshib ketsa bu xol o'quvchilarning o'rganilayotgan xodisa moxiyatini aniqlashdan chetlashishiga sabab bo'lar ekan. SHunga qaramay, bitta buyumga tegishli ko'rgazmali qurollar uning turli tomonlarini oydinlashtirishga xizmat qilgani taqdirida ular sonining ko'proq bo'lishidan xavfsiramasa ham bo'ladi.

Odatda ko'rgazmali qurollar dars boshlanmasdan ko'rsatib qo'yilmaydi. O'quvchilarning vaqtdan ilgari ko'rgazma qurollar bilan (chala) qiziqishi, bu qurollarga jiddiy qiziqish xavasini susaytirib qo'yishi mumkin. Ko'rgazma materialining mazmunini ochishga mumkin qadar o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qilishlari zarur. Bu esa o'quvchilarda kuzatuvchanlik va bilib olish xislatlarini tarbiyalash choralaridan biridir.

Texnologiya ta'limidatexnologiya priyomlarini ko'rsatish masalasi alohida o'rin tutadi. Bu o'qitishning asosiy ko'rgazma materiallaridan biridir. Bundan

tashqaritehnologiya ta'limi o'qituvchisitehnologiya priyomlarini va protsessni ko'rsata bilishi uchun, yuksak professional malakali bo'lishnigina emas, balki etarli darajada pedagogik tajribaga ega bo'lishini ham talab etadi.

SHuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, namoyish qilinadigantehnologiya priyomlari va protsesslari barcha o'quvchilarga ko'rinadigan bo'lishi shart. O'quvchilar ayni ish priyomlarini shakllantirish uchun qanday harakatlarni va qay tartibda ishlatish kerakligini yaxshi faxmlab olishlari zarur.

Amaliy metodlarga:

- a) mashqlar.
- b) laboratoriya-amaliy ishlari.
- v) texnikaga oid ma'lumotnoma, adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlash kiradi.

Mashq-tehnologiya o'quvchilarni shakllantirish va sekin asta ularni malakaga aylantirish uchun ish harakatlarini ongli ravishda va ko'p marta takrorlashdan iborat. Mashqlartehnologiya va ishlab chiqarish ta'limining asosiy metodidir. Mashqlar jarayonidatehnologiya va hunar usullarini bajarishning sifatli bo'lishiga, o'quvchilar faoliyatini sinchiklab nazorat qilishga e'tibor berish kerak.

Laboratoriyadagi amaliy ishlar-turli kasb va ixtisoslik bo'yicha malakali ishchilarni tayyorlashda tadbiiq etilishi mumkin.

+uyidagi shartlar mavjud bo'lgandagina o'quvchilarning mustaqil ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishida ta'lim – tarbiya muvaffaqiyatlariga erishish mumkin:

O'quvchilar bajariladigan ishning mazmunini yaxshi tushunishlari va uni bajarish tartibini aniq tasavvur qilishlari lozim.

O'quvchilar topshiriqni qanday asbob-uskunalar bilan bajarish kerakligini, ularning tuzilishiga va ishlashiga oid xususiyatlarini, ularni shu rejimga moslash usullarini va ishlash no'qsonlarning oldini olish choralarshsh bilishlari kerak.

3. Ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, buning uchun ish va o'lchov asboblarni, zagatovkalarini, texnologiya hujjatlarini to'g'ri joylashtirish kerak.

4. Xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitoriyasi vatexnologiya gigienasi qoidalariga rioya qilishlari zarur.

Nazorat uchun savollar.

Metodlar qanday turlarga bo'linadi ?

Og'zaki metodlarni o'quv jarayoniga qo'llashda o'quvchilarni aktivligini oshirish yo'llarini ko'rsatib bering ?

texnologiya darslarida o'rganiladigan ob'ektlar, jarayonlar va ularning tasvirlarini namoyish qilish metodining qanday xususiyatlari bor ?

texnologiya ko'nikma va malakalarining shakllantirishning didaktik asoslab bering

Muammoli o'qitishning mohiyati nimada ?

Muammoli o'qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Muammoli ta'lim darajasini ochib bering.

An'anaviy va muammoli ta'lim dars strukturasi izohlab bering?

Tayanch iboralar.

Metodlar.

Xikoya, tushuntirish, suxbat, ma'ruza va xokazo.

Tarqatma materiallar, model va maketlar ;

Muammoli vaziyat, ziddiyatlar ;

Ijodiy faoliyat, nomustaqillik, yarim mustaqillik, mustaqil va ijodiy aktivlik

Test savollari:

II. Test savollari.

1. Nazariy darslar necha bosqich bo'ladi.

A.2

B. 3

*C. 4.

D. 5

2. Amaliy mashg'ulotlar necha bosqichli bo'ladi.

A.2

B. 3

C.4

*D. 6

3. Amaliy mashg'ulolarda o'qitishning asosan qaysi usulida foydalaniladi.

*A. Instruktaj

B. Xikoya

C.Ma'ruza

D.Suhbat

4.Modul iborasiga qaysi variantda to'g'ri ta'rif keltirilgan?

A) dasturlashtirilgan o'quv materialining o'qituvchi yordamida boshqariladigan o'zlashtirish.

*B) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi.

C)O'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishlari bajariladigan jarayon.

D)o'quv materialini qadamlab beruvchi texnologik jarayon.

5.Muammoli vaziyat yaratishning uslubiy yo'lini aniqlang?

A)O'quvchilar darslik bilan mustaqil ishlashi.

B)o'quv vatexnologiya faoliyatidagi mustaqillikni rivojlantirish.

C)O'quvchi o'zining individual xususiyatlariga tayanishi.

*D) ziddiyatli holatlarga olib kelinadi va o'quvchilarga o'zlariga echim yo'llarini izlashi taklif etiladi.

6. "Kasbiy mahorat" tushunchasi mohiyatini ochib beruvchi mezonni aniqlang.

*A)texnologiya faoliyatining iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi;

B)o'qitishning eng maqbul samarali usuli;

C)ilmiy echimlar va ixtirolarni topish;

D)o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik;

5-MA'RUZA.TEXNOLOGIYA TA'LIMINING DIDAKTIK SISTEMALARI.

Reja:

Texnologiya ta'limi asosiy sistemalarining xarakteristikasi.

Buyum sistemasi.

Operatsiya sistemasi.

Operatsiya-buyum sistemasi

Motor-mashq sistemasi.


Konstruktorlik-texnologik sistemasi.

Maktab ustaxonalarida ta'lim sistemasi.

Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish.

MA'RUZA BAYONI,

Texnologiya ta'limi asosiy sistemalarining xarakteristikasi. "Texnologiya ta'limi" terminini ishlatar ekanmiz, undan faqat umumta'lim maktablari o'quvchilarining emas, balki kasb-hunar ta'limi o'quvchilarining ham texnologiya faoliyati turlarini anglaymiz. Kasb-hunar ta'limi o'zaro bog'langan 2 qismdan: nazariy ta'lim va ishlab chiqarish ta'limidan iborat bo'lib, ishlab chiqarish ta'limi va texnik texnologiya bo'yicha ustaxonalarda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulklar o'z vazifalariga ko'ra bir-biridan farqlansada, ularning ko'pgina o'xshash xususiyat va tomonlari bor.



Ta'limning bu 2 turi ham ta'lim mazmunini ajratishning qismlarini gruppalash va ularni o'rganish izchilligini belgilash zarurligi bilan bog'liqdir. Bunday ajratish

printsipalari va gruppalash tartibi o'qitishning odatda ishlab chiqarish ta'limi sistemalari deb ataluvchi qanday sistemalari qo'llanilishiga bog'liq holda belgilanadi. Ammo yuqorida aytilganlarni hisobga olib, bundan keyin ularnitetnologiya ta'limi sistemalari deb ataymiz.

Texnologiya ta'limining beshta asosiy sistemasi ma'lum. Dastlab, buyum sistemasi paydo bo'lgan. Bu sistemaga binoan o'quvchi o'zi o'zlashtirayotgan kasb uchun xarakterli bo'lgan tipik buyumlar naborini tayyorlagan. Bunda buyumlar murakkabligi tobora ortib borgan. Tayyorlash jarayoni didaktik jihatdan aloxida operatsiyalarga ajratilmagan. O'quvchi ayrimtexnologiya usullarini bajarish qoidalari bilan maxsus tanishmagan, faqat ustaning ishi va boshqatexnologiya xarakatlarini takrorlashga intilgan. Bunday ta'lim natijasida o'quvchilarni tanish buyumni tayyorlash uchun o'z bilim va malakalaridan foydalana olmaydilar, xar bir yangi buyumni tayyorlash jarayonida ishni qaytadan o'rganishga majbur bo'ladilar. Mazkur sistemaning asosiy kamchiligi ana shundan iborat.

Buyum sistemasi hunarmandchilik ishlab chiqarish usulini aks ettirgan va XIX asr ning ikkinchi yarmigacha keng qo'llanilgan.

Operatsiya sistemasi. Manufakturalarning paydo bo'lishi va shunga ko'rateknologiyaning taqsimlanishi texnologik protsessning operatsiyalari bo'linishiga olib kelgan. Extimol, butexnologiyaga tayyorgarlik mazmunining qayta ko'rilishiga sabab bo'ldi.texnologiya ta'limining operatsiya sistemasi vujudga keldi, bu sistema XIX asrning oxirgi choragida Moskva texnika bilim yurtining (hozirgi N.E. Bauman nomidagi oliy texnika bilim yurtining)D.K.Sovetkin boshchiligidagi bir guruh xodimlari tomonidan yaratilgan edi.

Operaqiya sistemasi bo'yicha o'qitishda o'quvchilar o'zlari egallaydigan kasbning mazmunini tashkil qiluvchitetnologiya operatsiyalarini o'rganishgan. Shu sababli ular xar qanday buyumni tayyorlash bir xil operatsiyalardan iborat, bundan faqat operatsiyalarning bajarilish tartibi va ishlov berishning aniqligiga qo'yiladigan talablar bir-biridan farq qiladi, degan tushunchaga ega bo'lishgan. Shunday qilib, operatsiya sistemasi o'quvchilarni ma'lum qator buyumlarga

bog‘lab qo‘ymay mazkur kasb doirasidagi universal bilim va malakalar bilan qurollantirgan. Ta‘limning buyum sistemasiga nisbatan operatsiya sistemasining asosiy afzalligi ana shudir. Shu bilan birga, operatsiya sistemi ham jiddiy kamchiliklarga ega. Operatsiyalar umuman o‘quv buyumlari tayyorlash jarayonida o‘zlashtiriladi, ya‘ni o‘quvchilartexnologiyai unumlitexnologiya xarakterida bo‘lmaydi. Natijada ularning ishga qiziqishi susayadi. Bundan tashqari, operatsiya sistemi operatsiyalarni bajarish bilan buyumlar tayyorlashni umuman uzib qo‘yadi. Vaholanki, operatsiyalarni kompleks bajarish uchun ba‘zi qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalar (texnologiyani tashkil qilish, operatsiyalar ketma-ketligini planlashtirish va v.x.lar) kerak bo‘lishi ma‘lum, ular operatsiyalarni aloxida o‘rganishda shakllaniladi.

Navbatdagi operatsiya - buyum sistemi oldingi ikki sistemadagi hamma yaxshi narsalarni o‘z ichiga olgan. Bu sistemada o‘qitishning ikki bosqichi nazarda tutiladi. Birinchi, qisqa bosqichda o‘quvchilar mazkur kasb uchun xarakterli buyumlarni tayyorlash bo‘yicha texnologik protsessning bir qismini bajarib ayrim operatsiyalarni bajarish usullari bilan tanishadilar. SHundan keyin ular ta‘limning ikkinchi bosqichga o‘tadilar, buyumni batamom tayyorlaydilar.

20-yillar oxiridatexnologiya ta‘liming **motor - mashq sistemi** Markaziytexnologiya instituti (SIT) ishlab chiqqan va shu tufayli SIT sistemi deb ham ataluvchi motor-mashq sistemi tarqaldi. Bu sistema jiddiy kamchilikka ega edi. Ana shu sistema bo‘yicha o‘qitish o‘quvchilar ko‘nikma va malakalarni ongli o‘zlashtirishni nazarda tutmasdi. Ko‘nikmalarni shakllantirish maxsus apparatlar va xaqiqiytexnologiya jarayonini eslatadigan mashqlarni qo‘llash bilan amalga oshirilardi.Ko‘p marta takrorlash natijasida mushaklarni ma‘lum xarakatlarini ongning ishtirokisiz ham bajarishga “O‘rgatish” mumkin, ded faraz qilingan.Ta‘limga bunday yondoshish ma‘qullanmadi va tezda uni rad qilindi.

SIT sistemasining kamchiligini ta‘kidlab, bu sistemaningtexnologiya ta‘limiga qo‘shgan asosiy, ijodiy xissasini aytmaslik mumkin emas. Motor-mashq sistemasining yutug‘i shuki, undatexnologiya o‘quv va malakalarini shakllantirishning didaktik jixatdan asoslangan, psixofiziologik qonuniyatlarga

mos keladigan ketma-ketligi: texnologiya usuli - texnologiya operatsiyasi – texnologiya jarayoni birinchi marta ishlab chiqilgan va qo‘llangan edi. Boshqacha aytganda, Markaziy texnologiya instituti tomonidan texnologiya harakatlari va texnologiya usullari cho‘qur analiz qilinib, ularni tashkil etish yo‘llari belgilangan edi. Bu ish hozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Operatsiya – Buyum va motor-mashq sistemalarining hamma ijodiy jixatlari operatsiya – kompleks sistemada yanada rivojlantirildiki, u hozirgi vaqtda maktablardagi asosiy sistemalardan biri hisoblanadi.

Operatsiya – kompleks sistema bo‘yicha o‘qitish o‘quvchilarning oldin ikki-uchta ketma-ket operatsiyani o‘zlashtirishi, so‘ng ana shu operatsiyalarni o‘z ichiga olgan kompleks ishlarni bajarishga o‘tishdan iboratdir. SHundan keyin ular yangi operatsiyalarni o‘zlashtirishga va tegishli kompleks ishlarni bajarishga kirishadilar. Operatsiyalarni o‘zlashtirish ayrim ish xarakatlari va usullarini bajarishga doir mashqlardan boshlanadi.

Texnologiya operatsiyalarini o‘zlashtirish va ularni kompleks ishlarda qo‘llash ta‘limning birinchi bosqichidagi asosiy vazifasidir. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar ishlab chiqarishdagi unumli texnologiyaga qo‘shiladilar.

Operatsiya – kompleks sistema ham ma‘lum kamchiliklardan xoli emas. Ulardan eng asosiysi, operatsiyalarni o‘rganish va xatto kompleks ishlarni bajarish paytida o‘quvchilarni unumli texnologiyaga jalb etish qiyinligidir.

Texnologiya ta‘limining yuqoridagi (SIT sistemasidan boshqa) sistemalarining hammasi ko‘rsatilgan kamchiliklardan tashqari yana bitta kamchilik bilan xarakterlanadi, ya‘ni ular ishchining faqat ijrochilik funksiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

SIT sistemasi hisoblash, kontrol o‘rnatish funksiyalarini alohida ifodalaydi, bu funksiyalar texnikaning rivojlanishi, jixozlar va texnologiyaning takomillashuvi bilan o‘sha vaqtdayoq ishlov berish funksiyalari kabi muxim ahamiyat kasb eta boshlagan edi.

Shunday qilib, SIT sistemasida ishchilarni o'z majburiyatini ijodiy bajarishga tayyorlash vazifasi («ishlab chiqarishni ratsionalizatsiyalash va qayta qurish») birinchi marta qo'yildi.

Keyinchalik ishlab chiqarish protsesslarining mexanizatsiyalashtirilishi va avtomatlashtirilishi munosabati bilan ishchining funksiyalarida muhim o'zgarish yuz berdi. texnologiya operatsiyalarining asosiy va yordamchi operatsiyalarga bo'linishi o'z kuchini yo'qotdi. Rejalashtirish va nazorat qilish bo'yicha asosan aqliy harakatlardan iborat yordamchi aqliy funksiyalar qator kasb ishchilari uchun asosiy funksiyalar bo'lib qolmoqda. Texnik ijodkorlik, texnologik protsesslarni ratsionallashtirishda, buyumlarni konstruksiyalash va texnologiyani tashkil qilishda qatnashish ishchi faoliyatida borgan sari katta o'rin olmoqda. SHu munosabat bilan texnologik, buyum-kompleks, konstruktorlik-texnologik, muammoli-analitik va texnologiya ta'limining boshqa sistemalari haqida asarlar vujudga keldi. Natijada, texnologiya ta'limi tizimida **konstruktorlik-texnologik sistema** vijudga keldi

Maktab ustaxonalarida ta'lim sistemasi. Maktab ustaxonalaridagi mashg'ulotlar sistemasi haqidagi masala hali pedagogika fani va amaliyotida hal qilinmagan. Qator mualliflar ustaxonalardagi mashg'ulotlarni konstruktorlik- texnologik sistema bo'yicha tashkil etishni tavsiya qiladilar. Bu sistemaning mohiyatini qisqacha qarab chiqamiz. Ta'limning konstruktorlik-texnologik sistemaning yetakchi g'oyasi o'quvchilarning ijrochilik va ijodiy faoliyatini tarkiban komdinatsiyalashdan (birlashtirishdan) iborat.

O'quvchilarni texnologiya obektini bevosita tayyorlashdan oldin uning konstruktsiyasi va ishlov berish texnologiyasi amalga oshirilishi kerak bo'lgan sharoitga olib kiriladi. SHu tariqa ular avval qator texnik masalalarni hal qiladilar va faqat shundan keyin detallarni ishlashga, ularni yig'ish va hokazolarga o'tadilar. SHunday qilib, o'quvchilarni texnologiya ta'limi jarayonida muayyan amaliy texnologiya harakatlarni bajaribgina qolmay, ana shu harakatga bog'liq holda vujudga keladigan texnik masalalarni ham hal qiladilar.

Maktab ustaxonalarida amaliytexnologiya malaka va ko'nikmalarini o'rgatish operatsiya - buyum sistemasi bo'yicha tashkil qilinadi. Buni qator mushohadalardan kelib chiqib tasdiqlash mumkin. Birinchidan, dasturda operatsiyalarni alohida holda o'rganish nazarda tutilmaydi; buning ustiga har qaysi operatsiyalarni o'rganish uchun qancha vaqt sarflanishi umuman ko'rsatilmaydi; demak, dasturda amaliytexnologiya malaka va ko'nikmalari operatsiya yoki operatsiya - kompleks sistemasi bo'yicha shakllanishi ham nazarda tutilmaydi. Ikkinchidan, amaliytexnologiya malaka va ko'nikmalarini o'rgatish jarayonini tashkil qilishning o'zagi o'quvchilar tayyorlash kerak bo'lgan obektlar ro'yxatidan iboratdir; ammo bu ro'yxat majburiy emas, ya'ni mahalliy sharoitga qarab ba'zi buyumlarni boshqalari bilan almashtirish mumkin; bundan tashqari dasturda buyum tayyorlash jarayonida qaysi temani o'tishda o'quvchilar qaysitexnologiya operatsiyalarini o'zlashtirishi kerakligi ko'rsatiladi, shuningdek to'g'ritexnologiya usullarini shakllantirish zarurligi ham ta'kidlanadi: demak, dastur amaliytexnologiya malaka va ko'nikmalarini Buyum sistemasi bo'yicha shakllantirishni nazarda tutmaydi.

Shunday qilib, dasturning mazmuni ta'limning yuqorida aytilganidek, ko'p davom etmaydigan va o'qitish jarayonida muhim rol o'ynamaydigan dastlabki davrini istisno qilib, texnologiya ta'limining operatsiya - buyum sistemasini qo'llashga yo'llagandek bo'ladi. Ammo bu dasturning bir qismiga, xususan, materiallarga ishlov berish, buyumlarni yig'ish va boshqatexnologiya malaka va ko'nikmalariga taallo'qlidir.

O'quvchilarni tayyorlanishi lozim bo'lgan buyumlarni oldindan konstruktsiyalash bilan bog'liq ijodiy xarakterdagi masalalarni echishga o'rgatish sistemasi hozircha mufassal ishlanmagan. Dasturda o'quvchilarnitexnologiya ob'yektlarini tayyorlash konstruktsiyalari va texnologiyasini ishlab chiqishga jalb qilish kerak, degan umumiy ko'rsatmadan boshqa o'qituvchi uchun aniqroq tavsiyalar berilmaydi.

Bu erda esa, o'quvchilarni maktab ustaxonasida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ijodiy faoliyatga jalb qilishning umumiy printsiplari va xususiyatlarini ko'rsatamiz.

O'quvchilar ijodiy faoliyatining mohiyati haqida gapirilar ekan, shuni qayd qilish kerakki, bu faoliyat uchun kattalar ijodiytexnologiyadagi mavjud asosiy qonuniyatlarning hammasi xarakterlidir:

1. Ijodiy ish jarayonida o'quvchilar yaratadigan hamma narsalar, ijtimoiy ahamiyatidan qat'i nazar, o'quvchilardan qunt bilan, ko'pincha zo'r beribtexnologiya qilishni taqozo etadi.

2. O'quvchilarning ijodkorligi psixik komponentlariga ko'ra kattalarning ijodkorlik jarayoniga yaqinlashadi. Ijodiy protsess uchun aqliy faoliyatning yuqori saviyaliligi xarakterlidir, unda qandaydir bitta yoki ikkita psixik funktsiyalar emas, balki inson shaxsining psixologik-jismoniy kuchlari, qodiliyati, bilim va malakalarining murakkab kompleksi namoyon bo'ladi.


Ijodiy faoliyat jarayonida bilish protseslari ham, ehtiyojlar ham hissiyotlar irodaviy harakatlar ham muhim rol o'ynaydi. Sezish va idrokning rivojlanishi atrofimizdagi buyum va hodisalarni to'liq qabul qilish imkokini beradi. Diqqat tufayli inson qo'yilgan masalani echish uchun eng muhim ob'ektni ajratadi, eslab qolish qobiliyati tufayli esa ijodiy protsessda to'plangan bilim va malakalardan foydalanadi. Har qanday ijodiy faoliyat ma'lum masalalarni hal qilishni nazarda tutadi va bunga ko'pincha oddiy idrok qilish yo'li bilan emas, balki fikrlash faoliyati orqali erishiladi, bu faoliyat natijasida mavjud bilimlardan yangi xulosalar chiqariladi. Ijodiy protsessda boshqa psixik funktsiyalarning ham roli katta. Ehtiyojlar va sabab (motiv) lar insonni shunday faoliyatga undaydi; uning qiziqishlari ongini ijodiytexnologiya buyumlariga yo'naltiradi; emotsiya va hislar butexnologiyani yanada ilhomliroq qiladi, irodaviy harakatlar esa qo'yilgan masalani ongli hal qilish imkonini beradi.

3. O'quvchilarning ijodiy faoliyati jarayonini umumiy yo'sinda kattalarning ijodiy faoliyati jarayonidagi kabi g'oyaning paydo bo'lishi yoki ijodiy masalaning vujudga kelishi; masalani yechish; yechimni amalda qo'llash bosqichlariga bo'lish mumkin.

Shu bilan birga o'quvchilarning ijodiy faoliyat jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ham ega:

1. Har qanday ijod uchun yangilik xarakterlidir va u ob'yektiv yoki sub'yektiv bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijodiy faoliyat jarayonida jamiyat uchun yangitexnologiya mahsulotlari (ob'yektiv yangilik) yaratilishi yoki bu mahsulotlarni yaratayotganlar uchun yangilik (sub'yektiv yangilik) yaratilishi mumkin. O'quvchilar ijodiytexnologiyaining natijalarini o'rganish, ular juda kam hollarda jamiyat uchun emas, o'zlari uchun yangi mahsulotlar yaratishini, ya'ni ularning ijodiy faoliyati sub'yektiv yangilik bilan xarakterlanishini ko'rsatmoqda.

2. O'quvchilar ijodkorligi ularnng mustaqil harakatlari kattalar harakatidan pastroq saviyada bo'lishi bilan xarakterlanadi. Chunki o'quvchilar hali yetarli ish tajribasiga ega bo'lmaydilar, ular o'sish va kamol topish davrida o'z kuchlarini iljodiy masalalarni hal qilishda sinab ko'radilar. O'quvchilar jismonan o'sadilar va rivojlanadilar. Ularning bilish protsesslari ham shakllanadi va takomillashadi. Hayotlarining har bir yili o'tgani sayin ularning idroki, tasavvuri mazmunliroq bo'lib boradi, abstrakt tafakkurlari cho'qurlashadi, nutqlari boyiydi, ularda erkin xotiraning, diqqatning roli ortadi. Bu bilish protsesslarning hammasi rivojlanish bosqichida bo'lib, o'quvchilarda o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi, ularning butun faoliyatiga, shu jumladan, ijodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'smirlar idrok qilingan buyum va hodisalarni murakkab analiz va sintez qila oladilar. SHu bilan birga ular ko'pincha ba'zi tomonlar va xususiylikni unutadilar. Ularning abstrakt tafakkuri shakllanish bosqichida bo'lib, hali aniq obrazli komponentlar katta rol o'ynaydi. Ishga qarab ixtiyoriy xotira ixtiyorsiz xotira bilan almashinib boradi, lekin ixtiyorsiz xotira katta o'rinni egallab turishi davom etadi: ixtiyoriy diqqat ancha rivojlangan, ammo ixtiyorsiz diqqat ham katta rol o'ynaydi.



O'quvchilar ijodiy faoliyatining xususiyatlari bu faoliyatga pedagogik rahbarlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Maktablarning ish tajribalari o'quvchilarning ijodiy ishiga rahbarlikda amal qilish kerak bo'lgan asosiy shartlarni ifodalash imkonini beradi:

1. O'quvchilarni har xil savol va masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatlaridan iborat faoliyatga qatnashtirish.

O'quvchilarning ustaxonalardagi faoliyati har xil xarakterda bo'lishi va shunga ko'ra turli darajadagi fikrlash aktivligida amalga oshishi mumkin. Faoliyat xarakteri ko'proq ishning reglamentlanish darajasidan kelib chiqadi. Maydanchuydalarigacha reglamentlangan faoliyat mustaqil ishlarga, tashabbusga, ijodiy aktivlikka o'rin qoldirmaydi. SHu sababli o'quvchilarda mustaqillik rivojlanishi uchun topshiriqlar butunlay ijrochilik xarakteriga ega bo'lmay, balki tafovut va variantlarga ham yo'l qo'yish zarur.

2. O'quvchilarni ijodiy g'oyaga keltirish yoki ular oldiga to'g'ridan-to'g'ri ijodiy xarakterdagi savollar va masalalarni qo'yish.

O'quvchilarni har xil savol va masalalarni mustaqil yechish imkoniyatlarini o'z ichiga olgantexnologiya faoliyatiga qo'shish bilan ularda tashabbuskorlik va texnik ijodiyotni rivojlantirish muammosi o'z-o'zidan hal bo'lmaydi. CHunki o'quvchilarning ko'pchiligi o'z oldiga ijodiy masala qo'yishi qiyin. SHu sababli,

o'quvchilarnitexnologiya topshiriqlarida savollar va masalalar qo'yish orqali ijodiy faoliyatga undash kerak. Ularga texnik ijodkorlik uchun topshiriqlardagi imkoniyatlarni va ulardan foydalanishni anglatish lozim.

Texnologiya topshirig'i ijodiy masala, uning tarkibiy qismi, bu masalani yechish esatexnologiya jarayonining tarkibiy qismi bo'ladigan qilib tuzish mumkin. Ravshanki, bunda ijodiy masalani hal qilmasdan turib, texnologiya topshirig'ini bajarish mumkin emas. texnologiya topshirig'i o'z ichiga ijodiy texnologiya imkoniyatlarini olishi mumkin. Bu imkoniyatlartexnologiya topshirig'ini bajarish bilan bir vaqtda yechiladigan masalada ifodalanadi.

Bunga bir misol. O'quvchilarga veshalka detallarini joylashtirish topshirig'i beriladi. Bunda doska (zagotovka) o'lchami yon devorlarining qiyshiqligi «berkilishi» hisobga olib beriladi. Agar yon devorlar qandaydir boshqacha joylashtirilsa, zagotovka o'lchamlari yetarli bo'lmaydi. Ushbu holda o'quvchilartexnologiya topshirig'i shartlariga qarab zagotovka elementlarini joylashtirishga, doskani tejab bichishga majbur bo'ladilar. O'quvchilarga zagotovka o'lchamlarini chegaralamay, ularga materiallarni tejamli ishlatish bo'yicha ko'rsatma berish ham mumkin. Ravshanki, bu holda ham rejalash operatsiyasini ijodiy bajarish uchun shartlar mavjud bo'ladi, ammotexnologiya topshirig'ini bajarishda bu shartlarga amal qilish majburiy emas. Ko'rinib turibdiki, birinchi holda topshiriq ancha aniq va shu sababli u o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish uchun samaraliroqdir.

3. O'quvchilarni fan va ishlab chiqarish asoslariga oid bilimlarni faollashtirish va qo'llashga undash.

4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rag'batlantirish. Ijodiyotning o'zi o'quvchilar faoliyatini kuchaytiradi, chunki u doimo qiziqarli amaliy masalalarni hal qilish bilan bog'liq bo'lib, shu sababli o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. O'qituvchining maqtashi, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish, devoriy matbuotda o'quvchilarning yuto'qlarini ommalashtirish va hokazolar bilan ham ijodiy faoliyatni rag'batlantirish mumkin.

O'quvchilar texnik ijodiyotini rivojlantirishga qaratilgan texnologiya topshiriqlarini mazmuni bo'yicha uchta gruppaga: konstruksiyalash, texnologik protsesslarni tuzish va texnologiyani ratsional tashkil qilishga ajratish mumkin.

Ana shu gruppalarning har biridagi topshiriqlarning murakkabligi har xil bo'lishi mumkin. Texnik ijodkorlikni rivojlantirishni eng sodda topshiriqlardan boshlash va o'quvchilarning mustaqilligini orttirish, ular buyumlarni konstruksiyalay oladigan, texnologiyani ishlab chiqarish oladigan, o'z texnologiyalarini uyushtiradigan bo'lish uchun mazkur topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak.

Shunday qilib, o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilish ustaxonalardagi mashg'ulotlarda ta'limga muammoli yondashishni amalga oshirish imkonini beradi.

1. Nazorat savollari.

1. texnologiya ta'limining qanday didaktik sistemalari bor?
2. Buyum sistemasi deganda nimani tushinasiz?
3. texnologiya va ishlab chiqarish sistemalari xaqida tushincha bering.
4. Operasion buyum va operasion kompleks sistemalarini izoxlab bering.

2. Test savollari.

1. Xozirgi kunda maktablarda qanday didaktik sistemalar qo'llaniladi?
 - A. Buyum sistemasi, Operatsion sistema .
 - B. Operatsion buyum va operatsion kompleks sistema.
 - C. Motorli mashq va konstruksion texnologik sistema
 - *D. Konstruksion texnologik va operatsion kompleks sistema
2. Qaysi sistemada texnologiya xarakatlarini ilmiy asoslangan?
 - A. Buyum sistemasi
 - B. Operasion buyum sistemasi
 - *C. (SIT) Motorli mashq sistemasi
 - D. Konstruksion texnologik sistema
3. Manufaktura davrida qanday sistema vujudga kelgan?
 - A. Buyum sistemasi
 - *B. Operatsion sistemasi

C. (SIT)Motorli mashq sistemasi

D. Konstruktsion texnologik sistema

3. Tayanch iboralar

1. Didaktik sistemalar
2. Buyum sistemasiyu.
3. Operasion buyum sistemasi
4. (SIT)Motorli mashq sistemasi
5. Konstruktsion texnologik sistema

6-MA'RUZA.TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA LABARATORIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.

Reja:

Kirish, joriy va yakuniy instruktajlar.

Mashq darslari va mashq darslarida tranajyorlardan foydalanish.

O'quv ko'llanmasi bilan ishlash.

Laboratoriya tajribalari, zveno va frontal shakllarida olib borish.

MA'RUZA BAYONI.

Mashqlar va tranajyor mashqlari. Texnologiya ta'limi jarayonida xar bir yangi operatsiyani qisqa muddatli mashqdan boshlashga muvofiq bo'ladi. Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar xar xil buyumlar tayyorlaydilar, texnologiya usulida va xarakatlarini baxolash bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. SHu o'rinni tashkil qilishga, sababli sozlash, dastlabki texnologiya usullari va xarakatlarini o'zlashtirishga ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga doir mashqlar bir-biridan ko'ra farq qiladi. Mashqlarga ta'lim metodi sifatida qator didaktik talablar qo'yiladi :1. Mashqlar o'quvchilarning ongli faoliyatiga asoslanadi. ko'nikma va malakalarni xosil qilishda ong katta rol o'ynaydi. texnologiya ta'limi tajribasi «Muskullarni o'rgatish» ga ongdan tashqari o'rinish (MMI sistemasi muvoffaqiyatlarga olib bormaslikni ko'rsatadi.

Ko'nikma, malaka devosita shakllanishidan oldin shu xaqida o'quvchi oldida tasavvur xosil bo'ladi. Uning tasavvuri qanchalik to'g'ri, aniq bo'lsa, uni shunchalik tez va aniqroq oladilar.

2. Mashqlar va ularning qismlari (elementlari), qismlarini orttirib boradigan tartibda joylashtiriladi. Xar bir mexanik operatsiyalarida bir xil elementlar (usullar, xarakatlar) o'zi ko'p uchraydi, ammo operatsiyaning o'zi qiyinligi bo'yicha farq qiladi. Masalan, metallarni qirqish operatsiyasi bunday bajariladi, o'quvchi chap qo'lida zubiloni, o'ng qo'lida bolg'ani ushlab, zubiloga uni o'tkir uchi kesilgan zakatovkadan yupqa metall qoplamini o'chirish uchun uradi. Bunda bolg'a bilan ishlash qator qiyinchiliklarni uchratib chiqaradi: o'quvchi oldin bolg'a xarakati, urush kuchini to'g'ri va toza kesishni o'rganib olishi kerak. U ana shu elementlarni xammasini o'rganib oladi. Sababli du texnologik operatsiyadan oldin qir qator boshqa soddaroq operatsiyalarni bajarish kerak. Masalan, metallarni to'g'rilashga oid mashqlar bolg'a bilan ishlash strukturani va urish kuchini o'rganishga imkon beradi, parchinlash mashqlari o'quvchilarga zarur bexato urush malakasini egallash uchun zarur asos bo'ladi.

3. Mashqlar paytida o'quvchilar o'z texnologiya xarakatlarini (kontrol) nazorat qilishlari kerak. O'qituvchi o'quvchilarning eng boshidantexnologiya usullari, xarakatlari, operatsiyalarni to'g'ri bajarishlari kerak. O'quvchilar o'zlarini nazorat qilishga jalb etilsa, ya'ni ular o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirsa, bu talab samaraliroq bajariladi. O'qituvchitexnologiya usullarini bajarish qoidalarini o'rgatish bilan birga ularni bajarish to'g'riligini xukm chiqaruvchi mezonlarni xam aniqlash yo'llarini xam o'rgatib ketadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'quvchilarni asosiy o'quv vazifasitexnologiya malakalarini egallashdan boshlash kerak.

Mashqlar davomida texnika vositalari trenajorlardan foydalanishi xam unumli bo'ladi. Trenajorlar o'quvchilarga o'z texnologiya xarakatlarida birikkan kuch, tezlik yoki fazoviy parametrlaridan o'g'ishini bilib olishlarida yordam beradi, ya'ni o'zlarini-o'zlari nazorat qilishlari uchun sharoit yaratadi. Masalan, egovlash operatsiyasini o'rgatish uchun trenajor mavjud.

O'quv qo'llanmalari bilan ishlash.texnologiya darslarida o'quvchi qo'llanmalaridan foydalanishning bir qator usullari mavjud. O'quvchilarga yangi materiallarni idrok qilishga yaxshi tayyorlash uchun ularga qo'llanmaning ma'lum bo'limini o'qishni vazifa qilib beriladi. O'quvchilarga qo'llanma bo'yichatexnologiya ob'yektlari bo'yicha tanishish va ularni tayyorlash yo'li bilan bog'liq bo'lgan texnologik jarayoni tartibini o'ylab ko'rishni topshirish mumkin.

O'quvchilartexnologiya usullarini qanday bajarishi shuni qaysi sababdan foydalanishi unutib qo'yilsa xam bevositatexnologiya darslarida qo'llanmalardan foydalanadilar.texnologiya darslarida shuningdek operatsion kartalar albomidan foydalanish xam o'zini to'la oqlaydi.

Ma'lumki ishchi ishlab chiqarish topshirig'ini bajarishda o'zi uchun zarur bo'lgan lug'at materiallaridan topib foydalanadi. Masalan : stanokchi konkret ish shartlariga ko'ra qirqish rejimi elementlari (qirqish cho'qurligi, qirqish tezligi, uzatish)ni tanlaydi. Elektr montaji esa lug'atdan simlarning markalarini, apparatlar va jixozlarni topishiga to'g'ri keladi.

Ishning malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, u lug'at adabiyotdan shunchalik ko'p foydalanadi. shu sababliteknologiya darslarida qo'llanma (darslik) va adabiyotlar bilan bir qatorda lug'at adabiyotdan xam ko'p foydalanadi.

Laboratoriya tajribalaridan na'munalar. Laboratoriya tajribalarini o'quvchilar ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda ishlov beriladigan materiallar, asboblarning tuzilishi, jixozlar va boshqalar bilan tanishish maqsadida bajariladi. Bu tajribalarga laboratoriya ishlari formasida taxlil qilinadi.

Laboratoriya ishlarini qiyinligi o'quvchilar yoshga va mavjud moddiy bazasiga qarab xar xil bo'ladi. Masalan : Yog'ochni namlik va qattiqlikka sinash o'quvchilarning qo'lidan keladi. Laboratoriya ishlari xozirgi zamon asboblari va moslamalaridan foydalanish ma'qul. Ishlarni bajarishda eng muximi o'quvchilarni fan asoslari bo'yicha olgan bilimlaridan foydalanishdir. Agar laboratoriya ishlari unumlitexnologiya bilan bog'liq bo'lsa, o'quvchilarning ularga qiziqishlari ortadi. Masalan, o'quvchilar mazkur metalni qattiqligini shunchaki topish emas, balki

yasaladigan detal uchun tegishli kattalikdagi zagatovka tanlashni xam topish maqsadga muvofiqdir.

Laboratoriya ishlari amaliyot shaklida tashkil etiladi, ularni frontal yo'l bilan o'tkazish xam mumkin. amaliyot-siyosiy ish shaklidagi laboratoriya ishlaridagi o'quvchilar zvenolarga bo'linadi. Zvenodagi o'quvchilar soni tegishli jixozlar va laboratoriya tajribalariga qarab aniqlanadi. Laboratoriya ishlari murakkabligiga qarab o'quvchilarning og'zaki ko'rsatma yoki ishlaridan asboblarning tuzulishi, ishning maqsadi va ish tartibi ifodalanadigan yozma instruktsiyalar bo'yicha o'tkazish mumkin.

Yog'ochning mexanik va texnologik xossalari. Xar qanday buyumni yasash unga kerakli asosiy ashyoni tanlashdan boshlanadi. U o'zining xossalari bilan mazkur buyumning vazifasiga mos bo'lishi lozim.

Sizlar Yog'ochning ayrim xossalari (rangi, guli, namligi va xokazolari) bilan tanishgansiz. Endi uning tashqi kuchlar ta'siriga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini aks ettiradigan xossalarini bilib olasiz. Bularni mexanik xossalar deyiladi va bunday xossalarga Yog'ochning qattiqligi, pishiqligi, yorilishi, bukiluvchanligi, chidamliligi kiradi.


Yog'ochning qattiqligi o'ziga boshqa qattiqroq jism botishiga qarshiligi bo'yicha aniqlanadi. Dub va qayin taxtachalarga mix qoqib ko'ring. Bu ishning birinchisi ikkinchisiga nisbatan osonroq bo'ladi.

Umuman Yog'ochlar qattiq (dub, zarang, qayin, nok, kashtan va boshqalar) xamda yumshoq (qarag'ay, qoraqarag'ay, terak ol'xa va boshqalar) turlarga bo'linadi.

Yog'ochning namligi o'zgarsa, uning qattiqligi xam ma'lum darajada o'zgaradi. Namlik ortishi bilan qattiqlik kamayadi.

Yog'ochning qattiqligini aniqlash uchun maxsus asbobdan foydalaniladi (rasm). Bunda dasta yordamida po'lat uchlikni Yog'och namunasiga botiriladi. Shunda Yog'ochning qattiqligiga ko'ra bir xil kuch ta'siri bilan namunalar sirtida diametri xar xil cho'qurchalar xosil bo'ladi (rasm). Yog'och qanchalik qattiq bo'lsa, cho'qurchaning diametri shunchalik kichkina bo'ladi. Turli namunalarda bir xil diametrli cho'qurchalar xosil qilish uchun asbob dastasiga xar xil kuch bilan ta'sir

ko'rsatish kerak asbob strelkasining ko'rsatishiga qarab Yog'ochning qattiqligi aniqlanadi.




Yog'ochning qattiqligini aniqlash asbobi

1-asos, 2-bo'linmalar shkalasi, 3-dasta, 4- uchlik, 5-Yog'ochning na'munasi, 6-snol, 7- prujina. a-qarag'ay, b- eman.

YOG'OCHNING mexanik xossalari uning texnologik xossalariga o'zviy bog'liqdir. Texnologik xossalar deganda, Yog'ochning metall maxkamlagichlar (mix burama mix va xokazolar)' ni mahkam ushlashi, yorilishga qarshiligi, ishqalanganda egilmasligi, bukilishi tushuniladi (rasm). Yorilish pona ta'sirida Yog'ochning tolalari bo'ylamasiga ajralishkdir (rasm). Ana shu xossani Yog'ochga mix qoqishda albatta xisobga olish va egov dastalarini yasashda nazarda tutish kerak Masalan, qattiq Yog'ochdan tayyorlangan detallarni mixlar va burama mixlar bilan o'zaro biriktirilsa, mustaxkam bo'ladi. Qattiq Yog'ochlar o'zoq vaqt edirilmaydi. Randalar, changi va burchakliklar yasashda Yog'ochning chidamliligini xisobga olish lozim.





Yog'chning bukilishi.

Yog'chning buralishi.

Yog'chning

yorilishi

Namlik — Yog'ochning juda muxdsh xossasi bo'lib, buyumning sifati ana shunga bog'liqdir. Quro'q Yog'ochdan yasalgan buyumlar nam Yog'ochdan yasalgan buyumlarga qaraganda mustaxkamroq va chiroyliroq bo'ladi. Yog'ochning namligiga bog'liq asosiy xolatlari quyidagicha: xonada qurigan (8 — 12); xavoda qurigan (12 — 18); yarimquro'q (18 — 23); yangi kesilgan (40 va undan ortiq).

Maktab ustaxonasida ko'pincha xonada qurigan va xavoda qurigan Yog'ochlardan foydalaniladi.


Yog'ochga ishlov beruvchi asboblarni charhlash. Yog'ochga ishlov berishni sifati asboblarning o'tkir yoki o'tmasligi, ular yasalgan ashyolar tegishlicha ta'sir ko'rsatadi. Sifatsiz va o'tmas asboblar bilan ishlashda ko'p vaqt xamda kuch sarflashga to'g'ri keladi. Shuningdek yasalgan buyum texnik talablarga aynan mos bo'lmay qoladi.

Keskichlarni charxlash. Yog'ochga muvaffaqiyatli va sifatyai ishlov berish avvalo kesuvchi asboblarning o'z vaqtida va yaxshi charxlanishiga bogliqdir.


Rasmda keskichlarning tig'i yon tomonidan o'tkir burchakli qilib tasvirlangan. U odatda yuqoridan xam shunday ko'rinadi. Aslida esa, xatto, eng sifatli charxlangan asboblarda xam mikroskopik milklar yoki yoriqlar bo'ladi.

Ponasimon keskichlar ikki bos'ichda charxlanadi, bular dastlabki edirish va oxirgi silliklashdan iborat bo'ladi. Dastlabki edirish abraziv charxlarda va oxirgi tekis qayroqlarda bajariladi. Keskichni zaruratga qarab bir necha marta yurg'izib tekislanadi. Asbobning o'tkirlik burchagi xaddan tashqari kattalashib ketgan bo'lsa, uni dastlabki edirish bilan charxlashga to'g'ri keladi. Bordi-yu, uning tig'i singan yoki uchib ketgan bo'lsa xam shunday qilinadi.

Abraziv toshlarning tabiiy va sun'iy xillari bor. Garchand Yog'ochni




ishlanadigan asboblarni tabiiy toshlardan charxlash lozim bo'lsa xam, xozirgi



paytda asosan sun'iy abraziv charx va toshlardan foydalaniladi.

Maktablarda asboblarni dastlabki edirish uchun ko'proq eT-79 va eT-62 elektr



charxlar qo'llaniladi (rasm)

Keskichlarning mikro geometriyasi. elektr charxlar.

ET—79 modelida (a) charxlashda asbobni mustaxkam o'rnatish moslamasi xam nazarda tutilgan va bu dastgoxda randalash dastgoxining tig'larini xam charxlash mumkin, elektr charxi o'quv ustaxonalarida randalash asboblarini suvlab charxlashga mo'ljallangan.

Qum qayroq — tabiiy yoki sun'iy tosh (qumtosh) bo'lib, uning ishchi sirti to'g'ri va silliqdir. Uni ko'ndalang kesimining yuzasi kvadrat valga o'rnatiladi. Bu val Yog'och yoki metall tog'oraning chetlariga joylashtirilgan podshipnikda aylanadi. Tog'oraga toshning ishchi sirtini xo'llab turadigan qilib suv quyiladi, qayro'q toshning sirti metall qirindilariga to'lib ketadi va uning kesish xossasi pasayadi. Bundan tashqari, tig'aing toblangan qismi bo'shashib qolishi xam mumkin.

Tez aylanadigan abraziv charxlarda ishlayotganda saqlagich ko'zoynakni taqish, chekkaroqda turish kerak Keskich ko'yib qolmasligi uchun uni vaqt-vaqtida suvga botirib sovitish lozim.

Nazorat uchun savollar.

1. Instruktajga qanday asosiy talablar qo'yiladi ?
2. Mashqlarga qanday asosiy talablar qo'yiladi ?
3. O'quv qo'llanmalari bilan ishlashda nimalarga e'tibor beriladi?

Tayanch iboralar .

1. Instruktaj : kirish, joriy va yakuniy instruktajlar.
2. Mashq, xomaki va ishchi mashqlar.
3. O'quv qo'llanmasi bilan ishlash.
4. Laboratoriya tajribalari, zveno va frontal shakllari olib boriladi.

7-MA'RUZA.O'QUV USTAXONASINI TASHKIL ETISH VA JIHOZLASH.

Reja:

O'qituvchining ish o'rni va uning vazifasi.

O'quvchilarning individual ish o'rinlarini tashkil etish va ularni amaliy mashg'ulotga tayyorlash.

Texnologiya fani o'quv ustahonalarida umumfoydalanadigan ish o'rinlarini tashkil etish.

Texnologiya fani bo'yicha o'quv amaliy ustaxonalarni jihozlashga qo'yiladigan talablar.

Texnologiya fani o'quv ustahonalarining zaruriy xujjatlari.

O'quv amaliy ustaxonalarda rioya etiladigan sanitariya-gigiena talablari va hovfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish.

MA'RUZA BAYONI.

O'qituvchining ish o'rni va uning vazifasi. O'qituvchining ish o'rni o'quv - ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilishda asosiy zvenodir. O'qituvchining ish o'rni mashg'ulotlarni samarali o'tkazish va ish vaqtining bekor ketishini kamaytirishni ta'minlashga yordam berishi kerak. U o'quvchilarga o'zlarini ish o'rinlarini

Dastgohlar konstruksiyalari sozlovchi qurilmaga ega bo'lishi, ular yordamida dastgohlarni o'quvchilarning bo'yiga qarab moslash shuningdek dam olish uchun qulay aylanuvchi o'rindiqlar yozish va grafik ishlar uchun so'riluvchi planiyatlar bilan ta'minlashi kerak. Havfsizlik texnikasi bo'yicha muhofaza turlari dastgohga mahkamlanishi va zarur bo'lgan dastgoh stuli tagiga olib qo'yilishi mumkin bo'lsin. Barcha ehtiyot asboblari va moslamalar turadigan xonalarida shunday tartib saqlanishi kerakki, ulardan har birini toyish uchun o'qituvchi juda oz vaqt sarflasin. Masalan, parta, o'lchov asboblari, plakatlar tegishli o'lchovlari yozib qo'yilgan qutichada joylashgan bo'lishi, ancha og'irroq moslamalar pastki javonlarda, bir muncha engillari yuqoriroqda turishi kerak.

Omborxonada materiallar va ishga yaroqli chiqindilar markalari, navlari, o'lchovlari va turlariga qarab ajratilishi zarur, ular oldiga boriladigan yo'l qulay hamda to'siqsiz bo'lishi kerak.

Ko'rgazmali qurollarni (plakatlar, sxemalar jadvallari, maketlar, mavzu ko'rgazmali taxtaga, buyum namunalari saqlash uchun yozilgan va tartib nomeri qo'yilgan tegishli yashiklar va uyalar bo'lishi lozim, bu esa o'qituvchiga istagan vaqtida oz vaqt sarflab kerak qo'llanmani topa olishiga imkon beradi.

Texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisining ish o'rnidatexnologiya usullarini, ko'rgazmali qurollarni; shuningdek o'quv filmlarini namoyish qilish uchun barcha sharoitlar yaratilishi kerak.

O'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxatlari ham, o'quvchilarni ish o'rinlariga almashlab qo'yish grafiklari ham yaxshilab bezatilgan va o'quvchilar ko'radigan qilib osib qo'yilishi kerak. Shu erning o'zida oddiy va sanitariya yo'llaridagi navbatchilar grafigi muntazam bajariladigan ishlar ro'yxati osib qo'yiladi.

O'quvchilarning individual ish o'rinlari va ularni amaliy mashg'ulotga tayyorlash. O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi darslar orasida tanaffus berishi, o'quvchilarga ustaxonani yaxshilab shamollatish vatexnologiya faoliyatini davom ettirish uchun normal sharoitni tanlash, o'zlari esa bu vaqtda dam olish uchun ustaxonadan chiqib turishlarini taklif qiladi. O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar va jihozlarni yaxshi saqlash uchun ularning har biriga bir o'quvchi biriktirib qo'yiladi. U ana shu asboblarni yaxshi saqlanishi va qasddan buzilmasligi uchun o'qituvchi va jamoa oldida javob beradi. Yaxshi tashkil etilgan o'quv ustaxonasi navbatdagi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun unchalik ko'p vaqt talab qilinmaydi. texnologiya va kasb ta'limi o'qituvchisi uchun bu narsa juda muhimdir, g'ulni boshqa guruhda bo'ladigan mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun uni vaqti juda tig'is bo'ladi. Shu sababli pedagoglartexnologiyaini ilmiy asosda tashkil etish no'qtai nazaridan o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etilishi, texnologiya ta'limi o'qituvchisi uchun o'quv vaqtidan anchagina tejab qolish imkonini beradi. Ustaxona o'quv programmasida ko'zda tutilgan barcha ish harakatlarini qulay xolda o'tilishi uchun yaroqli bo'lishi lozimdir.

Ustaxonada sinflarga o'xshab o'qituvchining ish o'rnini bo'lishi zarur. O'qituvchi o'z o'rnidan butuntexnologiya operatsiyalarni (ish harakatlarini namoyish qilayotgan usullarini o'qituvchilarning bemalol o'z ish o'rnidan ko'rishga muvofiq bo'lishi kerak), shuning uchun o'qituvchining ish o'rin xondan 20-30 sm balandroq turishi lozim va o'quvchilar dastgohlarga nisbatan 90 gradus burub qo'yiladi.

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 2-bosqich ta'lim mazmunida keng qamrovda ilg'or pedagogik texnologiyani joriy etish vazifasini qo'yimoqda. Bu vazifani bajarishda maktab fan xonalarining hamon talab darajasida jixozlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'rta maktabda o'tiladigantexnologiya ta'limi fanining maqsadi – o'quvchilarni aqliy va jismoniytexnologiya turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan dastlabgi tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, texnologiyaga qiziqtirish

xamdatexnologiyasevarlikni shakllantirish orqali ularni kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Bu maqsadning tarkibida ta'lim tarbiyaviy va rivojlantiruvchi yo'nalishlar mavjud bo'lib, ular quyidagicha ifodalanadi:

Mashg'ulot nimaga bag'ishlanganini, uning maqsadi va vazifalaridan ko'rinadi. Masalan, **Dars maqsadi** (darsga qo'yilgan maqsad 45 daqiqa davomida bajariladigan (erishiladigan), aniq, hayotiy (real) va dars yakunida baholanadigan(o'lchamli) bo'lishi maqsadga muvofiq):

a) ta'limiy vazifa - dars jarayonida o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar asosida belgilanadi;

b) tarbiyaviy vazifa — dars jarayonida o'quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida belgilanadi;

s) rivojlantiruvchi vazifa — dars natijasida o'quvchilarda qaysi bilimlar va axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilanadi.

O'quvchilarning texnologiya ko'nikmalarini egallashlari jarayonida texnologiya va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatarni, texnologiyasevarlik, vatanparvarlik insonparvarlik xamda tadbirkorlikni shakllantirishdan iborat.

2. O'quvchilartexnologiya talimini amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy va uslubiy vazifalarini xal qilishlari lozimdir.

Tashkiliy vazifalar bo'yicha, **birinchidan**,texnologiya ta'limi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv xonasi, ustaxona ularda xavfsiz va qulaytexnologiya sharoitlarini tashkil qilish, **ikkinchidan esa**, sanitariya – gigiena xamdatexnologiya xavfsizligi bo'yicha meyoriy xujjatlarda belgilangan talablarning to'liq bajarishini taminlash va muntazam nazorat qilib borish lozim.

Uslubiy vazifa esa, o'quvchilarning turli kasblar buyichatexnologiya jarayonlari kasb egalari bilan yaqindan tanishtirish, korxonalar, jamoa xo'jaliklari, tashkilotlar va muassasalar bilan doimiy aloqa o'rnatish. Rasmiy xujjatlar, ish rejalari, ustaxonada ishlash qoidalari, ayrim mexanizmlar stanoklar elektr jixozlar bilan ishlash, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari, inventarizatsiya xujjatlari sinf jurnallarini yuritish.

Texnologiya fani bo'yicha o'quv amaliy ustaxonalarni jihozlashga qo'yiladigan talablar.

1. Pedagogik talablar. Texnologiya fani o'qituvchisi talabchan bo'lishi kerak, nafaqat o'z fani ilmiy asoslarini mukammal bilishi, balki texnologiya ko'nikmasi, malakasini puxta egallagan va uni o'quvchilarga mahorat bilan o'rgata oladigan bo'lishi kerak.

Texnologiya fani rejasi mavzusiga hozirlik ko'rishda o'qituvchi xar bir mavzuning maqsad va vazifasi belgilaydi, rejalar tuzib uni bayon etish tartibini belgilaydi, o'quvchilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlarning xarakter va miqdorini aniqlaydi, bunda mavzularning asta-sekin murakablashib borishini hisobga olish lozim.

Fanlararo aloqa o'rnatish uchun, yan'ni o'quvchilarning fizika, ximiya, matematika, chizmachilik va boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanish uchun texnologiya ta'lim o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilari bilan birgalikda tabiiy ilmiy fanlarining yig'ma – tematik planini ishlab chiqadi.

Texnologiya fani o'qituvchisi texnik xujjatlarni, zarur ko'rgazma qurollari, plakatlar, sxemalar, jadvallar, maketlar, modellar, buyumlarning na'munalarini tayyorlaydi, jixozlarning texnikaviy xolatini, o'quvchilarning ish joylari va ish asboblari, shunindex o'quv ustaxona binosini hamda ularning xavfsizlik texnikasi, sanatoriya talablariga mos jixozlanganligini tekshiradi.

2. Ilmiy talablar

Texnologiya fani darslarida o'quvchilar tomonidan egallangan texnikaviy bilim ma'lumotlar texnologiya ko'nikma va malakalari to'la ma'noda ilmiy hamda politexnik harakatga ega bo'lishi kerak.

Ilmiy talablarni amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, fannig yangi yuto'qlarini xisobga olgan texnikaviy bilimlarni etkazishdir. Ilmiy talablardan kelib chiqib, o'quvchilar eng yangi jixozlar, mexanizmlar, mashinalar, asboblari, moslamalar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan materiallarni eng yangi markalari, texnologiyani ilmiy asosda tashkil qilish hamda zamonaviy texnologik jarayonlar bilan tanishishlari lozim.

Ilmiy talablarni bajarib bo'lib, Texnologiya fani o'qituvchisi o'quv xonalardagi ma'lumotlarga sof ilmiy terminlardan foydalanishi, fanda qabul qilingan ramziy belgilar, formulalar, o'lcham va hokazolarni qo'llashi lozim.

Bundan tashqari, Texnologiya fani o'qituvchisi darslarda bajarilayotgan mahsulotlarni tayyorlash texnologiyasi va xarakat jarayonlari hamda tuzilishini asoslash uchun o'quvchilarning asosiy fanlardan olgan bilimlardan foydalanish lozim.

3. Psixologik - fiziologik talablar :

Inson atrofni o'rab turgan olamni sezgi organlari orqali bilib oladi. Inson ta'lim jarayonida sezgi organlaridan ta'sirlanadi. Olingan ma'lumotlar fikrlanadi va katta yarim shar po'stlog'ida mustahkamlanadi. Bilim bu borliqning inson ongida aks ettirilgan va mustahkamlangan faktlari, umumlashmalari, qoidalari, qonunlari va hakazolardir. Texnologiya fani jarayonida o'quvchilar turli xil fikrlarga ega bo'ladilar. SHu fikrlar psixik-fiziologik jarayon sifatida shunday mexanizimki, u ham malaka singari shartli refleks zanjiridan iborat.

Texnologiya malakalarining bunday bo'linishi bir muncha shartli sanaladi, chunki ularning ko'pchiligi bir vaqtning o'zida ham harakatlantiruvchi, ham aqliy harakatni qo'shib olib borishni talab qiladi.

4. Estetik va texnik talablar : estetik talablar

O'quv ustaxonalarida va xizmat ko'rsatuvchitexnologiya xonalaridagi mashg'ulotlarga muvofiq ravishda quyidagi tadbirlarni bajarishni nazarda tutadi.

Sanitariya-gigiena hamda o'quv-tarbiya talablariga to'la javob berish.

O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlar o'tkazilayotgan vaqtda o'qituvchi darslar o'tasida tanaffus o'tkazilishi lozim;

Bunda o'qituvchi xonani shamollatib, texnologiya faoliyatini davom ettirish uchun normal sharoitni tiklash maqsadida bolalarga tashqariga chiqish va dam olishni taklif qiladi .

5. Xavfsizlik texnikasi:

O'quv xonalarida uskunalarni joylashtirishda yong'in xavfsizligi, texnologiyani muhofaza qilish va sanoat sanitariyasining quyidagi talablariga rioya qilish lozim bo'ladi.

Xonalar inventar va uskunalar bilan ortiqcha to'ldirilib tashlanmasligi kerak. Dastgohlar, stanoklar, mashinalar hamda dastgoh qatorlari o'rtasidagi o'tish joylari belgilangan norma doirasida bo'lishi lozim.

Dastgohlar, stanoklar, mashinalar chekka qatori bilan ustaxona devorining o'rtasi 0,5 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

Stanoklar oldida himoya ekrani va elektr blokirovka bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Xonada qo'l yuvish, ustki kiyim va korjomalarni saqlash uchun ham sharoit yaratilishi kerak.

TIKUVCHILIK ISHLARINI BAJARISHDA XAVFSIZLIK TEXNIKASI QOIDALARIGA RIOYA QILISH TALABLARI

Igna va to'g'nog'ich bilan ishlaganda:

1. Tikish ishlarini bajarishda angishvonadan foydalanish.
2. Igna va to'g'nog'ichni maxsus ajratilgan joyda (maxsus yostiqcha, quticha va boshqalar) da saqlash ularni ish o'rni (stol) da qoldirmaslik igna va to'g'nog'ichni og'izga solish ta'qiqlanadi.
3. Zanglagan igna bilan ishlash ta'qiqlanadi.
4. Gazlama va andozani tutishda to'g'nog'ichni ishlovchidan qarshi tomonga qaratib mahkamlash.
5. Tikish ishlarini bajarishda angishvonadan foydalanish.
6. Igna va to'g'nog'ichni maxsus ajratilgan joyda (maxsus yostiqcha, quticha va boshqalar) da saqlash ularni ish o'rni (stol) da qoldirmaslik.
7. Zanglagan igna bilan tikish ta'qiqlanadi.

Qaychi bilan ishlaganda:

1. Qaychini belgilangan joyda (quticha) da saqlash.
2. Qaychi bilan ishlashda ular keskich qismini yopiq holda ishlovchidan qarshi tomonga qaratib saqlash.

Tikuv mashinasida ishlaganda:

1. Elektr toki bilan ishlaydigan tikuv mashinasining o'tkazgichi erga ulangan bo'lishi kerak.
2. Sochlar ro'mol ostiga olingan bo'lishi kerak.
3. Mashina harakatlanuvchi qismiga juda yaqin egilish ta'qiqlanadi.
4. Mashinada tikishdan oldin gazlamada to'g'nog'ich yoki igna yo'qligiga ishonch xosil qilish kerak.

Dazmol bilan ishlaganda:

1. Elektr tarmog'iga ulangan dazmolni qarovsiz qoldirmaslik.
2. Dazmolni elektr tarmog'iga ulash yoki uzishda qo'lning quro'q bo'lishi.
3. Dazmolning me'yorda ishlashini nazorat qilish, nosozliklar to'g'risida o'qituvchiga xabar berish.
4. Dazmolni issiqqa bardoshli asbest, marmar yoki sopoldan tayyorlangan taglikka qo'yish.
5. Dazmolni tarmoqdan har doim faqat vilkasidan tutgan holda uzish.
6. Beton polli xonalarda dazmollash vaqtida albatta rezina taglikda turishi lozim.

Sanitar gigienik tlablar:

Vazirlik tasarrufidagi umum ta'lim maktablarda sanitar-gigienik talablar 2000 yil 26 dekabrda kuchga kirgan. Respublika Davlat sanitariya bosh shifokori B.Niyazmatov hamda Respublika xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari R.Aholidinovlar tomonidan 2000 yil 6 dekabr va 1 noyabrda tasdiqlangan SanPin № 0102-00 sonli normativ xujjat asosida bajarilmoqda.

Fan xonasidagi xujjatlar:

Texnologiya ta'limi fanining "Gazlamaga ishlov berish texnologiya" si yo'nalishi bo'yicha xonalarning jixozlanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

I z o h l a s h

| № | Nomlanishi | Donasi |
|---|------------------|--------|
| 1 | O'qituvchi stoli | 1 dona |
| 2 | O'qituvchi stuli | 1 dona |
| 3 | Sinf doskasi | 1 dona |

| | | |
|----|--|---------|
| 4 | O'quvchi stoli | 10 dona |
| 5 | O'quvchi stuli | 20 dona |
| 6 | Maneken (o'lchab ko'rish uchun gavda qolipi) | 1 dona |
| 7 | Jadvallar saqlanadigan quticha | 1 dona |
| 8 | Tikuv mashinasi | 10 dona |
| 9 | Overxlad | 1 dona |
| 10 | Bichish stoli | 1 dona |
| 11 | Tryumo | 1 dona |
| 12 | Dazmol doskasi | 2 dona |
| 13 | Dazmol | 2 dona |
| 14 | O'lchab ko'rish xonasi | 1 dona |
| 15 | Javon (bo'limli shkaf) | 1 dona |
| 16 | Davlat ramzlari | 1 kompl |
| 17 | Stend; "kasblar xaqida" va DTS | 1 dona |
| 18 | Stend; "xavfsizlik texnikasi" va "bichish va tikish qoidalari" | 1 dona |
| 19 | Stend; "tikilgan maxsulotlar ko'rgazmasi" | 1 dona |
| 20 | Stend; "xalq xunarmandchiligi" va "kiyim modalari" | 1 dona |

1.2 texnologiya ta'limi fanining "Gazlamaga ishlov berish texnologiya"si bo'yicha mashg'ulotlar quyidagilarga xizmat qiladi.

- texnik va texnologik kasb-xunar bilan tanishish, ongli ravishda kasbga yo'naltirish, turmushda zarur bo'lgan va imkon qadar ta'mirlash ishlarini bajarishga o'rgatib borish;
- zamonaviy liboslar texnologiyasi xaqidagi bilim saviyalarini shakllantirish.
- o'quvchilarning amaliy mashg'ulotlaridan foydalanib, ularning ijodkorliklarini rivojlantirish.

Xonaning o'quv moddiy texnika ba'zasi

Gazlamaga ishlov berish ustaxonasida quydagi maxsus tayyorlangan ko'rgazmali – tasviriy vositalar bo'lishi kerak.

| № | Nomlanishi | miqdori |
|----|--|-------------|
| 1 | Qo'l ishlarini bajarishda ishlatiladigan asboblari va moslamalar tasviri | 1-Dona |
| 2 | Qo'l choklar to'g'ri kulali choki, salqi chok, bezak chok, archa chok, zanjir chok, turlash choki, krest chok tasviri. | 1-komplekt |
| 3 | Tikuv mashinalarining tuzilishi. | 1-komplekt |
| 4 | Qo'l yuritmalik tikuv mashinasi. | 1-dona |
| 5 | Oyoq yuritmalik tikuv mashinasi | 1-dona |
| 6 | Elektir privodli tikuv mashinasi. | 1-dona |
| 7 | Gavdadan o'lchov olish tasviri va jadvali. | 1-dona. |
| 8 | Kashtachilikda ishlatiladigan choklar. | 1-komplekt. |
| 9 | Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob uskunalari. | 1-komplekt. |
| 10 | Zardo'zlikda ishlatiladigan naqsh turlari. | 1-komplekt. |
| 11 | Ro'mol chizmasi va uni o'lchamlari jadvali. | 1-dona. |
| 12 | Fartuk chizmasi va o'lchamlar jadvali | 1-dona. |
| 13 | Ko'ylakni asosiy andoza chizmasi va o'lchamlar jadvali. | 1-dona |
| 14 | YUpka chizmasi va o'lchamlar jadvali. | 1-dona |
| 15 | Ko'ylak chizmasi o'lchamlar jadvali. | 1-dona |
| 16 | Kiyimlarda uchraydigan no'qsonlarni tuzatish jadvali. | 1-dona |
| 17 | Kiyimda qoldiradigan chok haqqi jadvali. | 1-komplekt |
| 18 | Gazlamani xususiyatlariga oid jadvallar. | 1-komplekt |
| 19 | Kiyimni modellashtirish. | 1-komplekt |
| 20 | Quro'qda ishlatiladigan chizma va shablonlar. | 1-komplekt |

Texnologiya ta'limi xonasining zaruriy xujjatlari.

1. Xona pasporti.
2. Mavjud jixozlarni pasporti.
3. Texnika xavfsizligi bo'yicha olib borilgan jurnal.
4. O'quvchilarning xonalardan foydalanish qoidalari.

5. O'quv metodik ta'minot ro'yxati.

Xonaning o'tgan o'quv yilida bajarilgan ishlar taxlili.

| | | | |
|--|--|--|-------------|
| Xona va undagi jixozlar qaysi sinflar uchun mo'ljallangan. | Jixozlash va ta'mirlash uchun nima qilinadi. | Qaysi turdagi didaktik jixozlar sotib olinadi. | Eslatmalar. |
| | | | |

Texnologiya talim xonasining ish rejasini tuzishga qo'yiladigan talablar texnologiya ta'lim xonasining rejasi o'qituvchi tomonidan tuziladi.

Xonaning yangi o'quv yiliga tayyorgarligi xaqida dalolatnoma

| № | | 2018- 19 y | 2019-20 y | 2020-21y |
|---|----------------------------------|------------|-----------|----------|
| 1 | Xona pasporti | | | |
| 2 | Texnik xavfsizlik doidasi | | | |
| 3 | Xonalardan foydalanish qoidalari | | | |
| 4 | Xona rejasi | | | |
| 5 | Xona ish tartibi | | | |

2. Xonaning o'quv metodik taminot bilan bezatish.

1. Ta'minlanishi

-o'quv jixozlar bilan

-o'quv metodik qo'llanmalar

-texnika vositalari majmuasi

2. Mavjud to'plami -na'munaviy ishlar

-testlar

-nazorat

topshiriqlar

-tarqatma materiallari

3. Joyni maksimal tashkillashtirish

-o'qituvchining o'rni

-o'quvchining o'rni

4. Doimiy va almashtiruvchi

- axboprotlar bo'yicha stendlar mavjudligi
- ko'rgazmali qurollar
- amaliy bajarilishi qoidalari
- test bilan ishlash
- topshirilgan ishlar nazorati

Texnologiya va dizayn yo'nalishi.

texnologiya ta'limi tarbiyasini to'g'ri qo'yish, o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan qiziqishlarini hosil qilish, ularda texnologiya madaniyatini shakllantirish, turli kasblarga qiziqish uyg'otish, amaliy mashg'ulotlarning samarali o'tish, o'quv ustaxonalarini barcha talablarga javob berishi jixozlanishga ko'p jixatdan bog'liq.

O'quv ustaxonalarini estetik jixatdan ta'minlash o'quvchilarning fikrini jalb etish, xavas uyg'otish, xafsizlik texnikasi talablariga rioya qilishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun barcha turdagi ish o'rinlarini tashkil qilishda jixozlarni, ko'rgazmali qo'llanmalarni joylashtirishda alohida e'tibor berish zarur. O'quv ustaxonalarini jixozlashda yuqori sinf o'quvchilari tayyorlaydigan na'munalarni namoyish qilish, yosh xunarmandlarning o'rganayotgan kasbga qiziqishini ortirib boshida alohida ahamiyat kasb etadi.

Chilangarlik va Yog'och ustaxonalarida o'quvchilar metall va Yog'och buyumlariga qo'lda, dasgohlarda ishlov berishni, elektrotexnika ishlarini o'rganishadi. Shunga muvofiq chilangarlik va Yog'ochga ishlov berishda hamda qirqish dastgohlari, yordamchi moslama, jixoz va uskunalar bilan jixozlanadi.

Chilangarlik va Yog'och ustaxonalarida sanitariya-gigiena, texnologiya xavfsizligi, hamda o'quv jarayonini tashkil qilishning zamonaviy talablariga to'la javob berishi zarur.

Ustaxonalar bevosita maktab binosi ichida yoki maktab yoniga qurilgan, alohida binoda bo'lishi lozim. Ustaxonalar ikkita iqtisoslashtirilgan xona-duradgorlik va chilangarlik o'quv ustaxonalari orasiga yoki ulardan bir xona masofa uzoqlikda joylashtiriladi. Asbob va kerakli asbob uskunalar, xom-ashyo materiallari, yarim tayyor va tayyor maxsulot saqlanadi.

Me'yor bo'yicha o'quv ustaxonalar maydoni 70 m² gacha, asbobxona maydoni -20m² bo'ladi. Biriktirilgan (kombinirovonnii) ustaxonasi maydoni - 90m² gacha bo'ladi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining ish o'rnini tashkil qilish.

O'qituvchining ish o'rni o'lchamlari 3600 x 2000 x 200 yoki 3000 x 1500 x 150 bo'ladi, supacha taglik-ustida joylashadi. Bu erda sinf chilangarlik dastgohi, sinf doskasi, sinf chizmachilik asboblari komplekti bilan ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari, shkaf va texnik o'qitish vositasi (TO'V) joylashadi. Sinf doskasi yonida yoki shunga yaqin joyda umumiy elektr taqsimlagich, alohida umumiy saqlagichli rubnik va har bir dasgohga alohida saqlagich bilan o'rnatilishi lozim. Bu moslama dasgohni ishga sozlash yoki dars vaqtida tuzatish, ayrim xavfli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Vertikal-parmalash va charhlash ustaxonalarida o'qituvchi stoli yaqiniga joylashtirilgan bo'lishi shart.

O'quvchilarning individual ish o'rnini tashkil qilish.

O'quvchilarning individual ish o'rni o'quv ustaxonasida ma'lum maydonini egallaydi, xonada etarlicha asbob uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi shart. O'quvchilar bu erda metall va Yog'ochga ishlov berish, yig'ish va boshqa ishlarni o'rganadilar va bajaradilar. Buning uchun har bir ish o'rniga o'ziga xos vositalar asbob uskunalar kerak bo'ladi. O'quvchilarning ish o'rinlarini ratsional ishlash, o'quv mashg'ulotlarni zamon talabiga mos ravishda o'tkazish, texnologiya samaradorligini va ish sifatini yaxshilash o'quvchilarni charchashlarini kamaytirishga yordam beradi.

Meyor bo'yicha bir ish o'rniga 3,5 yoki 4 m² maydon ajratiladi. Bu maydon chilangarlik darsini o'rgatishga va o'quvchilarni xafvsiz bo'lishi, xalokatlarni oldini olishni ta'minlaydi. Chilangarlik dasgohlari o'quvchi bo'yiga mos ravishda bo'lishi kerak. Chizma sxema, texnologik karta va boshqa texnologik xujjatlarni joylashtirish uchun dasgohga maxsus taglik o'rnatiladi. Chizma sxemalarni bajarish uchun maxsus yig'ma stolcha va chizmachilikka asoslangan stul bo'lishi kerak. O'quvchilarni ish o'rnini jihozlashda tanlab olingan jihozlar, asbob

uskunalarning tavsifnomalarni taxlil qilish ,xususan, konstruksiyasining ratsiyonalligi, estetik bajarish, o'quv jarayonida qulayligi va imkoniyatiga e'tibor berish kerak. Tanlab olingan jihoz, dasgoh har bir o'quvchining texnologiya ta'limi bo'yicha DTS da rejalangan texnologiya usullari jarayonida mashqlari va xarakterlarining bajarilishini ta'minlanishi kerak va barcha o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajararish imkonini berishi kerak.

Umumjamoa foydalanadigan ish o'rinlarini tashkil etish.

Metall va Yog'ochga ishlov berish o'quv ustaxonalardagi umumjamoa foydalanadigan jihozlar.

-metall va Yog'ochga ishlov beruvchi va qirquvchi dasgohlar.

-mufel pechkasi

-metal list va simlarni eguvchi kesuvchi universal moslamalar.

-elektr kavsharlash va kuydirish (el. Payka pitaniya)

-komplekt moslamali;

Stanokda ish o'rinlari tumbochka javonlar bilan jihozlanadi va ularga o'lchash asboblari haqidagi hujjatlar xom-ashyo hamda stanoklarni qirqish asboblari saqlanadi.

Yog'ochga va metalga qo'lda ishlov berishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilish talablari.

1. Ish boshlagunga qadar

1. Mahsus ishchi kiyimlarini kiyib olish .

2. Metal qirqish ishlarini bajarishda ko'zoynaklarni taqib olish .

3. Barcha asboblarni o'z o'rnida ekanligini tekshirib ko'rib nosoz ishchi asboblarni mavjud bo'lgan holda o'qituvchiga habar berish.

4. Dasgoh va uskunaning sozligini tekshirish

2. Ish vaqtida

1. Ishlov beriladigan materialni dasgohga tahsim qilib siqib quyish.

2. Ishni faqat soz, to'g'ri sozlangan asbobda ishlash.

3. Ishlov berilayotgan yuzani silliqqligi bilan tekshirilmaydi.

4. Gaykadan ko'ra kattaroq kalitlardan fodalanilmaydi, kalitni qo'shimcha vositalar birlashtirish taqiqlanadi.

5. Chilangarlik asboblardan faqat o'z vazifasiga ko'ra foydalanish

6. Metalni qaychi bilan qirqishda qo'lida qo'lqop bo'lishi kerak

3. Ish tugagandan so'ng.

1. Asboblarning holatini tekshirib ko'rib, nosozliklar to'g'risida o'qituvchiga xabar berish

2. Asboblarni tozalash va soz holatga keltirish.

3. Ish o'rnini tartibga keltirish, chiqindini mahsus qutiga tashlash.

4. Asboblarni o'qituvchi joylashtirgan tartibga o'rniga qo'yish

Texnologiya ta'limi fanining "Metall va Yog'ochga ishlov berish texnologiya"si yo'nalishi bo'yicha asboblarni jihozlanishi o'z ichiga oladi.

| № | Nomlanishi | Miqdori |
|----|----------------------|---------|
| 1 | O'qituvchi stoli | 1 dona |
| 2 | O'qituvchi stuli | 1 dona |
| 3 | Sinf tahtasi (doska) | 1 dona |
| 4 | Verstak-universal | 20 dona |
| 5 | O'quvchi stoli | 20 dona |
| 6 | Arra | 20 dona |
| 7 | Randa | 20 dona |
| 8 | Iskana | 20 dona |
| 9 | Yirik tishli egov | 10 dona |
| 10 | Guniya | 20 dona |
| 11 | To'qmoq bolg'a | 20 dona |
| 12 | Lobzik arra | 20 dona |
| 13 | Qo'l parmasi | 20 dona |
| 14 | Javon (shkaf) | 1 dona |
| 15 | Ombir | 10 dona |
| 16 | YAssi ombir | 10 dona |

| | | |
|----|----------------------------------|---------|
| 17 | Yapaloq egov | 10 dona |
| 18 | Yog'ochga ishlov berish dastgohi | 3 dona |
| 19 | Parmalsh dastgohi | 1 dona |
| 20 | Charh dastgohi | 1 dona |
| 21 | Arralash va randalash dastgohi | 1 dona |

O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish ruhida halq va milliy hunarmandchilikni qadrlash, texnologiya mahorati, malaka qobiliyatlarini shakllantirish. Umumiy kasb-hunar bilan tanishish ongli kasb tanlash, turmushda zarur bo'lgan ishlarini o'rgatib borish. O'quvchilarni amaliy mashg'ulotlardan foydalanib ularning ixtidorlarini rivojlantirish.

5. Fan xonasini moddiy texnika bazasi

1. Texnologiya va dizayn yo'nalishida quyidagi maxsus tayyorlangan ko'rgazmali tas'viriy vositalar bo'lishi kerak.

| № | Nomlanishi | Miqdori |
|----|---|---------|
| 1 | Duradgorlik dastgohining tuzilishi | |
| 2 | STD-120 Yog'ochga ishlov berish tokarlik dastgohini tuzilishi | |
| 3 | Charxlash elektr dastgohining tuzilishi | |
| 4 | Parmalash elektr dastgohining tuzilishi | |
| 5 | Arralar turlari | |
| 6 | O'lchash va rejalash asboblari | |
| 7 | Dastgohning kinematik tuzilishi | |
| 8 | Keskich turlari | |
| 9 | Naqsh turlari | |
| 10 | Burama moslama va uning tuzilishi | |
| 11 | Randa turlari | |
| 12 | Ombirlar | |
| 13 | Frezalash dastgohining tuzilishi | |

| | | |
|------|--|--|
| 14 | Randalash elektr dastgohining tuzilishi | |
| 15 | Konussimon va naqshli suratlar chizmasi | |
| 16 | O'yib va yo'nib ishlatiladigan detallar eskizi | |
| 17 | Texnologik xaritalar | |
| 17,1 | Jo'va yasash | |
| 17,2 | Konussimon oyoq yasash | |
| 17,3 | Egov dastasini yasash | |
| 17,4 | Asbob saqlanadigan planshet yasash | |

1. Nazorat savollari

- O'quv ustaxonasiga qo'yilgan talablar
- texnologiyani ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz
- O'qituvchining ish o'рни
- O'quvchining ish o'rnini tashkil qilish

2. Test savollari

- Qaysi javobda ish o'rniga to'g'ri ta'rif berilgan.
 - Barcha turdagi ishlarni bajarish uchun jixozlangan o'quv ustaxonasining bir qismiga ish o'рни deyiladi
 - O'quv ustaxonasining istalgan joyi ish o'рни
 - Stanok o'rnatilgan joy ish o'рни hisoblanadi
 - Sinf taxtasining oldi ish o'рни deyiladi
- O'quv ustaxonalarida funksional belgilarga ko'ra qanday jixozlar o'rnatiladi.
 - O'quvchilarning ish joylaridagi yakka foydalaniladigan jixozlar
 - Umumiy foydalaniladigan jixozlar
 - Avtomat va yarim avtomatlar
 - D. Hammasi to'g'ri
- Uslubiy xonalar ishini tashkil etishning qanday usullari mavjud.
 - O'qituvchilarni darsga tayyorlanish hamda o'zining pedagogik malakalarini oshirish yuzasidan olib boradigan mustaqil ishlar
 - Maslahatlar, ma'ruzalar, ish tajribalari haqida plakatlilar
 - Seminar mashg'ulotlari uslubiy o'quv materiallari vaqtli matbuot, darslik va o'quv qo'llanmalari sharxlari

D. Ilg'or pedagogik ish tajribalarini umumlashtirish va yoyish, texnik hamda ilmiy texnik filmlar ko'rsatish

4. O'quv ishining turiga qarab ta'lim berish uslublari qanday klassifikatsiyalanadi.

A. Bilimlarni o'zlashtirishning dastlabki bosqichi

B. Bilimlarni takomillashtirish

S. Bilimlarni berish va tekshirish

D. Faqat A to'g'ri

3. Tayanch iboralar

1. O'quv ustaxonasi

2. Ish o'rinlari

3. texnologiyani ilmiy tashkil etish

4. Uslubiy xonalar

5. Xavfsizlik texnikasi

8-MA'RUZA. TEXNOLOGIYA FANIGA OID METODIK ISHLAR.

Reja:

1. Maktablarda ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish.

2. Maktab ilmiy-uslubiy kengashining vazifalari.

3. Ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirish omillari.

4. Uslubiy ishlarni rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.

5. Metodik adabiyot bilan ishlash.

MA'RUZA BAYONI:

Maktablarda ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish. Maktablarda ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari mohir pedagog va kasb-hunar sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo'lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olish va malaka oshirish kurslari orqali ilmiy-uslubiy ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak.

Maktab ilmiy-uslubiy kengash vazifalari

maktab pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy saviyasini, pedagogik mahoratini oshirish;

talabalarni milliy mustaqillik ruhida tarbiyalash mazmuni, shakl, usul va vositalarini takomillashtirish;

ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umummilliy, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikning uzviyligini ta'minlash;

ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga

Maktablarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni, tashkiliy shakllari va ularga rahbarlik qilishga ta'lim tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqadigan quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: G'oyaviy yo'nalganlik, Ilmiylik. Aniq bir maqsadga qaratilganlik va tizimlilik. Ijodiy yo'nalganlik. Ta'sirchanlik va jozibadorlik. Maktablaridagi uslubiy ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilar uslubiy ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu Nizomga muvofiq, jamoaviy va individual tarzda uslubiy ishlar olib boriladi. **Quyidagilar jamoaviy uslubiy ish shakllari sirasiga kiradi:** pedagogik kengash; uslubiy komissiyalar; ilg'or tajriba maktab, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiyalar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual uslubiy ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: maktablari rahbarlari, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasbiy mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil uslubiy ishlari; maktab rahbari (direktor), uning o'rinbosarlari, katta usta, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar va boshqa muhandis-texnik xodimlar bilan olib boradigan individual uslubiy ishlari.

Uslubiy ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham, pedagogik xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdiridagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Maktabda uslubiy ishlarni umumiy mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Uslubiy ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, Maktab ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammolarni hal etishga muayyan hissa qo'shadi, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirish omillari. Ushbu mavzu maktab ishining muayyan bosqichida uning uchun dolzarb bo'lishi: kasbiy ta'limga oid avvalgi tajribalarga bog'liq va ularning uzviy davomi bo'lishi; ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasiga yangilik kiritilishi; daliliy materiallar bilan boyitilishi, umuman, ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Bunday mavzularga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirish omillari

- o'quvchilarda dialektik dunyoqarashni tarkib toptirish;
- tahsil oluvchilarning ta'lim jarayonida faolligi va mustaqilligini tarkib toptirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- ta'lim-tarbiya va rivojlantirishning birligini ta'minlash;
- predmetlararo aloqadorlikni ta'minlash;
- ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
- tahsil oluvchilarda mehnatga va jamoat mulkiga ongli munosabatni shakllantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish;
- fanlar va kasblarning majmuaviy uslubiy ta'minlanishi;
- darajasi samaradorligini oshirish yo'llari.

Uslubiy ishlarni rejalashtirishga qo'yiladigan talablar.

Uslubiy ish maktabning istiqbol va joriy ish rejalarida mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari maktablarining ichki nazorat rejalarida o'z aksini topadi.

Uslubiy ishlarni rejalashtirishga qo'yiladigan talablar

- kelgusidagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);
- rejalarni talim-tarbiya va uslubiy ishning ahvoli va natijalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;
- rejalarning ijodiy xarakteriga, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish etilishiga yetarlicha imkoniyat yaratish;
- uslubiy ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un ravishda qo'shib olib borish;

Uslubiy ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etishini hisobga olib, tadbirlarni mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning bir necha marta takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotda uzoq vaqtlardan beri «Uslubiy ishlarining umumiy rejasi» tuziladi. Bunday rejada maktabdagi barcha uslubiy ishlar tizimi taqvim muddatlar va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi. quyida pedagogik amaliyotda keng ko'lamda qo'llanilayotgan ana shunday reja shaklini keltiramiz.

Maktabdagi uslubiy ishlarning aniq shakllarini maktab pedagogik kengashi belgilaydi. Maktab rahbari (direktor) uslubiy ishlarga umumiy rahbarlik qiladi.

U «Uslubiy ishlarning rejasi»ni tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instniktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchi va pedagoglar o'tkazadigan mashg'ulotlarni tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning uslubiy ishlariga rahbarlik qiladi, o'rta-maxsus, o'zi rahbarlik qilayotgan maktabdagi uslubiy ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Direktorning o'quv-ishlab chiqarish ishlari bo'yicha o'rinbosari, umuman, maktabdagi uslubiy ishlarning, shuningdek, maxsus fanlar turkumi o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi.

Ijtimoiy o'quv predmetlari va tarbiyachilar bilan olib boriladigan uslubiy ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan uslubiy ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qiladi. Quyidagilar direktor o'rinbosarlarining xizmat vazifalariga kiradi:

- maktabdagi «Uslubiy ish rejasi»ni tuzish;
- uslubiy komissiya majlislari, instruktiv-uslubiy kengashlar va boshqalar uchun haftaning doimiy kuni va oying doimiy haftasini belgilash;
- ochiq darslar o'tkazish, bir-birining darslariga kirish jadvalini ishlab chiqish;
- o'quvchilar va o'qituvchilar bilan olib boriladigan individual uslubiy ishlarni rejalashtirish;
- maktab pedagogik kabineti ishini yo'lga qo'yish va uslubiy komissiyalar raislariga yordam berish;
- o'qituvchilar va muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda ularning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'zi o'qitadigan o'quv predmetining o'qitish vositalari bilan majmuaviy ta'minlash;
- ilg'or tajribalar, zamonaviy texnologiyalar, vositalarni o'rganish hamda amalga joriy qilishda o'qituvchilarga yaqindan ko'mak berish;
- maktabdagi uslubiy ishlarning borishi va natijalari haqida pedagogik kengashga hisobot berish kabilar.

Uslubiy ishlarining umumiy rejasi 2017/18 o'quv yili uchun N2 sonli maktab.

Maktab jamoasi uslubiy ishlariuing mavzulari

| | | Uslubiy komissiyalar | | | | | | | | | | | | | |
|----|-------------------|---|-------------------|-----------------|------------------|---|-------------|---------------|------------------------------|-----------------------|------------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|---------|
| Oy | Pedagogik kengash | Maxsus fanlar va ishlab chiqarish ta'limi | Umumkasbiy fanlar | Ijtimoiy fanlar | Umumilmiy fanlar | Boshlang'ich harbiy tayorgarlik va jismoniy tarbiya | murabbiylar | Tarbiyachilar | Instruktiv-uslubiy majlislar | Ilg'or tajriba maktab | Ilmiy amaliy konferensiyalar | Seminar-amaliyotlar | Pedagogik o'qishlar | Ma'ruza, sayohatlar | Eslatma |

Metodik adabiyot bilan ishlash. O'qituvchilarga mustaqil bilim olishlariga metodik adabiyotlar katta yordam beradi.

Adabiyotlarning shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Birinchi guruh texnologiya ta'limi jarayonida o'rganiladigan faktli material bayon qilinadigan adabiyotlar kiradi. Bu material o'quvchilar uchun talab qilinagidan ko'proq va cho'qurroq bayon qilinadi. O'qituvchi o'quv dasturidan tashqari savollarga xam javob berishga tayyor turishi kerak.

Bunday adabiyotga «Texnichiskiy spravochnik uchitelya truda» (M.Prozvisheniya. 1980) kitobi misol bo'ladi. «Maktab va ishlab chiqarish» jurnallarida fan va texnika sohasidagi yuto'qlar xaqida o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar muntazam chop etiladi.

2. Ikkinchi guruh texnologiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi yoritilgan adabiyotlar kiradi. Bunday adabiyotlarda metodikaning umumiy masalalari yoritiladi.

«Texnologiya politexnika ta'limi didaktikasi» (Varob'ev A.I. T., «O'qituvchi» 1997 y) Bunda o'quv dasturining ayrim bulim va mavzularini o'qitish metodikasi

darslar bo'yicha metodik ishlanmalar tarzida yoki umuman maktab o'quv dasturlari ko'zda tutilgan mavzu va bo'limlariga daxldor tavsiyalar tarzida bayon qilishi mumkin.

Bunday qo'llanmaga «Texnologiya ta'limi» (Varob'ev A.I. va boshqalar «O'qituvchi» 1992 y.) va boshqalar misol bo'ladi.

3. Metodik adabiyotlarning texnologiya ta'limi jarayonida paydo bo'ladigan ayrim masalalarni qarashga bag'ishlangan uchinchi guruhga juda ko'p adabiyotlar kiradi. Masalan P.R. Atutov va boshqalar «Texnologiya ta'limini fan asoslari bilan aloqasi» (M. «Prosveshenie» 1992 g.) I. Gariev «Trudovoe vospitanie v sel'skix shkolax O'zbekistana» («O'qituvchi» 1988 y.)

O'qituvchilarni mustaqil bilim olishlarini «Xalq ta'limi», «Ishlab chiqarish ta'limi» jurnallari xam muxim rol o'ynaydi. Ular maktab va kasb-xunar maktablarida texnologiya ta'limi, ishlab chiqarish ta'limi va tarbiyasiga bog'lik ishlarni o'zida aks ettirib boradi. Ularda texnika, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish texnologiyai, sinfdan va maktabdan tashqari ish jarayonida mashg'ulotlar o'tkazish metodikasiga doir quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

texnologiya va ishlab chiqarish ta'limiga oid kitoblarga yozilgan taqrizlar e'lon qilinadi;

chet ellarda texnologiya va ishlab chiqarish ta'limini yo'lga qo'yish tajribalari yoritiladi;

ilg'or texnologiya va ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchilari, ishlab chiqarish ustalari xaqida hikoya qilinadi.

Nazorat uchun savollar :

Texnologiya fani o'qituvchisiga qanday talablar qo'yiladi ?

Maktablarda ilmiy-uslubiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish qo'yilgan talablarni aytib bering.

Maktab ilmiy-uslubiy kengashining vazifalari nimalardan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonini sifat va samaradorligini oshirish omillarini izohlang.

Uslubiy ishlarni rejalashtirishga qo'yiladigan talablarni ayting.

Metodik adabiyot bilan ishlash usullarini aytib bering.

Texnologiya fani o'qituvchilariga mo'ljallangan asosiy metodik qo'llanmalarni aytib bering.

Bilimingizni tekshirib ko'ring.

1. Tarbiyaviy faoliyat to'g'ri ta'riflangan variantni aniqlang.

A) pedagogik jarayonda o'z hissiyotlarini boshqarish

*B) darsdan tashqari ishlarni, ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlaridagi tarbiyaviy yondashuvlari, talabalar bilan faol ishlashni, guruhiiy ishlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

C) xohish va istaklarni boshqarish

D) o'zliklarini anglash

E) o'quvchilarning faol ishlarini qo'llab-quvvatlash.

Kasbiy faoliyat mazmunining asosi nima?

*A) malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifa

B) ishlab chiqarish ta'limi

C) bilim va ko'nikmalar

D) ilmiy bilimlar

E) ijodiy yaratuvchanlik

Didaktik vazifaga ko'ra dars tipini aniqlang.

A) amaliy mashg'ulot

B) nazariy mashg'ulot

*C) umumlashtiruvchi takrorlash darsi

D) guruhiiy darslar

E) qo'shma dars

Refleksiv qobiliyatlar nima?

*A) o'qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlan

B) ijodkorlik mahorati

C) ilmiy bilimlari

D) kasbiy mahorati

E) fikrlash texnikasi

Layoqat nimani anglatadi?

- A) ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omil
- B) ob'ektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilish
- *C) shaxsning tabiiy tug'ma xususiyatlari bo'lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyatga aylanadi
- D) insonlarning qiziqishi
- E) insonlarning xohishi

9-MA'RUZA.TEXNOLOGIYA FANIDA BAHOLASH ME'ZONLARI.

Reja:

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash usullari.

Boholash me'zonlarini ishlab chiqish bo'yicha umumiy tavsiyalar.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish usullari.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishga doir didaktik masalalar.

Bulim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash va uning me'zonlari.

MA'RUZA BAYONI.

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash usullari. O'quvchilar o'qish jarayonida bilim ko'nikma va malakalarni egallaydilar. Bilimlarda obektiv dunyo umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish dalillar, tushunchalar va qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi.

O'rganilgan bilimning ta'sirchanligi, o'qiganlarini bermalol egallab, ulardan turli sharoitlarda, jumladan, yangi bilimlarni egallash uchun foydalana bilish, bilimlarning to'laligi va cho'qurligining muhim ko'rsatkichidir.

Ko'nikma-kishining ma'lum bir xatti-harakatlarni ongli ravishda bajarish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi.

Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlar tufayli xatti-harakatlarning ayrim bosqichlari va ularning ketma-ketligi tushuntiriladi.

Ko'nikmalar bu amaldagi bilimlardir

Malaka-mashq qilish yo'li bilan hosil bo'ladigan ish-harakatdir. Mashq qilish natijasida yurish, o'qish, yozish, og'zaki hisoblash, xilma-xil texnologiya jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi. O'quvchi xatti-harakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni avtomatik ravishda

bajaradi. Lekin boshlang'ich bosqichda harakat doimo ongli suratdabajariladi. Masalan, tikuv mashinasiga ip taqish ketma-ketligini tasavvur qilish, kerakli ip va ignani tanlash lozim. O'quvchilarni ip taqishni bir necha marta takrorlagandan so'ng, xatti-harakat odatga aylansa u ongning zohiriy ishtirokisiz bajariladi. Yangi tikuv mashinasiga iplarni taqish, gazlamani tepki ostiga o'rnatish va mashinani ishga tushirish ishlarini ko'p marta takrorlash keyinchalik bu harakatlarning avtomatik tarzda bajarishga olib keladi.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bos-qichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha umumiy tavsiyalar


o'quvchilarning nazariy, texnika va texnologiyaga doir bilimlarni va dastlabki ko'nikmalari bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish kerak;

Texnologiyaga, texnikaga, iqtisodiyot va mehnatni hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni; asosiy texnologik operatsiyalar va texnologik jarayonlarni bilishni; asosiy asbob va moslamalarni (o'lchov tekshirish moslamalarini, priborlar, stanoklar, mashinalarni va agregatlarning vazifasini, ishlash prinsipini, boshqarilishini, ta'mirlanishi va hokazolarni) bilishni;

- xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalarini bilishni; asosiy manbalarni, ta'limning texnik va didaktik vositalarini va ulardan foydalanishni bilishni; har xil o'quv fanlari (matematika, kimyo, fizika va h.k) bo'yicha tegishli ma'lumotlardan foydalana olish ko'nikmasini; ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni hal qilish (material tanlash, ishlatish xususiyatlarini hisoblash va h.k) uchun turli bilimlardan mustaqil foydalanishni; - buyumlar tayyorlashning sifatini nazorat qilish ko'nikmasini.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini cho'qur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, amaliyotda esa materialni yaxshi

bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifi, kasb-hunar maktabida va uydagi ishining uslubini takomillashtirish. bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yuto'qlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni engish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini tuyg'ularini, uning xarakteridagi iroda, hamkorlik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi lozim bo'ladi. Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib etadi. SHu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining mezonini deb ham aytish mumkin. Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, otalarining unga, uning maktabdagi yuto'qlariga va muvaffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqto'v, ma'qullash. Tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqeyini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega.



Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish og'zaki, yozma va amaliy bo'lishi mumkin. **Og'zaki tekshirish.** O'quvchilar bilim saviyasini puxtaligiga va

ongliligini aniqlash imkonini beradi. **Bilimlarni yozma tekshirishda** o'quvchilar bilimni «sinab» ko'rish kerak bo'lganda, o'quvchilar u yoki bu masala bo'yicha qanday bilimlar bilan kelgani va bilimlar mazmuni o'rgangandan keyin qanchalik bo'lganini aniqlash zarur bo'lganda qo'llaniladi. **Bilimlarni amalda tekshirishda** o'quvchilarning texnologiya darslaridagi faoliyati, ijtimoiy foydali buyumlarni tayyorlashdan iborat bo'ladi va shu yo'l bilan moddiy ifodalashni topadi. Keyingi yillarda o'quvchilar bilimlarini dasturlashtirilgan va test reyting sistemasida nazorat qilishdan keng foydalanilmoqda. Bunda so'rash vaqti qisqaradi va unga hamma o'quvchilar qatnashadi. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish jarayonini quyidagi didaktik masalalar hal qilinadi. 1. Bilim, ko'nikma va malakalar sifatini aniqlash. Bilim, ko'nikma va malakalarning sifati eng avvalo ularning puxtaligi bilan xarakterlanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning sifati ko'p jihatdan ularning «ixchamligi» ya'ni ularni o'quvchilar yangi texnologiya sharoitida qanchalik qulay o'zlashtira olishlariga bog'liq. 2. O'quvchilarni o'quv faoliyatida rag'batlantirish. O'qituvchi tekshirish jarayonida o'smirlarning ishlaridagi xatolarini ko'rsatadilar, ularni bartaraf qilishga yordam beradilar. Ishni to'g'ri tashkil qilish, texnologiya topshirig'iga sifatli bajarishga ishtiyoqni uyg'otadi. 3. O'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazishdagi no'qsonlarni aniqlashda yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishda o'z ishining sifati haqida ham hukm chiqaradi. O'quvchi faoliyatida tipik xatolar uchrasa, bu o'qituvchi ishida kamchilikni bildiradi. Aks xolda, o'quv materialini tushunarli bayon qilmagan degan xulosa chiqadi. 4. Bolalarda o'z- o'zini nazorat qilish malakalarini tarkib toptirish. O'qituvchi ko'nikma va malakalarni tekshirishga o'quvchilarning o'zlarini ham jalb etiladi. 5. O'qituvchi darsga tayyorlanishda texnologiya topshirig'ini bajarish uchun o'quvchilarga qanday bilim kerakligini, ularni ko'nikma va malakalardan foydalanishini aniqlaydi va shunga tekshirish o'tkazadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish baholash bilan yakunlanadi. texnologiya mashg'ulotlarida boshqa o'quv fanlaridagidek baholashning besh balli sistemasidan foydalaniladi.

Bahotexnologiya jarayoning texnologiya no'qtai nazaridan tugallangan bosqichlari uchun qo'yiladi. Operatsiya (rejalash, parmalash va hokazo) ba'zi xollarda esa o'tish (m: bir sirtini tirik tishli egov bilan egovlash) ana shunday bosqich xisoblanadi.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishga oid didaktik masalalar.

1. Bilim, ko'nikma va malakalar sifatini aniqlash. Bilim, ko'nikma va malakalarning sifati eng avvalo ularning puxtaligi bilan xarakterlanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning sifati ko'p jihatdan ularning «ixchamligi» ya'ni ularni o'quvchilar yangi mehnat sharoitida qanchalik aulav o'zlashtira olishlarida bog'liq.

2. O'quvchilarni o'quv faoliyatida rag'batlantirish. O'qituvchi tekshirish jarayonida o'smirlarning ishlaridagi xatolarini ko'rsatadilar, ularni bartaraf qilishga yordam beradilar. Ishni to'g'ri tashkil qilish, mehnat topshirig'iga sifatli bajarishga ishtiyoqni uyg'otadi.

3. O'qituvchi darsga tayyorlanishda mehnat topshirig'ini bajarish uchun o'quvchilarga qanday bilim kerakligini, ularni ko'nikma va malakalardan foydalanishini aniqlaydi va shunga tekshirish o'tkazadi.

4. Bolalarda o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini tarkib toptirish. O'qituvchi ko'nikma va malakalarni tekshirishga o'quvchilarning o'zlarini ham jalb etadi.

5. O'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazishdagi nuqsonlarni aniqlashda yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishda o'z ishining sifati haqida ham hukm chiqaradi. O'quvchi faoliyatida tipik xatolar uchrasa, bu o'qituvchi ishida kamchilikni bildiradi. Aks xolda, o'quv materialini tushunarli bayon qilmagan degan xulosa chiqadi.

Baho ob'ektiv bo'lishi zarur. Bahoga o'quvchilarning intizomi ta'sir qilmasligi kerak. Bahoning ob'yektivligi, ayrim o'quvchilarning texnologiyai natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumning miqdori va hokazolar) ga asoslanadi. Bahoning yagona talablar asosida qo'yilsa, u ob'ektiv bo'ladi. 1. **Ishlash aniqligi.** Aniqlik – har qanday mahsulotni, shu jumladan mashinasozlik va Yog'ochni qayta ishlash sanoatlari mahsulotlarini

tayyorlashga qo'yilgan talablardir. **2.Vaqt normasi.** Vaqt normasini kiritish o'quvchilarning aniqlik va boshqa texnik talablarni nazarda tutishga majbur qiladi. U texnologiya unumdorligini oshirishga, ratsionalizatorlikka undaydi. Vaqt normasini belgilashda dam olish vaqtini ham qo'shish kerak.**3.O'quvchilarning bilimlari.** O'qituvchilarning amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil etiladi. SHuning uchun o'quvchilar bilimlarining xajmi, qanchalik cho'qur o'zlashtirilgani hisobga olinadi.**4.Texnologiya usullarini to'g'ri bajarish.** Har birtexnologiya usullari uning ketma-ketligi shunday tashkil etiladiki eng kam texnologiya sarf etishi va yuqori texnologiya unumdorligiga erishishi lozim.**5.Ish o'rnini tashkil etish.** Ish o'rinni tashkil etishtexnologiya unumdorligiga yordam beradi. SHuning uchun bunga birinchi mashg'ulotdayoq e'tibor beriladi.**6.Texnologiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.** Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalarni buzilsa, jaroxatlanish xavfi tug'iladi. O'quvchilartexnologiya xavfsizligi qoidalarini buzadilar, bunday o'quvchilarni baholarini kamaytirish kerak.

O'quvchilarning bilim, malaka, ko'nikma BA КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ

- Nazariy va texnologik bilimlar me'yori va ularni amaliy ish jarayonida qo'llay bilish.
- Asboblarni, moslamalar va boshqa jihozlarni bilishi va ularni ishga sozlay olishi.
- Amaliy ish jarayonida texnika xavfsizligi va sanitariya gigiyena talablarini bajara bilish.
- Ajratilgan vaqt normasida bo'lishi, operatsiyalarni bajarilishi.
- Mehnat usullarini qanchalik egallay bilishi.
- Dars jarayonida yozma va grafik hujjatlardan foydalana bilishi va ularni oddiylarini tuza bilishi.
- Ish joyini nechog'lik to'g'ri tashkil qila bilish.
- Materiallarni tanlay bilishi, asbob - uskunalarga munosabati.
- Nechog'lik mutaqqil ishlay bilishi va texnik ishlashi.
- Buyumni tayyorlash sifati (silliqligi, pardoz andoz h.k.).

Баҳолаш меъзонлари

«5» ball – hamma talablar bajariladi, shu bilan birga o`lchamlarning aniqligi dopusk maydonining 1/3 atrofida bo`ladi.

«4» ball – javoblarida noaniqliklarga yo`l qo`yiladi. Ular o`quvchilar tomonidan tuziladi. Aniqligi $\frac{1}{2}$ qismi atrofida bo`ladi. Vaqt normasi belgilanganidan 10-15 % ortiq bo`ladi. Mehnat xavfsizligi va ish o`rnini tashkil etish qoidalari buziladi.

«3» ball – javoblarda noaniqlikka yo`l qo`yiladi. Bular O`qituvchi yordamida tuziladi, dopusk maydoni ichida o`zgaradi, vaqt normasi 10 % dan ortiq bo`ladi, mehnat usullarini noto`g`ri bajarish, mehnat xavfsizligiga va ish o`rnini tashkil qilish noto`g`ri bajarish yuz beradi. O`qituvchi tushuntirsa xam xatolar takrorlanadi.

«2» ball – asosiy qoidalarni bilmayidilar, buyum o`lchash dopusk maydonidan chetga chiqadi, mehnat xavfsizligi qoidalarini va ish o`rnini tashkil qilish ko`p buziladi, mehnat usullari noto`g`ri bajariladi.

«1» ball – O`qituvchi o`quv materialni bilmayidi, tuzatib bo`lmas xatoliklarga yo`l qo`yadi.

Baho me'zoni doim bir xil bo'lmaydi. M: O'qituvchining ogzaki javobi «5» ball, buyum sifati «4» ball, texnologiya usullarini bajarish, «3» ballga loyiq. Bunday xolda baho o'rtacha ball sifatida qo'yiladi.

1. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash usullarini ko'rsating.
2. Bilimlarni programmalashtirilgan nazorat qilish qanday afzalliklarga ega ?
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish xamda baholashda qanday didaktik masalalar xal qilinadi ?
4. Baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha umumiy tavsiyalar qanday?
5. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash talablarini ko'rsating
6. Baholash me'zonlarini aytib bering yoritib bering.

10-MA'RUZA.

SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH.

Reja:

1. O'zbekistonda texnologiya ta'limining rivojlanishi va texnologiya darsining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sinf dan tashqari ishning mazmuni.
3. Texnologiya tarbiyasiga asoslangan sinf dan tashqari ishlarning shakllari.
4. Maktab dan tashqari ishlarni tashkil etish.

Umumta'lim maktablari va maktab dan tashqari bolalar muassasalarining sinf dan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish asosiy yo'nalishlari.

Texnik to'garaklar ishini tashkil qilish.

To'garak mashg'ulotlarida mavzuga mos o'qitish metodlarini tanlash.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar ishini tashkil qilish shakllari.

Sinf dan tashqari ishning ommaviy shakllari.

MA'RUZA BAYONI.

Sinf dan tashqari **ishning vazifa va formalari.** Sinf dan tashqari ishda xam texnologiya ta'limida qo'yiladigan vazifalar qo'yiladi. Biroq bunda ularni

bajarish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar mavjud. Ular ustida batafsilroq to'xtalamiz.

Sinfdan tashqari ish bir tomondan sinfdagi ishning davomi bo'lsa, boshqa tomondan, o'quvchilarnitexnologiyaga tayyorlash imkonkyatlarini ancha kengaytiradi. Sinfdan tashqari ishda ishtirok etish ixtiyoriy bo'ladi. SHuning uchun bunday ishga faol, tashabbuskor o'quvchilar jalb etiladi. Ular faoliyatining mazmuni dars mashg'ulotlaridagi faoliyat mazmunidan bir oz boshqacha bo'ladi. Bu xol o'quv dasturida ko'zda tutilganidan murakkabroq vazifalar qo'yishga va ularni xal etishga imkon beradi. Ixtiyoriylik tamoyili o'quvchilar tashabbuskorligi yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi. SHu tufayli sinfdan tashqari ish jarayonidatexnologiya ta'limining asosiy vazifalarini bajarish bo'yicha yaxshi natijalarga erishiladi.Sinfdan tashqari ishning mazmunitexnologiya ta'limiga doir o'quv programmalari bilan qat'iy bog'lanmaganligi sababli xavfsizlik qoidalari no'qtai nazaridan maqbul bo'lgan istagan korxonaga ekskursiyalar planlashtirilishi mumkin. Bu ekskursiyalardan maqsad o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirishdir. Boshqacha aytganda, politexnika ta'limi sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi bo'lib qolishi mumkin.

Sinfdan tashqari ish bunday cheklashlardan xoli. O'quvchilarni yaqin atrofdagi korxonalarda uchraydigan kasblar bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishtirish maqsad qilib qo'yilishi mumkin. Ko'pchilik o'qituvchilar shunday qilishadi xam. Bu bilan ular o'quvchilarni yo'lga solib yuborishga muvaffaq, bo'ladilar va kasb tanlashda ularga yordam beradilar. Bu ishda turli kasb egalari bilan uchrashuvlar uyushtirish, kasbga qiziquvchilar klublarini tashkil qilish va shu kibi tadbirlar yordam beradi. Agar texnologiya tarbiyasi faqat shiorlarga tayanib tashkil qilinsa, xech qanday samara bermaydi. Chaqiriqlar muayyan ishlar bilan xamoxang bo'lishi kerak. Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, sinfdan tashqari ish ayni shunday ishlardan iboratdir. Ularga tarbiyalovchi tus berish lozim. Buning uchun sinfdan tashqari ishning maqsadlari shunday ifodalanishi kerakki, o'quvchilar uzoqni ko'ra olsinlar, ularning texnik tafakkuri rivojlanishi, buyum yasay bilishi o'quvchining faqat ularning o'zigagina emas, balki jamiyatga xam foyda

keltirishini, sinfdan tashqari ishda ishtirok etish, jamiyat ravnaqiga shaxsiy xissa qo'shish uchun yaxshi tayyorgarlik ekanligini tushunib etsinlar.

Bu xoldatexnologiyaning tarbiyalovchi roli pasayadi, albatta. Kitobning «Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash» bobida aytib o'tilgan boshqa tarbiya choralaridan xam - foydalanish mumkin. Faqat ana shundagina sinfdan tashqari ishda texnologiya tarbiyasini zarur darajada amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha fikrlartexnologiya tarbiyasi asosidagi sinfdan tashqari ish vazifalarini quyidagicha ifodalash imkonini beradi:

- 1) texnologiya ta'limi davomida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarini mustaxkamlash, umumlashtirish xamda kengaytirish;
- 2) unumlitexnologiyaga asoslangan ijodiy faoliyatga o'quvchilarni jalb qilish;
- 3) xozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari xaqidagi tasavvurni kengaytirish;
- 4) kasb tanlashga yaxshilab tayyorlash;
- 5) texnologiyaga ongli munosabatni shakllantirish. Texnologiya ta'limiga asoslangan sinfdan tashqari ish turli shakllarda amalga oshiriladi. To'garaklar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar uyushtirish va boshqa tadbirlar shular jumlasidandir.

Mehnat tarbiyasiga asoslangan sinfdan tashqari ishlarning shakllari. texnologiya tarbiyasiga asoslangan sinfdan tashqari ishning xamma shakllarini shartli ravishda **uch gruppaga** birlashtirish mumkin.

Birinchi gruppaga to'garaklar kiradi. To'garak sinfdan tashqari ishning sinalgan shakli bo'lib, maktablarda xar xil predmetlari asosida keng qo'llaniladi. Ixtisosidan qat'iy nazar to'garaklar ishida umumiylik ko'pdir. SHuning uchun texnik to'garaklarning raxbarlari boshqa ixtisosdagi to'garaklar tajribalarini cho'qur o'rganib, eng yaxshi tomonlarini o'z ishida qo'llashlari kerak. Albatta, to'garak ishinitexnologiya ta'limi asosida olib borish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning metod va shakllariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi gruppaga ekskursiyalar, lektoriyalar, ko'rgazmalar, ishlab chiqarish novatorlari bilan bo'ladigan uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni kiritish mumkin. Ularni sinfdan tashqari ishning ommaviy shakllari deb atash qabul qilingan.

Xaqiqatan xam, bu tadbirlar ko'plab o'quvchilarni jalb qiladi. Ularning moxiyatan afzalligi xam ana shunda.

Uchinchi gruppasiga esa o'quvchilarning texnologiya birlashmalari kiradi. texnologiya birlashmalari nisbatan ancha ilgari paydo bo'lganiga karamasdan, keyingi yillarda ayniqsa keng qo'llanila boshlandi. O'quvchilarning texnologiya birlashmalari ta'limni unumli texnologiya bilan qo'shib olib borishning samarali shakli sifatida texnologiyada tarbiyalash, kasb tanlashga yo'llash, ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirish va texnologiyaga ijodiy munosabatni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ldi.

Mamlakatimizda yosh avlodni texnika soxasidagi sinfdan tashqari ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doimo katta ahamiyat berib kelindi. Hukumatimiz bolalar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni eng muhim tarbiya vositasi deb hisoblab, pedagoglar diqqat e'tiborini ana shu ishlarni tashkil etish zarurligiga qaratishlari sababli dastlabki yillardayoq yosh tabiatshunoslar va texniklar ommaviy xarakati vujudga keldi va tez rivojlandi. Tashkilotlar tashabbuslari bilan maktablardan tashqarida xarakteri hamda tashkiliy strukturasi jixatdan xar xil bolalar birlashmalari, klublar, maydonchalar, seksiyalar vujudga kela boshladi va bu birlashmalarning asosiy maqsadi bolalar va o'smirlarning tashkiliy faoliyati orqali ularni tarbiyalashning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishini ta'minlashdan iborat.

Maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish. 1918 yilda maktabdan tashqari bolalar muassasasi – yosh tabiatsevarlarning biologiya stansiyasi tashkil topdi va tez orada yosh tabiatshunoslarning K.A. Timiryazov nomidagi Markaziy biologiya stansiyasiga aylantirildi.

Bolalar biologiya stansiyasini tashkil etish bilan bir paytda o'quvchilarning texnik xavaskorlik va ijodkorligini yo'lga qo'yish borasida ham bir muncha ishlar amalga oshirildi.

1918-20 yillardayoq maxalliy zavod va fabrikalar yordami bilan juda ko'p maktablarda va bolalar klublarda to'garaklar hamda ustaxonalar ochildi. Ularda bolalar darslardan bo'sh vaqtlarining bir qismini mazmunli o'tkazdilar: o'yinchoqlar yasash, duradgorlik, mo'qovachilik, tikuvchilik, etikdo'zlik, tokarlik, slesarlik ishlari bilan shug'ullanadilar. SHu bilan birga, bolalarda ijodiy ishga kuchli ishtiyoq vujudga keldi.

O'quvchilarning o'qishdan tashqari vaqti ular hayotida katta o'rin tutadi. SHu sababli bu vaqtni to'g'ri tashkil etishda, undan dam olish uchun, qiziqqan ishlari bilan shug'ullanishi uchun, sayr tomosha uchun oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Barcha formalardagi sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning cho'qur ichki mohiyati o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga aktiv jalb qilish, ularning tashabbusi bilan mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlari, mayl va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlariga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki boshqa ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari xar xil tadbirlar orqali, o'quvchilarni texnik ijodkorlikka bevosita jalb etish orkali ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishdir.

O'quvchilarning texnik masalalarni echish va bu echishlarni xarakterli modellar yoki tajriba namunalarining texnik loyixalari, maketlari sifatida ifodalash bilan bog'liq amaliy faoliyatini o'quvchilarning texnik ijodkorligi deb atash qabul qilingan.

Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish uchuntexnologiya ta'limi va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada konkretlashuvi ularda 3 ta guruhga birlashtirish imkonini beradi: umumta'limiy vazifalari, tarbiyaviy vazifalar, amaliy vazifalar.

Umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari bolalar muassasalarining sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish asosiy yo'nalishlari. Umumiy ta'lim maktablari va maktabdan tashqari bolalar muassasalarining sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish faoliyati o'zining shakli va mazmuniga ko'ra xilma-xildir. SHunday

bo'lsa ham keyingi o'n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlanadi.


1. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda texnik ijodkorlik bilan bog'liqtexnologiyaga qiziqish va kollektivtexnologiyaga ishtiyoq uyg'otishi, ana shu yosh gruppasidagi o'quvchilarni yasama texnik o'yinchoqlar, modellar va turli inventarlarni konstruksiyalash bilan bog'liq aktiv texnik o'yinlar, musobaqalar va konkurslarga qatnashishlari eng oddiy formalariga jalb etish, bolalarda texnik soxadagi texnik xavaskorlik, ijodkorlikka intilishni tarbiyalash.

2. O'rta va katta maktab yoshdagi o'quvchilarda texnikaga va ishlab chiqarishga cho'qur qiziqishni tarkib topishi va rivojlantirishi, ularni bilish aktivligini, yosh fiziklar, ximiklar, matematiklarning olimpiadalarida qatnashuvini rag'batlantirish, ularni maktabdagi predmet to'garaklariga tajribachilik ishlariga, maktab asbob-anjomlarini, ko'rsatmali qo'llanmalarni, ta'limning texnik vositalarini takomillashtirish bilan bog'liq konstruktorlik faoliyatiga jalb etish.

3. O'quvchilarni maktablarda va maktabdan tashqari muassasalaridagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi kasblarga yo'naltirish.

4. O'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilarni maktablardagi, maktabdan tashqari muassasalaridagi, mahalliy oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlaridagi o'quvchilar ilmiy jamiyatlari bazasida ishlash va eksperimental – tadqiqot ishlariga jalb etish, ularni injener, texnik agronom, zootexnik va boshqa kasblarga yo'naltirish.

5.O'quvchilarni xarbiy-texnika mutaxassisliklariga yo'naltirish, ularning sportning xarbiy-amaliy va texnik turlari bo'yicha razryadlar olish uchun normativlarni



Ma'lumki, dars o'quvchilarga tarbiya va ta'lim berishning asosiy formasidir. Dars qanchalik jozibali, uning shakli va mazmuni qanchalik yorqin bo'lsa, o'quvchilar predmetga shunchalik qiziqadilar, ularda ko'proq savollar tug'iladi, ayniqsa, predmet bo'yicha darsdan, sinfdan tashqari turli ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi.

Ilg'or maktablarning ish tajribalari tadbirkortexnologiya ta'limi o'qituvchilari doimo o'z predmeti bo'yicha to'garak ishlarini tashkil qilishni ko'rsatadi.

Tajribalitehnologiya ta'limi o'qituvchilarining fikricha qiziqishlari yo'nalishida, uning o'qishdan tashqari faoliyati mazmunida bolalar va o'smirlar ijtimoiy tajribasining natijalari g'oyat yaqqol ko'rinadi. SHuning uchun bu faoliyatni tashkil etish imkoniyati qanchalik keng bo'lsa, o'quvchilardagi qiziqish va

qobiliyatni shunchalik barvaqt aniqlash, ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi, o'quvchiga o'z ishini, o'zining kelajakdagi kasbini topishda yordam berishi mumkin.

To'garakni tashkil etish, uning kollektivini uyushtirish, o'quvchining, to'garak raxbarining katta va mas'uliyatli ishidir. To'garak mashg'ulotlarini tayyorlash hamda o'tkazish ham juda ko'p va puxta o'ylangan tayyorgarlikni talab qiladi.

Texnik to'garaklar ishini tashkil qilish. Maktablarning ish tajribasida turli-tuman to'garaklar uchraydi. O'quv predmetlari bilan bog'liqlik no'qtai nazaridan to'garaklarni uch gruppaga predmetga doir, predmetlararo va predmetdan tashqari to'garaklarga ajratish mumkin.

Predmetga doir to'garaklar deb, bevositalexnologiya tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan to'garaklarga aytiladi. O'z mazmuniga ko'ra bu to'garaklartexnologiya darsida o'quvchilar bajargan ishning go'yo davomi, ammo bunda o'quvchilarning faoliyati yanada murakkabroq, kengroq bo'ladi. Predmetga doir to'garaklar aslo o'quvchilar avval bajargan ishni shunchaki takrorlamasligi kerak.

Predmetlararo to'garaklar ichida eng ma'lumki fizik-texnik to'garaklar xisoblanadi. Bu to'garaklarda o'quvchilar faoliyatining mazmuni to'garakning o'z nomidan kelib chiqadi. Fizik-texnik to'garaklarda o'quvchilarningtexnologiya ob'ektlari, odatda, turli modellar bo'ladi. Bunda o'quvchilar fizika kursida o'rganiladigan muayyan qonuniyatlarni misollar bilan oydinlashtirishga muvaffaq bo'ladilar, bu esa fan asoslarini o'zlashtirishda yordam beradi. Bu - bir tomondan. Ikkinchi tomondan esa o'quvchilar model konstruksiyasi, Fizik-texnik to'garaklarga bir vaqtning o'zida fizika vatexnologiya o'qituvchilari raxbarlik qiladilar.

Predmetdan tashqari to'garaklar xozirgi vaqtda sinfdan tashqari ishda kengroq tarqalgan. O'quvchilar faoliyatining mazmuniga ko'ra bu to'garaklar turli-tuman bo'lishi mumkin. Mazkur xolda gap shunday predmetdan tashqari to'garaklar xaqidagina boradiki, ularning ishlari uchun maktab ustaxonalaridan moddiy baza sifatida foydalaniladi, yoki o'quvchilar faoliyatitexnologiya darslarida olingan bilim va malakalarga tayanadi.

Chunonchi, maktablardan birida o'qituvchi o'quvchilarga texnologiya aniqligi va unumdorligini oshirish maqsadida mo'qovachilik ishlari uchun mo'ljallangan stanokchanning konstruksiyasini ishlab chiqarishni taklif etdi. O'quvchilarga bu goya ma'qul bo'ldi. Ular yana shunday stanokchanning bir nechta konstruksiyasini ishlab chiqishda va eng yaxshilarini taklif etishdi. Amalda tekshirib ko'rish davomida bu konstruksiya tobora takomillashtirib borildi. Bularning xammasi mo'qovachilik ishlarini bajarish jarayonida sodir bo'ldi

Predmetdan tashqari to'garaklarga raxbarlik qilishga ko'pincha baza korxonada xodimlari, ota-onalar taklif etiladi. O'qituvchi esa ularga metodik yordam ko'rsatadi.

To'garaklar ishining mazmuni programmalarda belgilab beriladi. Bu programmalarni xalq maorifi qoshidagi metodik kabinetlar, shuningdek, yosh texniklar, naturalistlar stansiyalari ishlab chiqadi. Programmalar bir va ikki o'quv yiliga mo'ljallangan bo'ladi.

Misol tariqasida 5-6 sinf o'quvchilariga mo'ljallangan slesarlik ishidan predmetga doir texnika tugaraqining dasturlaridan birini keltiramiz.

Tarkibida arra bilan qirqilib, tekis yuzalari egov bilan egovlangan detallari bo'lgan buyumlarni tayyorlash. texnologiya ta'limi darslarida olingan bilimlarni umumlashtirish xamda malakalarni takomillashtirish: metallni arra bilan qirqish daqidagi asosiy ma'lumotlar; metallni arra bilan qirqayotganda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari: metallni arra bilan qirqish priyomlari; egovlash jarayonining mohiyati va bunda ishlatiladigan asbob, egovlayotganda rioya qilinadigan xavfsizlik qoidalari, yason yuzalarni egovlash.

To'garak mashqlari, odatda, xar haftada bir marta ikki soatdan o'tkaziladi. Biroq o'quvchilar orasida bu bilan qanoatlanmaydigan jonbozlar xam uchraydi. Ular bilan ko'prok mashg'ulot o'tkazish mumkin, lekin buning uchun sinf raxbari bilan kelishish kerak, chunki u xar bir o'quvchining boshqa predmetlarni qanday o'zlashtirishini yaxshi biladi.

Bir to'garakda 15 nafardan ortiq o'quvchi bo'lmasligi lozim, aks holda ularning xar biriga individual tarzda raxbarlik qilish qiyinlashadi.

Ilg'or maktablarning ish tajribasi ko'rsatishicha, maktab ustaxonalariga asoslangan to'garak mashg'ulotining strukturasi kombinatsiyalangan (aralash) dars strukturasi yaqin turadi. Bunga sabab shuki, xar qanday to'garak mashg'ulotida, odatda, qator didaktik masalalar xal etiladi. Muayyantexnologiya ob'ekti tayyorlashni o'quvchilar to'garak mashg'ulotidan ko'zlangan asosiy maqsad deb bilishadi.

To'garak mashg'ulotlarida mavzuga mos o'qitish metodlarini tanlash.

To'garak mashg'ulotlarida o'qitish metodlari qo'ilgan didaktik maqsadlarga, o'quv materialining mazmuniga, o'quvchilar va o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga qarab tanlanadi.

To'garak mashg'ulotlariga qandaydir maxsus metodlar xos emas. Ulardatexnologiya ta'limining oddiy metodlari qo'llaniladi. Biroq, bu metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, kuzatuvlarning ko'rsatishicha, og'zaki metodlardan ko'pincha tushuntirish metodi qo'llaniladi, xikoya metodi esa eng kam qo'llaniladi. Birinchi qarashda bu g'alatiroq tuyulishi mumkin, ma'lumki, suxbat jarayonida boshqa og'zaki metodlarga qaraganda o'quvchilarning bilish aktivligi ortadi. Biroq to'garak mashg'ulotlarida ta'lim metodlaridan foydalanishning o'ziga xosligi xam ana shunda. Ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar ayniqsa dastlabki mashg'ulotlarda suxbatlar bo'lishini yoqtirishmas ekan, chunki suxbatlar ularga odatdagi darslardagi savol-javobni eslatar ekan.

Namoyish qilish metodlariga shu narsa xam xoski, 5-6 sinf o'quvchilariga ko'pincha ko'rsatma qo'llanmalar namoyish qilinadi, 8-9 sinf o'quvchilariga esa grafik tasvirlar namoyish qilinadi. Ishga bunday yondashishda o'quvchilarning grafik jixatdan tayyorgarligi xisobga olinadi.

Instruktaj to'garak mashg'ulotlarida o'qitish metodlari ichida muxim o'rinni egallaydi. Bunda kirish, joriy va yakunlovchi instruktajlar: frontal, zveno, va individual instruktajlar; og'zaki, yozma, grafik instruktajlar qo'llanilishi mumkin. Boshqacha aytganda, to'garak mashg'ulotlaridatexnologiya ta'limi uchun xos bo'lgan instruktajning barcha turlari uchraydi.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar ishini tashkil qilish shakllari.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar ishini tashkil qilishning xar xil formalari (frontal, zveno, individual, texnologiya taksimoti bilan) qo'llaniladi.

O'quvchilar ishini tashkil qilishning qanday formasi tanlanishi to'garak mashg'ulotlarida aloxida diqqatni jalb qiladigan texnologiya ob'ektlariga ko'p jixatdan bog'lik. Bunga sabab shuki, sinfdan tashqari ish jarayonida bir vaqtning o'zida quyidagi ikki xolni xisobga olishga to'g'ri keladi:

- 1) jamoa texnologiyai eng katta tarbiyalovchi imkoniyatlarga ega.
- 2) o'quvchilar o'z qiziqishlarini qanoatlantiradigan va o'z mustaqilligini eng to'liq ko'rsatishga imkon beradigan individual topshiriqlar bajarishga intilishadi.

Sinfdan tashqari ishning ommaviy shakllari. Sinfdan tashqari ishning bu barcha formalari ko'plab o'quvchilarni jalb qilishga imkon beradi. Tajriba sinfdan tashqari ishning ommaviy shakllari yuksak darajada samarali ekanligini tasdiqladi. Ular o'quvchilarning xozirgi zamon ishlab chiqarishi asoslari to'g'risidagi tasavvurini kengaytirish, ularni turli kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi va xokazo. Lekin, afsuski ular o'quvchilarni foydalitexnologiyaga, bevosita ijodiy faoliyatga jalb qila olmaydi. SHuning uchun o'quvchilar, masalan, tematik kechalarda, sinfdan tashqari ishning boshqa shakllarida qatnashish bilan birga biror boshqa to'garak ishida xam qatnashsalar, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi xollarda o'z-o'zidan shunday bo'lib xam qoladi. CHunonchi, to'garak a'zolari tomonidan o'z ishlarini namoyish qiladigan ko'rgazmalar tashkil qilinadi.

Ko'rgazmaga ko'p maktablarda e'tibor bilan qaraladi. Ko'rgazmalar doimiy va vaktincha bo'ladi. Lekin ko'rgazmalar doimiy bo'lgani ma'qulrok. Bunday ko'rgazmalarda o'quvchilar yasagan buyumlar yillar davomida yirib boriladi. Ayrim maktablarda xar bir o'quvchining o'zi xaqida biror esdalik qoldirishi xatto an'anaga aylangan. Bunday esdalik faqat texnik texnologiyagagina emas, balki qishloq xo'jaligiga va maishiy xizmatga oid bo'lishi xam mumkin. Ko'rgazma to'garak a'zolari uchun muxim stimuly sinfdan tashqari ishda qatnashishga targ'ib qilishning samarali vositasi xisoblanadi. Ko'pincha, yaxshi ko'rgazmalar butun maktabning iftixori bo'ladi, Ko'rgazma qoshida ekskursovodlar gruppasi tashkil

qilinib, ular mexmonlarga xizmat ko'rsatadi, quyi sinf o'quvchilari bilan ish olib boradi. Ko'rgazmalarda to'garaklar ko'pi o'tkazilib, bunda xar bir to'garak o'zining ish natijalarini jamoat xukmiga xavola qiladi.

O'quvchilarni ishlab chiqarish brigadalarida siyosiy-tarbiyaviy, madaniy-ommaviy ishga va sport ishiga katta ahamiyat beriladi. Bunga o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishi katta imkoniyat yaratadi. O'quvchilar brigadasining umumiy majlisi quyidagi eng muxim masalalarni xal etadi:

- ishning o'quv-ishlab chiqarish planini muxokama qiladi va uni bajarish yo'llarini belgilaydi;
- zvenolarning va umuman brigadaning ongli musobaqasi shartlarini tasdiqlaydi;
- brigada a'zolarining intizomi va turmushiga oid, xalq mulkni muxofaza qilishga oid masalalarni ko'rib chiqadi va brigada a'zolariga qabul qilish, brigada a'zolarini rag'batlantirish xamda jazolash to'g'risidagi masalani xal etadi;
- ishlab topilgan mablag'dan brigadaning ijtimoiy fondiga qancha mablag' ajratish kerakligini belgilaydi va bir yillik ish yakunlarini chiqaradi.

Nazorat uchun savollar.

O'zbekistonda texnologiya ta'limining rivojlanishi va texnologiya darsining o'ziga xos xususiyatlari.

Sinfdan tashqari ishning mazmunini izohlab bering.

Texnologiya tarbiyasiga asoslangan sinfdan tashqari ishlarining shakllarini tushintirib bering.

Maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish yo'llarini tushintiring.

Umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari bolalar muassasalarining sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish asosiy yo'nalishlarini aytib bering.

Texnik to'garaklar ishini tashkil qilish yo'llarini tushintiring.

To'garak mashg'ulotlari mavzusiga mos o'qitish metodlarini nomlang.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar ishini tashkil qilish shakllarini ayting

Sinfdan tashqari ishning ommaviy shakllarini tushintiring.

Tayanch iboralar. To‘garak. Xarbiy-texnik. Umumta’lim vazifa. Tarbiyaviy vazifa. Amaliy vazifa. Texnik ijodkorlik. Rag‘batlantirish. Qobiliyat. Tadbir

11-MA’RUZA.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA TARBIYALASH.

Reja:

1. Texnologiya fanining maqsadi, o‘quvchilardateknologiyaga ongli munosabatni tarbiyalashni shakllantirish.
2. Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida tarbiyaviy vazifalar.
3. Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga va o‘rtoqlariga nisbatan talabchanligini rivojlantirishning asosiy shartlari.
4. Texnologiya madaniyatini tarbiyalash.
5. Umumiy ta’lim maktablari o‘quvchilarini tarbiyalashda murabbiylik.
6. Murabbiylarni maktab o‘quvchilari bilan ishlash shakllari.

MA’RUZA BAYONI.

Texnologiya fanining maqsadi, o‘quvchilardateknologiyaga ongli munosabatni tarbiyalashni shakllantirish. Texnologiya fanining maqsadi o‘quvchilarga faqat bilim, ko‘nikma va malakalar berishgina emas, balki ulardateknologiyaga, jamoa va mulkka, kollektivga va uning alohida a’zolariga ongli munosabatni, shaxsiy va jamoa foydasi uchun ishlashga tayyorgarlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashtexnologiya tarbiyasining vazifasi va bosh yo‘lidir.

Mehnatga ongli munosabat – xar bir shaxsning axloqiy qiyofasining asosiy xususiyatidir. Xar birtexnologiyachi – ishchi, jamoa a’zosi, aqliytexnologiya kishisi o‘z hayotini mehnatsiz tasavvur qila olmaydilar.

Xar bir kishitexnologiyani shaxsiy hayoti va o‘zaro yordam hissida tarbiyalab borishi lozim. Texnologiya topshirig‘ini bajarish jarayonida ular ba’zi ishlarni birgalikda, bir-birlariga yordam berib, maslaxatlashib bajarishga to‘g‘ri keladi. Bu imkoniyatga o‘qituvchi o‘quvchini tarbiyalashda keng foydalanishi lozim.

Xar bir o'quvchi o'z shaxsiy texnologiyai maktab jamoasining o'quv ustaxonalaridagi texnologiyai bilan chambarchas bog'liqligini cho'qur tushinib yetishi uchun mahsulotlar tayyorlashda texnologiyani aniq taqsimlashni amalda qo'llashi kerak.

Ayrim o'quvchilar ishda extiyosizlikka, intizomsizlikka yo'l qo'ysalar, u xolda ishdagi uzilishlarga murosasiz munosabatda bo'ulish lozim.


O'qituvchi suxbatda, instruktajda nimani va qanday asbob bilan, qay izchillikda tayyorlash xaqidagina ma'lumot berish bilan chegaralanib qolmasligi, bu yerda mazkur texnologiyani ijtimoiy, jamoa uchun ahamiyatini xam ta'kidlashi kerak.

Tayyorlangan maxsulotni buyurtmachiga topshirish katta tarbiyaviy axamiyatga ega. Unda eng aktiv ishtirok etgan o'quvchilarni taqdirlash, ularni keyinchilik sinfdoshlariga buyumni topshirish va undan foydalanish xaqida gapirib beradigan bo'lsinlar. Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zaro do'stlik va o'zaro yordam rahbarlik va bo'ysinish, javobgarlik munosabatiga, o'zaro talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. O'qituvchi bu munosabatlarni kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to'g'ri yo'naltirib turishi kerak. O'z-o'zini tanqidiy baholash va tanqidiy nazorat qilish, kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lish xislarini tarbiyalash.

O'qituvchi tayyorlangan buyumni tekshirib, o'qituvchiga uni sifatini mustaqil baholashni taklif qiladi. O'qituvchilar tayyorlangan buyumlarni aniqligi va sifatini aniqlashga doir sistematik ravishda mashq qilishlari ularda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini, o'z-o'zini tanqidiy baholash xissini shakllanishiga yordam beradi.

Bu ko'nikmalarni mustaxkamlash maqsadida o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilish ishiga sistematik ravishda jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida tarbiyaviy vazifalar.



O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda avvalo o'quvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni **ishontirish metodidan** foydalanish lozim. SHu bilan birga ularning ishiga yuqori talabchanlik bilan yondoshish kerak.

O'qituvchining sistemasi va qat'iy talablarni bajarish natijasida o'quvchilar ustaxonada qabul qilingan qoidalar, ish o'rnini namunali tutishga, asboblarni extiyot qilishga odatlanadilar.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'z-o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan talabchanligini rivojlantirishning asosiy shartlari. texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'z-o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan talabchanlikni rivojlantirishga yordam beradigan uchta asosiy shartni ko'rsatamiz.

1. Jamoa a'zolari bir-birlariga ma'lum talablar qo'yishga majbur qiladigan vaziyatlarni yaratish va ulardantexnologiya jarayonida foydalanish. Masalan, maktab uchun taburetka tayyorlash. Ish zvenolar bo'yicha olib boriladi. Xar qaysi zveno bir tipdagi detallar – oyoqchalar uchun zagatovkalar tayyorlaydilar. Boshqa bir zveno bu detallardan taburetkani yig'ish bilan shug'ullanadilar. Bunda tayyorlangan maxsulotni miqdori va sifati xar bir zveno va aloxida bajargan ish miqdori va sifatiga bog'liq bo'ladi. Tayyorlangan maxsulotning miqdori va sifati

uchun o'quvchilarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro javobgarligi shu tarzda qaror topadi.

2. Jamoa talablarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash, texnologiya jarayonida birinchi bo'lib aktivistlar: zvenovoylar, sanitarlar, asbobchilar va boshqalar qo'yiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning talabchanligini rivojlantirishga, jamoada o'zlarini to'g'ri tutishlarini rivojlantirishga yordam berish kerak.

3. O'quvchilarga sistematik va izchil talabchanlik ko'rsatish lozim.

Jamiyat va shaxsiy mulkka g'amho'rlik munosabatlarini tarbiyalash. O'quvchilarni ijtimoiy mulkka nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash uchun ularni unumlitexnologiyaga, maktab ustaxonasi kabinetlarni jihozlashga, asboblarni ta'mirlashga jalb qilish lozim. O'quvchilarni materialni tejash, asbob, moslama va hokazolarni extiyot qilishga o'rgatish, ongli intizom va yuqoritexnologiya madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Texnologiya darslarida estetik tarbiya. Inson xar doim go'zallikka intilib kelgan. Is'temol qiladigan yoki foydalanadigan maxsuloti chiroyli bo'lishiga, nafis bo'lishiga e'tiborini qaratgan. Atrofga bir nazar tashlasangiz bir- biridan chiroyli avtomobillar, qishloq xo'jalik mashinalari, asboblar va dastgoxlar uy - ro'zg'or buyumlari, mebellari va boshqalarni ko'rasiz va ularni birinchi avlodlari bilan solishtirilsa, maxsulotga qanchalik texnikaviy va badiiy ishlov berilganligini xis etamiz.

Hozirgi vaqtda texnikaviy va badiiy konstruksiya - mahsulotni ratsional loyixalashni yagona jarayonidir. Texnikaviy konstruksiyalash fanini material va funksiyaviy asosida paydo esa, badiiy konstruksiyalash esa, uni umuman mazmun, qulaylik, garmoniya, go'zallik bilan to'ldiradi, badiiy konstruksiyalashni (dizayni) amalga oshiradi,

Buyumning estetik sifatlariga beradigan bahomiz ba'zan sub'ektiv, eng asosiysi, isbotlanmagan bo'ladi. Biz bu buyum haqida u "go'zal" yoki "hunuk", "nozik" yoki "qo'pol" deyishdan tashqari nima ham deya olamiz? Deyarli hech narsa, ma'lum bir qancha tushunchalarni o'zlashtirib olish kerakki, ulardan hunarmandchilik asari yoki dizaynning xarakteristikasi hosil bo'ladi.

Buyumlar olamini loyihalash bilan shug‘ullanadigan kishi pirovard maqsadiga-chiroyli buyum yaratishga harakat qilar ekan, birinchi navbatda mazkur buyumning estetik qiymati nimadan iborat ekanligini bilishi lozim.



Tashqi formani uzviyligi va yaxlitligi



Buyumlar xilma-xil bo‘lib, ularni ta’riflash uchun “xajmli-fazoviy tuzilish” terminidan foydalanadi.



Ergonomika

Ergonomika ko'p qirralidir: u avvalo turli vaziyatdagi ish sharoitini o'rganadigan *injenerlik psixologiyasini* o'rganadi, bu xol yuksak mas'uliyat va asabiy zo'riqishriqishni talab qiladigan sistemalarni, masalan, uchishni boshqarish dispetcherlik punktlarini ishlab chiqishda ayniqsa muhimdir.

Mashinalar

1-gurux

Ishchi mashinalar mehnat predmeti xolatini, joyini, xususiyatini yoki shaklini o'zgartirishi uchun xizmat qiladi. (texnologik mashinalar yoki mashina qurol- aslaxalar).

2-gurux

Mashina – dvigatellar: energiyani mexanik ishga aylantirish uchun xizmat qiladi. (turli hil dvigatellar kiradi).

3-gurux

Mashina – almashtiruvchi: energiyaning biror bir turiga almashtirish uchun xizmat qiladi. (dinamomashinalar, o'zgaruvchi yoki o'zgarmas tok generatorlari, xolodil'niklar va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

4-gurux

Nazorat boshqaruv mashinalari ishlab chiqarish jarayonini boshqarish va avtomatlashtirish uchun ishlatiladi. (texometrlar, elektromashina kuchaytirgichlar, selsinlar, datchiklar).

5-gurux

Axborot (kibernetika) mashinalari axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, o'zlash uchun xizmat qiladi.

O'qituvchi yaxshi tayyorlangan buyumni estetikligini, detallarga ishlov berishning tozaligini, buyumlarni shakllarini go'zalligini xamda o'quvchitexnologiya

xarakatini aniqligini doimo ta'kidlab turishi kerak. Jamiyatimizdatexnologiya go'zalligi yuqori axloqiy sistemalar bilan va mustaqillikning mustaxkamlash uchun kurashni tushinish bilan uyg'un bog'langan.

Texnologiya madaniyatini tarbiyalash. YUqoritexnologiya madaniyati - jamiyatimiz kishilari ajralmas sifatidir, uni o'quvchilargatexnologiya ta'limi berishda singdirib boriladi. Xonalarni jixozi va stanoklarni bo'yalishi estetik xissiyot uyg'otishi kerak. Xonalarni sanitariya-gigiyena normalari, shamollatish, stanoklarni joylashishiga qat'iy amal qilinadi. Asboblarda doim sozlangan va ishga shay bo'lishi lozim. Mashg'ulotlarga o'quvchilar qulay va chiroyli formalarda kelishlari lozim.

Umumiy ta'lim maktablari o'quvchilarini tarbiyalashda murabbiylik. Xozirgi vaqtdatexnologiya jamoalari ilg'or vakillarining o'quvchi yoshlarga otaliq qilishni yangi mazmun bilan boyitilishi murabbiylik deb ataladi.

Murabbiylik sistemasi deyilganda, texnologiya jamoalarining yoshlarga texnologiya tarbiyasi berish va kasbga yo'llashning xamma bosqichlarida umumiy ta'lim maktablarida, kasb-xunar kollejlarida, ishlab chiqarishda keksa avlodning madaniyati va tajribasini bevosita maqsadga yo'naltirilgan xolda berishni ta'minlash uchun olib boradigan pedagogik ishlar majmui tushiniladi.

Murabbiylik vositasida shogirdlarni unumlitexnologiyaga xar tomonlama tayyorlash quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: ishchi sinfining eng yaxshi sinflari qabul qilish; ishlab chiqarish bilan, ishchitexnologiyaining mazmuni bilan tanishtirish; texnik ijodkorlikka tortish; o'quvchilarning axlokiy, texnologiya jismoniy va estetik tarbiyalarga yordam beruvchi dam olishning xar-xil shakllariga jalb qilish.

Murabbiylikda tarbiyaviy ta'sir metodikasiga qarab tarbiya ishi og'zaki, amaliy va ko'rgazmali shakllari bilan bir-biridan farq qiladi.

Murabbiylarning maktab o'quvchilari bilan ishlashlarida og'zaki formalar ko'proqdir : o'quvchilar bilan uchrashuvlar, tematik kechalar, ishlab chiqaruvchilar ishtirokida o'quvchilar majlislari, ishchi avlodlari ishtirokidatexnologiya sharafi kechalari, kasb tanlash masalalari bo'yicha axborot va konsultatsiyalar.

YUqori sinf o'quvchilar orasidatexnologiya shuxrati kechalari aloxida ommaviylik kasb etmoqda, bu kechalar ishlab chiqarish ilg'orlari,texnologiya jamoalarini propaganda qilishning muhim formasi bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilar kasbga doir axborotlar beruvchi ekskursiyalarga g'oyat umumiy axamiyat beriladi. Bunday ekskursiyalar o'quvchilarga kasblar olamini taxlil qilish, o'z qiziqishlari, sog'liklari, xalq xo'jaligi talablariga to'g'ri keladigan kasblarni tanlashlariga yordam beradi.

Tarbiyaviy ishlarda muzeylardan, tematik stendlardan, texnik ijodkorlik ko'rgazmalaridan, jangovor vatexnologiya shuxrati xonalari va burchaklaridan, kasbga yo'llash kabinetlaridan foydalaniladi.

Murabbiylar o'z shogirdlari bilan doim muloqotda bo'lar ekanlar, ular xulqiga e'tibor bermasdan qolmaydilar.

O'quvchilarni ishchi kasblariga qiziqishlarini, ijtimoiy foydalitexnologiyaidagi, texnik to'garaklardagi tirishqoqliklarga e'tibor berar ekanlar, murabbiylar o'quvchilar ijodiy xissiyot va modellar faoliyatini qo'llab quvvatlash va mustaxkamlashga intiladilar. SHu maqsadda ular o'quvchilar xulqini, ma'qullash, maqtash, tashakkur bildirish bilan baholaydilar.

Murabbiylar tarbiyalanuvchilarni noo'rin xatti-xarakatlarini qoralaydilar, tanbex berishni asosiy formasi sifatidan tanqidiy mulohazalarni aytish formasidan foydalanadilar. Noo'rin xatti-xarakati uchun tanbex olgan o'quvchi qilgan xatosini tushinib yetishi va o'z xulqini o'zgartirishiga yordam beradi, o'z-o'zini tanqidiy baholash o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi.

Nazorat uchun savollar.

Texnologiya fanining maqsadi, o'quvchilardatexnologiyaga ongli munosabatni tarbiyalashning ahamiyatini izohlang.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida tarbiyaviy vazifalarini ayting.

Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'z-o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan talabchanligini rivojlantirishning asosiy shartlari izohlab bering

O'quvchilardatexnologiya madaniyatini tarbiyalash yo'llarin izohlab bering.

Umumiy ta'lim maktablari o'quvchilarini tarbiyalashda murabbiylikning ahamiyatini tushintirib bering.

Murabbiylarni maktab o'quvchilari bilan ishlashning qanday shakllari mavjud.

Tayanch iboralar.

Mehnat tarbiyasi. Axloqiy tarbiya. Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya. estetik tarbiya.

12-MA'RUZA.

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TADQIQOT METODLARI.

R e j a:

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini bosqichlari.

Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida ilmiy izlanishlarning umumiy (nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va tadqiqotlar) va maxsus (empirik, psixologik, elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya, shartli reaksiyalar) usullari.

Muammoli vaziyatlarning turlari va ulardan foydalanish.

Texnologiya ta'limi darslaridagi muammoli ta'lim darajalari.

MA'RUZA BAYONI

Maktab ta'limi muammolariga qaratilgan izlanishlar o'tkazishdan maqsad o'qitish va o'rgatishning samarasi va amalda qo'llash, texnik vositalarni qo'llay olishdan iborat. Ko'pchilik bo'lajak pedagoglar o'quvchilik vaqtlaridayoq pedagogik izlanishlar bilan shug'ullanadilar. Fan bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, o'zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonining bosqichlari. Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqichda o'qituvchining adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlar asosida muammolarni aniqlashi lozim.

O'qituvchi adabiyotlarni o'rganish davomida quyidagilarni aniqlashi kerak:

-o'rganilayotgan muammo to'g'risida adabiyot muallifining fikr-mulohazasi;

-o'rganilayotgan muammo to'g'risida usullardan farqli ravishda kiritgan takliflari;

- adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani;
- muammoni echish uchun olib boriladigan izlanishlar.

Quyidagilar o'qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolardir:

- o'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar;
- kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari.

Ikkinchi bosqichda o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish lozim.

Dalillarni taqqoslash orqali asoslangan taklif beriladi.

Uchinchi bosqichda esa, izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o'quv jarayonida qo'llash.

Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida ilmiy izlanishlarning umumiy va maxsus usullari. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning **UMUMIY VA MAXSUS USULLARI** qo'llaniladi.

UMUMIY USULLARGA nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va tadqiqotlar kiradi.

Nazariy usul - adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlar, to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Kuzatish - odatda, tabiiy kuzatish orqali oquvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalasidagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'lim-tarbiya ta'siri ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu usul tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etishi tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan tavsif va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayonda kuzatuvchining xatti-harakatlari kabilarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlarini haqidagi daliliy materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari

(kinofilm, videotasvir, teleko'rsatuv)dan foydalanish orqali tobora ko'p qo'llanilmoqda.

Suhbat usuli — so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi. Chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan, erkin muomala shaklida qo'llaniladi.

Suhbat usulida - o'qituvchilar va oquvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruh tarzida ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat usulidan farqli ravishda intervyu olish usuli oldindan belgilangan savollarni izchillik bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnet tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu olishning ko'p usullari mavjud. Bular:

- guruhlar tarzida;
- jadal;
- sinov va h.k.

Oquvchilar ijodini o'rganishda - ularning o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

Pedagogik so'rash usuli - tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu usulning asosini tashkil qiladi.

So'rash usulida savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakldagi javobni («ha»,»yo'q») ham taqozo etishi mumkin.

Test, so'rovnomalar - so'rovnoma, ya'ni anketa usuli ilmiy farazning yangiligini aniqlash, yakka yoki guruh holdagi oquvchilarning fikrlarini, qarashlarini, qanday maktablarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va dunyoqarashini aniqlash uslublaridan biri — bu test yordamidagi sinovdir.

Test yordamida sinov o'quvchi yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati borligini, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimlarni baholashning pedagogik no'qtai nazaridan yuto'qlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini eHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining aniqligiga sabab, uning qisqa va lo'ndaligi, umumiy javoblar ichida to'g'ri javobning borligi va ularning oquvchilarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, uning topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira, ichki tuyg'u va topqirliklar qo'l kelishidir. Test savollarini chop etish oquvchilarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovlari usuli - yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish usulidir. Test so'rovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, test savollari kompyuterda ma'lumotlarni matematik statistika metodlari bilan ishlash imkonini beradigan qilib tuziladi.

Tajriba-sinov eksperiment usuli - ushbu tajriba ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli - ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari - o'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni

mustahkamlash, baholash orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, tabaqalashgan va individual ta'lim berish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy tadqiqot usuli - anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad oquvchi-yoshlarning maktab-hunarga bo'lgan qiziqishlarini, oquvchilar orasidagi do'stlik munosabatlarini, o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yuto'q va kamchiliklarni, dinga, xususan, tasavvur ilmiga qiziqishlarini aniqlash, oquvchilarning ma'naviy sifatlarini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning bilim berish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuterda mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rganish, ilmiy va maktabiy mahoratni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar oquvchilarning xarajatini qanchalik qoplashi, oquvchilarning haq to'lanadigan ishlarda qatnashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, oquvchilar ko'p boradigan jamoat joylari, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etuvchi, mutaxassis bo'lib etishishida hal qiluvchi omillar, oquvchilarning onglilik darajasi, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

MAHSUS USULLAR. Ushbu usullardan tashqari maktab ta'limida maxsus empirik usullardan ham foydalaniladi.

Maktab pedagogikasida tadqiqotning maxsus empirik usullari keng tarqalib, unda hodisa va jarayonlarni o'rganishga yo'naltirilgan asbob-uskunalar va apparatlar obektiv miqdony kattaliklarni olish maqsadida qo'llaniladi.

Tadqiqotning maxsus empirik usullarini shartli ravishda 3- guruhga bo'lish mumkin:

Ish-harakatlarining natijaviy tafsilotini o'rganish (harakatlarni aniq bajarish, sarflanadigan vaqt, ish unumi) usuli

Biomexanik usullar

Psixofiziologik usullar

Ish-harakatlarining natijaviy ko'rsatkichlari bilan bog'liq tadqiqotlarda, shu jumladan, ularni o'zlashtirish jarayonida xronometraj katta rol o'ynaydi. Ish

me'yori, maqbul vaqt, shu jumladan, ishlab chiqarish ta'limining turli davrlarida oquvchilar vaqt me'yori, ish tartibotini aniqlash maqsadida, shuningdek, harakatlarning vaqtinchalik tuzilmasini o'rganish oquvchilar yoki ishchilarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun xronometrajdan foydalaniladi.

Ish kunini tasvirga olish xronometrajning bir turi bo'lib, unda ish kuni davomida yoki ishlab chiqarish ta'limi darajasida barcha vaqt sarflari o'lchanadi va tahlil qilinadi. Bu bilan ish vaqtining sarfi va ishni tashkil etishning holati ajratib ko'rsatiladi. Xuddi shu maqsadlarda o'z-o'zini tasvirga olish qo'lianilib, unda oquvchi yoki ishchi o'z ishini o'zi kuzatadi va olingan natijalarni maxsus kuzatish varaqasiga kiritadi.

Biomexanik usullar - bu ish-harakatining fazoviy vaqt va kuch parametrlarini o'rganishdir. Bunda ularning mukammallik darajasi, ishchining asbob, dastgoh va hokazolar bilan o'zaro kuch ta'siri, asbob va qo'l harakatining kinematikasi va boshqalar aniqlanadi.

Tarixan ilk biomexanik usulga siklogramma kiritiladi. Siklogramma harakat elementlarining ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Siklogramma usullarida asboblarga, qo'l yoki oyoqlarga elektr lampochkalar biriktiriladi. Ish jarayoni fotoapparat bilan suratga olinadi. Fotoplastinkada lampochka tasvirining yorug' no'qtalar ko'rinishida qolgan izi mos ravishdagi harakat traektoriyasini beradi. Olingan traektoriyaning tahlili harakatning tezligi, tezlanishi, yo'nalishi va boshqa tashkil etuvchilarni aniqlash imkonini beradi.

Psixofiziologik usullar o'quv texnologiya faoliyati jarayonida inson organizmining turli a'zolarining funksional holatini o'rganishda foydalaniladi. Bulardan elektromiografiya, elektrokardiografiya, elektrodermografiya usullari keng qo'laniladi.

Elektromiografiya - harakatlanuvchi muskullar elektrik potensialini yozishdir. Iсталgan muskul harakati bosh miyadan elektrik impuls ko'rinishida uzatiladigan ta'sirlar natijasida ishlaydi. Muskullarning elektrik faolligi uning qisqarish kuchini aniqlaydi. Muskullarning elektrik potentsiali maxsus elektrodlar yordamida

kuchaytirgichga, avtomatik tarzda yozgichga uzatiladi va u erda miogramma - elektrik signallarning qog'ozda yozilishi qayd qilinadi.

Elektrokardiografiya - yurak tomirlarining elektrik potentsiallarini qayd qilishdir.

Yurak tomirlari ham muskullar kabi bosh miyadan keluvchi elektrik signallar ta'siri ostida qisqaradi. Ularni qayd qilish elektrokardiografiya deb aytiladi.

Elektrodermografiya - terining elektrik potentsialini qayd qilishdir. Inson tanasidan ter oqib chiqishi ham miyaning elektrik signallari ta'siri ostida amalga oshadi.

Elektrodermogramma, birinchi navbatda, insonning ish jarayonidagi his-tuyg'u holati ko'rsatkichi hisoblanadi.

Markaziy asab tizimining funksional holatini aniqlash uslubi o'quv-texnologiya faoliyatining oquvchi organizmi holatiga ta'sirini o'rganish uchun qo'llaniladi, masalan, diqqat darajasi, ish jarayonida toliqishning rivojlanishi, mashqlar ta'siri ostida markaziy asab tizimida sodir bo'ladigan siljishlar va hokazo.

Ko'pincha shartli reaksiyalar usuli qo'llaniladi, ya'ni oquvchilarga nurli, tovushli yoki boshqa xildagi axborotlar uzatiladi. Unga javob tariqasida oquvchi uncha murakkab bo'lmagan qandaydir ish holatini amalga oshirishi kerak. Masalan, tugmachaga bosadi. Bu harakatni bajarish vaqti va xarakteri bo'yicha ushbu vaziyatda oquvchi markaziy asab tizimining holati va turli mezonlar ta'siri ostida undagi o'zgarishlarni aniqlashi mumkin.

Muammoli vaziyatlar va ulardan foydalanish. Muammoli vaziyat muammoli ta'limni eng muxim momentidir. texnologiya darslarida 8 tipdagi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish mumkin:

1. O'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlar sistemasi bilan yangi bilimlar orasidagi nomuvofiqlardan chiqib keladigan muammoli vaziyatdir. Bu o'zlashtirilgan bilimlar bilan yangi faktlar yoki ilmiy bilimlar va ulardan oldingi xayotiy, amaliy bilimlar orasidagi nomuvofiqlik natijasida paydo bo'ladi.

Masalan : 6 sinf o'quvchilari tajribasidan ma'lumki, motorli qayiqni suvda yurishi, samolyotning xavoda uchishi vintning aylanishi bilan sodir bo'ladi.

Bilimni to'ldirish uchun rezina dvigatelli qayiq modelini tayyorlashdan oldin, uning ataka burchagi nol bo'lgan vint bilan ishlashni namoyish qilinadi.

Mehnat darslaridagi muammoli vaziyatlar turlari

1. O`quvchilarda mavjud bo`lgan bilimlar sistemasi bilan yangi bilimlar orasidagi nomuvofiqliklardan chiqib keladigan muammoli vaziyatdir.

2. Konkret usulda nazariy jihatdan ma`lum bo`lgan eng muvofiq xarakat usulini tanlash muammosi paydo bo`ladi

3. Mutlaqo yangi sharoitda mavjud bilimlar va xarakat usullaridan foydalanish zaruriyatidan kelib chiqqan muammolar.

4. O`quv muammosi xal qilishning nazariy mumkin bo`lgan yo`li bilan amalga oshirib bo`lmaslik orasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan muammo.

5. Konkret ob`yekt (texnologik) bilan uning tasviri orasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan muammo.

6. Xarakatning xayoliy obrazi bilan amaliy xarakat orasidagi nomuvofiqlikni aks ettiruvchi muammoli vaziyatlar.

7. Oldingi tajribani «Psixologik to`siqlari»ni bartaraf qilish bilan bog`liq muammoli vaziyatlar.

8. Qarama-qarshi fikrlar vujudga kelishining natijasidagi muammoli vaziyatlar

2. Konkret usulda nazariy jihatdan ma`lum bo`lgan eng muvofiq xarakat usulini tanlash muammosi paydo bo`ladi. Bunday masala qirqish rejimini tanlashda, jixozni nosozligini aniqlashda paydo bo`ladi.

Masalan : randalashda randa Yog`och qatlamlarini uzib olayotganini payqaydi. Lekin unga sabab qaysi biri ekanini bilmaydi, muammo sodir bo`ladi.

3. Mutlaqo yangi sharoitda mavjud bilimlar va xarakat usullaridan foydalanish zaruriyatidan kelib chiqqan muammolar.

Masalan : o'quvchilar istalgan asbob asosini pona tashkil qilishini bilgandan so'ng o'qituvchi ularga randa va sherxebl randa tig'i orasidagi farqni topishdek muammo.

4. O'quv muammosi xal qilishning nazariy mumkin bo'lgan yo'li bilan amalga oshirib bo'lmaslik orasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan muammo. Bu ishlab chiqarishga oid savollar tarzida «nega» degan savol.

Masalan: tasmali uzatmani uzatish 5 dan ko'p qism tayyorlash tavsiya etilmaydi va xokazo.

5. Konkret ob'yekt (texnologik) bilan uning tasviri orasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqqan muammo. texnologiya ta'limida foydalanganda texnik rasm, chizma – kinematik simvollar yordamida tasvirlanadi, unda muxim bo'lmagan elementlarni tushirib qoldiriladi, natijada amalga mos kelmaydi, muammoli vaziyat sodir bo'ladi.

6. Xarakatning xayoliy obrazi bilan amaliy xarakat orasidagi nomuvofiqlikni aks ettiruvchi muammoli vaziyatlar. O'quvchilar yangi amaliy xarakatni bajarishdan oldin uning obrazini yaratishlari kerak. Ko'p xollarda o'quvchining yangi xarakatni bajarishi uning tavsifi bilan bir xil bo'lmaydi.

7. Oldingi tajribani «Psixologik tusiqlari»ni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli vaziyatlar. Mavjud tajribalar yangi bilimlarni o'zlashtirish protsessida ijodiy va saldiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zlashtirilgan bilim va malakalarni saqlash bilan ularni takomillashtirish, yangilash orasidagi kurash boradi va muammoli vaziyat manbaiga aylanadi.

Konstruksiyalashda, modellashtirishda, texnologik protsesslarni tashkil etishda, o'quvchilar ma'lum konstruksiyalar, modellar, tipovoy protsesslardan uzoqlashish qiyin bo'ladi. Yangi yechimlarni topishda muammo xarakteridagi qiyinchilikka duch keladilar.

8. Qarama-qarshi fikrlar vujudga kelishining natijasidagi muammoli vaziyatlar. Konstruksiyalash va texnologik protsesslarni tashkil etishda bir narsa

xaqida «Mumkin-mumkin emas», «Ratsional-noratsional», «Ijodiy-salbiy» qabilidagi ziddiyatli fikrlar aytiladi. Ulardan qaysi biri to'g'riligini isbotlash vazifasi muammoli xarakterga ega bo'ladi.

Muammoli vaziyatlar xosil qilishning xar xil usullari mavjud. Bular o'quvchilar o'rganayotgan predmetlar, xodisalar orasidagi nomuvofiqlikni ochishga undash, bartaraf qilish uchun yangi bilim, texnologiya malakalari zarur bo'ladigan amaliy xarakterdagi qiyinchiliklardan, tushunchaga, shaxsiy tajribaga zid faktlarni tanlash vaziyatlaridan va boshqalar.

Topshiriqni muammoli vaziyat ta'sirida idrok qilish natijasida o'quvchilar o'quv muammosi xosil bo'ladi. U avval fikr tariqasida vujudga keladi, keyin esa savol shaklida ifodalanadi. Muammoli so'zlar bilan ifodalanishi o'quv muammosini ta'riflash deyiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning muammoli vaziyatdagi xolatlarini xis etishi kerak. Muammoli ta'limning muvaffaqiyati ko'p jixatdan muammoni ko'rish va ifodalashni qandayligiga bog'liq.

Muammoli ta'lim darajalari. «Moskvich» avtomobilining dvigateli 70 ot kuchi, DT-54 traktori dvigateli 50 ot kuchiga teng bir xil plug minsa traktor tortadi.

Ushbu savolni quyidagicha talqin qilish mumkin.

Savol quyidagicha bo'ladi : Dvigatelning quvvati bilan mashinaning tortish kuchi orasidagi bog'lanishni aniqlang »

Demak, o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammolik masalani qo'yishi lozim. Muammoni echishda muammoli ta'limning darajasi, nomustaqil, yarim mustaqil, mustaqil va ijodiy aktivlikka ajratish kerak bo'ladi.

Birinchi darajasi – nomustaqillik-aktivlik muammosi. O'qituvchi o'quvchilarni muammoga olib kiradi, uni ifodalaydi, ishlash uchun faktli material tanlaydi, o'quv muammolarini xal qilish metodlarini ko'rsatadi va ularni ishtirokida xal qiladi.

Ikkinchi daraja – yarim mustaqil aktivlik. O'qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, o'quvchilar o'quv muammosini ifodalashga yordam beradi.

Uchinchi daraja – mustaqil aktivlik. O‘quvchilar uni xal qilish metodini mustaqil topishi va o‘qituvchi bilan xulosa chiqaradi.

To‘rtinchi daraja – ijodiy aktivlik. O‘qituvchi o‘quv materialini yokitexnologiya topshirig‘ini mazmunini bayon qilish bilan muammoli vaziyatni xosil qilish uchun sharoit yaratadi. Bunda o‘quvchilar o‘quv muammosini mustaqil ifodalaydilar. O‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari ularga faktlar va isbotlardagi ziddiyatlarni topishga va o‘quv materialining mantiqiga mos keladigan javod chiqarishga yordam deradi.



Nazorat uchun savollar :

1. O‘quvchilarning bilimlaridan amalda foydalanishning asosiy metodik usullarini ayting.
2. Muammoli o‘qitishning moxiyati nimada ?
3. Muammoli masalani muammoli savoldan farqi nima ?
4. Muammoli ziddiyatlarni ochib bering.
5. Muammoli ta’lim darajasini ochib bering.
6. Ta’limining ilmiy tadqiqot metodlari to‘g‘risida tushuncha bering.

Tayanch idoralar :

1. Tushuntirish – illyustratsiyani o‘qitish ;
2. Muammoli o‘qitish va muammolilik ;
3. Muammoli vaziyat, ziddiyatlar ;

4. Ijodiy faoliyat, nomustaqillik, yarim mustaqillik, mustaqil va ijodiy aktivlik.

Test savollari:

1. Qaysi variantda ta'lim iborasiga to'g'ri ta'rif berilgan?

A) nazariy va amaliy mashg'ulotlar;

*B) bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, texnologiyaga tayyorlashning asosiy vositasi;

C) olamning zarur xususiyatlari haqidagi axborotlar majmuyi;

D) insonlarning o'rganish qobiliyati;

2. O'qitish jarayonining shakllari, usullari, tamoyillari, mazmuni pedagogikaning qaysi qismida o'rganiladi?

A) Metodika

B) Maktabiy pedagogika

*C) Didaktika

D) Pedagogika

3. Ta'limiy kenglik bu — ...

*A) ta'lim jarayonlari amalga oshiradigan, ya'ni atrof-muhit bilan o'zaro harakatni anglatadigan kenglik

B) bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish

C) nazariy dars va amaliy mashg'ulotlar paytida qo'llaniladigan usullar majmuyi

D) voqelikni bilish. o'zlashtirish, o'zgartirish usullari majmuyi

4. Faoliyatlarning zaruriy tashkiliy komponenti bo'lib nima hisoblanadi?

A) Didaktika

B) Metodika

*C) Metodologiya

D) Maktabiy ta'lim texnologiyasi

5. Talim texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

*A) o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli;

B) olamning zaruriy xususiyatlari haqidagi axborotlar majmuyi;

C) bilish jarayonini tartibli ravishda amalga oshirish:

D) biror obektni amaliy o'zgartirish;

13-MA'RUZA.TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA YO'NALISHLAR BO'YICHA O'QITISHNING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.

Reja:

Texnologiya ta'limi darslarining o'ziga hos hususiyatlari.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'rganish bosqichlari.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanining maqsad va vazifalari.

Texnologiya o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari.

Kalendar - mavzu rejasini tuzish .

Dars yaxshi reja-konspekti va uning na'munasi.

O'quv ustaxonasida bajariladigan buyumlar ro'yxati

MA'RUZA BAYONI.

Texnologiya ta'limi darslarining o'ziga hos hususiyatlari. texnologiya ta'limi dasturida shunday o'ziga hos hususiyati borki, texnologiya ta'limi faniga oid mavzular ma'ruzalariga va darslarga bo'linmaydi, ularda soatlar miqdori ajralib ko'rsatilmaydi. Bu ishtexnologiya ta'limi o'qituvchisi yoki ustaga yuklanadi, u har bir mashg'ulot uchun o'quv materialining xajmini shunday taqsimlab chiqadiki, bu material mazmun jihatdan ham, matn jihatdan ham mantiqan tugallagan bo'lishi kerak. SHu bilan birga o'qituvchi ajratilgan mavzuchalardan har biriga kiradigan o'quv materialining xususiyati va mazmuniga mos keladigan nom berish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'rganish bosqichlari

| Ta'lim bosqichi | Bitiruvchilar | Standart darajalari | Daraja nomlanishi |
|----------------------------|---|----------------------------|--|
| Umumiy o'rta ta'lim | Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari | A1 | Texnologiya fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi |

| | | |
|--|------------|---|
| Umumiy o'rtta ta'lim maktablarining texnologiya o'quv fani cho'qur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari | A1+ | Texnologiya fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi |
| Umumiy o'rtta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari | A2 | Texnologiya fanini o'rganishning tayanch darajasi |
| Umumiy o'rtta ta'lim maktablarining texnologiya o'quv fani cho'qur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari | A2+ | Texnologiya fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi |

Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanining maqsad va vazifalari. Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

texnik ob'ekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umumtexnologiya operatsiyalarini bilish;

texnologik jarayonlarni boshqara olish hamda maxsus va umumtexnologiya operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;

texnik va kreaktiv fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qilish;

buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamdatexnologiya operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholash;

ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya o‘quv fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari

1. Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi

A1

Turli materiallardan yasaladigan buyumlarni o‘lchash, rejalash, elimlash, sodda loyihalash ishlarini bajara oladi;

tabiiy va turli materiallarni bir-birida farqlay oladi;

turli materiallardan yasaladigan buyumlarni qurish-yasashda ishni ketma-ketlikda bajarish rejasini tuza oladi;

sodda buyumlarni tika oladi;

kichik hajmdagi buyumlarni to‘qiy oladi;

oddiy modellarni yasay oladi;

o‘tkir va tig‘li asboblardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda foydalana oladi.

A1+

Sodda naqsh elementlarini chiza oladi;

naqsh elementlaridan kompozitsiya tuza oladi;

tabiiy materiallarda sodda naqsh elementlarini tasvirlay oladi;

hunarmandlarning sodda ish namunalarini bajara oladi;

kashtachilik yo‘nalishida sodda naqsh elementlaridan iborat kompozitsiyalarni tika oladi.

A2

Tabiiy va turli materiallarning xususiyatlarini tavsiflaydi va farqlay oladi; materiallarni saralay oladi;

buyum va mahsulotlarni texnologik loyihalay oladi;

materiallarga issiq va sovo‘q ishlov berish usullarini bajara oladi;

detallarni bir-biriga yopishtirishda maxsus elimlardan foydalana oladi;

buyumlarni konstruksiyalash va modellashtirish ishlarini bajara oladi;

texnik ob‘ektlarni biladi va texnologik jarayonlarni qo‘llay oladi;

kichik hajmdagi sodda buyumlarni tikadi va to‘qiy oladi;

harakatlanuvchi modellarni yasay oladi;

asbob-uskunalarini saqlash va ta‘mirlash ishlarini bajara oladi;

xalq hunarmandchiligi turlari bo‘yicha buyumlarni loyihalay oladi;

elektrotexnika, avtomatika va robototexnika turlarini tavsiflay oladi;

sodda elektrotexnika ishlarini bajara oladi;

texnika va texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini biladi;

sanoat sohalari bo‘yicha tayanch bilimlarga ega bo‘ladi;

zamonaviy bozor munosabatlariga moslashadi hamda faoliyat yurita oladi;

turli materiallarga ishlov berishda, asbob-uskuna, moslama, mexanizm, mashinalarda texnika xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda ishlay oladi.

A2+

Mahsulot tarkibi, xossalari va xususiyatlarini aniqlaydi, tavsiflay oladi;

xalq hunarmandchiligi sohalari bo‘yicha buyumlarni texnologik loyihalash va tayyorlashda texnologik jarayonlarni qo‘llay oladi;

xom ashyolarga badiiy ishlov bera oladi;

xalq hunarmandchiligi bilan uyg‘unlashgan kasb-hunarlarini sodda ish usullari vositasida qo‘llay oladi.

2. Psixomotor, funksional, hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya

A1

O'z texnologiya harakatlarini o'quv topshiriqlari asosida muntazam takrorlay oladi; egallagan hayotiy odob-axloq qoidalari, texnologiyasevarlikka oid asosiy tushunchalarga rioya eta oladi.

A1+

Hunarmandlarning qo'ltexnologiyaiga oid bilimini umumlashtirgan holda amaliy vazifalarni bajara oladi.

A2

Hozirjavoblik, ishchanlik, faollik va muomala madaniyatiga amal qila oladi; o'quv-amaliy topshiriqlarni tizimli, tartib-intizom asosida bajara oladi; mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlay oladi;

A2+

Texnologik loyihalash va jarayonlarni amalga oshirish bo'yicha mustaqil qaror qabul qila oladi;

o'z xato va kamchiliklarini anglay oladi, ko'ra biladi va tuzatishga harakat qila oladi.

3. To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi

A1

Kasblar olamini biladi, kasb-hunarlariga oid ma'lumotlarni to'playdi va tavsiflay oladi.

A1+

Hunarmandlar haqidagi ma'lumotlarni biladi, ular faoliyatiga oid ma'lumotlarni to'playdi va tavsiflay oladi.

A2

Kasblardateknologiya turlarini (odam-odam, odam-texnika, odam-tabiat, odam-belgili tizim, odam-badiiy obrazni) ta'riflay oladi;

hududda joylashgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari va ularning yo'nalishlari, joylashuvini biladi, tahlil qila oladi;

kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini) ongli va mustaqil ravishda tanlay oladi;

kasb-hunar turlarining inson salomatligiga qo'yadigan talablarini va o'z imkoniyatlarini psixologik va fiziologik jihatdan baholay oladi.

A2+

Kasbiy axborotlarni, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qila oladi;

uzluksiz ta'lim tizimini, unda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tutgan o'rnini tavsiflay oladi;

kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha mashqlarni mustaqil bajara oladi.

Kalendar-mavzu rejasida amaliy-laboratoriya ishlarining ro'yxati albatta berilishi lozim, zarur asbob-uskunalar, materiallar, xujjatlar ana shu ro'yxatga muvofiq ravishda tayyorlanadi va har bir o'quvchi ish o'rniga amaliy mashg'ulot darsi boshlanishdan oldin tarqatilgan bo'ladi.

Bunday reja o'rgatilayotgan jarayonlarni o'zlashtirishning samarali bo'lishini ta'minlaydigan maxsus moslamalarni ko'rsatmasdan o'tib bo'lmaydi (ular oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim).

Ayrim metodistlar kalendar - mavzu rejasini soddalashtirilgan sxemasini yoqlab chiqmoqdalar. Ular bu ishni endi boshlayotgan texnologiya o'qituvchilari, ustalari, muxim, lekin ko'p vaqt talab qiladigan tayyorgarlik ishining uddasidan chiqmaydilar deb tushuntirmoqchi bo'ladilar. Lekin, shu rejalashtirishni har qanday soddalashtirish yoqi etarli darajada aniq rejalashtirmaslik, ma'lumki ta'lim jarayonini tashkil etishning buzilishiga, ta'lim ishida sifatni pasayishiga va no'qsonlar sodir bo'lishiga olib keladi.

Kalendar - mavzu rejasini tuzish vaqtidatexnologiya o'qituvchisi o'quv ishlab chiqish ishlari ro'yxatiga qandaytexnologiya ob'ektlari kiritilishi lozimligini oldindan bilishi kerak. Demak, kalendar - mavzu rejasi o'qituvchi tomonidan o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati belgilangan bir vaqtda tuzib chiqilishi lozim.

CHunki, bu rejalashtirilayotgan har ikkala xujjat bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. texnologiya va kasb ta‘limi bo‘yicha operator dasturi asosida o‘qituvchining mashg‘ulotga tayyorlanishida, ayniqsa dars rejasini tuzib chiqishda texnologiya ob‘ektlarini tanlashda va mashg‘ulotlarni zarur narsalar bilan boyitishda uning ishini ancha osonlashtiradi. texnologiya va kasb ta‘limi bo‘yicha kalendar-mavzu rejasi dastur asosida yarim yilga mo‘ljallab tuzib chiqiladi. Reja texnologiya o‘qituvchilarining metod birlashmasidan ko‘rib chiqilishi, unga tuzatishlar kiritilib, muloxazalar hisobga olinishi kerak. SHundan keyin maktab o‘quv ishlab chiqarish kombinati va hunar - texnika bilim yurti direktorlarining tasdig‘iga taqdim etiladi.

Ishlab chiqarish ta‘limi dars planining tipik sxemasini o‘rganishda kirishishdan oldin bu planning ishlab chiqarish ta‘limi dasturi va rejasi asosida, maxsus texnologik va boshqa fanlarga doir darslarning planlari ayrim darslar kalendar-rejalari asosida tuzilishini aytib o‘tish zarur. So‘ngra dars rejasini tuzishdan ko‘zda tutilgan maqsad va talablar o‘ylab chiqiladi. SHundan keyin ishlab chiqarish ta‘limi darsini mumkin qadar sxemasini, ya‘ni har bir elementi ayrim band tarzida yozilgan mufassal planini ko‘zdan kechirishga o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulotlarni rejalashtirishda texnologiya ta‘limi o‘qituvchisining ishida muhim o‘rin tutadi. Bunda darslarning kalendar rejalari va reja-konspektlari tuziladi. Kalendar rejaning yagona, doimiy aniq shakli bo‘lmaydi. SHuning uchun amalda rejalar turli shaklda tuziladi. Quyida kalendar rejaning mumkin bo‘lgan variantlaridan birini keltiramiz.

| TN ^o | Mashg‘ulot temasi | Mashg‘ulot sanasi | Buyum | Buyum materiali | | | | Umumiy foydalaniladigan asbob va moslamalar | Ko‘rsatma li qurollar | Eslatma |
|-----------------|-------------------|-------------------|-------|-----------------|-------------|------------|-------|---|-----------------------|---------|
| | | | | Sortamenti | Ita buyumga | buyumlarga | Xamma | | | |
| | | | | | | | | | | |

Ko‘rinib turibdiki, bu formadagi reja muayyan vaqt mobaynida ustaxonalardagi normal ish uchun turli xildagi materiallardan qancha kerakligini hisoblab chiqish imkonini beradi, Ustaxonalarni zarur narsalar bilan ta‘minlash

o'quvchiga yuklanishi nazarda tutilsa, ishda mana shunday rejalarni qo'llash maqsadga muvofiqligi ayon bo'ladi. Rejaning mazkur formasi, shuningdek, umumiy foydalannsh uchun qanday asboblari, qanday moslamalar kerak bo'lishii oldindan aniqlash imkonini beradiki, bu juda muhimdir. Buning muhimligi shundaki, ayrim moslamalarni o'z kuchlari bilan tayyorlashga to'g'ri keladi. Moslamalarni ham o'quvchilarning texnologiya ob'ektlari jumlasiga kiritish mumkin.

Dars yaxshi reja-konspekti — yuqori saviyadagi ta'limiy ishning zarur shartidir, chunki bunday reja-konspektni qunt bilan tayyorlanish va mashg'ulotning har bir elementini puxta o'ylash natijasidagina tuzish mumkin.

Dars reja-konspekti ixtiyoriy formada tuziladi, lekin har qanday holda ham unda mashg'ulotning temasi va maqsadi, uning jihozlanishi va borishi aks etishi zarur.

Topshiriq bo'yicha darsning reja-konspektini tuzing.

Dars rejainiig namunaviy shakli yuqorida berildi. Darsning maqsadini ifodalab, o'rganish va mustahkamlash rejalashtiriladigan bilim va amaliy malakalarni ko'rsatish kerak. Dars jihozlanishida dars davomida qanday asboblari, moslamalar, jihozlari, ko'rsatmali qo'llanmalar, materiallar zarurligini nazarda tutish lozim. Ko'pincha topshiriqqa kombinasiyalangan dars kiradi, chunki uni o'tkazishda har xil didaktik vazifalar hal qilinadi. Bunday dars strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Tashkiliy qism.

O'tilgan materialni (savolni) tekshirish.

Yangi materialni bayon qilish (qisqa konspekt).

Kirish instruktaji.

O'quvchilarning mustaqil ishi.

Joriy instruktaj.

O'quvchilarning mustaqil ishi.

Yakunlovchi instruktaj.

Ish o'rinlarini yig'ishtirish.

Reja-konspektda darsshshg borishni yoritishda ana shunday mulohazalarga asoslanish zarur. Bilimlarni tekshirish imkoni boricha yangi materialni idrok etishga vatexnologiya topshirig'ini bajarishga tayyorgarlik bosqichi sifatida tashkil qilinishi kerak. SHuning uchun dars konkret mazmuniga, shuningdek, oldingi o'quv materialiga bog'liq xolda bilimlarni tekshirish har xil yo'sinda o'tkazilishi mumkin. Agar o'huvchilarning mazkur darsga bevosita daxli yo'q material bo'yicha bilimlarini tekshirish lozim bo'lsa, 10—15 minut vaqt ajratib kontrol ish o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilarga 2—3 ta savol (yoki bir necha variantli topshiriq) beriladi, o'quvchilar yozma ravishda javob qaytaradilar. Bu borada ayrim o'qituvchilar programmalashtirilgan frontal so'rashdan foydalanmoqdalar.

Agar o'tgan mashg'ulotlarda olingan bilimlarni yangi materialni idrok etish uchun tekshirish zarur bo'lsa, so'rash tushuntirishni boshlashdan oldin o'tkaziladi. Bordi-yu, bu bilimlardan amaliy ishda foydalanish zarurati tug'ilsa, material kirish instruktaji prosessida takrorlanadi. Bunda takrorlash uchun beriladigan savollarnitexnologiya topshiriqlariga qo'shish ma'qul. Takrorlash uchun beriladigan savollarni oldindan puxta o'ylash va dars reja-konspektda ko'rsatish lozim. Yangi naterialning hajmi va murakkabligiga qarab, dars konspektida tushuntirishning rejasi yoki qisqacha mazmuni beriladi. Agar yangi material murakkab va hajmi katta bo'lsa, tushuntirish oxirida uni o'quvchilar qanday o'zlashtirganini tekshirish mumkin. Bunday hollarda dars reja-konspektda bilimlarni tekshirish uchun savollar keltiriladi. O'quvchilarning mustaqil ishi dars reja-konspektda alohida o'rin olishi kerak. Umuman, dars samaradorligi uning ana shu bosqichi qanchalik cho'qur o'ylab tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishidagi vazifalarni belgilash o'qituvchining vazifalarini belgilashdan ancha oson ekanligini nazarda tutish lozim. Buning ajablanarli joyi yo'q. Zotan, o'quvchining vazifalari aniq ifodalash mumkin bo'lgantexnologiya topshirig'i bilan belgilanadi. O'qituvchining vazifasi topshiriqning murakkabligiga, o'quvchilar faoliyati qanday o'tishiga, ya'ni ular topshiriqni bajarishda qanaqa xatolarga yo'l qo'yishiga, qanday qiyinchiliklarga duch kelishiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil

faoliyatida, bo'ladigan ishni rejalashtirishda ular yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni analiz qilishi kerak. O'quvchilar programmaga muvofiq yil sayin tipovoy ishlarni bajara boradilar, shuning uchun taxminan bir xil qiyinchiliklarga duch keladilar va bir xil xatolarni takrorlaydilar. Tajribali o'qituvchilar ana shu qiyinchilik va xatolarni yaxshi biladilar, endigina ishlayotgan o'qituvchilar esa bularni metodik adabiyotlardan bilib olishlari mumkin. Ana shu maqsadda o'quvchilarga beriladigan texnologiya topshirig'ini avval o'qituvchining o'zi bajarib ko'rishi zarur. Shuning uchun dars reja-konspekti bilan birga, o'quvchilarning texnologiya ob'ekti sifatidagi buyumni tanlash ham kerak. Frontal, gruppavoy va individual instruktaj bo'la oladigan joriy instruktajni rejalashtiring. YAKunlovchi instruktaj mazmunini yoritib, o'quvchilarning diqqati, xususan, nimaga qaratilishini; ularga keyingi mashg'ulotga tayyorlanish bo'yicha qanday topshiriq berilishini ko'rsating.

Boshlang'ich ko'rsatma vazifalari

- a) talabalar oldida turgan ishlar mazmuni bilan va uni bajarish mumkin bo'lgan vositalar bilan (asbob, moslama, jihoz va hokazo) tanishtirish;
- b) kasbning yakuniy natijasiga (mahsulotga) bo'lgan talablar va texnik hujjatlar bilan tanishtirish;
- v) butun ishni va uning alohida qismlarini (usullar, operatsiyalar va h.k.) bajarish qoidalari va ketma-ketligini tushuntirish;
- g) mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, xatolar haqida talabalarni
... ..

Dars reja-konspektining namunasi.

Dars mavzusi. YUppqa list metallar haqida umumiy ma'lumotlar; yupqa list metallardan buyum yasash, zagotovkani rejalash (4- sinf).

Dars maqsadi. YUppqa list metallar haqida tushuncha berish, rejalash operatsiyasi bilan tanishtirish va rejalashning ayrim usullarini bajarish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'llash maqsadida ularga hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi rejalash ishlarining ahamiyati haqida umumiy tushunchalar berish, ularni texnik masalalarni hal qilishga jalb etish.

Texnik ma'lumotlar. 3—4 turdagi list, metallar (qalinligi 0,5 mm po'lat, latun, mis, alyuminiy)ning tashqi ko'rinishidagi farqlari. List po'latni to'g'rilash haqida tushuncha. Tekislikda rejalash haqida tushuncha. Eg'och to'qmoq, chizg'ich, burchaklikning tuzilishi va vazifalari. Detallarni rejalash usullari, rejalashdagi ishlar tartibi. Ish o'rnining holati va rejalashda xavfsizlik texnikasi.

Texnologiya usullari va operatsiyalari. Zagotovkani tayyorlash (tozalash, g'uddalarni egovlash, tekislash, tekislik rejalash).

Texnik masalalar. Buyumning vazifasiga ko'ra, gabarit o'lchamlarini belgilash, zagotovka tanlash, buyumning zagotovkada eng ratsional joylashuvini aniqlash. Texnologiya ob'ekti - Keskich uchun taglik.

Jihoz va materiallar- List metall namunalari, chizmalar, keskich uchun tagliklar, to'qmoqlar, chizg'ichlar, burchakliklar, egovlar, tekislash plitalari, yupqa list metallardan yasalgan buyumlarning namunalari.

Dars borishi

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilarning davomatini, maxsus formalarining ahvolini tekshirish

2. YAngi materialni bayon qilish.

Xalq xo'jaligida va turmushda yupqa list metallning qo'llanishi haqida suhbat.

3. Kirish instruktaji.

O'quvchilargateknologiya topshirig'i berish (keskich uchun taglik yasash).

CHizma bo'yicha taglikning konstruksiyasini o'rganish, taglikning vazifasiga ko'ra uning gabarit o'lchamlarini belgilash.

4. O'quvchilarning mustaqil ishi.

Daftarga keskich tagligining texnik rasmini chizish.

5. Joriy instruktaj.

Keskich tagligini tayyorlashning umumiy rejaini tuzish. O'quvchilarga taglikni tayyorlashning birinchi bosqichini — chizmani o'rganish, zagotovka o'lchamlarini tekshirish, zagotovkani xavfsizlik texnikasi no'qtai nazaridan tekshirishni tushuntirish, zagotovkani ifloslikdan, zangdan tozalash; uni to'g'rilash va rejalash.

6. O'quvchilarning mustaqil ishi. Taglikni tayyorlashning birinchi bosqichini bajarish. Ish umumiy tarzda olib boriladi.

YAkunlovchi instruktaj. Ish natijalarini yakunlash. Rejalovchi kasbining xarakteristikasi.

Ish o'rinlarini yig'ishtirish.

O'quv ustaxonasida bajariladigan buyumlar ro'yxati kalendar tematik rejaga qo'shimcha ravishda yoziladi. Bu quyidagi prinsiplarga asosan ishlab chiqilgan:

O'qitish unumitexnologiya asosida olib boriladi.

Buyumlar oddiydan murakkabga qarab joylashtirilgan.

Hamma buyumlar operasiyalar bo'yicha normallashtirilgan. Bu esa, o'quvchilarnitexnologiya prosessini rejalashtirishga o'rgatadi.

Bu sxema tabiiy-matematik fanlar orasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadi. Bu birlashgan tematik rejada ilmiylik va nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi asosida faqat ishlab chiqarish ta'limi maxsus texnologik fanning ayrim temalari orasidagina emas, balki boshqa umumiy ta'lim fanlari (fizika, matematika, ximiya) orasida xam umumiy texnika fanlari (metallar texnologiyasi, chizmachilik, texnik mexanika, elektrotexnika) orasida ham xuddi yuqoridagiday bog'lanish amalga oshiriladi.

Bu rejada nomi aytilgan hamma fanlar xuddi tabiiy-matematik sikl fanlarining o'zginasidir.

SHundan keyin konkret misollar bilan (o'qituvchi ixtisosi profilini ham hisobga olib) bu nomi aytilgan fanlar temalari orasidagi ob'ektiv mavjud bog'lanishlarni

(sxemadagi misollar kabi) aniqlash zarur. SHundan keyin birlashgan tematik misolning asosiy mazmuni, uni ishlab chiqarish bosqichlari bilan tanishiladi. Bu ishlab chiqarishning mohiyati shundan iboratki, o'qish yili boshlanishidan oldin bilim yurti metodik komissiyasining majlisi chaqiriladi (bu komissiyaga birlashgan tematik rejada ko'rsatilgan fanlarning ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'qituvchilari kiradi). Komissiyaning har bir a'zosi o'z fanini puxta analiz qilib, boshqa fanlar bilan bog'lanishni amalga oshirish imkonini beradigan konkret misollar vositasida bayon qilib beradi. Bu xildagi takliflar har tomonlama muhokama qilinadi, umumlashtiriladi. Fanlararo bog'lanishni amalga Oshirishga yordam beradi deb topilgan programma material birlashgan tematik reja jadvaliga yoziladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, tabiiy-matematik fanlarning birlashgan tematik rejaini ishlab chiqishning ahamiyati ayniqsa so'ngi yillarda, ya'ni mamlakatimizda yangi tip professional texnika bilim yurtlari ixtisos berish bilan birga umumiy o'rta ma'lumot ham beradigan bilim yurtlari tashkil etilishidan keyin yana oshdi.

Texnologiya ta'limi darslari o'quvchilar uchun juda qiziqarli utilishi lozim. SHunga ko'ra ularni qiziqtirish, masalan, mashg'ulotlar programmasiga bolalar uchun nihoyatda qiziqarli buyumlar yasash ishlarini kiritish kerak. Buning uchun mashg'ulotlarni har xil materiallar, asboblari va jihozlari bilan ta'minlash zarur. Bularning hammasini oldindan o'ylab qo'yish lozim.

Texnologiya ta'limi darslarini ishini rejalashtirish texnologiya ob'ektlarini tanlashdan boshlanadi. Bunda o'quvchilar hamma vaqt o'z imkoniyatlarini ob'ektiv baholamasligini, ularning o'z imkoniyatini yuqori baholashga moyilligini hisobga olish kerak.

Texnologiya ob'ektlarini tanlashda o'quvchilar qanday texnik bilimlarga egaligini, qanday texnologiya ko'nikmalarini o'zlashtirganligini nazarda tutish lozim. O'quvchilarning fan asoslaridan olgan bilimlari saviyasi ham muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni xushmuomalalik bilan real ob'ektlarni tanlashga yo'naltirishdan, ularga u yoki bu ob'ektni nima uchun bajarish mumkin emasligini tushuntirishdan iboratdir.

O'quv ustaxonalarida bajariladigan buyumlar ro'yxati yarim yilga yoki bir yilga mo'ljallab tuziladi. Uni ishlab chiqishda ustaxonatexnologiya ta'limi o'qituvchilari va ustaxonaning mudiri qatnashadi. O'quv ustaxonasida bajariladigan buyumlar ro'yxati kalendar tematik rejaga qo'shimcha ravishda yoziladi. Bu quyidagi prinsiplarga asosan ishlab chiqilgan:

1. O'qitish unumitexnologiya asosida olib boriladi.
2. Buyumlar oddiydan murakkabga qarab joylashtirilgan.
3. Hamma buyumlar operasiyalar bo'yicha normallashtirilgan. Bu esa o'quvchilarnitexnologiya prosesini rejalashtirishga o'rgatadi.

Bu sxema tabiiy-matematik fanlar orasidagi o'zaro bog'lanishni ko'rsatadi. Bu birlashgan tematik rejada ilmiylik va nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi asosida faqat ishlab chiqarish ta'limi maxsus texnologik fanning ayrim temalari orasidagina emas, balki boshqa umumiy ta'lim fanlari (fizika, matematika, ximiya) orasida ham umumiy texnika fanlari (metallar texnologiyasi, chizmachilik, texnik mexanika, elektrotexnika) orasida ham xuddi yuqoridagiday bog'lanish amalga oshiriladi.

Bu rejada nomi aytilgan hamma fanlar xuddi tabiiy-matematik sikl fanlarining o'zginasidir.

SHundan keyin konkret misollar bilan (o'qituvchi ixtisosi profilini ham hisobga olib) bu nomi aytilgan fanlar temalari orasidagi ob'ektiv mavjud bog'lanishlarni (sxemadagi misollar kabi) aniqlash zarur. SHundan keyin birlashgan tematik misolning asosiy mazmuni, uni ishlab chiqarish bosqichlari bilan tanishiladi. Bu ishlab chiqarishning mohiyati shundan iboratki, o'qish yili boshlanishidan oldin bilim yurti metodik komissiyasining majlisi chaqiriladi (bu komissiyaga birlashgan tematik rejada ko'rsatilgan fanlarning ishlab chiqarish ta'limi ustalari o'qituvchilari kiradi). Komissiyaning har bir a'zosi o'z fanini puxta analiz qilib, boshqa fanlar bilan bog'lanishni amalga oshirish imkonini beradigan konkret

misollar vositasida bayon qilib beradi. Bu xildagi takliflar har tomonlama muhokama qilinadi, umumlashtiriladi. Fanlararo bog‘lanishni amalga Oshirishga yordam beradi deb topilgan programma material birlashgan tematik reja jadvaliga yoziladi.

SHuni aytib o‘tish kerakki, tabiiy-matematik fanlarning birlashgan tematik rejaini ishlab chiqishning ahamiyati ,ayniqsa, so‘ngi yillarda, ya’ni mamlakatimizda yangi tip professional texnika bilim yurtlari-ixtisos berish bilan birga umumiy o‘rta ma’lumot ham beradigan bilim yurtlari tashkil etilishidan keyin yana oshdi.

Nazorat savollari:

Texnologiya ta’limi darslarining o‘ziga hos hususiyatlari aytib bering.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘rganish bosqichlarini izohlab bering.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanining maqsad va vazifalarini ayting. Texnologiya o‘quv fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari qanday.

Kalendar - mavzu rejasini tuzish tartibini tushintiring.

Dars yaxshi reja-konspekti va uning na’munasi izohlab bering.

O‘quv ustaxonasida bajariladigan buyumlar ro‘yxati nimaga asoslanib tuziladi.

Kirish, joriy yakuniy, instruktajlar qachon va qay paytida qo‘llaniladi.

2. Test savollar.

1. Texniktexnologiya qaysi sinflarda o‘tiladi

A. 1

B. 2

S. 5-7

D.1-4

2. Kirish instruktaji darsni qaysi qismida amalga oshiriladi

A. Kirish qismida

B. So‘rash qismida

S. Yangi material bayon qismida

D. Mustahkamlashda

3.O'quv rejasida nimalar ko'rsatiladi

A. O'quv fanlari ro'yxati

B. Fanlarning o'rganish tartibi xamda vaqti

S. O'quv yili strukturasi

D. Mashg'ulotlar rejas.

4. O'quv rejasida qanday klassifikatsiyalanadi.

A. Ketma -ket yig'ilgan, ketma-ket ajratilgan, parallel

B. Ketma-ket parallel aralash

S. O'quv yilining davomiyligi bo'yicha

D. Ta'tillarni soni bo'yicha

3.Tayanch iboralar:

1. Rejalashtirish 2. Xujjatlar 3. Dars konspekti.

14-MA'RUZA.O'ZLASHTIRISHNI HISOBGA OLISH TURLARI.

Reja:

1.Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish.

2.Baholashning mohiyati.

3.Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni baholash.

4.Baho qo'yishdagi ob'ektiv talablar.

5.Baholash me'zonlarining mohiyati.

MA'RUZA BAYONI.

Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish. Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish hamda baholash katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish ikki xil formada frontal va individual tarzda o'tkazish mumkin.texnologiya darslarida individual tekshirish uchun qulay sharoit vujudga keladi, chunki o'quvchilarning biridan so'rash boshqa o'quvchilarni ishdan chalg'itmaydi. Frontal so'rash nazariy qoidani butun gruppaga qanchalik to'g'ri o'zlashtirganini tekshirish zarur bo'lib qolgandagina foydalaniladi.

Bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish og'zaki, yozma va amaliy bo'lishi mumkin.

Og‘zaki tekshirish. O‘quvchilar bilim saviyasini puxtaligiga va ongliligini aniqlash imkonini beradi.

Bilimlarni yozma tekshirishda o‘quvchilar bilimni «sinab» ko‘rish kerak bo‘lganda, o‘quvchilar u yoki bu masala bo‘yicha qanday bilimlar bilan kelgani va bilimlar mazmuni o‘rgangandan keyin qanchalik bo‘lganini aniqlash zarur bo‘lganda qo‘llaniladi.

Bilimlarni amalda tekshirishda o‘quvchilarning texnologiya darslaridagi faoliyati, ijtimoiy foydali buyumlarni tayyorlashdan iborat bo‘ladi va shu yo‘l bilan moddiy ifodalashni topadi. Keyingi yillarda o‘quvchilar bilimlarini programmashtirilgan va test reyting sistemasida kontrol qilishdan keng foydalanilmoqda. Bunda so‘rash vaqti qisqaradi va unga hamma o‘quvchilar qatnashadi. Programmashtirilgan kontrol uchun kartochka-topshiriqlarning bir necha variantlarini mavjud xar bir o‘quvchi topshiriq, qog‘oz varaqlari va teshiklar bor ramka oladi. O‘quvchilar javoblarni tekshirish uchun mo‘ljallangan shablonlardan birida ko‘rsatilgan. Bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish birdan bir maqsad emas, balki butun ta‘lim jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘quvchilar birinchidan tekshirishning zarurligini tushunib va unga katta ma‘suliyat bilan munosabatda bo‘ladilar, O‘qituvchi esa har bir o‘quvchi xaqida tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga ega. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta‘lim muassasasi jamoasining ta‘lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarining umumiy o‘zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta‘lim standartlarida davlat tomonidan qo‘yilgan talablar nechog‘lik bajaraliyotganligi aniqlanadi. Natijalarni baholash orqali bir paytning o‘zida butun ta‘lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko‘rilishi kerak. Bu bilan ta‘lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib, o‘lchanadi. Bilimlarni muntazam baholab borish ta‘lim rejasi, uning katta-kichik bo‘limlar asosida amalga oshiriladi. Ta‘lim tizimi natijalari muayyan standart me‘yori orqali ifodalanadi. Baholash natijasida nafaqat ta‘lim oluvchining, balki ta‘lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o‘quv jarayonidagi

kamchiliklar ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, rejalar, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi. Ta'lim dasturini qism bo'laklari bo'yicha muntazam baholab borish oxir-oqibat aniq va adolatli baholanish shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Baholashning mohiyati. YUqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib. baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin avvalgi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun;
- o'quvchiarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;

Nimani baholash kerak?

- nazariy bilimlarni;
- amaliy ko'nikma va malakalarni;

Qachon baholash kerak?

- ta`lim jarayoni boshida (boshlang`ich baholash);
- ta`lim jarayoni davomida (Joriy baholash);

Yuqorida ta`kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o`quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko`nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa - affektiv o`quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish hamda baholash katta ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bilim, ko`nikma va malakalarni tekshirish ikki xil formada frontal va individual tarzda o`tkazish mumkin. texnologiya darslarida individual tekshirish uchun qulay sharoit vujudga keladi, chunki o`quvchilarning biridan so`rash boshqa o`quvchilarni ishdan chalg`itmaydi. Frontal so`rash nazariy qoidani butun gruppaga qanchalik to`g`ri o`zlashtirganini tekshirish zarur bo`lib qolgandagina foydalaniladi.

Bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalarni baholash. Bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalarni tekshirish baholash bilan yakunlanadi. texnologiya mashg`ulotlarida boshqa o`quv fanlaridagidek baholashning besh balli sistemasidan foydalaniladi.

Bahotexnologiya jarayoning texnologiya no`qtai nazaridan tugallangan bosqichlari uchun qo`yiladi.

Operatsiya (rejalash, parmalash va hokazo) ba`zi xollarda esa o`tish (m: bir sirtni tirik tishli egov bilan egovlash) ana shunday bosqich xisoblanadi.

Ayrim operatsiyalarning o`rganish jarayonida baholanadi. Bunday xolda buyumni yasash uchun umumiy baho ayrim operatsiyalarni bajarish uchun qo`yilgan

baholarni yig'indisidan iborat bo'ladi. Operatsiyalar ilgari tanish bo'lsa, bir yo'la tayyor buyumni tekshirish natijasida qo'yiladi.

Baho asosli bo'lishi, ya'ni O'qituvchi nima uchun ishga ana shu ball qo'yganini o'quvchilarga tushuntirib berishi kerak. O'qituvchini bahoni asoslashi aslida o'quvchilar ishini taxlil qilishdan iborat bo'lib, o'quvchilarga o'z xatolarini tushuntirishda, ustaxonalardagi faoliyatlariga qo'yilgan talablarni aniqlashda yordam beradi.

Baho qo'yishdagi ob'ektiv talablar. Baho ob'yektiv bo'lishi zarur. Bahoga o'quvchilarning intizomi ta'sir qilmasligi kerak. Bahoning ob'ektivligi, ayrim o'quvchilarning texnologiyai natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko'rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumning miqdori va hokazolar) ga asoslanadi. Bahoning yagona talablar asosida qo'yilsa, u ob'ektiv bo'ladi.

1. Ishlash aniqligi. Aniqlik – har qanday mahsulotni, shu jumladan mashinasozlik va Yog'ochni qayta ishlash sanoatlari mahsulotlarini tayyorlashga qo'yilgan talablardir.

O'quv ustaxonalarida aniqlik har bir sinf uchun alohida bo'lishi kerak.

Birinchi yarim yillikning oxirida buyumlar aniqligi oltinchi sinf uchun +1....2mm atrofida.

7 sinf uchun +0,3 dan +0,4 mm gacha (metal) va +0,5 dan +0,8 mm gacha (Yog'och).

8 sinf uchun +0,1 dan +0,2 mm gacha (metal) va +0,2 dan +0,3 mm gacha (Yog'och) bo'lishi lozim.

2.Vaqt normasi. Vaqt normasini kiritish o'quvchilarning aniqlik va boshqa texnik talablarni nazarda tutishga majbur qiladi. U texnologiya unumdorligini oshirishga, ratsionalizatorlikka uyinayidi. Vaqt normasini belgilashda dam olish vaqtini ham qo'shish kerak.

3.O'quvchilarning bilimlari. O'qituvchilarning amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil etiladi. SHuning uchun o'quvchilar bilimlarining xajmi, qanchalik cho'qur o'zlashtirilgani hisobga olinadi.

4. Texnologiya usullarini to'g'ri bajarish. Har birtexnologiya usullari uning ketma-ketligi shunday tashkil etiladiki eng kam texnologiya sarf etishi va yuqori texnologiya unumdorligiga erishishi lozim.

5. Ish o'rnini tashkil etish. Ish o'rinni tashkil etishtexnologiya unumdorligiga yordam beradi. SHuning uchun bunga birinchi mashg'ulotdayoq e'tibor beriladi.

6. Texnologiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalarni buzilsa, jaroxatlanish xavfi tug'iladi. O'quvchilartexnologiya xavfsizligi qoidalarini buzadilar, bunday o'quvchilarni baholarini kamayitirish kerak.



Nazorat uchun savollar.

3. Nima uchun bahoni asoslab berish lozim ?

4. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda qanday talablar hisobga olinadi ?

5. Test-reyting usulida baholash va uning afzalligi ?

4. Baho qo'yishdagi ob'yektiv talablar

5. Baholashning mohiyatini aytib bering.

15-MA'RUZA. TEXNOLOGIYA TALIMI JARYONIDA KASB TANLASHGA YO'LLASH

Reja:

1. texnologiya ta'limi jarayonida olib boriladigan kasb tanlashga yo'llash ishining mazmuni va vazifalari.

2. texnologiya tayyorgarligining profilini tanlash.

3. texnologiya ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashniig formalari va metodlari.

MA'RUZA BAYONI.

Texnologiya ta'limi jarayonida olib boriladigan kasb tanlashga yo'llash ishining mazmuni va vazifalari. Kasb tanlashga yo'llash butun pedagoglar kollektivi tomonidan hal etiladiga umummaktab vazifasi hisoblanadi. SHu bilan birga, bu ishda texnologiya ta'limi aloxida o'rinni egallashini esdan chiqarmaslik kerak. Bunga sabab shuki, texnologiya ta'liminig mazmuniga qator kasblar bilan uzviy ravishda tanishtirish kirishtirib yuboriladi va bu tanishtirish faqat nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham olib boriladi. Ma'lumki, kasb to'g'risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqda to'liq tassavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi.

Kasb tanlashga yo'llash ishi butun texnologiya ta'limi davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o'zining turli bosqichlarda o'zgarib turadi.

V-VII sniflarda asosan kasb xakida ma'lumot beriladi. O'quvchilar qanday ommaviy ishchi kasblar borligi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari o'quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o'qitishning shu davrida o'quvchilarni umumtexnik tayyorlash vazifasiga to'la mos keladi.

VI sinfda va ayniqsa, VII sinfda kasb to'g'risida ma'lumot berish bilan bir qatorda kasbiy tarbiyalash ishlari xam olb boriladi. Bunga sabab shuki, VII sinfni bitirish arafasida o'quvchilar bo'lg'usi texnologiya tayyorgarligining profili (yo'nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir profil ko'plab ommaviy ishchi kasblarini o'z ichiga oladi. Bular ustaxo-nadagi mashg'ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo'lgan kasblar bo'lishi (masalan, metallga ishlov berishga va Yog'ochga ishlov berishga oid kasblar) yoki ular bilan hech qaday

aloqador bo'lmagan kasblar (chulonchi, suvoqchilik, buyoqchilik va shu kabi kurilish kasblari) bulishi mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash ishida 8-9 sinflar alohida o'rinni egallaydi. Bunda bir tomondan kasb tanlashga yo'llash ishi bevositatexnologiya darslarida davom etib, o'quvchilar o'zlari tanlagantexnologiya tayyorgarligi profili tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida tasavvur olishadi, ya'ni kasbga intilish go'yo «torayib boradi». Boshqa tomondan esa , «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasb tanlash» maxsus predmetlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni xalq xo'jaligining asosiy kasblari va ixtisosliklari bilan tanishtirish yuzasidan sistemaga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlanadi. Mazkur predmetdatexnologiya darslarida, fan asoslari o'rganiladigan darslarda o'quvchilar kasblar to'g'risida olgan bilimlar umumlashtiriladi.

SHunday qilib, 8-9 sinflarda ma'lum darajada qarama-qarshi vazifa qo'yiladi. O'quvchi kengaytirilgantexnologiya ta'limini o'tib qator o'xshash kasblar elementlarini (masalan, metallga ishlov berish uchun slesarlik, tokarlik, frezerlik ishi) o'zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang'ich kasb tayyorgarligini oladi va uni yuqori sinflarda davom ettirishi zarurdek tuyuladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba sistemaga solingan xolda to'liq ochib beriladi, go'yo ulardan hohlaganingni tanlab ol, deyilgandek bo'ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko'rinishdagi ziddiyatda namoyon bo'ladi.

Demak, o'quvchi faqat 9- sinfdan biror kasbni tanlash haqida uzil-kesil qarorga kelishi mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashga yo'nalishlshi tugaydi yoki bo'shashtirib yuboriladi, deyish xato bo'ladi. Aksincha, bu ish endi yanada ta'sirchan bo'lishi lozim, ammo uning maqsadi o'zgaradi, endi birinchi planni tanlagan kasbga muhabbat uyg'otish egallaydi.

Texnologiya tayyorgarligining profilini tanlash. texnologiya tayyorgarligining profilini tanlashda ko'pincha munozarali vaziyatlar vujudga kelib, bu munozarada o'quvchilarining ota-onalari ham ishtirok etishlari mumkin. texnologiya tayyorgarliging ayrim profillari go'yo

e'tiborsizdek tuyulib, hech kim bu kasbni tanlashni xohlamaydi. Boshka profillarga esa, aksincha, keragidan ko'proq o'quvchilar qizikib qolishadi.

Afsuski, maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin; o'qituvchilar bu masalani o'quvchilarning o'zlashtirishlariga qarab hal etishga urinishadi, ya'ni a'lochi o'quvchilarga tanlash ho'qo'qi beriladi yomon o'zlashtiruvchilar esa kolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo'lishadi. Masalani bu tarzda hal etish har jihatdan noto'g'ridir. Hayot yo'lini zo'rma-zo'raki tanlaganlardan xech qanday yaxshilik kutib bo'lmaydi. SHubhasiz, a'lochi o'quvchilar rag'batlantirilishga loylqlar, biroq bu narsa boshkalarni kasb tanlash erkinligidan mahrum qilmasligi kerak.

Shunday xam bo'ladiki, texnologiya tayyorgarligining profilini to'g'ri tanlagan o'quvchi keyinchalik o'ziga shu profil doirasidagi kasbni tanlaydi.

SHundan kelib chiqib, texnologiya tayyorgarligining profilini tanlash ixtiyoriy bo'lishiga harakat qilish lozim.

Bunga qandan erishish mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo kasb tanlash erkinligini kanday tushunish lozimligini aniqlab olish zarur.

Bizning jmmiyatimnnda xoxlagan kasbni tanlash yo'lida siyosiy, ijtimoiy, milliy va boshqa xil g'ovlar yo'q. Ammo bu ho'qo'qdan o'z o'rnida foydalana bilish va bunga o'rgatish darkor. Gap shundaki, u yoki bu kasbga bo'lgan talab uning e'tiboriga qarab emas, balki xalq xo'jaligining strukturasiqa qarab aniqlanadi. SHuning uchun, xohishimizdan qat'i nazar, ob'ektiv tarzda kechuvchi ilmiy-texnik taraqqiyot bu rejaga o'z shartlarini knritadi. Va biz yoshlarni xalq xo'jaligiga kerakli kasblarda ishlashga tayyorlashimiz kerak. Ravshanki, bu o'ta muhim vazifaninig bajarilishni ta'minlash kasb tanlash erkinligi fukoralik burchni tushunish bilan, mamlakatimizda barcha kasblar ham kerakli va faxrli ekalligini anglash bilan uyg'unlashib ketishi lozim. Oldingi talim jarayonida kasb tanlash hakidagi masalani fakat o'zining manfaatlari no'q-tai nazaridan hal etmasligi kerak. Agar u siyosiy jihatdan etuk bo'lsa, bunday qilmaydi ham. O'smirlar to'g'risida gap ketganda, ular shaxs sifatida endigina shakllallb kelayotganliklarini e'tiborga olish zarur.

Shu munosabat bilan texnologiya ta'limiga alohida umid bilan karaladi. Tekshirishlar o'quvchilarning ma'lum qismi ishchi bo'lib ishlashni xoxlamasliklarini qo'rsatadi. Buning sababi shundaki, o'quvchilar ishchi kasblarining mazmuni to'g'risida to'g'ri tasavvurga ega emaslar, jamiyatimizda ishchilar qandan e'zozlanishini yaxshi bilmaydilar. O'quvchilar bilan aynan mana shu yo'nalishda ish olib borish kerak, zero davlatimiz manfaatlari o'rta maktabni bitirganlarning ko'pchiligini moddiy ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilishni taqozo etadi.

Mazkur holda masala teng qimmatli ommaviy ishchi kasblariga taalloqli ekanligi ishni osonlashtiradi. Teng qimmatli kasblar deganda insonga har tomonlama kamol topish, moddiy farovonlik, jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'lishga imkoniyatlar yaratishi jihatidan teng bo'lgan kasblar tushupiladi. SHu boisdan, agar ommaviy ishchi kasblari ichida ayrimlari e'tiborsizdek tuyulsa, bu oddiy chalkashish bo'lib, texnologiya o'qituvchisi xatolikni bartaraf etishi kerak. Buning uchun esa ommaviy ishchi kasblarida umumiy tomonlar ko'p ekanligini ta'kidlash kerak. Amalda uchraydigan barcha kasblar bilan o'quvchilarni tanishtirib chiqishning imkoni yo'q, albatta. Lekin, ko'pgina kasblar inson oldiga qator umumiy talablarni ko'yadi. O'smirlarni ana shu talablar bilan tanishtirib ularning xakidagi tasavvurini kengaytirish mumkin. Masalan, keyingi paytda jismoniy texnologiyaning ma'naviy saviyasi ortayotganligi kuzatilmoqda. Akliy texnologiya faoliyatiga kuyiladigan talablar tobora ortib bormokda. texnologiya kollektivida o'zini tutishiga nisbatan ham yuqori talablar qo'yilmokda. SHuni hisobga olib, kasb tanlashga yo'llash ishini shunday tashkil qilish mumkinki, o'quvchilar faqat konkret kasblar to'grisida tasavvur olibgina qolmasdan, texnologiya faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan umumiy talab to'g'risida xam tasavvurga ega bo'layotganliklarini anglaydigan bo'lishsin. Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib, ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab yordam berishi kerak. Ko'pincha sinf raxbari o'quvchiga kartochka tutib, o'quvchining, u yoki bu o'quv predmetiga munosabati, kasbga bo'lgan qiziqishi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari,

shaxsiy fazilatlari haqida o'qituvchilar aytgan ma'lumotlarni shu kartochkaga yozib boradi. Bu esa o'quvchining nimalarga qiziqishini aniqlashga imkon beradi. Agar o'quvchining qiziqishlari barqaror bo'lsa, sinf rahbari o'quvchida u tanlamoqchi bo'lgan kasb uchun zarur alomatlar bor-yo'qligini aniqlashga kirishadi. O'quvchining sog'lig'i u tanlagan kasb talablariga to'g'ri kelmaydigan hollar ham uchraydi. Bu masalani vrach hal qiladi. SHundan so'ng o'qituvchilar o'quvchining ota-onasi bilan suhbatlashib, bolani boshka kasbga qiziqtirishga harakat qiladilar. Lekin bu ishni xushmuomalalik, extiyotlik bilan bajarish lozim, aks holda o'smirning ko'ngli, cho'kishi, o'zini to'laqonli odam emasdek his etishi mumkin.

O'quvchilar o'zlariga kasb tanlayotganlarida o'qituvchilar o'z tasirini o'tkazishga xaddan tashqari intimasliklari kerak. Bu o'rnida juda extiyot bo'lish va o'quvchilar ushbu kasbga chindan xam kiziqadilarmi yoki bu qizikish tasodifiy kiziqishmi, aniklab olish lozim.

Kasb tanlashga yo'llash ishini olib borishda maktabning real ish sharoitlarini hisobga olish darkor. Mamlakatimiz turli tumanlarining ishlab chiqarish bazasi bir xilda emas. Masalan, agar gap Qora dengizga, ya'ni kurort zonaga yaqin joylashgan shaxar hakida boradigan bo'lsa, o'quvchilarning ko'pchilik kismi kelgusida aholiga xizmat ko'rsatish soxasida ishlash kerakligini e'tiborga olishga to'g'ri keladi. Tuman iktisodiyotitexnologiya bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Birok insonning individual xususiyatlari ham, odatda, kator kasb talablariga javob beradi, o'quvchilarning qiziqishlarini esa shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kasb tanlashga yo'llash ishini davlatning u yoki bu kasbga bo'lgan extiyojlarini hisobga olgan holda va o'quvchilarning qiziqishlari hamda ishtiyoqlarini e'tiborga olgan holda olib borish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash ishida VIII-IX sinflar aloxida o'rinni egallaydi. Bunda bir tomomdan kasb tanlashga yo'llash ishi bevosita texnologiya darslarida davom etib, o'quvchilar o'zlari tanlagan texnologiya tayyorgarligi profili tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida tasavvur olishadi, ya'ni kasbga intilish go'yo «torayib boradi». Boshqa tomondam esa «Ishlab chiqarish


asoslari», «Kasb tanlash» maxsus predmetlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni xalq xo'jaligining asosiy kasblari va ixtisosliklari bilan tanishtirish yuzasidan sistemaga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlapadi. Mazkur predmetdaxnologiya darslarida, fan asoslari o'rganiladigan darslarda o'quvchilar kasblar to'g'risida olgan bilimlar umumlashtiriladi.

SHunday qilib, VIII-IX sinflarda ma'lum darajada karama-qarshi vazifa qo'yiladi. O'quvchi kengaytirilgantexnologiya ta'limini o'tib qator o'xshash kasblar elementlarini (masalan, metallga ishlov berish uchun slesarlik, tokarlik, frezerlik ishi) o'zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang'ich kasb tayyorgarligini oladi va uni yuqori sinflarda davom ettirishi zarurdek tuyuladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba sistemaga solingan xolda to'liq ochib beriladi, go'yo udardan hohlaganingni tanlab ol, deyilgandek bo'ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko'rinishdagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. IX sinfda o'quvchi o'zi avval tanlagan kasbdan aynib, texnologiya ta'limining butunlay boshqa yo'nalishini ixtiyor qilib qolishi mumkin. Demak, o'quvchi faqat IX sinfda biror kasbni tanlash haqida uzil-kesil qarorga kelishi mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashiga yo'nalish ishi tugaydi yoki bo'shashtirib yuboriladi, deyish xato bo'ladi. Aksincha, bu ish endi yanada ta'sirchan bo'lishi lozim, ammo uning maqsadi o'zgaradi, endi birinchi rejani tanlagan kasbga muhabbat uyg'otish egallaydi. Kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, formalarn va metodlari ana shu maqsadga qaratiladi.

Yuqorida aytilganlardan, texnologiya ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash ishi bir necha bosqichdan o'tib, bu bosqichlarning har birida o'z vazifalari hal etiladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bunda kasb tanlashga yo'llash ishi, boshka har qanday o'quv-tarbiya ishi kabi, ikki yoklama jarayondan iborat bo'lib, bu jarayonda o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham teng darajada axamiyat ajratiladi. Shuning uchun kasb tanlash ishiga nisbatan qo'yiladigan eng muhim talab — o'quvchilarning darajada aktiv bo'lishi lozimligidirki, bu aktivlik kasbiy tarbiya kasb tanlash negizlarini shakllantirish hisobiga ta'minlanadi. texnologiya,

o'qituvchilari profdiagnostika xamda profkonsultatsiyaga tayyorgarlik ko'rgan bo'lsalar va bu ishni o'z vaqtida o'tkzalsalar, o'quvchilarning aktivligi ortadi.

Texnologiya ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashniig formalari va metodlari. texnologiya ta'limi jarayonida o'kuvchilarni yogochga, metallga va boshqa materiallarga ishlov berish bilan, elektr montaj ishlarini bajarish, mashinalarga xizmat ko'rsatish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan kator ishchi kasblari bilan tanishtirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Ustaxonalarda mashg'ulotlar o'tkazilayotganda u yoki bu mutaxassis nima bplan shug'ullanishi to'g'risida shunchaki tasavvur berish emas, balki kasbning barcha tomonlarni ochish, mekhat sharoitlarini ko'rsatib berish muhimdir. Buni amalga oshirish oson emas, albatta. Buning uchun o'kituvchi planli ravishda diqqat va hafsala bilan ishlashi kerak.



Bilim - shaxs rivojlanishi jarayonida egallangan axborotlar majmuyidir.


Bilim egallash manbalari: uzluksiz ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, jamiat (oilalar, mahalla, tanishlar, qarindosh-urug'), hayot faoliyati kabilar.

Moyillik - ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omil.


Qiziqish - u yoki bu obektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilish.

Layoqat - shaxsdagi tabiiy tug'ma xususiyat bo'lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, faoliyat davomida qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi. Qobiliyat umumiy va maxsus bo'lishi mumkin.

Insonning qiziqishi quyidagilarga bo'linishi mumkinligini fanda isbotlangan:
insonlarga, texnika, tabiatga, belgilarga, badiiy obrazlarga.



- o'zining tanlangan kasbiga munosibligini va shu yo'nalishdagi o'quv yurtida o'qiy olish imkoniyatlarini;
- tanlangan kasbning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushunish kabilarni belgilaydi.



O'qituvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning forma va metodlarini belgilab beradi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat.

1. Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'kituvchi o'quvchilarni ular ustaxonalardagi mashg'ulotlarda bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. CHunonchi o'quvchilar Yog'ochga ishlov berishni o'rganayotganlarida duradgor, Yog'ochsoz, faner qoplovchi, Yog'och kesuvchi, rom yasovchi, tokar, parmalovchi kasblari haqida bilib oladilar. Bundan tashqari, o'kituvchi korxonalarda yogochga qo'lda ishlov berish bilan bog'liq ixtisosliklar o'rnini egallagan stanokchilar kasblari hakida ham gapirib beradi.

O'quvchilarga ustaxonalardagi mashg'ulotlarda metallga ishlov berishni o'rgatishda ular qator slesarlik va staiokchilar kasblari: tunukachi slesar, asbobsoz slesar, remontchi slesar, asbobsoz slesar, tokar, parmalovchi kasblarn bilai tainshtiriladilar. Bundan tashkari, ayrim temalarni o'rga-nish davomida

o'smirlarnng metallga ishlov berish korxonalarida ishchi kasblar: termik ishlov beruvchi, prokatlovchi, po'lat erituvchi va hokazo kasblari to'grisidagi tasavvurlarini keigaytirish mumkin.

Elektr montaj ishlariga bag'ishlangan mashg'ulotlarda o'quvchilar elektromontyor, elektroslesar (tamirlovchichi elektro-montyor, elektromontajchi slesar, o'rovchi elektromontyor va hokazo) kasblari bilan tanishadilar.

2. Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash. Odatda, ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv programmasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilar metallga va Yog'ochga ishlov beriladigan mexanika sexlariga borishganida uskunalarning ko'p gruppasi va tiplarini ko'radilar. SHuning uchun o'qituvchiga aia shu uskunalarda ishlov beruvchi ishchi kasblari haqida gapirib berish tavsiya etiladi. Agar ishchilarning o'zlari o'z ishlari, tayyorlaydigan mahsulotlari haqida gapirib bersalar, o'quvchilar bu kasblar to'grisida ko'proq tasavvurga ega bo'lishadi..

3.To'garak mashruotlarida kasb tanlashga yo'llash. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchining ishchi kasblardan biriga, masalan, Yog'ochga, metallga ishlov berishga moyilligi borligini sezsa u o'quvchi bilan ish olib borib, uning bilim va o'quvlarini cho'qurlashtirish, unga yoqadigan kasbga nisbatan qiziqish uyg'otishi zarur. To'garaklardagi mashg'ulotlar o'quvchilarga yukori sinflardateknologiya ta'limining yo'nalishini tanlashda yordam beradi.

4. Ishlab chiqarish novatorlari va maktabni bitirgandan so'ng moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar. Odatda, mazkur maktabni bitirgandan keyin sanoat korxonalarida ishlayotgan kishilarning chiqishlari o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilar tanishadigan kasblar ancha ko'p. SHunnig uchun, o'qituvchilar o'quvchilarga o'z kasbi haqida hikoya qilib beradigan ishlab chiqarish novatorlarini topishda qiynalishmaydi. Ishlab chiqarish

topshiriklarini bajarishda fan asoslariga doir bilimlardan foydalanish to'g'risida ishlab chiqarish ilgorlari aytgan gaplar, ayniqsa qimmatlidir. O'mumta'lim bilimlariga ega bo'lmasdan hozirgi zamon ishlab chiqarishining ilg'or ishchisi zamon talabi darajaga bo'lish mumkin emasligini o'quvchilar tushunib olishadi.

Ishlab chiqarish ilg'or ishchilari bilan uchrashuvlar ko'pincha tantanali vaziyatda o'tadi. Bolalar mehmonlarga atab sovg'alar tayyorlashadi, yaxshi o'qiymiz deb majburiyatlar olishadi. Bunday tadbirlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

5. Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish. Kasb tanlashga yo'llash ishiining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum. Masalan, «Kasb haqida kim ko'proq biladi» mavzusiga bag'ishlab konkurslar o'tkazish, "Kasblar dunyosida» nomli og'zaki jurnallar chikarish, «Kasb tanlashda shaxsiy va jamoat fikri» mavzusi bo'yicha munozaralar uyushtirish, tegishli adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil qilish, kitob va kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir. Mazkur tadbirlarning barchasi ustaxonalarda; amalga oshirilishi mumkin.

6. Kasblarni cho'qur o'rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari, u yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilar qiziqishlariga qarab gruppalarga yoki klublarga birlashtiriladilar. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari ko'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan muzey yaratadilar, referatlar yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Bularning barchasi o'qituvchiga muayyan kasb insonga qanday talablar ko'yishini kengroq tushuntirib berishga, o'quvchilarning kasb tanlash negizlarini tushunib olishlarida ko'maklashishga imkon beradi. Agar o'qituvchi o'quvchida muayyan kasbga kat'iy kiziqish uygongani va o'quvchining sog'ligi shu kasb talablariga javob berishini payqasa, u tegishlicha ish olib borib, o'smirning xoxishi ro'yobga chikishi uchun yordam bera boshlaydi.

7. Fakultativ mashg'ulotlar. Ayrim maktablarda fakultativ mashg'ulotlarga ajratilgai soatlarning ma'lum kismidan kasb tanlashga yo'llash ishi uchun foydalaniladi. Quyida bunday mashg'ulotlarning taxminiy mazmuini keltiramiz.

Nazorat savollari.

1. Kasbga yo'naltirish metodlari nimalardan iborat?
2. O'quvchini kasbga yo'naltirishning ahamiyati to'g'risida tushuncha bering.
3. Texnologiya maqsadlari bo'yicha kasblarning tasnifini ko'rsating.
4. Texnologiya predmeti bo'yicha kasblarning tasnifi aytib bering.
5. Kasb turlarini sanang.

Tast savollari.

Kasbiy faoliyat mazmunining asosi nima?

- *A) malakali talablar, o'lchovlar, mezon, maqsad, vazifa
- B) ishlab chiqarish ta'limi
- C) bilim va ko'nikmalar
- D) ilmiy bilimlar

Refleksiv qobiliyatlar nima?

- *A) o'qituvchining kasbiy yoki shaxsiy sifatlari
- B) ijodkorlik mahorati
- C) ilmiy bilimlari
- D) kasbiy mahorati

Layoqat nimani anglatadi?

- A) ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishga undovchi omil
- B) obektlar bilan yaqindan tanishish, uni bilishga, o'rganishga bo'lgan intilish
- *C) shaxsning tabiiy tug'ma xususiyatlari bo'lib, u hayot va tajriba davomida rivojlanib, qobiliyatga aylanadi
- D) insonlarning xohishi

Texnologiya ta'limini o'qitish metodikasi fani bo'yicha glosarii

O'.I.K – o'quvchilar ishlab chiqarish kombinati.

Ekspluatatsiya – ishlatish

Mehnat ta'limi tamoyillari – mehnat ta'limi prinsiplari

Praktika – amaliyot

Sistemalilik – ketma-ketlik

Izchillik – puxtalik

Aktivlik – faollik

Problemali ta'lim – muammoli ta'lim

Obekt – joy

Ekskursiya – sayohat

Na'munaviy plan – na'munaviy reja

Zagotovka – to'plash

Parchinlash usuli – biriktirish usuli

Metalni svarkalash – metalni payvandlash, biriktirish

«**Stop**» - tuxta

«**Pusk**» - ishga tushur

Kontrol qilish – tekshirib ko'rish

Ta'limning madaniy insonparvarlik vazifasi - kishining hayot to'siqlarini engishga yordam beradigan ma'naviy kuchi, qobiliyati, malakalari, tabiat va ijtimoiy hayotga moslashish vaziyatidagi xarakteri, ma'naviy mas'uliyatining shakllanishi, shaxsiy, kasbiy takomili xamda shaxsning o'zi tomonidan amalga oshirilishini ta'minlovchi imkoniyatlari, shaxsning intellektual, axlokiy erkinlikka, shaxsiy Muxtoriyati shuningdek, baxtiga erishish uchun zarur bo'lgan vositalar shaxsning individual ijodiy tarqqiy etishi va ma'naviy imkoniyatlarining ochilishi uchun sharoitlar yaratishi.

Ta'lim turlari - suxbat metodi, an'anaviy ta'lim, izohli-namunali ta'lim, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashtirilgan ta'lim, ta'limni algoritmlash

jarayoni, differensiyali, individual ta'lim va boshqalar.

Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jisimoiy xolatiga muntazam va maqsadga muvofiq, ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

Taklif qilish - biror xarakter, kalik, ahd, fikr va hissiyot takrorlar, aynan o'zlashtirish.

Pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Pedagogik o'yin - bilim olishga-qaratgan va ma'lum pedagogik natijaii ko'zlagan hamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

Pedagogning kommunikativ madaniyati - pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o'rnata olish, ular bilan muloqot va hissiy munosabati.

Temperament - 1) shaxsning psixik faoliyati dinamikasining turli jihatlarini bildiradigan turg'un individual xususiyatlarning qonuniy munosabatlari; 2) shaxsning dinamik xususiyatlari, intensivlik, tezlik, temp, psixik jarayonlar va holatlar ritmi.

Test - 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, akliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida utkaziladigan sinovdir; 2) aniq, sosiologik tadqiqotlarda foydalapnladigan tarqatma material, sovalnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqini aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

Texnologiya - ishlab chikarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor maxsulotlarni tayyorlash, mita tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o'zgartirish metodlari to'plami.

Tizim - 1) yaxlit ta'limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog'liq aksariyat unsurlar (predmetlar, xodisalar, qarashlar. bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma'lum bir boglanishlarda. harakatlarning o'ta izchillikda rejali, tug'ri joylashish tartibi.

Faoliyat - 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy). tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

Faoliyatning etakchi turi-bola hayotining muayyan davrdagi psixik rivojlanishini etarli darajada ta'minlovchi hamda keyingi taraqqiyotga asos bo'luvchi faoliyatdir.

Fundamental - asosiy fundamental xayrixohlik - kishilarga ochiq ko'ngilli bo'lish, iltifotli, marxamatli bo'lish.

SHaxs - 1) kishilarning ijtimoiy xulqli, insonlar orasida o'zini tutishini aks etiradigan ruhiy sifatlar majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o'z-uzini anglash qobiliyatiga ega bo'lgan kishi.

SHaxs dinamikasi - kishining ontogenetik rivojlanishini o'z ichiga olgan so'bektning xususiyatlari va sifatning vaqtga nisbatan o'zgarish jarayoni.

E'tiqod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va hodisalarning haqqonnyligi, qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o'ziniig hatti-harkatlarmga bo'lgan sub'ktiv mumosabati.

O'z-o'zini tarbiyalash - 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllaiishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va ahloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish. O'qitish -ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati.

O'qitish - 1) ta'limning o'ziga xos usuli bo'lib, shaxsga nazariy va amaliy bilimlar berish jarayonida uning rivojlanishi ta'mmnlanadi; 2) o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchining boshqa o'quvchilar bilan aloqasi natijasi o'laroq atrof-muhit, uning qonuniyatlar, taraqqiyot tarixi va ulariing o'rganilish usullarini bilishiing muntazam boshqarilish jarayoni.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., Sharq, 1998. - 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim to'g'risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998. - 106 b.
3. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
4. Kasb ta'limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
5. Mehnat ta'limi metodikasi / Magdiyev O., Boltaboyev S.A., O. Avazboyev, V.N. Sattorov. - Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b
6. Umumiy o'rta ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'z RXTV «Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. 1-7-maxsus sonlar. 1997 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 oktyabrdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy bezak san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida»gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 15 avgustdagi «Mahalliy sanoatni boshqarishni takomillashtirish to'g'risidagi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
10. O'.Q.Tolipov, B.I.Muranov, Sh.S.Sharipov Mehnat talimi fanidan yangi tahrirdagi davlat talimi standarti, takomillashtirilgan o'quv dasturi mavzuiy rejalashtirish. –T.: XTV. O'z PFITI. 2004, 2006, 2010 y. 110 b.
11. Bulatov S. S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. «Mehnat» 1991 yil.
12. Yo'ldoshev J., Yo'ldoshev F., Yo'ldosheva T. Interfaol ta'lim sifat kafoloti. Toshkent. XTXQTMOMI 2008 y. 147 b.

13. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent. Fan va texnologiya 2008. 132 b.

14. Sodiev N., Muranov B. va boshqalar. Mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limidan testlar tuzish va foydalanish. Samarqand VPQTMOI 2003 y. 55 bet.

15. Muranov B. I. va b. O'quvchi yoshlarning kasb tanlashlarida maktab va oilaning hamkorligi. Toshkent. Maktab va hayot. 2001 y. 5 son. 35-42 betlar

16. Muranov B.I. Mehnat ta'limining o'quvchilarni kasblarga yo'llashdagi didaktik imkoniyatlari. T. RPPKITM. 2003 y. 5 dekabr.

17. Muslimov N.A, SHaripov SH.S. v.b. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: 2009 427 b.

18Sharipov Sh.S, YAkubova H.S. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. Kasb tanlashga yo'llash fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. Toshkent-2008.

19.TimothyP. Melchert. Foundations of professional psychology 2011 Wyman Street, Walham USA.

20.Benjamin L.T, Jr (2007). A brief history of modern psychology. Malden, MA: Blackwell Bergin.

Elektron ta'lim resurslari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.TDPU.uz

Mustaqil ish – 80 soat

| № | 4-kurs. Mustaqil ish nomi va mazmuni | Soat | Haftalar |
|----------|---|-------------|-----------------|
| 1. | Ta'lim to'g'risidagi qonun. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturlari mehnat va kasb –hunar ta'limiga oid g'oyalarning aks ettirishi | 4 | 1-2 hafta |
| 2 | Maktab islohatida mehnat ta'limi va tarbiyasining tarkib topishi, rivojlanishi. | 4 | |

| | | | |
|-----|--|----|--------------|
| 3. | Texnologiya fanini o'qitish metodikasida ta'limida materialshunoslik bo'limini o'qitish | 4 | 3-4 hafta |
| 4. | Texnologiya fanini o'qitish metodikasida ta'limi dasturi mazmuni va uning yo'nalishlari | 4 | |
| 5. | O'quv ishlab chiqarish uyushmalarining ish faoliyati | 4 | |
| 6. | Texnologiya fanini o'qitish metodikasida ta'limi jarayonini rejalashtiruvchi xujjatlar, yo'nalishlar bo'yicha 10 soatlik ishchi reja tuzish. | 4 | 4-5- hafta |
| 7. | Amaliy darsga tayyorgarlik ko'rish, 1 soatlik dars loyiha | 4 | |
| 8. | Halq hunarmandchiligi texnologiyasi bo'limini o'qitishni tashkil qilish | 4 | 6-7- hafta |
| 9. | Dasturi ta'lim texnologiyalari mohiyati | 4 | |
| 10. | Didaktik, texnik vositalaridan dars jarayonida foydalanish | 4 | |
| 11. | Olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish | 4 | 8-9- hafta |
| 12. | Texnologiya fanini o'qitish metodikasida ta'limida yo'nalishlar bo'yicha o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari | 4 | |
| 13. | Texnologiya ta'limi darslarida interaktiv usullarni qo'llash | 4 | 10-11- hafta |
| 14. | Darslarning har bir elementini izohlab berish | 4 | |
| 15. | I – IX sinflarda kasbga yo'naltirishining mazmunini yoritish | 4 | 12-13- hafta |
| 16. | Metallarga ishlov beruvchi stanoklarning tuzilishini va ishlash tamoyilini o'rganish | 4 | |
| 17. | Xalq hunarmandchiligining shu kundagi taraqqiyoti | 4 | 14-15- hafta |
| 18. | O'zbekistonda badiiy hunarmandchilikning rivojlanishi | 4 | |
| 19. | Qora metallarning asosiy mexanik xossalari | 4 | 16-17- hafta |
| 20. | Talabalarning kasbiy va pedagogik sifatlarini shakllantirish | 4 | |
| | Jami | 80 | |

**1-Amaliy
mashg‘ulot**

Xalq hunarmandchiligi to‘g‘risida umumiy ma‘lumot. Milliy kiyimlar haqida tushuncha.

Mashg‘ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta‘limiy: O‘quvchilarga o‘zbek milliy hunarmandchiligi to‘g‘risida tushuncha berish, o‘zbek milliy kiyim turlari haqida ma‘lumotlar to‘plash.

Tarbiyaviy: O‘zbek milliy urf-odatlarimiz, an‘analarimizni, o‘zligimizni anglash, o‘z xalqimizga va vatanimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni kuchaytirish.

Rivojlantiruvchi: O‘zbek milliy kiyimlar xalq hunarmandchiligi to‘g‘risidagi bilimlarini shakillantirish.

Dars tipi: O‘quvchilar yangi bilimlar egallaydigan dars.

Dars turi: nazariy.

Dars metodlari: og‘zaki-suhbat, ko‘rgazmali.

Fanlararo bog‘lanish: pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, kasb ta‘limi praktikumi, tikuvchilik texnologiyasi, halq hunarmandchiligi texnologiyasi.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: milliy kiyimlardan namunalar, rasmlar, plakatlar. Xalq hunarmandchiligi to‘g‘risidagi rasmlar, albomlar.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta‘limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1992.

3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. Sharipov Sh.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnoma. Toshkent-2002.
7. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.
8. Truxanova.T. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. T. O'qituvchi 1996.
9. Bulatov.S. O'zbek halq amaliy san'ati. T. Mehnat. 1991.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

“Halq hunarmandchiligi to'g'risida umumiy ma'lumot. Milliy kiyimlar haqida tushuncha “ mavzusi “Gazlamalarga ishlov berish” yo'nalishi, 5-sinf “Halq hunarmandchiligi texnologiyasi” bo'limida o'qitiladi. Bu mavzu 2 soatga mo'ljallangan bo'lib asosan o'zbek halq hunarmandchiligi to'g'risida umumiy ma'lumotlar beriladi, shuning bilan birga o'quvchilarda milliy udumlarga, hunarlarga bo'lgan bilimlarini va milliy g'ururni oshiriladi.

Mavzuni o'qitishda og'zaki, suhbat, munozara metodlaridan foydalanish mumkun. Bunda albatta diofim, fotosu'rat, namunalardan foydalanish mumkun. San'at muzeylariga ekskursiyalarni tashkil etish o'quvchilarda katta ta'surot qoldiradi. O'quvchilar milliy kiyimlarning turlarini ularda qo'llanilgan hunar turlarini, ishlatilgan naqsh usullarini o'z ko'zlari bilan ko'rib milliy hunarlarga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

O'quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini og'zaki savol-javob o'tkazish orqali aniqlash mumkun. Uyga vazifa qilib milliy hunarlar, milliy kiyimlar haqida ma'lumotlar, turli xil rasmlar to'plab kelishni buyurish mumkun. Bu esa o'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga yordam beradi.

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'tgan dars yuzasidan o'quvchilar bilan savol-javob o'tkazish.

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Halq hunarmandchiligi to'g'risida umumiy ma'lumot. Milliy kiyimlar haqida tushuncha.

REJA:

- 1.O'zbek xalq hunarmandchiligi turlari.
2. O'zbek milliy kiyimlari turlari.
- 3.O'zbek milliy buyumlar turlari.

Milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuxrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. +ozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni g'ayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV- XV asrlarga mansub miniatyuralar

orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlangan-ligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Beg'zod "Zafarnoma"ga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning ba'diyligiga putur etkazdi. ho'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda +ind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, hush va mevalar ko'p tasvirlanadi.

Qozoq va Qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari bo'lajak kelinchaklar seplari har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa, shunchalik qimmatga baholanar edi. qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o'rgatilardi. Ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Etishib chiqqan kashtachilar o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikning muhim turlaridan biri zardo'zlikdir.

Zardo'zlik - zar ip bilan kashta tikish kasbi bo'lib, O'zbekistonda, ayniqsa Buxoroda keng tarqalgan. Zardo'zi usulida tayyorlangan kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi.

Kashtachilikning maxsus turlaridan biri - applikatsiyadir.

Applikatsiya - lotincha yopishtirish degan ma'noni bildirib, gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklarini yopishtirish yoki

tikish yo'li bilan bezash demakdir. Applikatsiya kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib, u o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi, Applikatsiyada ko'pincha izma choklardan foydalaniladi. Kashtaning bu turi O'zbekistonda yaxshi rivojlanmagan. hozirgi vaqtda ko'pincha bolalar paltolariga, ko'ylaklariga, bosh kiyimlariga har xil hush, meva, gul va hayvonlar tasviri applikatsiya usulida choklanadi. Ayrim hollarda ayollarning kiyimlari shu usulda bezatilyapti.

Arxitekturada va biror buyumlarni bezashda applikatsiya usulidan keng foydalanib kelinmoqda.

KASHTACHILIKDA BEZAK BUYUMLARI TURLARI

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun kirpech, so'zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o'zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p masalan, so'zana, kirpech, choyshab oynaxalta, choy xalta, zardevor, palak, gul-ko'rpag dorpech, bug'joma, parda, belbog', takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'ppi, ko'ylak, dast-ro'mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do'ppi - O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida, Rossiyada esa XII asrda rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga xosdir. Respublikamizning barcha rayonlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakma to'r, qizil gul, Piltado'zi, Zardo'ppi, To'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi. "Quloq", "arag'chin", "tusdo'ppi".

Quloq - konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning matog'i toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Qu- loq (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Arag'chin - sharsimon do'ppi, uni asosan keksa-lar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi - keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Dars yakuni.

1. Yangi mavzuni mustahkamlash.
2. Uyga vazifa berish.
3. Ish o'rnini yig'ishtirish.

Talabaga vazifalar.

Milliy hunarlarga oid rasmlar, namunalar to'plash.
Milliy kiyimlarga oid diofilm yoki slaydlar yaratish.
San'at mezeylariga ekskursiyalarni tashkil etish rejasini tuzish.

2-Amaliy mashg'ulot

*Kashtachilikda ishlatiladigan choklardan naqshlar tikish.
YOrma, ilma, bahya choklari mavzusini o'qitish metodikasi.*

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga kashtachilikda ishlatiladigan choklar, ulardan foydalanib naqshlarni rangli iplpr bilan tikishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: Milliy kashtachilik san'tini o'rgatish bilan milliy g'ururni shakllantirish, kashtachilik usulida tikilgan milliy kiyimlarva buyumlarni e'zozlashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O'quvchilardakashtachilik choklarini tikishdagi bilim ko'nikmalarini yanada shakllantirish.

Dars tipi: o'quvchilar yangi bilimlar egallaydigan dars.

Dars turi: amaliy.

Dars metodlari: og'zaki, amaliy, ko'rgazmali.

Fanlararo bog'lanish: pedagogika, psixologiya, pedogogik mahorat, nutq madaniyati, kasb ta'limi praktikumi, tikuvchilik texnologiyasi, halq hunarmandchiligi texnologiyasi.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Nina, rangli mulinaiplari, gardish, kapiroovka qog'ozi, gazlama, qaychi.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnoma. Toshkent-2002.

7. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

8 Truxanova.T. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. T. O'qituvchi 1996.

9. Bulatov.S. O'zbek halq amaliy san'ati. T. Mehnat. 1991.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzu asosan mehnat ta'limining 5-sinf "gazlamalarga ishlov berish" yo'nalishida o'rgatiladi. Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasini mavzusini o'qitishda suhbat, ko'rsatmali, amaliy metodlardan foydalanish mumkun. Kashtachilik tarixini o'rgatishda o'quvchilar bilimini suhbat metodi orqali tekshiriladi, so'ngra og'zaki metoddan foydalanib kashtachilik haqida to'liq ma'lumot beriladi. Kashtachilik usullarini o'rgatishda amaliy metoddan foydalaniladi. Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishdan avval qo'l ishlari, qo'l ishlarini bajarishda texnika xavfsizlik qoidalari hamda sanitariya gigiena talablari o'rgatiladi.

Kashta tikish sirlarini o'rgatishdan avval o'quvchilarga kashtani qaysi matolarga tikilishi kerakligi va uning sabablarini va hozirgi kunda qanday matolarga tikilayotganligi haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilarga hozirgi moda yo'nalishida ham aynan kashtachilik usulining keng qo'llanilayotganligi haqida tushunchalar beriladi. Bu ma'lumotni berishda kashtachilik usulida tikilgan kiyimlar, uy jihozlarning oldingi va hozirgi ko'rinishlari, zamonaviy liboslarning eskizlarini ko'rsatish mumkun. Kashtachilikda hozirgi kunda ishlatilayotgan iplarning ranglari, naqsh turlari ko'rsatiladi. Kashtachilikda ishlatiladigan chok turlarini o'rgatishda choklarning sxemasini plakatda kattaroq ko'rinishda berish lozim bo'ladi.

Talabaga vazifalar.

Kashtachilikda ishlatiladigan iplardan va gazlamalardan namunalar tayyorlash.

Kashtachilikda qo'llaniladigan chok turlarining sxemasini plakatda tayyorlash.

Kashtachilikda ishlatiladigan naqsh turlaridan namunalar tayyorlash.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu:

REJA:

- 1.Yorma, ilma, bahya choklarini tikish texnologiyasi.
- 2.Gazlamaga naqsh tushurish, rang tanlash. Oyoq yuritmal tikuv mashinasining ishlash prinsipi.
- 3.Naqshni choklar bilan tikish.

Dars yakuni.

- 1.Yangi mavzuni mustahkamlash.
- 2.Uyga vazifa berish.
- 3.Ish o'rnini yig'ishtirish.

KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyim-larga, ro'zg'or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig'ir, jun, ipak, sun'iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metal pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda o'ziga xos ish qurollari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to'g'nag'ich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.

Chambarak asosan Yog'ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda Yog'och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o'tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo'lishi uchun qatim 50-60 sm dan uzun bo'lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo'llanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiriladigan qog'ozlar taxta, yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni material ustidan ko'klab chiqiladi keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado'zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To'g'ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gul tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq o'rim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoki bo'z shaklida to'qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O'zbek kashtachiligida yo'rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo'zi, chamak, chipta xayol, bahya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joylarda turli choklar ishlatiladi. CHunonchi SHahrisabzda yo'rma, kandahayol, iroqi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqandda yo'rma choki bilan tikiladi. CHamak choki kashta tikish choklaridan biri bo'lib, chapdan o'ngga ikki parallel chiziq bo'ylab tikiladi va ip o'tkazilgan igna o'ngdan sanchiladi. So'ng yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda to'g'ri qadaladi hamda pastki ham qiya qilib chiqariladi. CHamak choki ko'pincha naqshlarni ramkaga olishda yoki do'ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. qaychini kichik

o'tkir uchlisi ishlatiladi. Chamak choki rus kashtado'zlari orasida "kozlik" deyiladi.

Bahya choki kashta chetlarini mustahkamlashga xizmat qilib, matoga xuddi ko'klagandek, lekin bir tekis chok hamda masofa hisobga olinib tikiladi. SHundan so'ng mato o'girilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziq hosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qo'lda, keyinchalik mashinada tikiladigan bo'lgan. U ikki qator, ya'ni qatorlar o'zaro tutashib chiqishi ham mumkin. KUPpa choki turli yo'nalishda, ya'ni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg'a tikib hosil qilinadi. YOnma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib boradi. Bu chok duro'ya, (ikki tomonlama) sanama, piltado'zi nomlar bilan yuritiladi. Do'ppido'zlikda va kashtalarda juda keng foydalanadi.

CHindi xayol duro'ya choki, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. SHu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul hosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni ham ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

Yo'rma choki - yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga o'tkazilgan ipak matoning sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa halqa hosil qilinadi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zlari ko'p foydalanadilar.

**3-Amaliy
mashg'ulot:**

Jun va ipak tolali gazlamalarning xossalari.(fizik, mexanik, gigienik) mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Jun va ipak tolali gazlamalarning xossalari bilan tanishtirish, ulardan qanday kiyimlar tayyorlanishi haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarga kiyim tikishda e'tiborli va gazlamalarning hamma xususiyatlarini hisobga olishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Gazlamalarning xossalari haqidagi bilimlarini yanada rivojlantirish. Gazlamalarning xossalarini aniqlash usulini o'rganish.

Dars tipi: O'quvchilar yangi bilimlarni egallaydigan dars.

Dars turi: amaliy laboratoriya.

Dars metodlari: Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy.

Fanlararo bog'lanish: pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, kasb ta'limi praktikumi, tikuvchilik texnologiyasi.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Jun va ipak tolali gazlamalardan namunalar, plakat, Ipak, jun, chit, zig'ir gazlamalaridan namunalar, yondirish uchun spirt, gugurt, dazmol.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnoma. Toshkent-2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzu umumta'lim maktablarida meqnat ta'limining «Gazlamalarga ishlov berish» yo'nalishi «Materialshunoslik» bo'limida o'qitiladi. Maktabda o'quvchilar mehnat darslarida gazlamalarning turlari haqida, ularning inson hayotidagi roli, tolalarning qanday olinishi va gazlamalarning to'qilishi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladilar. Mavzuni nazariy dars shaklida, suhbat, og'zaki, ko'rgazmali dars metodlaridan foydalanib o'tish mumkun. Mavzuni tushuntirishdan oldin o'quvchilarning mehnat ta'limi darslarida mavzu yuzasidan olgan bilimlarini suhbat usulida tekshirib olinadi. So'ngra qaysi o'simliklardan tolalar olinishini rasmlardan, namunalardan foydalanib tushuntiriladi. O'simliklardan tola olinishigacha bajariladigan ishlarni bosqichma-bosqich o'quvchilarga tushunarli qilib o'rgatiladi. Masalan paxta o'simligi qaealarda o'stiriladi, ularni qanday parvarish qilinadi, uni terish usullarining kamchiliklari va avzalliklari haqida to'liq ma'lumot berish kerak. Paxta zavodlarida paxtani changdan, turli xil iflosliklardan tozalanishi, ularning sifatlarga ajratilishi, chigitidan tozalanishini diafilm, multimedia namunalardan foydalanib tushuntirish mumkun.

Jun va ipak tolasidan to'qilgan gazlamalar namunalaridan foydalanib ularning tashqi ko'rinishiga qarab ajrata olishni o'rgatish, ularning to'qilishiga e'tibor berishni o'rgatish kerak. Gazlamalarning fizik, mexanik, gigienik xossalari nimalar kiradi va u qanday aniqlanishi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Buni albatta laboratoriya shaklida o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Gazlamalarning xususiyatini bilish nima uchun zarurligi, ulardan tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda nimalarga e'tibor berishni o'rgatish lozim.

Talabaga vazifalar.

1. Jun va ipakdan tola olish ketma-ketlikligini plakatga ishlab kelish.
2. Jun va ipak tolasidan to'qilgan gazlamalarning xususiyatlarini aks etadigan jadvalga plakat tayyorlash.
3. Mavzuga tarqatma material tayyorlash.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Jun va ipak tolali gazlamalarning xossalari.

(fizik, mexanik, gigienik)

REJA:

1. Gazlamalarning fizik, mexanik xossalari.
2. Jun va ipak tolali gazlamalarning xossalari.
3. Jun va ipak tolali gazlamalarning xossalarini amaliy tarzda aniqlash.

Gazlamalarning fizik xossalariga uning gigroskopiklik, havo o'tkazuvchanligi, bug' o'tkazuvchanligi, suv o'tkazuvchanligi, xo'llanuvchanligi, chang tortishi, issiqlik saqlashi, kirishishi, cho'ziluvchanligi va boshqa xossalari kiradi.

Gigroskopiklik – bu gazlamaning o'ziga namlikni tortishi. Gigroskopiklik namlik formulasi bilan aniqlanadi. Bir xil gazlamalar yuvilgandan keyin gigroskopikligi oshadi. Bir xil mahsulotlar ipni ikki tomonlama tarash usuli bilan qalinligi oshiriladi, unda gigroskopiklik kamayadi. Ich kiyim va yozgi kiyim assortimentida gigroskopiklik eng muhim xossa hisoblanadi. Tabiiy tolali gazlamalarning gigroskopikligi yuqori hisoblanadi.

havo o'tkazuvchanlik – xususiyati uning tola tarkibi zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Siyrak to'qilgan gazlamalar havoni yaxshi o'tkazadi, zich to'qilgan gazlamalar havoni o'tkazmaydi. Polotno to'qilishi havoni yomon o'tkazadi.

Bug' o'tkazish – xossasi odam organizmidan ajraladigan bug'ni o'zida saqlashi kiradi. Masalan jun tolasidan to'qilgan gazlamalar o'zidan bug'ni kam

o'tkazadi va boshqa gazlamalarga qaraganda kiyim ostidagi havoning nisbiy namligini ushlab turadi.

Suv o'tkazish - qobiliyati gazlamalarning suv o'tkazishga qarshilik qobiliyati. Suv o'tkazmaslik maxsus gazlamalarga muhimdir.

CHang tortish- xossasi bu gazlamalarning kirlanishi. U tolaning tarkibiga, zichligiga, pardoatlanishiga bohliq. CHang oluvchanlik bo'yicha tukli gazlamalar eng yuqori ko'rsatkich beradi. SHishali gazlamalar changni umuman tortmaydi. CHangni gilam va gilam mahsulotlari juda yaxshi tortadi, sababi ular ham tukli. Ularni tozalash va qoqish qiyin.

Jun tolasidan tayyorlangan gazlamalarning xossalari.

Jun tolasidan to'qilgan gazlamalar yumshoq, issiq, judayam chidamli emas, tez g'ijim bo'ladi, issiqlikni yaxshi saqlaydi, drapirovkasi o'rtacha, changni o'ziga tortadi. Ipi sitiluvchan, yuvganda kirishadi, namlikni o'zida uzoq saqlab turadi. Dazmolni o'ziga yaxshi oladi.

Ipak tolasidan tayyorlangan gazlamalarning xossalari.

Ipak tolasidan to'qilgan gazlamalar pishiq tez g'ijim bo'ladi. Drapirovkasi yaxshi, xavoni yaxshi o'tqazadi. Suvni yaxshi tortadi. Ini sitiluvchan, yuvganda kirishadi.

Yakuniy qism.

1. O'quvchilar amaliy bajargan ishlarini tekshirish va baholash.
2. Ish o'rnini yig'ishtirish.
3. Uyga vazifa berish.

4-Amaliy mashg'ulot:

Oyoq yuritmalı tikuv mashinalarining tuzilishi, ishlash prinsipi mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Tikuv mashinalarini ishga tayyorlashni va to'quv mashinasidan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: Tikuv mashinasida o'tirganda o'quvchi qanday kiyinishini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarga oyoq yuritmalik tikuv mashinasida mustaqil va ravon chok tikishni rivojlantirish.

Dars tipi: Qo‘uvchilar olgan bilimlarini mustaqamlash.

Dars turi: amaliy.

Dars metodlari: og‘zaki ko‘rsatmalik.

Fanlararo bog‘lanish: pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, kasb ta‘limi praktikumi, tikuvchilik texnologiyasi.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmalik qurollar: tikuv mashinasining tuzilishi plakat, tikuv mashinasida to‘g‘ri o‘tirish, tikuv mashinasi.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta‘limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: Pedagogika instituti o‘quvchilari uchun qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta‘limi metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo‘riqnoma. Toshkent-2002.

Mashg‘ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Oyoq yuritmalik tikuv mashinalarini ishga tayyorlash mavzusi 6-sinfning «Gazlamalarga ishlov berish» yo‘nalishi mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalar bo‘limida o‘qitiladi. O‘quvchilar 5-sinfda ho‘l yuritmalik tikuv mashinalari bilan tanishib, ishlash prinsipi, xavfsizlik texnikasi hoidalarini bilgan holda ular yordamida buyum tikishni bilib oladilar. SHuni nazarda tutgan holda ularga oyoq yuritmalik tikuv mashinalarining ho‘l yuritmalidan farhi, ularning

avzalliklari va kamchiliklarini ochib berish lozim. Oyoq yuritmalik tikuv mashinalarini xarakatga keltirish qo‘l yuritmaligiga nisbatan birmuncha murakkab ekanligini kinematik sxemasi orhali va tikuv mashinasining o‘zida ko‘rsatish mumkun.

Mavzuni o‘quvchilarga tushuntirishdan oldin o‘quvchilarning tikuv mashinalari qahidagi bilimlari sinab ko‘riladi, bunda albatta «aqliy xujum» metodidan voydalanish mumkun. Oyoq yuritmalik tikuv mashinasining xarakatga keltiruvchi mexanizmini qar bir hismlarining nomlarini, xarakatning uzatilish ketma-ketligini plakat yordamida tushuntirib beriladi. Bu mexanizmni tabiiy xolatda ya’ni mashinaning ishchi xolatida ko‘rsatilsa yaxshiroh natija beradi. Tikuv mashinasini xarakatga keltirish uchun albatta o‘quvchilarga xavfsizlik texnikasi hoidalarini o‘rgatish zarur. Bu mavzuni o‘qitishda og‘zaki qamda ko‘rsatmalik metodlardan foydalaniladi.

O‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustaqkamlash uchun amaliy tarzda sinab ko‘rish mumkun, bunda o‘quvchilarni tikuv mashinasini salt xolatda harakatga keltirish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarga vazifalar.

Oyoq yuritmalik tikuv mashinasini xarakatga keltiruvchi mexanizmlariga plakat tayyorlash.

Xavfsizlik texnikasiga doir tarhatma material tayyorlash.

SHu mavzuga pedogogik texnologiya qo‘llangan dars ishlanmasini tayyorlash.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o‘qituvchi kirib keladi va o‘quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo‘lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O‘tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O‘quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

3. YAngi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Oyoq yuritmalik tikuv mashinalarining tuzilishi, ularni ishga tayyorlash, xavfsizlik texnikasi qoidalari.

Reja:

1. Mashina ishlarini bajarishda ish o'rnini tashkil qilish.
2. Oyoq yuritmalik tikuv mashinasining ishlash prinsipi.
3. Tikuv mashinasida o'tirganda texnika xavfsizlik qoidalari va sanitariya-gigiena talablari.

Dars yakuni.

1. Yangi mavzuni mustahkamlash.
2. Uyga vazifa berish.
3. Ish o'rnini yig'ishtirish.


Dars konspekti.

Bizga ma'lumki ko'pchilik xonadonlarda qo'l, oyoq va elektr yuritmalik tikuv mashinalaridan foydalaniladi. Oyoq yuritmalik tikuv mashinalari qo'l yuritmalik tikuv mashinalariga qaraganda tez tikadi va mehnat unumdorligini oshiradi, ishning sifatini yaxshilaydi.

Tikuvchilik fabrikalarida, atele mod va ustaxonalarda universal, ya'ni to'g'ri baxyaqatorli mokili baxya mashinalari va boshqa maxsus tikuv mashinalari ishlatiladi. Universal tikuv mashinalarida har qanday ishlarni bajarish mumkin, maxsus mashinada esa faqat ayrim bajariladi: tugma chatiladi, petlya yo'rmlanadi. Xonadonda ishlatiladigan mashinalar ham universal tikuv mashinasiga kiradi. Oyoq yuritmalik tikuv mashinalarida bosh g'ildirak, korpus, tasma, platorma, xarakatga keltiruvchi g'ildirak, to'skich reshlyotka, tepki, cho'yan yondor, stol kismi, asboblarni ko'yiladigan tortma, mashinalarning bosh kismi, oyok tepki o'rnatiladigan joyi.

Oyoq mashinasi harakatni oyokdan tepki orkali oladi. Tepki harakatni krivoship va shatun orkali katta g'ildirakka uzatadi, undan tasma orqali bosh g'ildirak hakatga kelib asosiy o'qni ishga tushiradi.

1-asosiy o'q, 2-shkiv, 3-tasma, 4-harakatga keltiruvchi katta g'ildirak, 5-tasmani g'ildirakdan chiqaradigan asbob, 6-to'sqich reshyotka, 7-krivoship, 8-shatun, 9-tepki.



Oyoq yuritmalik tikuv mashinasida ishlashdagi qoidalari.

xavfsizlik

Oyoq mashinasida ishlaganda quyidagilarga rioya qilish kerak:

1.Oyoq yuritmalik tikuv mashinasida ishlaganda qo'llar va oyoqlarning turishiga alohida e'tibor berish lozim.

2. Ish vaqtida tasmani o‘rnatish mumkun emas.
3. Tasmani qo‘l bilan ushlamaslik kerak, aks holda simi qo‘lni jaroxatlashi mumkun.
4. Ninaga ip o‘tkazishda oyoqni tepkidan olinadi.
5. Tasmani xarakatga keltiruvchi katta g‘ildirakdan maxsus moslama orqali chiqariladi.
6. Qo‘lni ninaga nisbatan to‘g‘ri tutish lozim.

Oyoq yuritmal tikuv mashinasida o‘tirish va uni ishlatish.

1. Mashinani salt holatga keltirib mashinaga o‘tiriladi.
2. O‘ng qo‘l bilan bosh g‘ildirakni ushlab, o‘ng oyoqni yuqoriroq, chap oyoqni esa pastroq qo‘yib, bosh g‘ildirakni o‘ziga tomon aylantirib, oyoqni tebratib tepkini harakatga keltiriladi.
3. Mashinani to‘xtatishda tepkini tebratmay to‘xtatish kerak, o‘ng qo‘l bilan bosh g‘ildirakni ushlash kerak.

5-Amaliy mashg‘ulot

Pazandachilik tarixi va taraqqiyoti. Oziq ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini inson organizmi uchun ahamiyati.

Mashg‘ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O‘quvchilarga pazandachilik tarixi haqida ma’lumot berish. Oziq ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini inson organizmi uchun ahamiyati hamda ratsional asosda ovqatlanish haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarga ovqatlanishda sanitariya-gigiena talablariga rioya qilishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: . Pazandachilikning hozirgi taraqqiyoti haqida ma’lumot berish.

Dars tipi: yangi bilimlar beruvchi.

Dars turi: nazariy.

Dars metodlari: og‘zaki, ko‘rgazmali.

Fanlararo bog‘lanish: pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, kasb ta‘limi praktikumi, pazandachilik asoslari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: plakatlar, foto albomlar, diafilmlar.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta‘limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: Pedagogika instituti o‘quvchilari uchun qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta‘limi metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2006.

Mashg‘ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzu mehnat ta‘limining 5-sinf «Pazandachilik asoslari» yo‘nalishi, «Oziq-ovqat mahsulotlari haqida umumiy ma‘lumot» bo‘limida o‘qitiladi. O‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berishda qanday issiq ishlov berish turlari mavjudligini, pazandachilik ishlarini bajarishda qanday asbob-uskunalardan foydalanilish mumkinligini, ulardan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilishni bilib olishlari kerak. O‘quvchilar oziq-ovqat mahsulotlarining turlari va ularning tarkibidagi ozuqaviy qiymati ularning ratsion ovqatlanishdagi ahamiyati haqida ma‘lumot berish zarur. O‘quvchilarga to‘g‘ri ovqatlanish salomatlik garovi ekanligini tushuntirish kerak. O‘zbekistonda pazandachilikning rivojlanish tarixini misollar orqali o‘quvchilarga ma‘lumotlar etkaziladi.

Mavzuni o‘qitishda nazariy dars shaklidan, suhbat, og‘zaki, ko‘rgazmali dars metodlaridan foydalanish mumkin. Pazandachilik tarixi va tarraqiyoti, oziq ovqat

mahsulotlarining ozuqaviy qiymatini inson organizmi uchun ahamiyati mavzusini o'qitishda har qanday taomni tayyorlashdan oldin mahsulotlarning ozuqaviy qiymatini bilish zarurligini asosiy maqsad nimadan iborat ekanligini anglab olish zarur bo'ladi.

O'quvchilar dars jarayonida olgan bilimlarini tarqatma materiallardan foydalanib tekshirib ko'riladi. Yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarning olgan bilimlari mustahkamlanadi.

Talabaga vazifalar.

1. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibidagi uglevodlar va vitaminlar haqidagi ma'lumot ega bo'lgan plakat tayyorlash.
2. Tarqatma materiallar tayyorlash.

Darsning borishi

- 1. Tashkiliy qism.** (5 daqiqa). Davomatni tekshirish, navbatchi tayinlash, ishni boshlashdan avval mehnat xavfsizligi va sanitariya – gigiena qoidalariga muvofiq ish o'rnini tayyorlash, maxsus kiyimlarni kiyib olish.
- 2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash** (10 daqiqa).

O'tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o'tkazish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llagan holda o'quvchilar bilimni nazorat qilish. O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

- 3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar** (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

1. Pazandachilik tarixi.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarining inson uchun ahamiyati.
3. Ratsion buyicha ovqatlanish.

Yakuniy qism

Mavzuni mustahkamlash uchun savol-javobda qatnashgan o'quvchilarni baholash va baholarni e'lon qilish.

Uyga vazifa berish.

Insonga tashqi muhitdan ijobiy ta'sir etuvchi eng kuchli omil- ovqatdir. Ovqatlar turli oziq-ovqat mahsulotlaridan tayyorlanadi. Bu mahsulotlarga oshpazlik ishlovi berilgach, ularda fizik-kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lib, ana shu o'zgarishlar ovqatni hazm qilishda, o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Mehnat ta'limining pazandachilik yo'nalishida oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, oshpazlik va qandolatchilik, Oziq-ovqat mahsulotlarining inson hayotidagi o'rni hususiyatlari, to'yimlilik, turlari, ovqatlanish me'yorlari va tarkibi, taomlarning turlari, milliy taom va boshqa millat taomlari, oziq-ovqat sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotlar turlari to'g'risida chuqur bilimlar beriladi.

Sog'lom avlodni tarbiyalash uchun esa ovqat tayyorlash jarayonini, ovqatlanish rejimi, me'yorini, madaniyatini o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Har qanday masalliqni lazzatli va foydali taomga aylantirish pazandaning mahoratiga bog'liqdir. Taom tayyorlash jarayoni ham ilmga asoslangan bir san'atdir. Ovqat tayyorlash jarayoni oziq-ovqat tovarshunosligi, ovqatlanish fiziologiyasi ovqatlanish sanitariyasi va gigienasi, ovqatlanishni tashkil etish, ovqat tayyorlash asbob va jihozlari kabi fanlar bilan bog'liq.

Ovqatlanish inson hayotining asosiy sharti hisoblanadi.

Ovqat tayyorlash usullari va ularning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy hamda iqlim sharoitlari bilan, shuningdek, jamiyat tarixi va xalqning madaniy turmushu darajasi bilan belgilanadi.

Go'shtli ovqatlarni iste'mol qilish olovdan to'g'ri foydalanishga sabab bo'lgan.

Odamlar hayvonlarning go'shti va o'simliklardan turli ovqatlar pishirish yo'llarini topishgan. Jamiyat rivojlangan sayin insonning didi o'sib borgan, natijada eng oddiy mahsulotlardan murakkab taomlar tayyorlash va iste'mol qilishga zarurat tug'ilgan.

O'zbek milliy pazandachiligi ham boshqa soha turlari kabi doimo o'zgarib va takomillashib boradi.

XIX Asrga kelib O‘zbekistonda ham pomidor, karam, kartoshka, lavlagi kabi sabzavotlar, malina, qulupnay kabi rezavorlar etishtirila boshlandi. Taomning turlari ko‘paydi. Sabzavotlar, mevalar, ko‘katlar ko‘pligi sababli bizning taomlarning mazaligi boshqa millatlar taomlaridan ajralib turadi.

Taomlarning hilma-xil va lazzatli bo‘lishini ta‘minlash, ularni did bilan dasturxonga tortish pazandachilikning asosini tashkil qiladi. Pazandachilikning moddiy (to‘ydirish) va ma‘naviy (huzur bahsh etish, kishining ruhiga ta‘sir etish) jihatlari bor.

O‘zbek pazandachiligining taom pishirish usullari quyidagicha:

1. Qovurish
2. Qaynatish
3. Bug‘lash
4. YOpiib pishirish
5. Murrakab usulda pishirish

O‘zbek pazandaligida asosan qo‘y va mol go‘shti ishlatiladi, palov kaloriyasi eng ko‘p taom hisoblanadi. Sabzavot va ko‘katlar taomlarimizni boyitadi.

Kishining organizmi normal rivojlanishi uchun vitaminlar, oqsil moddalar, mineral tuzlar, yog‘lar, shirin moddalar bilan ta‘minlanib turishi kerak. Ovqatlanish inson hayoti uchun asosiy shart hisoblanadi.

Oqsil moddalar organizmda yangi hujayralarni tashkil qiladi.

YOg‘lar organizmga energiya ajratib beradi va eng yaxshi yog‘ sut mahsulotlaridan olinadi. O‘simlik yog‘lari ham har xil taomlar va salatlar tayyorlashda ishlatiladi.

Uglevod (shirin modda) sabzavotlarning deyarli hamma turlarida, non, meva, rezavor mevalarda bo‘ladi. SHakar suvda va suvli muhitda tez eriydi, qonga yaxshi singadi.

Oqsil, yog‘ va mineral moddalar go‘sht mahsulotlarida bo‘ladi. Baliq go‘shti ham mazkur moddalar va vitaminlarga boydir.

Sut mahsulotlarida ham oqsil, yog‘, mineral moddalar, vitaminlar boydir. Pishloqda yog‘ 33, oqsil 23 % ni tashkil etadi.

100 gramm sabzavot tarkibida bo‘ladigan vitaminlar miqdori.

| Sabzavotlar | S(mg) | A(mg) | RR ₁ (mg) |
|-------------|-------|-------|----------------------|
| Kartoshka | 15,0 | - | 1,22 |
| karam | 45,8 | - | 0,32 |
| gulkaram | 69,8 | 0,03 | 0,6 |
| sabzi | 5,7 | 8,1 | 0,81 |
| lavlagi | 10,0 | 0,25 | 0,23 |
| bodring | 7,5 | 0,17 | 0,2 |
| pomidor | 24,2 | 0,82 | 0,53 |
| rediska | 29,2 | 0,02 | 0,25 |
| piyoz | 8,5 | 0,03 | - |
| ko‘k piyoz | 60,0 | 0,6 | - |
| salat | 10,0 | 0,94 | 0,37 |
| petrushka | 01,0 | 0,93 | 2,0 |

Sabzavotlarda uglevod, mineral moddalar, efir moyi, mikroblarni o‘ldiruvchi vositalar bor. Ular ayniqsa, sarimsoq va piyozda ko‘p.

Meva va rezavor mevalar uglevod, kislota, mineral moddalar, ayniqsa vitamin S, karotin va boshqalar bordir.

Nazorat savollari.

Pazandachilikning taraqqiyoti mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liqmi?

100gramm gulkaram sabzavotida S vitamini qancha miqdorda?

Oqsil organizmga nima uchun kerak?

YAkuniy qism

1.Mavzuni mustahkamlash uchun savol-javobda qatnashgan o‘quvchilarni baholash va baholarni e’lon qilish.

2.Uyga vazifa berish

**6-Amaliy
mashg'ulot**

Jazlab tayyorlanadigan sho'rvalar, dasturxonga tortish, «moshxo'rda», «mastava», «karam sho'rva» mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga jazlab tayyorlanadigan sho'rvalar tayyorlashni o'rgatish va tushuncha berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarga sho'rva tayyorlashda sanitariya-gigiena talablariga rioya qilishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: . Jazlab tayyorlanadigan sho'rvalarni tayyorlashda nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars turi: amaliy.

Dars metodlari: tushuntirish, amalda ko'rsatish.

Fanlararo bog'lanish: pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, kasb ta'limi praktikumi, pazandachilik asoslari, ximiya, fizika, matematika, g'iametriya.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: Jazlab tayyorlanadigan sho'rvalarni texnologik xaritasini aks ettiruvchi plakat, sho'rva tayyorlash uchun karakli oshxona jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.

3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.

4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Suyuq taomlarning organizm uchun ahamiyatini olim I.P.Pavlov nazariyasiga asosan suyuq taomlar ishtaxani ochuvchi, oshqozondan shirani ajratuvchi asosiy muhit ekanligi bilan o'rgatiladi.

Suyuq taomlar o'tkir ta'mi, hushbo'y hidi, mazasi, tashqi ko'rinishi orqali ishtaxani ochishga, kayfiyatni ko'tarishga yordam beradi. SHuning uchun suyuq taomlar tayyorlashda ularni ta'mini, mazasini maromiga etkazib tayyorlashda zo'r mahorat kerakligini o'quvchilarga tushuntirish kerak.

Suyuq taomlar asosi bo'lgan bulonlar tayyorlashda qaynatish rejimi vaqtlariga e'tibor berish, qattiq qaynab ketmasligi, rangini tiniq bulishi, xushbo'y hid va ta'm beruvchi mahsulotlarni qaynatish oxirida solinishi o'rgatiladi. Bulonlarni tiniqlashtirish usuli, mahsulotlarning pishish vaqtiga ko'ra ketma-ketlikda solinishi, sabzavotlarni tabiiy rangini saqlab qolish usullarini, shuningdek, taom tayyorlashda sanitariya-gigiena talablariga qat'iy amal qilinishini o'rgatishga katta ahamiyat beriladi. O'zbek milliy taomlarini tayyorlashni o'ziga xos xususiyatlarini, ularni to'yimligini, ulardan so'ng ikkinchi ovqatni iste'mol qilish shart emasligini, taomlarni dasturxonga tortish tartibini, suyuq taomlar uchun dasturxon tuzash qoidalarini o'rgatiladi.

Suyuq taom tayyorlashda solinadigan sabzavotlarni to'g'rash shakllari asosiy mahsulot shakli va o'lchamiga mos kelishi, ularni bir vaqtda pishib etishiga qarab ketma-ketlikda solinishi tushuntiriladi. Suyuq taomlar bo'yicha amaliy mashg'ulotda o'rgatish uchun taomlar pishish vaqti dars vaqtiga mos keladigan qilib tanlanadi.

Suyuq taomlarni o'rgatishda quyidagi ko'rgazmalar, tarqatma materiallar tayyorlanadi.

Plakatlar: “Suyuq taom turlari”, “Suyuq taom tayyorlashning umumiy jarayoni”, “Suyuq taomlar uchun dasturxon bezash”.

Albomlar: “Milliy suyuq taomlar”, “Sutli va yaxna sho‘rvalar”, “Xushxo‘r sho‘rvalar”

Amaliy mashg‘ulot o‘tkaziladigan har bir taom uchun taom tayyorlash jarayoni ketma-ketligi, mahsulotlar me‘yori kartasi, sifatini aniqlash va baholash jadvali tayyorlanadi.

O‘quvchilar bilimini aniqlash uchun savollar, kartochkalar, testlar to‘ziladi.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o‘qituvchi kirib keladi va o‘quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, o‘quvchilarning amaliy darsga tayyorgarligini, xona tozaligini tekshirib bo‘lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O‘tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O‘tgan dars mavzusi yuzasidan savol-javob o‘tkazish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘quvchilar bilimini nazorat qilish.

O‘quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

REJA:

Suyuq taomlar haqida tushuncha berish.

2. Jazlab tayyorlanadigan suyuq taomlarni tayyorlash.
3. Karam sho‘rva, moshxo‘rda, mastava tayyorlash texnologiyasi.

Suyuq taomlarning organizm uchun ahamiyatini olim I.P.Pavlov nazariyasiga asosan suyuq taomlar ishtaxani ochuvchi, oshqozondan shirani ajratuvchi asosiy muhit ekanligi bilan o‘rgatiladi.

Suyuq taomlar o'tkir ta'mi, hushbo'y xidi, mazasi ishtahani ochishga yordam beradi. Suyuq taomlar mineral moddalarning asosiy manbai hisoblanadi. Ularning tarkibida suyuqlik ko'p bo'lib, organizmning suvga bo'lgan ehtiyojini 15-25% ni qondiradi.

O'zbek milliy suyuq taomlarini tayyorlash usuli boshqa milliy taomlarni tayyorlash usulidan farq qiladi. O'zbek milliy suyuq taomlari juda to'yimli qilib tayyorlanishi, tashqi ko'rinishi, xushbo'yligi, dasturxonga tortishtaribi bilan farqlanadi.

O'zbek milliy suyuq taomlarini tayyorlashda suyakli yoki lahm go'shtga birlamchi ishlov berilib, qizdirilgan yog'da qovuriladi, piyoz, savzi, tamat ham qo'shib qovuriladi. So'ngra sovuq suv quyilib baland olovda qaynatiladi. Qaynab chiqqandan so'ng past olovda miltiratib qaynatiladi. Suyuq taom uchun kerakli masalliq pishish vaqtiga ko'ra tartib bilan ketma-ket solinadi. O'zbek milliy suyuq taomlari uzoq vaqt qaynatilib tayyorlanganligi sababli go'sht, suyak, sabzavotlar, don mahsulotlari tarkibidagi qimmatli moddalar sho'rvaga erib o'tib, taomni to'yimli, xushbo'y, lazzatli qiladi, shuning uchun undan so'ng ikkinchi quyuc taom bermasa ham bo'ladi.

O'zbek milliy suyuq taomlari dasturxonga kosalarga so'zilib, yuziga o'ziga xos ko'katlar - rayxon, jambul, kashnich, yalpiz, ko'k piyoz bilan beriladi. Ayrim hollarda tuyilgan qora muruch, mayda to'g'ralgan bosh piyoz, achchiq qalampir ham berilishi mumkin. Ba'zi suyuq taomlarga qatiq berilishi shart.

Moshxo'rda. Mosh oziq-ovqat mahsulotlardan biri. To'q yashil rangdagi mosh eng yaxshi mosh xisoblanadi va bir qaynagandan pishadi, uning mazali va o'ziga xos hushbo'y hidi bo'ladi. Moshni bir yilgacha saqlash mumkin. Bir yildan ko'p saqlangan mosh qattiq bo'lib qoladi, pishishi qiyinlashib, mazasi yaxshi bo'lmaydi.

Moshdan moshova, moshxo'rda, moshugra, moshqovoq, moshkichiri, moshpalov, mosh manti va xokazolar tayyorlanadi.

Moshxo'rda-suyuq taom. Unga go'sht yoki po'shtdumba mayda qilib to'g'raladi. YOg'i dog'langan qozonga piyoz va go'shtni solib qovuriladi. Birlamchi mosh yuvilib, sovuqsuv bilan solinadi va past olovda

mildiratib qaynatiladi. Mosh ochilgach, tuz va guruch solib 20-25 minut qaynatiladi. Guruch solingach, olov baland qilinadi va shaqqillatib qaynatiladi. Taom pishgach kosalarga soʻzilib, ustiga murch, maydalangan rayxon, kashnich sepilib dasturxonga tortiladi.

Mahsulotlar miqdori: 300gr goʻsht, 100gr yogʻ, 300gr guruch, 200gr mosh, 2 dona piyoz kerak boʻladi.

Mastava-suyuq taom. Ilgari mastava suzma, qatiqdan olingan zardobga guruchni qaynatib tayyorlangan. Xozirgi davrda esa uni yogʻ, sabzi, piyoz, pomidor, bulqgʻor garmdorisi, guruch va boshqa masalliqlardan tayyorlanadi. Solinadigan masalliqlar va tayyorlash usuliga koʻra qaynatma, qovurma, olchali, qiymali, xoʻrda mastava kabi turlari bor. Mastava uchun yogʻliq qoʻy goʻtidan qiyma qilinadi. Unga piyoz va muruch aralashtirilib kichik-kichik qilib dumaloqlanadi. Qozonda goʻshtdan ajratilgan suyakni qaynatiladi, soʻngra ularni soʻzib olib shoʻrvasiga guruch va dumaloqlangan qiymalarni solib past olovda miltiratib qaynatiladi. Mastavaga kubchalar shaklida toʻgʻralgan sabzavotlardan (sabzi, kartoshka, pomidor, sholgʻom) qoʻshsa ham boʻladi.

Qoʻy goʻshti va yogʻini kubcha shaklda toʻgʻraysiz. YOgʻini eritib, soʻzib olasizda, goʻshtini solib yaxshilab qovurasiz. Keyin piyoz va pomidor solasiz, masalliq qizil tusga kirgandan soʻng kubcha qilib toʻgʻralgan sabzi va kartoshkani solib, yana 5-6 minut qovuriladi, soʻngra suv quyilib 20 minut qaynatiladi. SHOʻrvasi pishgach, tuz, ziravorlar va tayyorlangan guruchni solib qaynatasiz. Mastava kosalarda ustiga kashnich, koʻk piyoz sepib tortiladi.

Mahsulotlar miqdori: 500gr goʻsht, 100gr yogʻ, 2 dona savzi, 2 bosh piyoz, 3-4 dona pomidor, 3 dona kartoshka, 300 gr guruch, tuz va ziravorlar.

Karam shoʻrva. Goʻshtni tozalab, boʻlaklarga boʻlasiz. YOgʻ dogʻ boʻlgandan keyin goʻshtni solib qizartirib qovurasiz, soʻngra piyoz solib qovuriladi, toʻgʻralgan pomidor yoki tamat solasizda, yana 10 minut aralashtirib qovuriladi. Keyin shoʻrvaga somoncha shaklda tralgan sabzi va parrak – parrak qilib

to'g'ralgan kartoshkani tashlaysiz. SHundan keyin suv quyib, qalampir, tuz, lavr yaprog'i, mayda qilib to'g'ralgan karam solib qaynatasiz, olovni bir oz yuqorilatib, pishirishni yana 35-40 minut davom ettirasiz. Tayyor taomni kosalarga so'zib betiga murch, osh ko'klardan sepib dasturxonga tortasiz.

Mahsulotlar miqdori:

500gr go'sht, 150gr yog', 2bosh piyoz, 3-4 dona pomidor, 2 dona sabzi, 300gr kartoshka, 300gr karam, 1dona qalampir, 2-3 dona lavr yaprog'i va tabga ko'ra tuz ishlatiladi.

Yakuniy qism.

Uquvchilarning tayyorlagan taomlarining sifatiga qarab baho qo'yiladi va e'lon qilinadi.

Uyga vazifa berilib, uni bajarish tartibi tushuntiriladi.

Ish bajarilgan joylarning tartibga keltirishni kuzatish.

Nazorat savollari.

Taomning sifati qanday aniqlanadi?

Kartoshkada qanday to'yimli modda bor?

7-Amaliy mashg'ulot

Nonushta, peshin, kechki ovqatlanish uchun dasturxon tuzish mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga dasturxonni nonushtaga, peshinga, kechki ovqatga tayyorlashni o'rgatish va tushuncha berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarga dasturxon tayyorlashda sanitariya-gigiena talablariga rioya qilishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Dasturxonni bezatishda kerak buladigan anjomlar haqida tushuncha berish.

Dars tipi: Ko'nikma malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars turi: Amaliy.

Dars metodlari: Ogʻzaki, koʻrsatmali.

Fanlararo bogʻlanish: pedagogika, psixologiya, pedogogik mahorat, nutq madaniyati, kasb taʼlimi praktikumi, ovqat tayyorlash texnologiyasi.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va koʻrgazmali qurollar: Dasturxonni bezatishda kerak buladigan anjomlar, plakatlar.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat taʼlimi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashgʻulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb taʼlimi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «Oʻqituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb taʼlimi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashgʻulotlar: Pedagogika instituti oʻquvchilari uchun qoʻllanma. – T.: «Oʻqituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb taʼlimi metodikasidan amaliy mashgʻulotlar (Metodik qoʻllanma). T.: TDPU, 2002.

Mashgʻulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Bu mavzu mehnat taʼlimining 6-sinf «Pazandachilik asoslari» yoʻnalishi, «Pazandachilik ishlari uchun ish oʻrnini tashkil etish va mehnat xavfsizligi talablari» boʻlimida oʻqitiladi. Oʻquvchilar taomlarni tayyorlash bilan birga, ularni dasturxonga tortish qoidalarini, qanday oshxona jixozlaridan foydalanishni, ulardan foydalanishda xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilishni bilib olishlari kerak. Oʻquvchilar oziq-ovqat maxsulotlarining turlari va ularning tarkibidagi ozuqaviy qiymati ularning ratsion ovqatlanishdagi aqamiyati qaqida maʼlumot berish zarur. Oʻquvchilarga toʻgʻri ovqatlanish salomatlik garovi ekanligini tushuntirish kerak. Oʻzbekistonda pazandachilikning rivojlanishini misollar orqali oʻquvchilarga etkaziladi.

Mavzuni oʻqitishda nazariy dars shaklidan, suqbat, oʻzaki, koʻrgazmali dars metodlaridan foydalanish mumkun. Dasturxon tuzashda bajariladigan ishlarni multimedia, diofilm orqali oʻquvchilarga koʻrsatiladi. Nonushta, peshin, kechki

ovqatlanish uchun dasturxon tuzish. mavzusini o‘qitishdan asosiy maqsad nimadan iborat ekanligini anglab olish zarur bo‘ladi.

O‘quvchilar dars jarayonida olgan bilimlarini tarqatma materiallardan foydalanib tekshirib ko‘riladi. Yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalangan qolda o‘quvchilarning olgan bilimlari mustaqamlanadi. «Insert» texnologiyasi orqali «Bilar edim, bilishni xoxlar edim, bilib oldim » jadvalini to‘ldirib chiqish mumkun. Bunda albatta o‘quvchilarning olgan bilimlari yanada mustaxkamlanadi.

Talabaga vazifalar.

1. Nonushta, peshin, kechki ovqatlar uchun dasturxon tuzashga doir plakat tayyorlash.

2. Tarqatma materiallar tayyorlash.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Davomatni tekshirish, navbatchi tayinlash, ishni boshlashdan avval mexnat xavfsizligi va sanitariya – gigiena qoidalariga muvofiq ish o‘rnini tayyorlash, maxsus kiyimlarni kiyib olish.

2. O‘tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O‘quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Nonushta, peshin, kechki ovqatlanish uchun dasturxon tuzish.

REJA:

Dasturxon bezashda amal qilinadigan qoidalar.

Dasturxon bezatishining tarixi.


KONSPEKT

Dasturxon bezatish.

Dasturxonni bezatish ham katta sa'atdir. Bunning uchun ma'lum qoidalarga rioya qilinishi bilan birga kishi o'quvli bo'lishi shart.

Yaxshi bezatilgan dasturxon nonushtani, peshin va kechki ovqatlarni ko'ngildagidek o'tishga yordam beradi. Dasturxon chiroyli chiqishi uchun tayyorlangan taomlarning xilma-xilligiga, miqdoriga, idish tovoqlarga va ularni joylashtirishga bog'liq.

Xar bir odamga mo'ljallab bittadan likop, uning chap tomoniga vilka o'ng tomoniga esa qoshiq bilan pichoq qo'yiladi.



(rasm)

5- rasm

Tushlik dasturxonini bezatishda rasmdagidek oshxona servis iva asboblaridan foydalaniladi. Stolda toza yuvilgan, yaxshi dazmollangan dasturxon yoziladi va non, tuz, muruch qo'yiladi.

Agar tushlik ovqatda salat, suyuq, quyuq va shirali taomlar bo'lsa, qar bir xo'randaga mayda, katta likobchalar va vilka, qoshishlar qo'yiladi. Salat va mevalar aloqida likobchalarda dasturxonga qo'yiladi. Dasturxonni bezashda likobchani o'ng tomoniga qoshiq va pichoq, chap tomoniga vilka qo'yiladi. Dasturxondagi umumiy salat va vinegretlar uchun aloqida qoshiqlar bo'lishi kerak. Hamma o'ziga kerakligicha oldidagi aloqida likobchaga solib iste'mol qiladi. Agar

dasturxonga pishloq, kalbasa, yaxna go'sht maxsulotlari qo'yilgan bo'lsa, albatta o'zi foydalanayotgan vilka bilan oladi va iste'mol qiladi. Dasturxonni yig'ishtirishda maxsus patnisdan foydalaniladi. Ovqatlanish paytida dasturxonda ortiqcha idishlar va asboblarning bo'lmasligi uchun taomlarning tartibiga qarab yig'ishtirib turiladi. Masalan, ovqatlanishdan oldin salat qo'yiladi, so'ng suyuq ovqat kosalarda qar bir kishining yoshiga qarab tortiladi. Ketidan quyuk ovqat tortiladi. Ovqatlanib bo'lingandan keyin dasturxonning usti yig'ishtiriladi. Ortiqcha narsalar olib qo'yiladi.

Yakuniy qism.

Eng to'g'ri dasturxon bezatgan o'quvchilarni baholash Darsni mustahkamlash uchun savol – javob qilish.

Uyga vazifa berilib, uni bajarish tartibi tushuntiriladi.

Ish bajarilgan joylarning tartibga keltirishni kuzatish.

Nazorat savollari

Dasturxon bezatishda qoshiq, vilka, pichoq qaysi tarafda turishi lozim?

Tushlikka qanaqa dasturxon bezash kerak?

Kechki ovqatning kaloriyasini aniqlang?

**8-Amaliy
mashg'ulot**

Oziq-ovqat maxsulotlari bilan ishlash xonalari uchun sanitariya-gigiena talablari mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishlash xonalariga bo'lgan sanitariya-gigiena talablarini o'rgatish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarga sanitariya-gigiena talablariga rioya qilishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Zamonaviy asboblarning va moslamalar haqida tushuncha berish.

Dars tipi: O'quvchilarning yangi bilimlarni egallaydigan dars.

Dars turi: nazariy.

Dars metodlari: oʻzaki, koʻrgazmali, amaliy.

Fanlararo bogʻlanish: pedagogika, psixologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, kasb taʼlimi praktikumi, pazandachilik asoslari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va koʻrgazmali qurollar: Oshxonada kerak buladigani asboblari va moslamalar chizilgan plakatlar, koʻrgazmali qurollar.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat taʼlimi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashgʻulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb taʼlimi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «Oʻqituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb taʼlimi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashgʻulotlar: Pedagogika instituti oʻquvchilari uchun qoʻllanma. – T.: «Oʻqituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb taʼlimi metodikasidan amaliy mashgʻulotlar (Metodik qoʻllanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qoʻllanma). T.: TDPU, 2006.

Mashgʻulot yuzasidan metodik tavsiyalar

«Oziq-ovqat maxsulotlari bilan ishlash xonalari uchun sanitariya-gigiena talablari.» mavzusini 5-sinf mehnat taʼlimi darslarining «Pazandachilik ishlari uchun ish oʻrnini tashkil etish» boʻlimida oʻqitiladi. Bu mavzuni oʻqitishdan maqsad oʻquvchilarga pazandachilik xonalarida oʻzini tutish, kiyinishga boʻlgan talablarni oʻrgatish va ishlash jarayonida xavfsizlik choralarini koʻrish. Pazandachilik xonalarining tozaligi va sanitariya-gigiena talablariga javob berishi taom tayyorlash jarayonida muqim aqamiyatga ega ekanligini oʻquvchilar ongiga singdirish.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga sanitariya-gigiena soʻzlarining maʼnosi qaqidagi fikrlarini oʻrganish uchun savollar berib bilimlarini tekshirib koʻradi.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Davomatni tekshirish, navbatchi tayinlash, ishni boshlashdan avval mexnat xavfsizligi va sanitariya – gigiena qoidalariga muvofiq ish o‘rnini tayyorlash, maxsus kiyimlarni kiyib olish.

2. O‘tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O‘quvchilarga o‘tgan mavzu yuzasidan tarqatma materiallar beriladi.

O‘quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar (45 daqiqa).

Reja:

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Oziq-ovqat maxsulotlari bilan ishlash xonalari uchun sanitariya-gigiena talablari.

REJA:

Pazandachilik xonalarida ishlaganda texnika-xavfsizlik va sanitariya-gigiena qoidalarini.

Gaz va elektr plitalaridan foydalanish.


Kesuvchi asboblarni bilan ishlash.

Suyuqliklarni bilan ishlash.

Xavfsizlik texnikasi

O‘quv ustaxonalarida uskunalarni joylashtirish yon\in xavfsizligi, meqnatni muxofaza qilish va sanoat sanitariyasining quyidagi talablariga rioya qilish lozim bo‘ladi.

Ustaxonalar inventar va uskunalarni bilan ortiqcha to‘ldirib tashlanmasligi kerak. Dastgoxlar, stanoklar, mashinalar xamda dastgoq qatorlari o‘rtasidagi o‘tish joylari belgilangan norma doirasida bo‘lishi lozim.



3- rasim

Dastgoxlar, stanoklar, mashinalar chekka qatori bilan ustaxona devorining o'rtasi 0,5 m. dan kam bo'lmazligi kerak.

Dastgoqlar, stanoklar, mashinalar ish joyiga yaqin joylashtirishni xamda qo'shimcha vklyuchatelga ega bo'lishi lozim.

Stanoklar oldida ximoya ekrani va elektr blakirovka bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Ustaxona (kabinet) da qo'l yuvish, ustki kiyim va karjomalarni saqlash uchun xam sharoit yaratilishi kerak

Pazandachilik ishlarini bajarishda xafsizlik texnikasi Buziluvchan mahsulotlarni xolodilnikda saqlash lozim.

Oshxonada chelakning qopqo'i bo'lishi shart.

Gaz plitalarni nazoratsiz qoldirish mumkin emas.

Ishitish asboblarini tagliksiz ishlatilmaydi.

Idishni suyuqlik bilan to'ldirib yubormaslik lozim.

Elektr asboblarni quruq qo'l bilan ushlanadi.


Go'sht qiymalagichdan foydalanayotganda eqtiyot bo'lish kerak.

Issiq asboblarni sochiq bilan ushlash kerak.

CHiqindilari solingan chelakning o'zi berk turishi kerak.

Sovuq shisha idishga ovqat solishdan oldin uni ilitish kerak.

Ish vaqtida asboblardan to'g'ri foydalanish.



1 - rasm

Yakuniy qism

Mavzuni mustaxkamlash uchun savol-javobda qatnashgan o'quvchilarni baxolash va baxolarni e'lon qilish.

Uyga vazifa berish.

Nazorat savollari.

Maqsulotlarni nima uchun xolodilnikda saqlash lozim?

Ish vaqtida asboblardan tri foydalanmaslik nimaga olib keladi?

**9-Amaliy
mashg'ulot**

*Yog'ochGA ISHLOV BERADIGAN STANOKLAR VA ULAR
haqida TUSHUNCHA mavzusini o'qitish metodikasi.*

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Yog'ochga ishlov beradigan stanoglar haqida ma'lumotlar berish va o'rgatish.

Tarbiyaviy: Yog'ochga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushunchalarini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Yog'ochga ishlov beradigan stanoklarni inobatga olgan holda buyum tayyorlashni o'rgatish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko'rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog'lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o'quv ustaxonalarida kasb ta'limi amaliyoti, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya ishi yo'riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.

6. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin Yog'ochga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushunchalarni, ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish. Rejalashni mashq qildirishga o'tishda rejalashda ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan rejalashda va arralashda kerak bo'ladigan asboblarning turlari, to'zilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va rejalash va arralash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra rejalashni va arralashni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstruktorlik qobiliyatlarini o'stirish, mehnat madaniyatlarini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish kerak. SHuning uchun o'quvchilarga texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish lozim. O'quvchilarga rejalash va arralashni texnologik karta asosida o'rgatishda rejalash va arralash tartibi va ishni boshlash usullari batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish kerak. Rejalash va arralashning turlari ularni ishlatish usullarini aytib o'tish ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari darsni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar «Aqliy xujum», «Bumerang» metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Yog'ochga ishlov beradigan stanoklar va ular haqida tushuncha mavzusini o'qitish metodikasi

REJA:

1. Yog'ochga ishlash tokarlik stanogi.
2. Yog'ochga ishlov beradigan stanoklar haqida tushuncha.
3. Yog'ochga ishlov beradigan stanoklarning to'zilishi.

YO/OCH ISHLASH TOKARLIK STANOVI


Duradgorlik o'quv ustaxonalarida TD-120 yoki TSD-120 tipidagi Yog'och ishlash tokarlik stanoklari o'rnatiladi (1-rasm).

Yog'och ishlash tokarlik stanoklari yordamida Yog'och materiallardan har xil aylanish sirtlariga ega bo'lgan detallar, shakldor buyumlar tayyorlanadi.

TD-120 tipidagi Yog'och ishlash tokarlik stanogining asosiy uzellariga stanina 1, oldingi babka 2, ketingi babka 3 va tir-gak 4 kiradi. TSD-120 tipidagi stanokda bulardan tashqari o'yuvchi moslama 5 ham bo'lib, uning yordamida o'yish teshish shakllari bajariladi.

Stanina stanokning tayanch tutkich uzeli bo'lib, unga stanokning holgan hamma uzellari o'rnatiladi. Staninada ikkita o'zaro parallel yo'naltiruvchisi bo'lib, ular bo'ylab keyingi babka va tirgak bo'ylama yo'nalishda suriladi.

Oldingi babka ishlanadigan Yog'och materiallarni tutib turadn va uni aylanma harakatga keltiradi. Oldingi babkaning shpindeliga pog'onali shkiv kiydirilgan bo'lib, unga tasma orqali elektrik dvigateldan xarakat uzatiladi.



1-rasm. TSD-120 tipndagi o'yuvchi moslama bilan Yog'och ishlanadigan tokarlik stanogi:


1 -stanina; 2 - oldingi babka; 3 - ketingi babka; 4 - tirgak; 5 - o'yuvchi moslama stoli.

Tasmani shkvning turli pog'onalariga almashtirish yo'li bilan shpindelning aylanishlari soni o'zgartiriladi. SHpindelga ishlanadigan Yog'och materialni tutib turish imkonini beradigan vilka, planshayba, ryumka patron o'rnatiladi. (SHpindelga o'z-o'zidan markazlanuvchi uch kulachokli patron o'rnatilsa, u vilka, plan-shayba va ryumka-patronlarning o'rnini bosadi va bu bilan Yog'och materialni o'rnatish vaqtidagi kiyinchiliklardan holi bo'linadi).

Keyingi babka uzun o'lchamli Yog'ochlarni markazda tutib turish va keskich (parma)larni o'rnatish imkonini beradi.

Yo'nish, qirqish vaqtida iskanalarni tutib (tirab) turish maqsadida tirgakdan foydalaniladi. Ishlanadigan Yog'ochning o'lchamiga va unga kanday ishlov berilishiga qarab, tirgakni shpindelga parallel yoki ko'ndalang holda staninaga o'rnatiladi. Tirgak hamma vaqt markazga moslanib, ishlanadigan Yog'ochga yaqin o'rnatiladi (2-rasm).

Keyingi babka va tirgak staninaning yo'naltiruvchilari bo'ylab oldingi babkaga nisbatan kerakli masofaga surilgandan so'ng tortki boltlar yordamida staninaga qo'zg'almaydigan kilib qotirib qo'yiladi.



-28-расм. Тиргакни марказ бўйича ёгочга мослаб ўрнатиш.

Tayyorlanadigan detal va buyumlarning o'lchamiga qarab ishlanadigan Yog'ochlar stanokka turli xil moslamalar; vilka va markaz, planshayba, ryumka-patron, kulachokli patronlar (moslangan bo'lsa) yordamida o'rnatiladi. Bunda uzun o'lchamli, kichik diametrlil Yog'ochlar vilka va markaz orasiga, qisqa o'lchamli, kichik diametrlil Yog'ochlar ryumka-patronga, qisqa o'lchamli, katta diametrlil Yog'ochlar esa planshaybaga o'rnatiladi.

Yog'och ishlanadigan tokarlik stanoklarida yo'nish, qirqish ishlari maxsus tokarlik iskanalari yordamida bajariladi. Yo'nuvchi (reyer) va qirquvchi (mayzel) iskanalar bo'ladi. Yog'ochni xomaki yo'nish, botir sirtlar xosil qilish, ichki sirtlarni yo'nib kengaytirish yo'nuvchi iskana yordamida bajariladi. Bu iskana nov shaklida bo'lib, tig'i yoysimon ko'rinishda bo'ladi. Xomaki yo'nilgan sirtlarni pardoqlash, kavarik sirtlar hosil qilish, tayyor detallarni qirqib tushirish ishlari qirquvchi iskana yordamida bajariladi.

Yog'och ishlanadigan tokarlik stanogida ishlash vaqtida quyidagi xavfsizlik texnikasi koidalariga rioya qilish talab etiladi:

1. SHpindelning hamma vaqt to'g'ri (ishlayotgan odamga qarab) aylanishiga e'tibor berish kerak. SHpindelning to'g'ri aylanishini ta'minlash uchun elektrik dvigatel vklyuchatel yordamida ulanadigan qilib sozlanadi (har qanday Yog'och ishlash stanogida elektr dvigatelni yurgizish va to'xtatish vklyuchatel yordamida bajariladi). Elektrodvигatel hech vakt pereklyuchatel yordamida boshqariladigan qilib sozlanmaydi.

2. Ishlanadigan Yog'ochlarni markaz va vilka orasiga, patronlarga, planshaybaga maxkam o'rnatish lozim. Bunday qilinmasa, shpindel katta tezlik bilan aylanayotganda, yo'nish ishlari bajarilayotganda Yog'och tutkichlardan chiqib ketishi va ishchini shikastlashi mumkin.



Buning oldini olish maqsadida Yog'och o'rnatilgandan so'ng birdaniga yo'nishni boshlamasdan, oldin qo'l bilan Yog'ochni aylantirib, uning puxta o'rnatilganligiga va tirkakka tegib qolmasligiga ishonch hosil qilinadi.

3. SHpindel aylanib turganda vilka va markaz orasiga Yog'och o'rnatmaslik kerak.

4. Ish vaqtida tirkakni hamma vaqt markazga moslab, Yog'ochga yaqin o'rnatib borish zarur. Buning uchun yo'nish davomida vaqt- vaqti bilan tirkakni Yog'ochga yaqinlashtirib surib boriladi. Tirkak Yog'ochdan uzoqlashganda keskich (iskana) ga ta'sir etuvchi kuch ortib ketib, uni tutib turish qiyinlashadi, iskana tushib ketib Yog'ochning sifatini buzadi. Tirkaksiz yo'nish va qirqishga ruxsat etilmaydi. (tayyor buyumlarni jilvirlab pardoqlashda jilvir qog'oz tutilsa, qo'l tirkakka qadalib qolmasligi uchun tirkak olib qo'yiladi.

5. Ish vaqtida ketingi babka va tirgakni stanina yo'naltiruvchnlariga maxkam qotirib o'rnatish kerak. Aks holda Yog'och markazdan chiqib ketishi, tirgakka qadalib qolishi, ish sifati bo'zilishi va ishlayotgan odamni shikastlashi mumkin.

6. Stanokni to'xtatmasdan turib ishlangan sirtning silliqqligini qo'l bilan tekshirmaslik kerak.

4. Yangi o'quv materialini mustahkamlash va o'quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Yog'ochga ishlash tokarlik stanogi haqida gapiringg'

2. Yog'ochga ishlash stanogini ishlatishg'

O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo'yicha 10 ta test to'zib kelish.

b) Darsni tugatish.

10-Amaliy mashg'ulot

*ISKANALAR TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH
mavzusini o'qitish metodikasi.*

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Iskanalar turlari va ulardan foydalanishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: Iskanalar turlarini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Iskanalar turlari va ularni inobatga olgan holda buyum tayyorlashni o'rgatish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko'rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog‘lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o‘quv ustaxonalarida kasb ta‘limi amaliyoti, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psihologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, dars o‘tishga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, laboratoriya ishi yo‘riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta‘limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta‘limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: Pedagogika instituti o‘quvchilari uchun qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta‘limi metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2006.

Mashg‘ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Darsni duradgorlik o‘quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin iskanalar turlari va ular qaerlarda ishlatilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berish. Iskanalarni turlarini aytish ularni mashq qildirishga o‘tishda iskanalardan ko‘zlangan maqsadni tushuntirish, o‘quvchilarga o‘quv ustaxonalarida ishlatiladigan Yog‘ochlarga ishlov berishda o‘ymakorlikda ishlatiladigan uskanalarni turlari, to‘zilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va ishlatish vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so‘ngra iskanalashni mashq qildirish haqida ma‘lumotlarni berish lozim.

Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstruktorlik qobiliyatlarini o'stirish, mehnat madaniyatlarini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish kerak. SHuning uchun o'quvchilarga texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish lozim. O'quvchilarga iskanalarni ishlatishda texnologik karta asosida o'rgatishda iskanalash tartibi va yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalar ishlash usullari batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish kerak. Misool uchun iskana asosida. Yo'nuvchi iskanalar yordamida yo'nish yo'li bilan taxtalarning chetlariga faska chiqariladi, tirnoqlar rostlanadi, teshik, uyalar yo'nib kengaytirilishini aytib o'tish lozim. Iskanalarning turlari ularni ishlatish usullari, ushlashni ko'rsatib o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari darsni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar «Aqliy xujum», «Bumerang» metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). YAngi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Iskanalar turlari va ulardan foydalanish mavzusini o'qitish metodikasi.


REJA:

1. Iskanalar turlari.
2. Duradgorlik iskanalari.

Yog'och materiallardan turli xil buyumlar tayyorlashda ularnpng qismlari ko'pincha «tirnoq» chiqarish yo'li bilan biriktirilib, bunda o'yish - teshish ishlari bajariladi. Bu maqsadda har xil duradgorlik iskanalaridan foydalaniladi.

Duradgorlik iskanalari vazifasiga ko'ra yo'nuyuvchi va o'yyuvchi iskanalarga bo'linadi (1-rasm).

Yo'nuvchi iskanalar yordamida yo'nish yo'li bilan taxtalarning chetlariga faska chiqariladi, tirnoqlar rostlanadi, teshik, uyalar yo'nib kengaytiriladi. SHuningdek, yumshoq va yupqa taxtalar o'yib teshiladi.




1 - rasm. Duradgorlik iskanalari: a - o'yuvchi; b - yo'nuvchi; e - nov iskana.

Qalin va qattiq Yog'ochlarni o'yish-teshish ishlari hamma vaqt o'yuvchi iskanalar yordamida bajariladi.

Yo'nuvchi iskanalar yupqa, o'yuvchi iskanalar qalin bo'ladi. Bundan qat'iy nazar, ularning eni har xil o'lchamda tayyorlanadi. Yo'nuvchi iskanalarning eni 4 mm dan 40 mm gacha, o'yuvchi iskanalarning eni 6 mm dan 20 m gacha bo'ladi.

Uyish - teshish ishlarida quloq, uya va teshiklarning kengligiga qarab unga mos iskanalar tanlanadi. Teshik enidan katta iskana ishlatishga ruxsat etilmaydi. Kichik o'lchamdagi iskanalar bilan esa katta teshik uyalarni ochish ham mumkin.

Yog'och taxtalarni yo'nish, o'yish - teshishda nov shaklidagi iskanalar



ham ishlatiladi

(1 - rasm, v). Ular yordamida silindrik teshik va uyalar o'yish, sirlarda nov ochish ishlari bajariladi. Nov shaklidagi iskanalar xar xil o'lchamda tayyorlanadi.

Iskanalar bir tomondan charxlanadi. Yo'nuvchi iskanalarning o'tkirlik (charxlash) burchagi 18-25°, o'yuvchi iskanalarning o'tkirlik burchagi 25-35° atrofida bo'ladi.

Iskanalarning dastalari zarang, qora qayin, qayrag'och, yong'oq kabi pishiq Yog'ochlardan tayyorlanib, uchiga metall qalqa kiydiriladi. qalqalar iskanaga bolg'a bilan urishda dastani yorilishdan saqlaydi. Iskanalar Yog'och to'qmoq bilan uriladi. Iskana dastalari plastmassadan ham tayyorlanadi. Yog'och dastalarga qaraganda plastmassadan tayyorlangan dastalar puxta bo'ladi, bolg'a urishda yorilmaydi, sifati buzshshaydi. SHuning uchun iskana dastalarining plastmassadan yasalgani ma'qul. Iskanalarning dastalari tokarlik-vint qirqish stanoklarida oson tayyorlanadi.

Uyish - teshish duradgorlik dastgohi ustida olib boriladi. SHuning uchun teshik ochish vaqtida iskana Yog'ochni ko'chirib chiqarmasligi va dastgohni o'yib yubormasligining oldini olish uchun o'yiladigan taxta ostiga ehtiyot taxtasi qo'yiladi.

4. YAngi o'quv materialini mustahkamlash va o'quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Iskanalar turlarini aytib beringg'
2. Iskanalar ishlatish ketma ketligig'

3. Duradgorlik iskanalariga qaysilar kiradig‘

O‘quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so‘raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O‘tilgan mavzu yuzasidan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo‘yicha 10 ta test to‘zib kelish.

b) Darsni tugatish.

11-Amaliy mashg‘ulot

Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini o‘rganish mavzusini o‘qitish metodikasi.

Mashg‘ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta’limiy: Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish.

Tarbiyaviy: Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizligi qoidalarini inobatga olgan holda xonalarni tayyorlashni o‘rgatish.

Dars tipi: ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko‘rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog‘lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o‘quv ustaxonalarida kasb ta’limi amaliyoti, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, dars o‘tishga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, laboratoriya ishi yo‘riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin birinchi navbatda nimalarga e'tibor berish mumkin bu savolni o'quvchilarga berish va ularga maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini aytib o'tish kerak. Ustaxonalarda durodgorlik mashqlarini boshlashdan oldin texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ustaxonalarni jihozlanishini ko'zdan kechirish lozim va o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan texnika xavfsizlik qoidalari, vazifasi, xonani jixozlash sozlash va ish vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra mashq qildirish lozim.

Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstruktorlik qobiliyatlarini o'stirish, mehnat madaniyatlarini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish kerak. SHuning uchun o'quvchilarga texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish lozim. O'quvchilarga maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini o'rganish texnologik karta asosida o'rgatish tartibi jixozlashni tekshirish usullari batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish

kerak. Misol uchun ustaxonalar asosida o'quvchilarga xonani tayyorlashni ko'rsatish mumkin. Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini o'rganish xonani texnik xavfsizlik qoidalari nima uchun kerak ularga buning moxiyatini tushintirish kerak.

Bundan tashqari darsni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar «Aqliy xujum», «Bumerang» metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini o'rganish mavzusini o'qitish metodikasi.

REJA:

Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalari.

Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini o'rganish to'g'risida ma'lumot berish.

Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalarini o'rganish va ustaxonalarni jihozlash.

Duradgorlik o'quv ustaxonasida xavfsizlik texnikasi va sanitariya - gigiena qoidalari talablariga amal qilgan holda ish o'rinlari ikki xonaga joylashtirilgani ma'qul. Bunda individual ish o'rinlari (duradgorlik dastgohlari) bir xonaga, umum foydalanadigan ish o'rinlari (Yog'och ishlash stanoklari) esa ikkinchi xonaga joylashtiriladi. Ayrim ish o'rinlari va qo'shimcha jihozlar foydalanilishiga qarab turli xonalarga joylashtiriladi.

Bir yoki ikki xonali duradgorlik o'quv ustaxonasida ish o'rinlarining taxminiy joylashtirilishi. Duradgorlik dastgohlari o'rnatiladigan xona maydoni kichik bo'lsa, dastgohlarni ikki o'rinli dastgoh ko'rinishida qarama-qarshi joylashtirish mumkin. Biroq bir o'rinli dastgohlarni ikki o'rinli dastgoh ko'rinishida joylashtirishda ular bir-biriga jipslab o'rnatilmasdan, balki oralari ochiq qoldiriladi, ularni bir-biriga kashaklab qotirishga aslo yo'l qo'yilmaydi. Aks holda ular ikki o'rinli dastgohlardan farqsiz bo'lib qoladi.

1. Ikki o'rinli dastgohlardan foydalanish o'kuvchilarning bir-biriga xalal berishiga, ish sifatining, xavfsizlik texnikasi qoidalarining bo'zilishiga olib keladi. Bularning oldini olish maqsadida individual va umum foydalanadigan ish o'rinlari egallaydigan maydon o'lchamlardan kam bo'lmasligi kerak. Bunda arralash va randalash stanoklari yordamida uzun o'lchamli Yog'och materiallarga ishlov berilishi hisobga olinadi.

2. O'quv ustaxonasining etarli darajada yoritilishi. Ustaxona binosi joylashishiga karab tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan yoritiladi. Ustaxona tabiiy yo'l bilan yoritilganda yorug'likning binoga sharq, janub, qarb yoki sharqi - janubiy, janubi-g'arbiy tomonlardan tushgani ma'qul. SHuningdek, ustaxonaning tabiiy yorug'lik bilan yoritilishini ta'minlash mag'sadida deraza romlarining katta va etarli bo'lishi talab etiladi. Deraza romlarining umumiy yuzasi pol yuzasining 1:4 qismini tashkil etsa, etarli hisoblanadi, bundan kam bo'lgan qollarda bino qo'shimcha ravishda sun'iy yorug'lik bilan yoritiladi. I

Xonalarni sun'iy yo'l bilan yoritishda har bir ish o'rniga tushadigan yorug'likning 100-150 lgoks bo'lishi kifoya qiladi. Ish o'rinlarining tabiiy yoki sun'iy yo'l bilan yoritilishidan kat'i nazar, ish o'rinlarini joylashtirishda yorug'likning old yoki chap tomondan, yo tik tushadigan bo'lishiga e'tibor beriladi.

Ustaxonaning isitilishi. Uquv ustaxonasida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning maxsus kiyimda ishlashlarini hisobga olib, yil faslining turli davrlarida

xona temperaturasining 16-20° S atrofida bo'lishi ta'minlanadi. Bu temperatura o'quvchilar organizmi uchun eng maqbul temperatura hisoblanadi.

Ustaxona polining taxta va xavosi namligining normal bo'lishi. Ustaxona zax bo'lmasligi kerak. Zax bino o'quvchilarning salomatligiga zarar etkazish bilan bir qatorda dastgohlarning, Yog'och asbob-uskunalarining, shkaflarning nam tortib bo'kishiga, shakl va o'lchamlarining o'zgarishiga, asboblar metall qismlarining, stanoklarning zanglab ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun o'quv ustaxonalari polining taxta va havosi namligining kormal bo'lishi talab etiladi.

Ustaxonaning shamollatiladigan bo'lishi. Uquv ustaxonasida Yog'och ishlanadigan tokarlik stanogi, arralash va randalash stanoklari bilan ishlaganda, mashg'ulotdan so'ng ish o'rinlari va ustaxonani yig'ishtirishda chang ko'tariladi «CHangzararli, undan qoch» degan gigiena talabiga amal qilib, ustaxonada ko'tariladigan changni yo'kotish maqsadida bino maxsus shamollatgich yordamida yoki deraza romlarini ochish yo'li bilan changdan tozalanadi - shamollatiladi. Bu ishni mashg'ulotdan so'ng navbatchi o'quvchilar bajaradi. CHang ko'tarilmasligi uchun polga suv sepish tavsiya etiladi.

Ustaxonada qo'l yuvish uchun suv, sovun, sochiq bo'lishi va hammasi joy-joyida turishi talab etiladi.

Duradgorlik o'quv ustanonalarida ayrim ish o'rinlari va qo'shimcha jihozlarning taxminiy maydoni:

o'qituvchining ish o'rni; 2 - kunda; 3 – dastgoh; 4 - rejalash, parmalash stoli; 5 - oarx; 6 - materiallar javoni; 7 – Yog'och ishlanadigan tokarlik stanogi; 8 - bo'yoqchilik stoli; 9 - o'quv-ko'rgazma qurollari javoni; 10 - asbob-uskunalar javoni.

7. Ustaxonaning elektr energiyasi bilan ta'minlanishi. Ustaxonani yoritish, stanoklarni elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida binoga uch fazali elektr liniyasi o'tkaziladi. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga to'la amal qilgan holda elektr liniyasi umumiy tahsilgich shchitga tortilib, undan xonalarga, yoritish tarmog'i va stanoklarga taqsimlanadi.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xar bir xonaga yoritish tarmog'i uchun alohida, stanoklar uchun alohida umumiy saqlagichli rubilnik, shuningdek, har bir stanokka alohida – alohida saqlagichli rubilnik o'rnatilgani ma'qul. Bu narsa bir stanokni ishga sozlash yoki tuzatish vaqtida boshqalarining to'xtab yoki yoritish tarmog'ining o'zilib qolmasligini ta'minlaydi, ayrim xavfli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

8. Ustaxonada aptechka bo'lishi. Uquv ustaxonasida amaliy mashg'ulot o'tayotganda o'quvchilarning jarohatlanishi, tobi qochib qolishi mumkin. Bunday hollarda o'quvchilarga birinchi yordam tariqasida turli xil dorilar ichkiziladi, jarohatlangan joylariga dori surilib bog'lab qo'yiladi. SHuning uchun ustaxonada aptechka o'rnatiladi.

Uquv ustaxonalarini jixozlash mexnat o'qituvchisi yoki ustasining zimmasiga tushadi. SHuning uchun pedagogika institutlarining o'quv ustaxonalarida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar davomida, mehnat darslarini o'qitish metodikasi bo'yicha o'tkaziladigan laboratoriya - amaliy mashg'ulotlarida studentlarga o'quv ustaxonalarini jixozlash xususida keng tushuvchalar berib, ayrim tayanch maktablarning o'quv ustaxonalari bilan tanishtirish zarur.

Mehnat o'qituvchisi o'quv ustaxonasini jixozlash bilan bir qatorda, undagi bo'zilgan dastgohlarni, asbob-uskunalarini, stanoklarni tuzata bilishi, ishga sozlay olishi, ustaxonani yangi asbob-uskunalar bilan to'ldirib turishi kerak.

SHuning uchun pedagogika institutlari o'quv ustaxonalarida olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarda bo'lg'usi mehnat o'qituvchilariga asbob-uskuna, dastgoh va stanoklarning turlari, to'zilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va tuzatish ishlari o'rgatib boriladi.

4. Yangi o'quv materialini mustahkamlash va o'quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalari nimalar kiradi
2. Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalari tushuncha beringg'
3. Maktab ustaxonalarida ishlashda texnika xavfsizlik qoidalari to'g'risida ma'lumot beringg'

O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo'yicha 10 ta test to'zib kelish.

b) Darsni tugatish.

**12- Amaliy
mashg'ulot**

Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Randa turlari, ularni ishga tayyorlashni o'rgatish.

Tarbiyaviy: Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalarini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Randa turlari, ularni ishga tayyorlashni inobatga olgan holda tayyorlashni o'rgatish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko'rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog'lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o'quv ustaxonalarida kasb ta'limi amaliyoti, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya ishi yo'riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin Yog'och materiallarini ishlatishda kerak bo'ladigan randalar to'g'risida ma'lumotlar berish. Randalarni turlari va ularni ishga tayyorlashi o'rgatishdan oldin randadan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan durodgorlik randalarining turlari, to'zilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash va randalash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra randalarni ishga sozlash haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstruktorlik qobiliyatlarini o'stirish, mehnat madaniyatlarini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni

o'rgatish kerak. SHuning uchun o'quvchilarga texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish lozim. O'quvchilarga randalarni texnologik karta asosida o'rgatishda randalar turlari va ularni ishga sozlashni batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish kerak. Duradgorlik randalari vazifalariga ko'ra sirtlarni tozalash, silliqlash, tekislash maqsadida ishlatiladigan, ya'ni Yog'ochga birlamchi ishlov beruvchi randalarga va maxsus randalarga bo'linishini va aytib o'tish va ko'rsatish mumkin. Misol uchun Japs randa. Taxta randa va mushranda yordamida uzun va enlik taxtalarning sirti silliqlansa ham, ular bilan tekis randalab bo'lmaydi. Bunday sirtlar japs randa bilan randalab tekislanadi. Rndalarning turlari ularni ishlatish usullari va ishga sozlashni ko'rsatib o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari darsni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar «Aqliy xujum», «Bumerang» metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. YAngi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). YAngi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari mavzusini o'qitish metodikasi.

REJA:

Randa turlari.


Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari.

Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari to'g'risida ma'lumotlar bering.

Duradgorlik randalari va ularni ishga sozlash

Yog'ochdan buyum tayyorlash uchun kerakli material arralab olingandan so'ng uning sirtini tozalash, silliqlab tekislash va aniq o'lchamga keltirish uchun randalash ishlari bajariladi. Bu maqsadda turli xil randalardan foydalaniladi (1-rasm).

Duradgorlik randalari vazifalariga ko'ra sirtlarni tozalash, silliqlash, tekislash maqsadida ishlatiladigan, ya'ni Yog'ochga birlamchi ishlov beruvchi randalarga va maxsus randalarga bo'linadi. Bular sherxebel, taxta randa, mushranda, japsrandalardan, hamda zakrov randa, chok randa, konish randa, dila randa, chorabzal randalar va boshqalardan iborat.



1- rasm. Duradgorlik randalari:

a- sherxebel; b -taxta randa; v -mushranda: / -psna; 2 - kunda; g - tig; 4 - temir pushtak; e- pushtakli tir; b - japs randa; / - tir; 2 - pushtak; 3-jona; 4 - dasta; 5 - bolgalash tugmasi.

Quyida bu randalarning vazifasi, to'zilishi va ularni ishga sozlash usullari bilan tanishib o'tamiz.

Sherxebel Yog'och materiallarning sirtini tozalash va qalin payraxa olish yo'li bilan xomaki randalash maqsadida ishlatiladi.

Sherxebelning asosiy qismlari kunda, tig' va ponadan iborat bo'lib, kundasing uzunligi 250-260 mm, eni 40-45 mm, qalinligi 60 mm bo'ladi. Tig'ining eni 30 mm bo'lib, kesuvchi qirrası yoy shakliga ega. Bu esa qalin payraxa olib oson randalash imkonini beradi. Qanday qalinlikdagi payraxa olinishiga qarab tig'ni kundadan turlicha chiqariladi. SHerxyobelda sirtlarni silliq va tekis randalab bo'lmaydi.

Sirtlarni silliq randalash uchun taxta randa ishlatiladi. Taxta randa sherxebeldan kundasing eniligi va tig'ining to'g'ri bo'lishi bilan farq qiladi. Taxta randa kundasing eni 55-60 mm, tig'ining eni 45-50 mm bo'ladi. Bu randa yordamida sirtlarni silliq randalash uchun tig'ni yupqa payraxa oladigan qilib kundadan mumkin qadar oz chiqariladi. Payraxa qalin olinsa, sirtlar silliq chiqmaydi.

Ayrim hollarda o'quvchilarning yoshlarini, jismoniy qobiliyatlarini hisobga olib sirtlarni silliqlash maqsadida taxta randa o'rnida sherxebeldan foydalanish mumkin. Buning uchun sherxebelning tig'ini charxlab, to'g'ri tig'li qilib beriladi. Bu holda tig'ning eni kambar bo'lib, randalash vaqtida o'quvchilar ortig'cha qiynalmaydilar.

Mushranda to'zılish jihatidan taxta randadan farq qilmaydi. Mushranda tig'ida qo'shimcha temir pushtak bo'lib, u payraxani sindirish vazifasini o'taydi. SHuning uchun temir pushtakni tig'ning kesuvchi qirrasiga yaqin o'rnatiladi. SHu tariqa o'rnatilganda tig' chiqargan payraxani darhol qayirib sindiradi va randalashni engillashtiradi. Temir pushtak kesuvchi qirradan ortiqcha uzoqlashtirilmaydi. Aks holda uning taxta randadan farqi qolmaydi.

Mushranda yordamida Yog'och materiallarning sirti silliqlanadi, shuningdek, yig'ilgan tayyor buyumlarga dastlabki parдоз beriladi, buyum sirtidagi notekisliklar randalab tekislanadi.

Japs randa. Taxta randa va mushranda yordamida uzun va enlik taxtalarning sirti silliqlansa ham, ular bilan tekis randalab bo'lmaydi. Bunday sirtlar japs randa bilan randalab tekislanadi.

Japs randa kundasi uzun (700-800 mm), enlik (70- 80 mm), tig'ining eni 55-60 mm bo'ladi. Japs randaga, ko'pincha, temir pushtakli tig' o'rnatiladi. Bu randa yordamida randalashda sirtlar tekis chiqishi uchun payraxa yupqa olinadi, qalin payraxa olinsa, sirt tekis chiqmaydi.

Sirtlarning tekis va silliq chikishi randalarning ishga sozlanishiga, ularni to'g'ri tutib erkin randalashga va randa-lash vaqtida randaga kuchlarning to'g'ri qo'yilishiga bog'liq.

Randalarni ishga sozlash tiqlar o'tmaslanganda ularni kundadan chiqarib charxlash, charxlashda hosil bo'lgan qirovini to'-kish va tig'ni kundaga qaytadan to'g'ri o'rnatishdan iborat.

Tig'lar elektr yoki suvli charxlarda charxlanadi. CHarxlash vaqtida charx toshlar hamma vaqt oldinga qarab (to'g'ri yo'nalishda) aylantiriladi. Teskari yo'nalishda aylantirilganda (xususan elektr charxlarda) undan uchib chiqadigan kukun kishining ko'ziga tushadi va xavfsizlik texnikasi qoidalarining bo'zilishiga olib keladi. SHuning uchun elektr charxlardan foydalanishda charxdagi himoya oynasini to'sib olish yoki himoya ko'zoynagi taqib olinadi.

CHarxlash natijasida tig'larda hosil bo'lgan qirovni to'kish uchun qumqayroq yoki qayroqtosh, kerosin, suv bilan namlab turiladi. Kerosin qirovni tez to'kishga yordam beradi. Qayrash vaqtida tig'larning o'tmaslanib qolmasligiga, qumqayrog'ning o'yilib tezda ishdan chiqib qolmasligiga e'tibor beriladi.

Qirovi to'kilgan randa tig'lari kundaga o'rnatiladi. Bunda, tig'ning kesuvchi qirradi kundadan bir tekis chiqarib (kunda ostiga parallel qilib) o'rnatiladi. Notekis o'rnatilgan tig' sirtini tekis randalamaydi.

Randalarni to'g'ri tutnsh va erkin randalash sirtlarning tekis chiqishini ta'minlash bilan bir qatorda randalash vaqtida o'quvchilarning ortiqcha kuch sarflab qiynalmasliklariga, charchamasliklariga yordam beradi.

Randalash vaqtida sirtlarning tekis chiqmasligi ortiqcha mehnat va material sarflanishiga, materialning ishdan chiqishiga va o'quvchilarning ishdan bezishlariga sabab bo'ladi.

Randalash vaqtida randaga suruvchi va bosuvchi kuchlar qo'yiladi. Bu kuchlar noto'g'ri qo'yilsa, ko'pincha, taxtaning ikki uchi o'yilib o'rtasi do'ng bo'lib qoladi, sirtning tekisligi bu-ziladi.

Randalarni ishga sozlash:

; -tig'ni charxlash va qayrash; a - charxlash; b - qaysash; e, g - hnrov tushirish; II - tiladi; e,g -tirni kundaga o'rnatish; d - yuiani qotirish; e – tig'ning to'rri o'rnatilgan-

Uquvchilarga sirtning silliq va tekis chiqishiga sabab bo'luvchi omillarni o'rgatish bilan bir qatorda ortiqcha mehnat sarflamasdan tez va sifatli randalashga o'rgatiladi. Buning uchun randalardan foydalanish ketma-ketligi, randalash tartibi va tekislikni tekshirish to'g'risida tushuncha berilib, bu borada etarli ko'nikma va malakalar xosil qilinadi. (Bu-haqdagi materiallar uchinchi bo'limda yoritiladi) tirni kundadan chiqarnsh va qayta o'rnatnsh; o, 5 - tishi chiqarishda kunda shunday ,tuligini tekshirish.

Taxta materiallar talab etilgan o'lchamga keltirib randa-langandan so'ng, ularning qaysi usulda biriktirilishi, tay-yorlanadigan buyumlarning turi, qanday maqsadda ishlatilishiga qarab ularga qo'shimcha ishlov berish yo'li bilan zakrov, chok, konish ochiladi, gul chiqariladi va hokazo. Bu maqsadda maxsus randalardan foydalaniladi.

Zakrov randa yordamida oyna solinadigan buyum kislari-ga zakrov ochiladi. Uning tig'i kundaga to'g'ri yoki burchak hosil qilib o'rnatiladi. SHunga mos ravishda uning tig'lari to'g'ri yoki qiyshiq burchakli bo'ladi.

To'g'ri tig'lisiga nisbatan qiyshiq tig'li zakrov randa bi-lan randalash oson va sirt silliq chiqadi. Ba'zan zakrov ochishda Yog'och tolalarining o'sish yo'nalishiga teskari randalashga to'g'ri keladi. Bunday hollarda to'g'ri tig'li randa ishlatish qiyin bo'ladi va sirt silliq chiqmaydi.

Zakrov randa bilan hamma vaqt kesim yuzi 1 sm² bo'lgan zakrov ochiladi. Zakrov randaning yon va ustki (yo'naltiruvchi va cheklovchi) to'siqchilari b>glib, ular tig'ning taxtaga yon va ustki tomondan 1 sm dan ortiq botishiga yo'l qo'ymaydi. Kesimi 1 sm² bo'lgan zakrov ochilishini ta'minlash uchun randalash payraxa

chiqmay qolguncha davom ettiriladi. Aks holda qismlarni yig'ishda ulardagi zakrovlar bir-biriga mos kelmasdan (bir tekislikda yotmasdan) buyum sifatining bo'zilishiga, oynalarning bir tekis jips yotmasligiga sabab bo'ladi.

CHok randa. Taxta materiallardan pol, g'ov, darvoza, rovvot kabilar tayyorlashda, ularning qurishi natijasida tirqish ochilib qolmasligini ta'minlash uchun choklab biriktiriladi. Bu maqsadda chok randadan foydalaniladi.

CHok randa zakrov randaga o'xshash to'g'ri va qiyshiq tig'li bo'lib, tig'ining eni 30 mm gacha bo'ladi. Bu randaning yo'naltiruvchi va cheklovchi to'sqichlari yo'q. Uni taxta bo'ylab to'g'ri yurgizish qiyin. SHuning uchun chok randa konish randadan so'ng chok ochish va sirtlarni tozalash maqsadida ishlatiladi. Ayrim hollarda taxtaning chetiga chok o'lchamiga moslab parallel holda yo'naltiruvchi-cheklangich chaspak mixlab qo'yib randalanadi. Bu narsa chok randani to'g'ri yurgizish imkonini beradi. Ba'zan chok randa kundasining o'ng va chap tomonlariga ochyladigan chok-ning o'lchamiga moslab yo'naltiruvchi-cheklangich chaspak mixlab olinadi. u xilda moslangan randa yordamida taxta chetlarinigina randalash mumkin, o'rtadan «suv» ochish mumkin bo'lmaydi.

Taxtalarni choklab biriktirishda chokning chuqurligi hamma vaqt taxta qalinligining yarmiga teng qilib olinadi. SHuning uchun kundaning o'ng tomoniga mixlanadigan ustki cheklangich shu o'lchamga moslab o'rnatiladi.

CHok randaning tig'i kundadan enlik bo'ladi. Tig' kundadan ensiz bo'lsa, u bilan chuqur randalab bo'lmaydi.

4. YAngi o'quv materialini mustahkamlash va o'quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Randa turlarini aytib beringg'
 2. Randalarni ishga tayyorlash qoidalari aytib beringg'
 3. Randa turlari, ularni ishga tayyorlash qoidalari ular haqida ma'lumot beringg'
- O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.
5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo'yicha 10 ta test to'zib kelish.

b) Darsni tugatish.

13- Amaliy mashg'ulot

Duradgorlik dastgoxining to'zilishi va undan foydalanish qoidalari mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Duradgorlik dastgoxining to'zilishi va undan foydalanish qoidalari o'rgatish.

Tarbiyaviy: Duradgorlik dastgoxining to'zilishi va undan foydalanish ketma - ketligini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Duradgorlik dastgoxining to'zilishi va undan foydalanish qoidalarini inobatga olgan holda buyum tayyorlashni o'rgatish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko'rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog'lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o'quv ustaxonalarida kasb ta'limi amaliyoti, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya ishi yo'riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.

2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

O'quvchilarga darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin duradgorlik dastgoxining to'zilishi va undan foydalanish qoidalari qaerlarda ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish. Durodgorlik dastgoxlarida mashq qildirishga o'tishdan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan durodgorlik dastgoxlari turlari, to'zilishi, vazifasi, ularni ishga sozlash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra durodgorlik dastgoxlarining to'zilishini va undan foydalanishni aytib o'tish va mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim. Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstruktorlik qobiliyatlarini o'stirish, mehnat madaniyatlarini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish kerak. SHuning uchun o'quvchilarga texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish lozim. O'quvchilarga durodgorlik dastgoxlarini texnologik karta asosida o'rgatish tartibi, usullari batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish kerak. Misol uchun durodgorlik dastgoxlari qayerlarda ishlatiladi u asosida nimalar tayyorlashni ko'rsatish mumkin. Durodgorlik dastgoxlarini foydalanish ustaning ish o'rnini to'g'ri tashkil etish har tomonlama e'tibor berish

kerakligi aytib o'tish lozim. Duradgorlik dastgoxlarini joylashtirishni usullari ko'rsatib o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari darsni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar «Aqliy xujum», «Bumerang» metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Yog'och materiallarini randalash mavzusini o'qitish metodikasi.

REJA:



1. Duradgorlik ish urni va uni jihozlash.
2. Duradgorlik dastgoxining foydalanish qoidalari.
3. Duradgorlik dastgoxining to'zilishi va undan foydalanish qoidalari.

DURAGORLIK ISH URNI VA UNI JIHOZLASH

Duradgorlik o'quv ustaxonalarini jihozlashda duradgorning ish o'rnini to'g'ri va har tomonlama tutilishga aloxida e'tibor beriladi. Chunki o'quvchilarning o'zlariga topshirilgan ishlari erkin va qulay, aniq va yaxshi sifatli qilib bajarishlari ish o'rnining to'g'ri tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Duradgorlikda bajariladigan ish turlarini erkin bajarish imkonini beradigan barcha turdagi asbob-uskuna va moslamalar bilan jihozlangan, ishni bajarish tartibini ko'rsatuvchi texnik hujjatlar hamda buyum tayyorlash uchun kerak bo'lgan Yog'och materiallar bilan ta'minlangan duradgorlik o'quv ustaxonasining bir qismi duradgorlik ish o'rnini deb ataladi.

Duradgorlik ish o'rnining asosini dastgoh (duradgorlik verstagi) tashkil etadi.



1-rasm. Duradgorlik dastgohi va uning yordamida bajariladigan ishlar:

1 - oldingi iskana - (yon tiski); 2 - ish taxtasi; 3 - nov; 4- orqa nskanja - (bo'ylama tiski); 5 - asboblar tokchasi; U-ponalar orasiga o'rnatib raidalash; II,IV - oldingi iskanjaga qistirib randalash; /// - orqa nskanjaga qistirib tilish.

Dastgoh barcha turdagi duradgorlik ishlari bajariladigan, maxsus oyoqlarga o'rnatilgan ish stolidan iborat bo'lib (1-rasm), unda arralash, randalash, o'yishteshish, qismlarni biriktirish kabi ishlar bajariladi. Stolning asosiy qismlari bo'ylama va ko'ndalang tiskilardan, ponalar o'rnatish uchun teshiklar schilgan ish taxtasi va asbob-uskunalar qo'yish uchun moslangan novdan iborat.

+ar bir ish o'rniga tegishli individual asbob-uskunalar, Yog'och materiallar, dastgoh noviga xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilgan holda batartib o'rnatiladi. Dastarra, randa, iskana, bolg'a kabi asboblarning dastalari ishlovchiga qaratilib teriladi.

Individual asboblarni devorga osilgan maxsus asbsblar tokchasiga yoki dastgoh oyoqlarini biriktiruvchi bo'ylama kashaklarga taglik taxta o'rnatib, unga terib qo'yilishi mumkin.

Dastgohdan foydalanib arralashda arralanadigan taxta materialning uzun-qisqaligiga, enlik-ensizligiga qarab tilish va qirqish turli hollarda olib boriladi.

Qisqa va ensiz Yog'och taxtalarni arralashda ular bo'ylama tiskiga qistirib olinadi. Enlik taxtalar ish taxtasi ustidagi ponalar orasiga o'rnatib tilinadi. Bu holda taxtaning tilib olinadigan qismi ish taxtasidan chetga chiqarib o'rnatiladn.

Uzun o'lchamdagi taxta materiallar ish taxtasi ustida qo'zg'almas ponaga tirab arralanadi.

Taxtalarni randalashda ularning uzun-qisqaligiga karab ko'chirib olib qo'yiladigan ponalar orasiga o'rnatiladi. Taxtani ponalar orasiga o'rnatishda bo'ylama tiskini ketinga qarab / masofadan ortiq surmaslik kerak (1-rasm). Aks holda surish vinti rezbasi o'zilib, tiski ishdan chiqishi mumkin. Agar randalanadigan taxta ponalar orasiga siqmasa, pona oldingilarga ko'chirib o'rnatiladi.


Enlik taxtalarining cheti (qirras) ko'ndalang tiskiga o'rnatilib randalanadi. Taxtaning ikkinchi uchi yon ponalar yoki maxsus tirgaklar ustiga qo'yiladi.

Uyish-teshish ishlarini bajarishda teshiladigan taxta material ish taxtasi ustiga ponalar orasiga o'rnatilib, bo'ylama tiski yordamida hotirib qo'yiladi. Teshik ochishda dastgoh ish taxtasi o'yilib qolmasligi maqsadida teshiladigan taxta os-tiga ehtiyot taxtasi o'rnatib olish tavsiya etiladi.

Ehtiyot taxtachasi oddiy yoki presslangan faneradan tayyorlanib, uning ikki uchiga karama-qarshi tomondan reykachalar mixlanadi (1-rasm, V). Ehtiyot taxtachasidan foydalanib arralab qirqish (1-rasm, VI) va o'yish-teshish (1-rasm, VII) ishlari olib boriladi.

Exdiyot taxtachasidan foydalanib arralab qirqish ishlari-ni olib borish bo‘ylama tiskiga qistirib arralashga qaraganda ancha qulay. Bu taxtani bo‘ylama tiskiga qistirib o‘rnatish va undan bo‘shatib olish ishlaridan holi qiladi.

Ehtiyot taxtachasidan foydalanib o‘yish-teshish ishlari olib borilganda verstakning ish taxtasi o‘yilishdan saqlanadi. Natijada uning sifati bo‘zilmaydi, xizmat muddati ortadi.



2-rasm. Duradgorlik dastgohining balandligini tekshirish.

Agarda ehtiyot taxtachasi o‘yilib-teshilib sifati bo‘ziladigan bo‘lsa, uni yangilab olish mumkin. Buning uchun ortiqcha material va mehnat talab etilmaydi.

Duradgorlik dastgohidan foydalanishda o‘quvchilar qiynalmasligi va charchab qomasligi maqsadida ish o‘rni (dastgoh) ning balandligini o‘quvchining bo‘y-bastiga qarab moslanadi. Dastgoh balandligining o‘quvchi bo‘yiga mosligini tekshirishda u qaddini bukman holida ikkala qo‘lining kaftini dastgoh ish taxtasi ustiga qo‘yadi (2-rasm). Bu holda uning haddi bukilmasdan kafti ish taxtasiga etsa, ish o‘rnining balandligi o‘quvchining bo‘yiga mos hisoblanadi.

Uchtexprom tomonidan ishlab chiqarilayotgan duradgorlik dastgohlarida ularni o‘quvchilarning bo‘yiga moslash imkonini beradigan pog‘onali tagliklar bo‘lib,

ular yordamida ish taxtasining balandligi o'zgartiriladi. Pog'onali tagliklar ish taxtasini kerakli balandlikka ko'tarish imkonini bermasa, u holda dastgoh oyoqlari ostiga qo'shimcha qistirma Yog'och mixlanadi.

Agar pog'onali tagliklarni tushirish yo'li bilan dastgohning bo'yini pasaytirish iloji bo'lmasa, bunday hollarda o'quvchining oyog'i ostiga taglik taxta qo'yib beriladi. Balandligi turlicha bo'lgan dastgoxlar o'quv ustaxonalarida o'qituvchining ish o'rnidan boshlab tartib bilan ketmaketligi o'rnatiladi.

Dastgohlar joylashtirilgach nomerlanadi, har bir ish o'rniga tegishli individual asbob-uskunalar ham unga moslab nomerlanadi. So'ngra gruppaldagi o'quvchilar bo'y-bastiga qarab ish o'rinlariga qat'iy belgilab qo'yiladi. Bu narsa dastgohlarning, asbob-uskunalarining butunligini ta'minlashga, ishdan chiqishining oldini olishga yordam beradi, o'quvchilarning mas'uliyatini oshiradi. Uquvchilarning ish joylarini almashtirib ko'chib yurishlariga, boshqa ish o'rinlaridagi asbob-uskunalaridan beruxsat foydalanishlariga chek qo'yiladi va bu bilan ayrim hollarda ro'y beradigan xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'zilishining oldi olinadi. Duradgorlik dastgohlaridan foydalanishda uning qismlarini arralab, o'yib qo'ymasliklari, uning ustida mix to'g'irlamasliklari, bolta, tesha kabi asboblardan Yog'och materiallarga ishlov bermasliklari o'quvchilarga alohida uqtiriladi. Mix to'g'rilash, Yog'och-taxtalarni chopish ishlari kunda ustida yoki dastgoh ish taxtasi ustiga o'rnatilgan yaroqsiz ehtiyotgarlik taxta ustida bajariladi. Dastgoh qismlarining butunligi, ish taxtasining sifati, tekisligi vaqt-vaqti bilan tekshirib, tuzatib turiladi.

4. Yangi o'quv materialini mustahkamlash va o'quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Duradgorlik dastgoxining to'zilishini aytib beringg'
2. Duradgorlik dastgoxidan foydalanish qoidalari g'
3. Duradgorlik dastgoxining to'zishi va undan foydalanish qoidalari nimalardan iboratg'

O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo'yicha 10 ta test to'zib kelish.

b) Darsni tugatish.

**14- Amaliy
mashg'ulot**

EGOV TURLARI VA ULARNING VAZIFALARI

mavzusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Egov turlari va ularning vazifalari o'rgatish.

Tarbiyaviy: Egov turlari va ularning vazifalari xillarini o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Egov turlari va ularning vazifalari inobatga olgan holda buyum tayyorlashni o'rgatish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko'rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog'lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o'quv ustaxonalarida kasb ta'limi amaliyoti, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya ishi yo'riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.

2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Darsni duradgorlik o'quv ustaxonasida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Darsni boshlashdan oldin egov turlari va ularning vazifalari qaealarda ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish. Egovlarni turlarini ularning vazifalarini aytish va ularni qayerlarda ishlatish, mashq qildirishga o'tishda egovlardan ko'zlangan maqsadni tushuntirish, o'quvchilarga o'quv ustaxonalarida ishlatiladigan egovlarning turlari, to'zish, vazifasi, ularni ishga sozlash va egovlash vaqtida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiena qoidalari haqida qisqacha tushuncha berib, so'ngra randalashni mashq qildirish haqida ma'lumotlarni berish lozim.

Darsni o'quvchilarning fikrlash, konstruktorlik qobiliyatlarini o'stirish, mehnat madaniyatlarini shakllantirish, ishni mustaqil ravishda bajarib keta olishlarini ta'minlash maqsadida keyinchalik ishlarni texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish kerak. SHuning uchun o'quvchilarga texnologik karta asosida bajarishni o'rgatish lozim. O'quvchilarga egovlarning turlarini va vazifalarini texnologik karta asosida o'rgatishda egovlash tartibi va usullari batartib tushuntiriladi va imkoniyat darajasida amalda ko'rsatish kerak. Misool uchun egovlarning turlari asosida tayyorlanadigan materiallarni ko'rsatish mumkin. Egovlarning turlari

ularni vazifalari ishlatish usullari egovlarni ishlatayotganda ushlab ko'rsatib o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari darsni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar «Aqliy xujum», «Bumerang» metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.


Mavzu: Egov turlari va ularning vazifalari mavzusini o'qitish metodikasi.

REJA:

1. Egov va ularning turlari.
2. Egovlarning vazifalari ular qayerlarda ishlatiladi.

1 - rasm. Egov va ularning turlari.

Egovlar ham kesuvchi asboblardan hisoblanadi. Ular o'lchami va profili har xil bo'lgan hamda ish yuzasiga tishlar o'yilgan polosa, brusok yoki chiviqdan iboratdir. Egovlar profiliga, tishlarining shakliga va qanday joylashganligiga hamda o'lchamlariga qarab xilma-xil bo'ladi. Egovlar yassi, kvadrat, uch qirrali,



1-rasm. SHaberlar.

yarim yumaloq, yumaloq va maxsus egovlarga bo‘linadi. Egovlar U8, U18 markali uglerodli asbobsozlik po‘latidan yoki SHX6, SHX9 va X315 markali xromli po‘latlardan tayyorlanadi (1-rasm).

SHaberlar bir uchida kesuvchi qirrasi bo‘lgan ko‘ndalang ke-simi to‘rt burchaklik yoki burchaklik shaklidagi ensiz po‘lat parchasidan iborat (1-rasm). SHaberlar U12, U12A markali uglerodli asbobsozlik po‘latidan tayyorlanadi, ularning ish qismi 30 mm uzunlikda toblanadi.

Otvoyorkalar kallagida ariqchasi bo‘lgan burama mixlarni burab mahkamlash va burab bo‘shatish uchun ishlatiladi.

Gayka kalitlari oddiy va ochiladigan bo‘ladi hamda gayka boltlarni burab bo‘shatish uchun ishlatiladi. Kalitni gaykaga kiygizganda ular o‘rtasida 0,1-0,3 mm oraliq qolishi lozim.

Abraziv brusok (qayroq)lar kesuvchi asboblarni hayrash uchun ishlatiladi.

4. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Egovlarning turlarini aytib beringg‘
2. Egovlarning vazifalari nimalardan iborat.

O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo'yicha 10 ta test to'zib kelish.

b) Darsni tugatish.

15- Amaliy mashg'ulot

Metalga ishlov beradigan asbob-uskunalarining to'zilishi va vazifasi mazusini o'qitish metodikasi.

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: Metalga ishlov beradigan asbob-uskunalarining to'zilishi va vazifasini o'rgatish.

Tarbiyaviy: Asbob-uskunalaridan to'g'ri, extiyotkorlik bilan foydalanishni o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Metalga ishlov beradigan asbob-uskunalarining to'zilishi va vazifasi qahidagi bilimlarini shakllantirish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko'rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog'lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o'quv ustaxonalarida kasb ta'limi amaliyoti, metallarga ishlov berish, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, metallarga kesib ishlov berish asboblari, kechkichlar, egovlar, metall namunalari, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya ishi yo'riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnoma. Toshkent-2002.
7. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.
8. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblari va stanoklar. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004.

Mashg'ulot yuzasidan metodik tavsiyalar

Darslardagi asosiy vazifalar metalga ishlov beradigan asbob-uskunalarining to'zilishi va vazifasi haqida ma'lumotlar, texnika xavfsizligi qoidalarini, asbob - uskunalaridan to'g'ri foydalanishni va ish o'rinlarini yig'ishtirishni o'rganishdan iborat.

Agar o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilsa, o'quvchilarni o'z vaqtida nazorat qilib tursa, ularning mavzu yuzasidan berilayotgan ma'lumotlarni yaxshi qabul qiladi.

Odatda ko'pchilik o'quvchilar ular haqida muayyan malumotlarga ega bo'lish bilan birga ayrim o'quvchilar ularni xayotda ko'rgan va qisqacha tasurotga egadirlar. SHuning uchun mavzuni turmushdagi ahamiyati va kerakligi haqidagi umumiy suhbat tarzda boshlash kerak. O'quvchilar o'zlari bilganlaricha

metallarga ishlov beradigan asbob - uskunalar turlari, ularning to‘zilishi va vazifasi haqida ma’lumotlarni bayon qilishadi. O‘quvchilarning bilish darajasini aniqlagandan so‘ng mavzuni suhbat tarzda boshlash va namunadan foydalangan holda kerakli asbob - uskunalarni ko‘rsatib tushuntirish olib borish maqsadga muvofiqdir. O‘quv laboratoriya xonalaridagina foydalaniladigan metallarga ishlov beruvchi asbob - uskunalar bilan cheklanib qolmasdan boshqa turdagi metallarga ishlov beruvchi asbob - uskunalar haqida ham umumiy malumotlarni bayon qilib o‘tishimiz kerak. Olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilarga metallarga ishlov beruvchi asbob - uskunalar namunalaridan ko‘rgazmali tarzda darsni tashkil etish kerak. O‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish maqsadida darsni YAngi pedagogik texnologiya metodlaridan foydalangan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu mavzuni yoritishda ”Aqliy xujum”, “Veer”, “Munozara” kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilimlarning samarali natijalar berishiga olib keladi.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o‘qituvchi kirib keladi va o‘quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo‘lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O‘tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O‘quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar beriladi.

3. YAngi mavzu yuzasidan yo‘l-yo‘riqlar (45 daqiqa). YAngi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Metalga ishlov beradigan asbob-uskunalarining to‘zilishi va vazifasi mavzusini o‘qitish metodikasi.

REJA:

1. Metallarga ishlov beradigan asbob – uskunalarining to‘zilishi va vazifasi.
2. Metallarga ishlov beradigan asbob – uskunalarining turlari.

Slesarlik o'quv ustaxonasida ishlaganda o'quvchi ish o'rnida doimiy turadigan asboblarni qatorida bolg'a, zubilolar, kreysmeysel, egovlar, shaberlar, otvyorkalar, gayka kalitlari, abraziv qayroqlar turishi kerak.

Slesarlik ishlarida bolg'alarning ko'rsatilgan ikki xili: dumaloq muhrali va kvadrat muhrali turlari ishlatiladi. Bolg'alar U7, U8 markali uglerodli po'latdan yasaladi va ishlatiladigan qismlari toblanadi hamda jilolanadi. Bolg'aning sopi qattiq Yog'ochdan yasaladi. Sopining uzunligi bolg'aning og'irligiga qarab xar xil bo'ladi. Bolg'aning og'irligi 400, 500, 600, 800, gramgacha sopning uzunligi 35, 38, 43 sm gacha bo'ladi. Bolg'ani ishlatganda sopining og'iridan 15-30mm qoldirib o'ng qo'l bilan qisib ushlab kerak.

Zubilo asosan ishlanayotgan detalning sirtidan metallni qirqib olish, teshik va ariqchalar ochish, materiallardagi g'adir-budir va hokazolarni tozalash uchun ishlatiladi. Zubila uch qismdan – ish qismi, o'rta qismi va zarb tushadigan qismdan iborat. Zubilolar U7A markali uglerodli asbobsozlik po'latidan tayyorlanadi. Ish qismi 300mm uzunlikda toblanadi. Zubilolarning o'lchami davlat standarti bilan belgilanadi.

Kreysmeysel zubiloga o'xshash asbobdir lekin nish qismi nayza shaklida bo'lishi hamda kesuvchi qirrasini birmuncha ensizroq bo'lishi bilan zubilodan farq qiladi. Kreysmeysel U7A markali asbobsozlik po'latidan qilinadi va zubilo singari toblanadi.

Egovlar ham kesuvchi asboblardan hisoblanadi. Ular o'lchami va profili har xil bo'lgan hamda ish yuzasiga tishlar o'yilgan polosa, brusok yoki chiviqdan iboratdir. Egovlar profiliga tishlarning shakliga va qanday joylashganligiga hamda o'lchamlariga qarab xilma-xil bo'ladi. Egovlar yassi, kvadrat, uch qirrali, yarim yumaloq, yumaloq va maxsus egovlarga bo'linadi. Egovlar U8, U18 markali uglerodli asbobsozlik po'latidan yoki SHX6, SHX9, XZ15 markali xromli po'latlardan tayyorlanadi.

SHaberlar bir uchida kesuvchi qirrasini bo'lgan ko'ndalang kesimi to'rt burchakli yoki burchaklik shaklidagi ensiz po'lat parchasidan iborat SHaberlar

U12,U12A markali uglerodli asbobsozlik po‘latidan tayyorlanadi, ularning ish qismi 30mm uzunlikda toblanadi.

Otvoyorkalar kallagida ariqchasi bo‘lgan burama mixlarni burab maxkamlash va burab bo‘shatish uchun ishlatiladi. Gayka kalitlari oddiy ochiladigan bo‘ladi hamda gayka boltlarni burab bo‘shatish uchun ishlatiladi. Kalitni gaykaga kirgizganda ular o‘rtasida 0,1-0,3 mm oraliq qolishi lozim.

4. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Metallarga ishlov beradigan asbob – uskunalarning to‘zilishi va vazifasi haqida tushuncha beringg‘
2. Metallarga ishlov beradigan asbob – uskunalarning turlariga nimalar kiradig‘
3. Metallarga ishlov beradigan asbob – uskunalarning qayerlarda ishlatiladig‘
4. O‘quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so‘raladi, javoblar umumlashtiriladi.
5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O‘tilgan mavzu yuzasidan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo‘yicha 10 ta test to‘zib kelish.

b) Darsni tugatish.

16-Amaliy mashg‘ulot

Metalga ishlov berishda qo‘llaniladigan stanoklar, Ularning turlari va tavsifi mavzusini o‘qitish metodikasi.

Mashg‘ulot vaqti-2s

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy: Metalga ishlov beradigan stanoklarning turlari va bajaradigan ishlari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: Stanoklardan extiyotkorlik bilan foydalanishni o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: Metalga ishlov beradigan stanoklarning to‘zilishi va vazifasi qahidagi bilimlarini shakllantirish.

Dars tipi: ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Dars turi: laboratoriya

Dars metodi: Amaliy, ko‘rgazmali, aqliy xujum.

Fanlararo bog‘lanish: fizika, ximiya, chizmachilik, o‘quv ustaxonalarida kasb ta’limi amaliyoti, metallarga ishlov berish, inson xayot faoliyati xavfsizligi, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya va axbotor texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko‘rgazmali qurollar: ko‘rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: texnika xavfsizligiga oid stendlar, texnika xavfsizligi burchagi namunasi, metallarga kesib ishlov berish asboblari, kechkichlar, egovlar, metall namunalari, mavzuga oid adabiyotlar, dars o‘tishga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, laboratoriya ishi yo‘riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta’limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta’limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo‘riqnoma. Toshkent-2002.
7. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan o‘quv mashg‘ulotlari. Uslubiy qo‘llanma. 2002.

8. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblari va stanoklar. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004.

Mavzuni bayon qilish yuzasidan metodik tavsiyanoma.

Darslardagi asosiy vazifalar metallarga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklarning turlari va tavsifi ularni boshqarish va o'rganishdan iboratdir.

O'quvchilar metallga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklarni ishlatilishi ular to'g'risida bilgan ma'lumotlarini qaysi stanoklarni bilishini shu stanoklarni ishlatish to'g'risida mavzuda bayon etsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklari turlarini bayon etishdan tashqari, metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklarida bajariladigan ishlar bilan tanishish, misol tariqasida bir stanokni mahsulot tayyorlash usullari, u mahsulotdan foydalanish ishlarini o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Odatda ko'pchilik o'quvchilar ular haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish bilan birga ayrim o'quvchilar engil ta'mirlash ishlarini ham bajara oladilar.

SHuning uchun mavzuning turmushga ahamiyati metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklari to'zilishi haqidagi umumiy suhbat tarzda baholash kerak.

O'quvchi o'zlari bilganlaricha metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklari to'zilishi, turlari va vazifalari ularning bo'zish sabablari, ishlatish tartib qoidalari, texnika xavfsizligi chora tadbirlarini yoddan chiqarmasligi lozimligi qayd etish lozimdir.

O'quvchilar olingan bilimlarini mustahkamlash maqsadida laboratoriya xonalaridagina foydalaniladigan metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklar bilan cheklanib qolmasdan balki ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga ko'rgazmali tarzda darsni tashkil etish kerak. O'quvchilarning qiziqishlarini oshirish maqsadida darslarni yangi pedagogik va informatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'tish lozim. Bundan tashqari xar xil gazeta va jurnallardagi yangiliklardan foydalangan holda mavzuni yoritish tavsiya qilinadi.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism. (5 daqiqa).

Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash (10 daqiqa).

O'quvchilar javoblari umumlashtirilib va yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar beriladi.

3. YAngi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar (45 daqiqa). YAngi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklar, ularning turlari va tavsifi mavzusini o'qitish metodikasi.

REJA:

1. Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklar, ularning turlari.
2. Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklar, ularning tavsifi.

Maktablardagi texnik mehnat talimi darslarida o'quvchilarga metallarga mexanik ishlov berishni o'rgatish bir tomondan juda zarur. Umumtalim texnika maktablarida o'quvchilar va ishlab chiqarishda talim olayotgan yosh avlod metall materiallarni mexanik ishlash stanogini boshqarish, tokarlik, frezerlash, parmalash kabi jarayonlarni bajarish usullarini, ish o'rnini tashkil qilish, xafsizlik texnikasi hoidalarini tezroq o'zlashtirib olib ularni hayotga tatbiq etishlari kerak.

Tokarlik, frezerlash, parmalash kabi stanoklarni boshqarish, ularni remont qilish, kesish asboblarni o'tkirlash, keskich burchaklarini to'g'ri tanlash, yangi konstruksiyadagi TSHV-6, 16k20 modeli tokarlik-vint qirqish, 6r82, 6r82g, 6r83 konsolli-frezalash, parmalash stanoklari hozirda maktab ustaxonalrida mavjud.

Metallarni mexanik usulda ishlash stanoklaridan yana biri metallarni randalash stanogi hisoblanadi. Bu turdagi stanoklar ularni ishlatilishi va konstruksiyalariga qarab, metallarni bo'ylama va ko'ndalang randalashga mo'ljallanadi. Bu turdagi stanoklar konstruksiyalari jixatdan bir-biridan farq qiladi.

Stanoklar turi uchta yoki to'rtta raqam bilan belgilanadi. Birinchi raqam – stanokni gruppasini, ikkinchi raqam – tipini, oxirgi raqam – bitta yoki ikkita stanokning xarakterlovchi o'lchamlaridan birini bildiradi.

Birinchi raqamdan keyingi harf stanokning takomillashganligini, barcha raqamlardan keyingi harf esa bazaviy modelning modifikatsiyasini ko'rsatadi.

4. Yangi o'quv materialini mustahkamlash va o'quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklarning turlari va ularning qaysilarini bilasizg'
2. Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklar va ularning tavsifi haqida tushincha beringg'
3. Metalga ishlov berishda qo'llaniladigan stanoklar hozirgi paytda qaysilarini maktablarda ishlatiladig'

O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (10 daqiqa).

a) Uyga vazifa berish;

O'tilgan mavzu yuzasidan qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib mavzuni mustahkamlab tayyorlanib, mavzu bo'yicha 10 ta test to'zib kelish.

b) Darsni tugatish.

**17-Amaliy
mashg'ulot**

TOKARLIK VINT QIRQISH STANOGINING TURLARI TAVSIFI UMUMIY TO'ZILISHI MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

Mashg'ulot vaqti-2s

Dars maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tokarlik vint-qirqish stanogi to'zilishi haqida ma'lumotlar, umumiy tushunchalar berish;

Tarbiyaviy: ushbu mavzuning texnik xavfsizlik qoidalari, mavzuga doir e'tibor berilishi zarur bo'lgan tarbiyaviy xususiyatlar bilan tanishtirish;

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish, fikrlashga, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Dars tipi: ko'nikma va malakalarni shakllantirish

Dars turi: laboratoriya

Dars metodlari: amaliy, ko'rgazmali, savol-javob.

Fanlararo bog'lanish: mashinasozlik yo'nalishidagi mutaxassislik fanlar, materiallarga ishlov berish, asboblari va dastgohlar, o'quv ustaxonalarida kasb ta'lim amaliyoti, konstruksion materiallar texnologiyasi, fizika, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya, axborot texnologiyalari.

Moddiy-texnik jihatdan jihozlash va ko'rgazmali qurollar: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: 1K62 metall qirqish stanogi tushirilgan plakat, metallarga kesib ishlov berish asboblari, kechkichlar, egovlar, metall namunalari, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya ishi yo'riqnomalari.

Mavzu yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Avazboeva O.I., Isyanov R.G., Odilboev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti talabalari uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1995.
4. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2002.
5. SHaripov SH.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.
6. SHaripov SH.S., Jalilov T. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnoma. Toshkent-2002.

7. Boltaboev S.A., Magdiev O.SH., Sattorov V.N., Avazboev O.I. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan o'quv mashg'ulotlari. Uslubiy qo'llanma. 2002.

8. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblari va stanoklar. O'quv qo'llanma. Toshkent-2004.

Mavzuni bayon qilish yuzasidan metodik tavsiyanoma.

Stanoklarning tokarlik-vint qirqish stanogi turi haqida ma'lumotlar berish uchun avvalo o'qituvchining o'zi etarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi lozim. Mavzuni o'qitishni o'qituvchi ustaxonada tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki stanokning to'zilishini tushuntirib berish uchun stanokning o'zi ko'rgazma sifatida qo'llanilsa, o'quvchilar ongiga chuqurroq etib borishga zamin yaratadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchilarga plakatlar yordamida, tokarlik vint-qirqish stanogi detallarini alohida-alohida ko'rsatib o'tsa tushunarliroq bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchi darsda pedagogik texnologiya elementlaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darsning borishi

1. **Tashkiliy qism** (5 daqiqa). Darsga o'qituvchi kirib keladi va o'quvchilar bilan salomlashib, navbatchini aniqlaydi, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, davomatni aniqlaydi.

2. **O'tgan dars mavzusi va yangi mavzu uchun zaruriy materiallarni takrorlash** (10 daqiqa).

3. **Yangi mavzu yuzasidan yo'l-yo'riqlar** (45 daqiqa).

Yangi mavzuni tushuntirish uchun reja beriladi va rejaga asosan tushuntiriladi.

Mavzu: Tokarlik Vint qirqish stanogining turlari tavsifi umumiy to'zilishi mavzusini o'qitish metodikasi.

REJA:

1. 1K62 modeli tokarlik vint qirqish stanogining umumiy to'zilishi.

2. 1K62 stanogining texnik xarakteristikasi.

3. 1K62 stanogining asosiy uzellari.

1. 1K62 modeli tokarlik vint qirqish stanogining umumiy to'zilishi.

1-rasmda 1K62 modeli tokarlik vint qirqish stanogining asosiy uzellari va boshqarish organlari: stanina va uning tumbalari, oldingi va orqa babkasi, surishlar qutisi, keskich tutqichli support, supportni harakatga keltirish mexanizmi joylashgan fartuk va stanokni boshqarish elementlari tasvirlangan.


Stanina va uning tumbalari (21) stanokning barcha uzellarini o'rnatish va mahkamlash uchun baza vazifasini o'taydi. Stanina yuqori sifatli cho'yandan quyiladi. Stanok ishining sifati staninaning bikrligi va eyilishiga chidamliligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Staninaning yuqorigi yuzasida gorizontall joylashgan vurtta yo'naltiruvchi (a) bor. Oldingi prizmatik va orqa shassi yo'naltiruvchilarda support karetkasi (b), ichki yo'naltiruvchilarda esa orqa babka (15) harakatlanadi. Stanina yuqorigi qismi konstruksiyasining bunday bo'lishiga sabab shuki, support karetkasi ostidagi yo'naltirgichlar supportning tez-tez surilib turishi natijasida tezroq eyiladi, orqa babka ostidagi yo'naltirgichlar esa deyarli eyilmaydi, bu hol oldingi va orqa babkalar uchlarining bir-biriga to'g'ri kelib turishini ta'minlaydi.

Oldingi babka (2) staninadan qo'zg'almaydigan qilib mahkamlangan, unda shpindel (v) ga har xil aylanish sonlari (tezliklar) beradigan yuritma bor. SHpindel ichi xovol vali bo'lib, uning oldingi uchida markazning quyrug'i, kesuvchi asbob yoki oraliq vtulka o'rnatiladigan konus bor. SHpindelning oldingi sirtiga patron yoki planshayba burash uchun rezba ham qirqilgan. Agar zagotovka chivikdan iborat bo'lsa, u chivish shpindel ichidagi teshikdan o'tkaziladi va patronga mahkamlanadi; qisqa zagotovkalar patronga mahkamlanib yoki markazlarda siqilib yo'niladi.

Orqa babka (15) staninaning o'ng tomoniga o'rnatilgan bo'lib, markazlar orasiga siqib yo'niladigan zagotovkalarni tutib turish uchun xizmat qiladi, undan zagotovka teshik parmalashda yoki zagotovkadagi teshikka ishlov berishda kesuvchi asbobni (parma, zenker, razvyortka) o'rnatish va mahkamlash uchun foydalansa ham bo'ladi. Markaz va kesuvchi asboblar orqa babkaning penoli(g) ga o'rnatilgan. Kesib ishlanadigan detal uzunligining ortishi bilan orqa babka staninaning yo'naltiruvchilari bo'ylab siljirilishi va oldingi babkadan tegishli

oraliqda mahkam qo'yilishi mumkin. Orqa babka korpusi (d)ni plita (e)ga nisbatan ko'ndalangiga siljitish hisobiga konus yuzalarini yo'nish mumkin.

Surishlar qutisi (23) surish qiymatini rostdash uchun xizmat qiladi va shpindel (v)dan surishlar mexanizmi orqali surish vali (j) yoki surish vinti (z) ga harakat uzatadi, surish vali yoki surish vinti esa support mexanizmlarini harakatga keltiradi.



1-rasm. 1K62 modeli tokarlik vint qirqish stanogining umumiy ko'rinishi va asosiy uzellari

1 — almashtiriluvchi shesternyalar gitarasi; 2 — oddingi babka, tezliklar qutisi bilan; 3 va 6 — shpindel aylanishlar sonini o'zgargarish dastalari; 4 — qadamni oshirish zvenosining dastasi; 5 — trenzel dastasi; 7 -supportni bo'ylama yo'nalishda qo'lda surish maxovigi; 8 — polzun, fartuk reykali shesternyasini ulash va ajratish tugmachasi bilan; 9 — supportni ko'ndalang yo'nalishda qo'lda surish dastasi; 10 — support, keskich tutg'ichi bilan; 11 — boshqarish knopkalari; 12 — yuqoriga supportni qo'l bilan surish dastasi; 13 — supportni tez surish knopkasi; 14 — supportni surish mexanizmini ulash dastasi; 15 — orqa babka; 16 — elektr jig'ozlari joylashgan shkaf; 17 — supportni tez surish yuritmasi; 18 va 22-shpindelni to'xtatish reversining dastasi; 19 — asosiy gaykali ulash dastasi; 20 — fartuk, supportai harakatga kelgirish mexanizmlari bilan; 21—stanina, tumbalari bilan; 23 — surishlar qutisi; 24 — surish qiymatini o'zgartirish dastasi; 25 — ishlar turi dastasi.

Keskich tutgichli support (10) keskich tutqich (i) ga o'rnatilgan va mahkamlangan keskichga markazlar o'qiga nisbatan olganda bo'ylama, ko'ndalang yo'nalishlarda, konus sirtlar yo'nishida esa ma'lum burchak ostida surish harakati uzatish uchun xizmat qiladi. Korrektor stanina yo'naltiruvchilarida bo'ylama yo'nalishda qo'l bilan ham, mexanik usulda ham surilishi mumkin. Karetkaning yo'naltiruvchilarida ko'ndalang yo'nalishda salaskalar (k) yo'l bilan yoki mexanik usulda suriladi. Supportni keskich tutg'ich bilan birgalikda ikkala tomonga ham 45° burish mumkin. Keskich tutqichli yuqorigi salastkalar (l) faqat qo'l bilan surilishi mumkin.

Fartuk support (20) koretkasi bilan qimirlamaydigan qilib mahkamlangan. Fartukda supportni surish mexanizmi joylashgan, bu mexanizm bilan surish valini (j) aylantiradi. Surish validan bo'ylama va ko'ndalang yo'nishda, shuningdek, spirallar qirqishda foydalaniladi. Bo'ylama yo'nalishda ham surish vinti (z)dan harakatga keltiriladi, supportning bu harakatidan, ko'pincha, rezba qirqish uchun foydalaniladi. Binobarin, surish vali hamda surish vintining aylanma harakati fartuk mexanizmlari yordamida supportning ilgarilanma surilish harakatiga aylantiradi.

2. 1K62 stanogining texnik xarakteristikasi.


| | |
|---|-----------------|
| Stanokda ishlov berish mumkin bo'lgan zagotovkaning eng katga diametri, mm. | 400 |
| Kesib ishlanadigan chiviqning eng katga diametri, mm | 36 |
| Markazlar orasidagi zagotovka o'rnatash mumkin bo'lgan eng katga masofa, mm | 640, 930, 133 |
| Markazlar orasidagi masofa, mm | 700, 1000, 1400 |
| SHpindelteshigining diametri, mm | 38 |
| SHpindelteshigidagi konuslik | Morze № 5 |
| SHpindelning minimal va maksimal aylanish soni, 2,5-2000 Ayl/min | |
| SHpindel tezliklari soni | 23 |
| Supportning surilish chegarasi, mm/ayl hisobida, bo'ylama | 0,07-4,16 |

| | |
|--|------------|
| ko‘ndalang | 0,025-2,08 |
| qirqish mumkin bo‘lgan rezbalar qadami, mm normal | 1-12 |
| katgalashtirilgan | 14-192 |
| dyuymli | 24-2 |
| modulli | 0,5-48 |
| ptachli (ptich hisobida) | 6—19 |
| Supportning bo‘ylama yo‘nalishda siljitish tezligi, mm/min | 3,5 |
| Elektrodrigatelning quvvati, kVt | 10 |


Bu markali stanogining asosiy qismlari quyidagilardan iboratdir: stanina, tumbalar, oldingi va orqa babkalar, surish qutisi, tezliklar qutisi, stanok supporti, fartugi.

3. 1K62 stanogining asosiy uzellari.

STANINA (2-rasm)-tokarlik stanogining hamma uzal va mexanizmlarini o‘rnatish uchun xizmat qiladi. Stanina ikkita bo‘ylama devor 1 va 5 dan iborat bo‘lib, yuqori bikrlilik ta‘minlash uchun qobirg‘a 3 bilan bog‘langan bo‘ladi. Stanina cho‘yanda monolit qilib quyilib, uning asosiy qismini yo‘naltiruvchilari 2 va 4 tashkil etadi. Staninaning yo‘naltiruvchilari bo‘ylab stanok karetsi va orqa babka harakatlanadi. Staninaning yo‘naltiruvchilari o‘zaro sharallel va to‘g‘ri chiziqli bo‘lib, xomaki ishlov berilgandan keyin jilvirlanadi va shaberlanadi.



2-rasm. 1K62markali stanok staninasi.



3-rasm. 1K62 stanogining orqa - babkasining umumiy ko‘rinishi


OLDINGI BABKA-staninaning chap tomoniga mustahkam o‘rnatilib, uning korpusiga tezliklar qutisi joylaniladi. Korpusning oldingi tomoniga tezliklar qutisining boshqarish organlari joylaniladi. Oldingi babka ishlov berilishi kerak detalni o‘rnatish va unga aylanma harakat berish uchun xizmat qiladi. Ishlanilayotgan detal, shpindelga borib kiritilgan patronaga mahkamlanadi. Oldingi babkaning asosiy qismi shpindeldan iborat bo‘lib, uning ichi qovak qilib tayyorlaniladi. Bu esa shpindel ichidan o‘tkazilgan chiviqli materiallarni ishlash imkoniyatini beradi.

ORQA BABKA (3-rasm.) — staninaning o‘ng tomoniga o‘rnatilib ishlov berilayotgan zagotovkani markazlar yordamida tutib turish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari konus yuzlarni ishlashga moslash uchun uni ma’lum chegarada ko‘ndalang yo‘nalishda siljitish mumkin.

SURISH QUTISI — surish kattaligini sozlash va harakatni shpineddan yuritish vinti yoki yuritish valiga etkazib berish uchun xizmat qiladi.

SUPPORT (4- rasm.) — keskichni keskich tutqichiga o‘rnatish va uni bo‘ylama, ko‘ndalang yoki burchak traektoriyada harakatlantirish maqsadida ishlatiladi. Keskichning bo‘ylama harakatdan silindrsimon yuzalarni, ko‘ndalang harakati — kesib tushirish, torets yuzalarni ishlashda va burchakiy harakatidan esa konus yuzalarni yo‘nishda qo‘llaniladi. Bo‘ylama harakat pastki bo‘ylama salazkani (1) stanina (2) yo‘naltiruvchi bo‘yicha surilishi tufayli amalga oshiriladi. Supportning

pastki yoʻnaltiruvchilari koʻndalang salazkani (3) zagotovkaning aylanish oʻqiga tik harakatlanishini taʼminlaydi.




4-rasm. 1K62stanoginingsupporti

Bu harakat vint 3 va maxovik 5 orqali (qoʻl bilan) yoki harakatni yoʻnaltirish vintidan fartuk tishli uzatmalari va tishli gʻildirak 4 ishtirokida avtomatik ravishda amalga oshirilishi mumkin. Koʻndalang salazkaning (2) ustki qismiga vertikal oʻq atrofida burash orqali kerakli burchakka sozlash mumkin boʻlgan aylanuvchi plita (10) joylashtirilgan. Bu plitaning ustki qismiga yuqorigi salazkalarining (9) yoʻnaltiruvchilari oʻrnatilib unga keskich tutqichi mahkamlaniladi. Yuqorigi salazka vint (7) orqali oʻrnatilgan maxovik (6) yordamida qoʻl bilan suriladi.

FARTUK — stanokning bu qismi yurgizish valining yoki yurgizish vintining aylanma harakatini supportning toʻgʻri chiziqli harakatiga aylantiruvchi mexanizmi joylashtirish uchun xizmat qiladi. Fartukning old qismiga support harakatini boshqarish maxovikchalari va dastalari oʻrnatilgan. Shesternyalar orqali shesternya (14) ga uzatiladi. Agar dasta (15) vositasida shesternya (16) tishli gʻildiraklar (14) va (17) bilan tishlashtirilsa, shesternya (16) koʻndalang salazkalarining vinti (19) ga qoʻzgʻalmas qilib oʻtkazilgani uchun salazkalarni ilgariylanma harakatga keltiradi.

Salazkarni dastaki ravishda ko'ndalangiga surish dasta (19) vositasida, bo'ylama surish esa dasta (20) vositasvda (21, 7, 8) shesternyalar va reyka (9) orqali amalga oshiriladi.

YUrgizish vintidan bo'ylama surish harakati fartukda o'ng tomonga joylashgan ajraluvchi gayka qulflash yo'li bilan uzatiladi.




5- rasm. (a) Oddiy fartuk mexanizmi

Ajraluvchi gayka pallalari fartuk chizqig'idagi kapdum shaklli pazda sirpana oladi. Gayka pallalaridan har birining tarmog'i diskning spiral kesigiga kirib turadi, disk burilganda esa pallalar bir-biriga yaqinlashadi yoki bir-biridan qochadi. Disk dasta vositasida buriladi. Gayka odatda bronza (BrOTSS 6-6-3)dan yoki ruxning SAM 9-1,5 markali qotishmasidan tayyorlanadi.

YURGIZISH (SURISH) VINTI - yurgizish vintidan, odatda, supportni bir tekisda va yuqori aniqlikda surish zarur bo'lgan hollarda, masalan, rezba qirqishda foydalaniladi. YUrgizish vintlari kam eyiluvchan va juda aniq qadamining nominal o'lchamidan farqi ± 12 mikron atrofida bo'lishi kerak. YUrgizish vintlari tayyorlash texnologiyasi murakkab bo'lib, ko'p mehnat talab etadi va tozalab ishlash oldidan takror to'g'rilashni (masalan, 1K62 stanogining yurgizish vinti 6 marta to'g'rilanadi), rezba qirqishni o'z ichiga oladi; rezba bir necha amalda qirqiladi, bunda ishlov berish jarayonida qizish oqibatida kelib chiqadigan xatoliklarni tuzatuvchi korreksion qurilmalardan foydalaniladi. YUrgizish vintlari

o‘z og‘irligi ta‘sirida egilmasligi uchun ularni maxsus stellajlarda tik vaziyatda osilgan holda saqlash tavsiya etiladi.

Yurgazish vinti yoki reyka shesternya tasodifiy zo‘riqish vaqtida ishdan chiqishining oldini olish uchun yurgizish vinti va yurgazish valining chap uchlariga maxsus saqlagich qurilmalar o‘rnatiladi.



5-rasm. (b) Maxsus saqlagich qurilmasi.

5-b rasmda keng tarqalgan ana shunday qurilma tasvirlangan. Surishlar qutisidan keladigan val A harfi bilan, yurgizish vinti (yoki yurgizish vali)ning uchi B harfi bilan belgilangan. O‘rta zo‘riqish vaqtida V shtrif qirqiladi va B val to‘xtaydi (V shtrift, odatda, misdan qilinadi).

Elektr dvigatelidan aylanma harakat shpindelga oldingi babka ichida joylashgan tezliklar qutisi orqali, yurgizish valm va yurgizish vintiga surishlar qutisi orqali uzatiladi; harakat tezliklar qutisidan shpindelga tasma orqali uzatiladi. SHkiv shpindel bilan faqat shponka orqali bog‘langan, shkivning o‘zi esa oldingi babka devoriga o‘rnatilgan podshipniyutarda aylanadi, bunda tasmaning taranglanishi shpindelni deformatsiyalamaydi. SHuning uchun ham bu shpindel yuklanmagan shpindel deyiladi. Bundan tashqari, tasmali uzatma yuqori tezliklarda shesternyali uzatmalarga qaraganda shovqinsiz va bir tekis ishlaydi.

4. YAngi o‘quv materialini mustahkamlash va o‘quvchilar bilimini baholash. (10 daqiqa).

Savollar:

1. 1K62 stanogining umumiy ko‘rinishini tushuntirib beringg‘
2. 1K62 stanogining asosiy uzellarini sanab beringg‘

3. 1K62 stanogining texnik xarakteristikasini qisqacha tushuntirib bering.

O'quvchilarga yuqoridagi savollar beriladi va savollar berishlari so'raladi, javoblar umumlashtiriladi.

5. Darsni yakunlash (*10 daqiqa*).

a) Uyga vazifa berish;

1K62 stanogining umumiy ko'rinishini plakatga chizib kelish va konspektni o'qish.

b) Ish o'rnini yig'ishtirish

1-seminar. Texnologiya ta'limi masalalarida O'rta Osiyo ziyolilarining pedagogik qarashlari mavzusidagi seminar mashg'uloti ta'lim texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| <i>Talabalar soni: __</i> | <i>Vaqt: 2 soat</i> |
| <i>Mashg'ulot Shakli</i> | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'uloti. |
| <i>Mashg'ulot rejası</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. IX-X asrlarda yashab o'tgan mutaffakir olimlarimizdan Al Xorazmiy, Al Farobiylarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari. 2. Mehnat tarbiyasi haqida Ibn Sinoning fikrlari. 3. Munavvar qori Abdurashidxonlar, Oqilxon Sharofiddinov va Abdulla Avloniylarning asarlarida mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlari |
| <i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Mavzu boyicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash. | |
| <i>Pedagogik vazifalar</i> | <i>O'quv faoliyati natijalari.</i> |
| <ul style="list-style-type: none"> · IX-X asrlarda yashab o'tgan mutaffakir olimlarimizdan Al Xorazmiy, Al Farobiylarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari boyicha ma'lumot berish; · Mehnat tarbiyasi haqida Ibn Sinoning fikrlariga tavsif berishni tushuntiradi; · Munavvar qori Abdurashidxonlar, Oqilxon Sharofiddinov va Abdulla Avloniylarning asarlarida mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlarini shakllantirish jarayonini tashkil etadi; | <ul style="list-style-type: none"> · IX-X asrlarda yashab o'tgan mutaffakir olimlarimizdan Al Xorazmiy, Al Farobiylarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarilar haqida bilim, ko'nikmalarga ega bo'ladi; · Mehnat tarbiyasi haqida Ibn Sinoning fikrlariga tavsif beradi; · Munavvar qori Abdurashidxonlar, Oqilxon Sharofiddinov va Abdulla Avloniylarning asarlarida mehnat tarbiyasi haqida o'z fikrini ayta oladi; |
| <i>O'qitish usullari va texnika</i> | Topshiriqlar, seminar ishlash usuli, Bahs-munozara, «Nima uchun» texnikasi, «Muammoli vaziyat». |

| | |
|--------------------------------|---|
| <i>O'qitish vositalari</i> | Tarqatma material, kompyuterlar, doska. |
| <i>O'qitish Shakllari</i> | Individual, guruh. |
| <i>O'qitish Shart-Sharoiti</i> | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

Seminar mashg'ulotning texnologik kartasi

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyatning mazmuni</i> | |
|--|--|---|
| | <i>o'qituvchi</i> | <i>talaba</i> |
| I-bosqich. Mavzuga kirish. (15 minut) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni "Kichik guruhlarda ishlash" orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (1-ilova). | Mavzu nomini yozib oladilar |
| | 1.2. "Nima uchun" texnikasini guruhlariga tarqatadi, undan foydalangan holda talabalarga "Nima uchun Munavvar qori Abdurashidxonovlar, Oqilxon Sharofiddinov va Abdulla Avloniylarning o'z asarlarida mehnat tarbiyasi haqida to'xtalgan?" deb savol bilan murojaat qiladi. (2-ilova). Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi. | O'z fikrlarini erkin bildiradilar? "Nima uchun" texnikasini guruhlarda to'ldiradilar. |
| | 1.3. Talabalarni fikrlarini umumlash-tirib ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. | Topshiriqlar bilan tanishadilar |
| | 1.4. Talabalarni mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova). | Talabalar mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadi. |
| II-bosqich. Asosiy (55 minut) | 2.1. Guruhlarga topshiriqni bajarish uchun yordam beradi. Qushimcha ma'lumot-lardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. | Mustaqil ishlaydi. |
| | 2.2. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga chizib, taqdimotni o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, javoblarni | Guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruhdan jamoa sardori taqdimot |

| | | |
|--|---|--|
| | umulashtiradi, xulosalaydi. | o'tkazadi. |
| | 2.3. Guruhlarga «Muammoli vaziyat» uslu-bidan foydalanilgan holda: “Al Xorazmiy, Al Farobiy va Abu Ali Ibn Sinolar mehnat tarbiyasi haqida qanday fikrlar bildirgan?” deb savol bilan murojaat qiladi. (4-ilova). | O'z fikrlarini bildiradilar va Muammoli vaziyatni echimini topadilar |
| | 2.4. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi. Javoblarni tinglab xulosalaydi. | Taqdimot o'tkazadilar. |
| III-bosqich. Yakuniy (10 minut) | 3.1. Mavzu boyicha yakunlovchi xulosalar qiladi.Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. | Savollar beradi va o'z ko'rsatgich natijasi bilan tanishadi |
| | 3.2. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi. Mavzu yuzasidan esse yozib kelish. | Uyga vazifa uchun berilgan topshiriqni yozib oladilar |
| | 3.3.Mavzu boyicha bilimlarini chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi. (4-ilova) | Mavzu boyicha bilimlarini chuqurlashtirish uchun adabiyotlarni yozib oladi |


1-Ilova.

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

| |
|---|
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalar topshiriqni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim. 2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim. 3. Kichik guruh oldiga qoyilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi. 4. Guruxlardagi fikrlar qegaralanmaganligi va taziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur. |
|---|

Ilova.

«Nima uchun» organayzeri



3-Ilova.

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

| Guruh | Savolning to'liq va aniq yoritilishi. 0-5 ball | Misollar muammoga topish. 0-5 ball | bilan echim | Guruh a'zolarining faolligi. 0-5 ball. | Jami ball. |
|-------|---|---------------------------------------|-------------|---|------------|
| | 1 | 2 | | 3 | |
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |

4-Ilova.



5-Ilova.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., Sharq, 1998. - 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim to'g'risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998. - 106 b.
3. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
4. Kasb ta'limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
5. Mehnat ta'limi metodikasi / Magdiev O., Boltaboev S.A., O. Avazboev, V.N. Sattorov. - Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b.

2-seminar. Umumta'lim maktablarida sinf raxbarining ish faoliyatining mazmuni mavzusidagi seminar mashg'uloti ta'lim texnologiyasi modeli

| | |
|--|--|
| <i>Talabalar soni:</i> __ | <i>Vaqt:</i> 2 soat |
| <i>Mashg'ulot Shakli</i> | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'uloti. |
| <i>Mashg'ulot rejasi</i> | 1. Sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ishlar 2. Ota-onalar bilan ishlash. |
| <i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Mavzu boyicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash. | |
| <i>Pedagogik vazifalar</i> | <i>O'quv faoliyati natijalari.</i> |
| <ul style="list-style-type: none">· Sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ishlari rejasi boyicha savol beradi;· Sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ishlarga tavsif berishni tashkil qiladi;· Ota-onalar bilan ishlash | <ul style="list-style-type: none">· Sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ishlarni aytib bera oladi;· Sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ishlarga tavsif beradi; |

| | |
|--|--|
| haqida o'z fikrini bayon etish va shakllantirish jarayonini tashkil etadi; | . Ota-onalar bilan ishlash haqida o'z fikrini aytadi; |
| <i>O'qitish usullari va texnika</i> | Topshiriqlar, seminar ishlash usuli, Bahsmunozara, «Qanday» texnikasi, «Muammoli vaziyat». |
| <i>O'qitish vositalari</i> | Tarqatma material, kompyuterlar, doska. |
| <i>O'qitish Shakllari</i> | Individual, guruh. |
| <i>O'qitish Shart-Sharoiti</i> | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

Seminar mashg'ulotning texnologik kartasi

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyatning mazmuni</i> | |
|--|--|--|
| | <i>o'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| I-bosqich. Mavzuga kirish. (15 minut) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni "Kichik guruhlarda ishlash" orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (1-ilova). | Mavzu nomini yozib oladilar |
| | 1.2. "Qanday" texnikasini guruhlariga tarqatadi, undan foydalangan holda talabalarga "Qanday qilib ota-onalar bilan ishlash mumkin?" deb savol bilan murojaat qiladi. (2-ilova). Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi. | O'z fikrlarini erkin bildiradilar? "Nima uchun" texnikasini guruhlarda to'ldiradilar. |
| | 1.3. Talabalarni fikrlarini umumlash-tirib ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. | Topshiriqlar bilan tanishadilar |
| | 1.4. Talabalarni mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova). | Talabalar mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan |

| | | |
|--|--|---|
| | | tanishadi. |
| II-bosqich. Asosiy (55 minut) | 2.1. Guruhlarga topshiriqni bajarish uchun yordam beradi. Qushimcha ma'lumot-lardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. | Mustaqil ishlaydi. |
| | 2.2. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga chizib, taqdimotni o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, javoblarni umulashtiradi, xulosalaydi. | Guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruhdan jamoa sardori taqdimotni o'tkazadi. |
| | 2.3. Guruhlarga «Muammoli vaziyat» uslu-bidan foydalanilgan holda: “Sinf o'quvchilari bilan olib qanday ishlar olib boriladi?” deb savol bilan murojaat qiladi. (4-ilova). | O'z fikrlarini bildiradilar va Muammoli vaziyatni echimini topadilar |
| | 2.4. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishda yordam beradi. Javoblarni tinglab xulosalaydi. | Taqdimot o'tkazadilar. |
| III-bosqich. Yakuniy (10 minut) | 3.1. Mavzu boyicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. | Savollar beradi va o'z ko'rsatgich natijasi bilan tanishadi |
| | 3.2. Uyga vazifa uchun topshiriq beradi. Mavzuni o'qib o'rganib kelishni aytadi. | Uyga vazifa uchun berilgan topshiriqni yozib oladilar |
| | 3.3. Mavzu boyicha bilimlarini chuqurlashtirish uchun adabiyotlar beradi. (4-ilova) | Mavzu boyicha bilimlarini chuqurlashtirish uchun adabiyotlarni yozib oladi |


1-Ilova.

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar topshiriqni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qoyilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.

4. Guruxlardagi fikrlar qegaralanmaganligi va taziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilimlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda ham muloqatda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

2-ilova



3-Ilova.

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

| Guruh | Savolning to'liq va aniq yoritilishi. 0-5 ball | Misollar bilan muammoga topish. 0-5 ball | bilan echim | Guruh a'zolarining faolligi. 0-5 ball. | Jami ball. |
|-------|---|---|-------------|---|------------|
| | 1 | 2 | | 3 | |
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |

Муаммоли вазият

Sinf o'quvchilari bilan olib
qanday ishlar olib boriladi?

3-seminar. Texnologiya ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tamoyillari mavzusidagi seminar mashg'uloti ta'lim texnologiyasi modeli

| | |
|--|--|
| Ma`ruzaga ajratilgan vaqt – 2 s | Talabalar soni – ... ta |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Anjuman-seminar |
| O'quv mashg'ulotining tuzilishi | 1. Anjuman-seminarga kirish. 2. Anjuman-seminarni amalga oshirish tartibi bilan tanishtirish. 3. Ma`ruzalar bilan tanishish. Ma`ruza yuzasidan muhokamalarni tashkil etish. 5. Anjuman-seminarni yakunlash. |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi | Mehnat hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillarini o'rganish |
| Pedagogik vazifalar: 1) anjuman-seminarning maqsad va vazifasini tushuntirish; 2) anjuman-seminarni amalga oshirish tartibini bayon etish; 3) ma`ruzalarni tinglash jarayonini tashkil etish; 4) ma`ruza yuzasidan muhokamalar jarayonini boshqarish; 5) ma`ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilish. | O'quv faoliyati natijalari: 1) ma`ruzalarni taqdim etishadi va tinglab borishadi; 2) ma`ruzalardagi eng asosiy jihatlarni ajratib olib, o'z daftarlariga qayd etadilar; 3) ma`ruzalar yuzasidan savollar bilan murojaat etishadi; 4) ma`ruza yuzasidan muhokama uchun so'zga chiqadilar; 5) ma`ruzalar yuzasidan umumiy xulosalar qabul qilishda o'z munosabatlarini bildirishadi. |
| Ta'lim metodi | Anjuman-seminar, tushuntirish, suhbat, munozara, "Izohlang" jadvali |
| Ta'limni tashkil etish shakli | Ma`ruza, ommaviy, individual |
| Didaktik vositalar | Ma`ruza matni, slayd-prezentatsiya |
| Ta'limni tashkil etish sharoiti | Maxsus texnik vositalar bilan jixozlangan xona |
| Nazorat | O'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya |

Anjuman-seminarning texnologik kartasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---------------------------------|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| Tayyorgarlik bosqichi | 1. Ma`ruza mavzulari, ma`ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar royxatini beradi (2-ilova). | Ma`ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini |

| | | |
|---|--|---|
| | <p>2. Ma`ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashlashtirishni tashkillashtiradi.</p> <p>3. Ma`ruzachilarga tanlangan mavzu boyicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.</p> <p>4. Barcha talabalarga ma`ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.</p> <p>5. Ma`ruzachilar bilan ma`ruza qilish metodikasi va tuzilishini muhokama qiladi, ma`ruza mazmuniga o'zgartirishlar kiritadi (3-ilova).</p> | <p>tuzadilar.</p> <p>Qolganlari ma`ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma`ruzachilarga savollar tuzadilar.</p> <p>Ma`ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi.</p> |
| <p>1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (20 minut)</p> | <p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma`lum qiladi.</p> <p>1.2. Talabalarni faollashtirish uchun diqqatni jalb etuvchi savollar beradi.</p> <p>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.</p> | <p>Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.</p> <p>Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> |
| <p>2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut)</p> | <p>2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma`ruza va ma`lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunini mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi.</p> <p>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.</p> <p>2.3. Ma`ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi; - savollar beradi; - ma`ruzaning asosiy mohiyatini | <p>Ma`ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma`lumotlarini taqdim etishadi.</p> <p>Taqrizchilar ma`ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Munozarada ishtirok etadilar.</p> <p>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma`ruza mazmunini muhokama qiladilar.</p> |


| | | |
|--|--|--|
| | aniqlashtiradi. 2.4. Har bir ma`ruzaning qisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 minut) | 3.1. Anjuman-seminar jarayonida olingan ma`lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga “Tasniflang” jadvalini to’ldirishni so’raydi. 3.2. O’quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Anjuman-seminar ma`ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | “Tasniflang” jadvalini to’ldirishadi. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

1-ilova

“Izohlang” jadvali

| Izohlang | |
|----------|---|
| 1. | Ta`lim va tarbiya birligi |
| 2. | Ta`limning ilmiyligi |
| 3. | Ta`limda tizimlilik va izchillik |
| 4. | Nazariya va amaliyot birligi |
| 5. | Yosh individual xususiyatlarni hisobga olish |
| 6. | Ta`limning politexnik xususiyatga egaligi |
| 7. | Onglilik va faollik |
| 8. | Ta`limda ko`rsatmalilik |
| 9. | Bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi |

2-ilova




1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. “Sharq” Toshkent., 1998 y. 64 b.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat TDPU. Toshkent., 2003y. 176 b.
3. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi. “O‘qituvchi” Toshkent., 1992 y.320 b.
4. Olimov O.T. va boshqalar Kasb ta’limi uslubiyoti “Iqtisod moliya” Toshkent., 2006 y. 192 b.

3-ilova


2.1. Касб - ҳунар таълими жараёнлари таҳлили ва асосий дидактик тушунчалар.

2.2. Билим, кўникма, малака, касбий маҳорат.

2.3. Касб - ҳунар таълимида умумдидактик тамойиллар: онглилик ва фаоллик, илмийлик ва тизимлилик, назария ва амалиёт бирлиги, таълим - тарбия бирлиги, кўрсатмалилик.



5-ilova



4-seminar. Texnologiya ta'limini o'qitish shakllari

mavzusidagi seminar mashg'uloti ta'lim texnologiyasi modeli

Anjuman-seminar

| | |
|---|--|
| Talabalar soni: __ | Vaqt: 2 soat |
| Mashg'ulot Shakli | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg'uloti. |
| Mashg'ulot rejasi | 1. Dars (amaliy mashg'ulot). 2. O'quv ishlab chiqarish birgadalarini. 3. O'quv sexlari. Malakali ishchilarga biriktirib qoyish |
| Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash. | |
| Pedagogik vazifalar | O'quv faoliyati natijalari. |
| <ul style="list-style-type: none">· Dars (amaliy mashg'ulot)lar bo'yicha ma'lumotlarni so'raydi;· O'quv ishlab chiqarish birgadalariga rejasi bo'yicha tavsif berishini so'raydi;· O'quv sexlari. Malakali ishchilarga biriktirib qoyish haqida o'z fikrlarni bayon etish jarayoni tashkil etadi; | <ul style="list-style-type: none">· Dars (amaliy mashg'ulot)larni aytib bera oladi;· O'quv ishlab chiqarish birgadalariga rejasiga tavsif beradi;· Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning asosiy yo'nalishlari haqida o'z fikrini ayta oladi; |
| O'qitish usullari va texnika | Topshiriqlar, seminar ishlash usuli, Bahsmunozara, «Tasniflang» texnikasi, «Muammoli vaziyat». |
| O'qitish vositalari | Tarqatma material, kompyuterlar, doska. |
| O'qitish Shakllari | Individual, guruh. |
| O'qitish Shart-Sharoiti | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| Monitoring va baholash | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

Seminar mashg'ulotning texnologik kartasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|--|
| | O'qituvchi | Talaba |
| Tayyorgarlik bosqichi | <p>(1) Ma`ruza mavzulari, ma`ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar royxatini beradi (4-ilova).</p> <p>(2) Ma`ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashtirishni tashkillashtiradi.</p> <p>(3) Ma`ruzachilarga tanlangan mavzu boyicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.</p> <p>Barcha talabalarga ma`ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.</p> | <p>Ma`ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma`ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma`ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma`ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi.</p> |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (20 minut) | <p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma`lum qiladi.</p> <p>1.2. Talabalarni faollashtirish uchun diqqatni jalb etuvchi savollar beradi.</p> <p>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (2-3-illovalar).</p> | <p>Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.</p> <p>munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut) | <p>2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma`ruza va ma`lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunini mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi (2-3-illovalar).</p> <p>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.</p> <p>2.3. Ma`ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:</p> | <p>Ma`ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma`lumotlarini taqdim etishadi.</p> <p>Taqrizchilar ma`ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Munozarada ishtirok etadilar.</p> |

| | | |
|--|---|---|
| | <p>- taqrizchilarga o'z fikrlarini bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi;</p> <p>2.4. Har bir ma`ruzaning qisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi.</p> | Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma`ruza mazmunini muhokama qiladilar. |
| <p>3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 minut)</p> | <p>3.1. Anjuman-seminar jarayonida olingan ma`lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga "Tasniflang" jadvalini to'ldirishni so'raydi (1-ilova).</p> <p>3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Anjuman-seminar ma`ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi (2-3-illovalar).</p> | <p>"Tasniflang" jadvalini to'ldirishadi.</p> <p>Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar.</p> |

1-ilova

"Tasniflang" jadvali

| Tasniflang | | |
|------------|--|--|
| 1 | Dars (amaliy mashg`ulot). | |
| 2 | 3. O'quv sexlari. Malakali ishchilarga biriktirib qoyish | |
| 3 | 2. O'quv ishlab chiqarish birgadalari. | |

2-ilova

"Dars (amaliy mashg`ulot)" jadvalini to'ldiring


| | | |
|---------|--------|----------------------|
| Frontal | zveno, | yakka-yakka, aralash |
| | | |

3-ilova

“Mehnat ta`limini tashkiliy shakllari” jadvalini to`ldiring

| Modellarning yo`nalishlari | Modellarni mehnat ta`limini tashkiliy shakllarini ishlab chiqishga yo`naltirilgan jihatlari | Modellarni amalga oshirishni talab etuvchi jihatlari |
|----------------------------|---|--|
| | | |

4-ilova



1. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - TDPU. Toshkent., 2003. - 176 b.
2. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O`qituvchi, 1992. - 320 b.
3. Kasb ta`limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduqodusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
4. SH.S.Sharipov, A.I.Vorobyov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta`lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
5. Tolipov O`Q., M.Barakayev, SH.S. Sharipov Kasbiy pedagogika. - Toshkent.: 2003. - 88b.
6. Yo`ldoshev G`J., S.A. Usmonov Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent., O`qituvchi. 2004. - 104b.

5-seminar. Texnologiya ta`limini o`qitish metodlari

mavzusidagi seminar mashg`uloti ta`lim texnologiyasi modeli

Anjuman-seminar

| | |
|--|---|
| Talabalar soni: __ | Vaqt: 2 soat |
| Mashg`ulot Shakli | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan seminar mashg`uloti. |
| Mashg`ulot rejasi | 1. Mehnat ta`limida og`zaki metodlari. 2. Mehnat ta`limida ko`rgazmalilik metodlari. 3. Mehnat ta`limida amaliy metodlari |
| Mashg`ulotning maqsadi: Mavzu boyicha bilimlarni chuqur o`zlashtirishni ta`minlash. | |
| Pedagogik vazifalar | O`quv faoliyati natijalari. |
| <ul style="list-style-type: none"> · Mehnat ta`limida og`zaki metodlari boyicha ma`lumotlarni so`raydi; · Mehnat ta`limida ko`rgazmalilik metodlariga tavsif berishini so`raydi; · Mehnat ta`limida amaliy metodlari haqida o`z fikrlarni bayon etish jarayoni tashkil etadi; | <ul style="list-style-type: none"> · Mehnat ta`limida og`zaki metodlarini aytib bera oladi; · Mehnat ta`limida ko`rgazmalilik metodlariga tavsif beradi; · Mehnat ta`limi, kasb tanlashga yo`llashning asosiy yo`nalishlari haqida o`z fikrini ayta oladi; |
| O`qitish usullari va texnika | Topshiriqlar, seminar ishlash usuli, Bahsmunozara, «Tasniflang» texnikasi, «Muammoli vaziyat». |
| O`qitish vositalari | Tarqatma material, kompyuterlar, doska. |
| O`qitish Shakllari | Individual, guruh. |
| O`qitish Shart-Sharoiti | Texnik vositalar bilan ta`minlangan auditoriY. |
| Monitoring va baholash | Og`zaki nazorat, savol-javob, o`z-o`zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

Seminar mashg`ulotning texnologik kartasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|--|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| Tayyorgarlik bosqichi (10 minut) | <p>(4) Ma`ruza mavzulari, ma`ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar royxatini beradi (<i>4-ilova</i>).</p> <p>(5) Ma`ruzachilarga mavzularni berishni, taqrizchilarni aniqlashtirishni tashkillashtiradi.</p> <p>(6) Ma`ruzachilarga tanlangan mavzu boyicha referat mavzusini batafsil tuzish topshirig'ini beradi, maslahat beradi.</p> <p>Barcha talabalarga ma`ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganib chiqish va savollar tayyorlab kelish topshirig'ini beradi.</p> | <p>Ma`ruzachilar mavzuni tanlaydilar va uning rejasini tuzadilar. Qolganlari ma`ruza va qo'shimcha materiallar mazmunini o'rganadilar, ma`ruzachilarga savollar tuzadilar. Ma`ruzachilar referat yozishadi va ko'rgazmali materiallar tayyorlashadi.</p> |
| 1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (Da`vat bosqichi) (10 minut) | <p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni o'tkazish rejasini ma`lum qiladi.</p> <p>1.2. Talabalarni faollashtirish uchun diqqatni jalb etuvchi savollar beradi.</p> <p>1.3. Ishga ajratilgan vaqt, munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (<i>2-3-ilovalar</i>).</p> | <p>Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.</p> <p>munozara o'tkazish qoidalari, baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadilar.</p> |
| 2-bosqich. Asosiy (Anglash bosqichi) (50 minut) | <p>2.1. Talabalarni o'zlari tayyorlagan ma`ruza va ma`lumotlar bilan tanishtirishlarini tashkil etadi. Material mazmunini mantiqan yoritib berilishini diqqat bilan kuzatadi (<i>2-3-ilovalar</i>).</p> <p>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.</p> <p>2.3. Ma`ruza mazmunini jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi:</p> <p>- taqrizchilarga o'z fikrlarini</p> | <p>Ma`ruzachilar o'zlari tayyorlagan ma`lumotlarini taqdim etishadi.</p> <p>Taqrizchilar ma`ruzaning ijobiy va kuchsiz jihatlarini aytib berishadi.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Munozarada ishtirok etadilar.</p> <p>Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma`ruza</p> |

| | | |
|---|--|--|
| | bildirishlarini, qo'shimcha savollar berishni taklif etadi; 2.4. Har bir ma`ruzaning qisqacha umumlashtirish bilan yakunlaydi. | mazmunini muhokama qiladilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (Fikrlash bosqichi) (10 minut) | 3.1. Anjuman-seminar jarayonida olingan ma`lumotlarni guruhlash maqsadida talabalarga "Tasniflang" jadvalini to'ldirishni so'raydi (<i>1-ilova</i>). 3.2. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Anjuman-seminar ma`ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, talabalarning munozaralardagi faolligini baholaydi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi (<i>2-3-illovalar</i>). | "Tasniflang" jadvalini to'ldirishadi. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar va vazifani yozib oladilar. |

1-ilova

"Tasniflang" jadvali

| Tasniflang | | |
|------------|--|--|
| 1 | Mehnat ta`limining og'zaki metodlari. | |
| 2 | Mehnat ta`limining ko'rgazmalilik metodlari. | |
| 3 | Mehnat ta`limining amaliy metodlari. | |

2-ilova

"Mehnat ta`limining umumiy metodlari" jadvalini to'ldiring


| Modellarning yo'nalishlari | Modellarni mehnat ta`limining umumiy metodlari | Modellarni modernizatsiyalashni talab etuvchi jihatlar |
|----------------------------|--|--|
| | | |

3-ilova

“Mehnat ta’limini tashkiliy shakllari” jadvalini to’ldiring

| Modellarning yo’nalishlari | Modellarni mehnat ta’limini tashkiliy shakllarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan jihatlari | Modellarni amalga oshirishni talab etuvchi jihatlari |
|----------------------------|---|--|
| | | |

4-ilova



1. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - TDPU. Toshkent., 2003. - 176 b.
2. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O’qituvchi, 1992. - 320 b.
3. Kasb ta’limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduqudusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
4. SH.S.Sharipov, A.I.Vorobyov, N.A.Muslimov, M.Ismoilova Kasbiy ta’lim pedagogikasi. - Toshkent., 2005. - 58 b.
5. Tolipov O’Q., M.Barakayev, SH.S. Sharipov Kasbiy pedagogika. – Toshkent.: 2003. – 88b.
6. Yo’ldoshev G’I S Δ Ilmonov Pedagogik texnologiya asoslari –

6-seminar. Texnologiya ta'limini rejalashtirish mavzusidagi seminar mashg'uloti ta'lim texnologiyasi modeli

| | | |
|--|---|--|
| Talabalar soni: __ | Vaqt: 2 soat | |
| Mashg'ulot Shakli | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustah-kamlashga qaratilgan seminar mashg'ulot. | |
| Mashg'ulot rejasi | 1. Rejalashtirishning maqsad va vazifalari. 2. Dars rejasi va uning bayon qilinishi. 3. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtiruvchi hujjatlar. | |
| Mashg'ulotning maqsadi: Mavzu boyicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash. | | |
| Pedagogik vazifalar | O'quv faoliyati natijalari. | |
| <ul style="list-style-type: none"> · Rejalashtirishning maqsad va vazifalari mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi; · Dars rejasi va uning bayon qilinishi boyicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni beradi; · Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtiruvchi hujjatlar haqida o'z mustaqil fikrini bayon etish va shakllantirish jarayonini tashkil etadi; | <ul style="list-style-type: none"> · Rejalashtirishning maqsad va vazifalari aytib bera oladi; | |
| | <ul style="list-style-type: none"> · Dars rejasi va uning bayon qilinishi boyicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni bajarishadi; | <ul style="list-style-type: none"> · Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtiruvchi hujjatlarni taxlili etib mustaqil fikrini bayon etadi; |
| | | |
| O'qitish usullari va texnika | Topshiriqlar, seminar ishlash usuli, Bahsmunozara, «Nima uchun» texnikasi, «Muammoli vaziyat». | |
| O'qitish vositalari | Tarqatma material, kompyuterlar, doska. | |
| O'qitish Shakllari | Individual, guruh. | |
| O'qitish Shart-Sharoiti | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriY. | |
| Monitoring va baholash | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat | |

qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Seminar mashg'ulotning texnologik kartasi

| <i>Ish jarayonlari vaqti</i> | <i>Faoliyatning mazmuni</i> | |
|---|---|--|
| | <i>o'qituvchi</i> | <i>Talaba</i> |
| I-bosqich. Mavzuga kirish. (5 minut) | 1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni "Kichik guruhlarda ishlash" orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. (1-ilova). | Mavzu nomini yozib oladilar |
| | 1.2. "Nima uchun" texnikasini guruhlariga tarqatadi, undan foydalangan holda tala-balarga "Nima uchun mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, kasb tanlashga yo'llashni rejalashtirish?" deb savol bilan murojaat qiladi. (2-ilova). Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi. | O'z fikrlarini erkin bildiradilar? Organayzerni guruhlarda to'ldiradilar. |
| | 1.3. Talabalarni fikrlarini umumlash-tirib ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. | Topshiriqlar bilan tanishadilar |
| | 1.4. Talabalarni mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova). | O'UM ga qaraydi. |
| II-bosqich. Asosiy (30 minut) | 2.1. Guruhlarga topshiriqni bajarish uchun yordam beradi. Qushimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. | Mustaqil ishlaydi. |
| | 2.2. Har bir guruh topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga chizib, taqdimotni o'tkazishda yordam beradi, izoh beradi, javoblarni umulashtiradi, xulosalaydi. | Guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruhdan jamoa sardori taqdimot o'tkazadi. |
| | 2.3. Guruhlarga «Muammoli vaziyat» uslubidan foydalanilgan holda: "Taqvimiy mavzu reja va dars rejasi qanday tuziladi?" deb savol bilan murojaat qiladi. (4-ilova). | O'z fikrlarini ortiq bildiradilar. |
